



OSIYO XALQARO
UNIVERSITETI



OSIYO XALQARO UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal

EDITION 10

2025, №10

ISSN

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

<https://scientificjournal.uz/>



**Osiyo Xalqaro
Universiteti**

“OSIYO XALQARO UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI”

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2025-yil, 10-son

Jurnal 2024-yildan chiqa boshlangan

“KAMOLOT” nashriyoti

BUXORO – 2025

Muassis: OSIYO XALQARO UNIVERSITETI

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
2024-yil 04-aprel №25-0649-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.



Bosh muharrir:

Elov Ziyodullo Sattorovich, Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent.

Jamoatchilik kengashi raisi:

Dexkanov Suxrob Sobirovich, Osiyo xalqaro universiteti rektori

Mas'ul kotib:

Sattorov Mirshod Erkinovich

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 2 oyda bir marta o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 200100, O'zbekiston Respublikasi,

Buxoro shahri Namozgoh ko'chasi 24-uy,

E-mail: sjkamolot@gmail.com

Jurnal sayti: <https://scientificjournal.uz/>



ISSN 3030-3796 e

ISSN 3060-4915 p

1936



Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir.

MUNDARIJA:

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

- 1 **O‘ZBEK VA TOJIK TILLARIDA SIYOSIY TUSHUNCHALI EVFEMALAR.** Samiyeva Surayyo Oripova. 6
- 2 **PARALLEL KORPUSLARNING TARJIMASHUNOSLIK VA TILSHUNOSLIKDAGI AHAMIYATI.** Gafarova Zumrad Zoxirjonovna 12
- 3 **ONA TILI TA’LIMIDA O‘QUVCHILARNING FONETIK, LEKSIK VA SO‘Z YASALISHIGA OID BILIMLAR ASOSIDA PRAGMATIK KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING SHAKL, USUL VA VOSITALARI.** Olloqova O‘g‘iljon Mamanazarovna 19
- 4 **СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В РАССКАЗАХ САИДА АХМАДА "ЦЕНА ОДНОГО ПОЦЕЛУЯ" И АНТОНА ЧЕХОВА "ЗЛОЙ МАЛЬЧИК".** Хасанова Шахноза Баходировна 27
- 5 **G‘AFUR G‘ULOM NASRIDA YUMOR VOSITASIDA IJTIMOIIY-TANQIDIY G‘OYANING BADIY IFODASI.** Berdiyeva Sitora Utkerovna 33
- 6 **INGLIZ VA O‘ZBEK ADABIYOTIDA KUZATILADIGAN TRAVMA KONSEPTINING BADIY ADABIYOTDAGI TALQINI** Fayzullayeva Nigina Sur‘at qizi 39
- 7 **LINGUOCULTURAL ASPECTS OF RURAL LIFE DEPICTION IN AMERICAN AND UZBEK SHORT STORIES.** Gaybulloyeva Vazirabonu Shokir qizi 49

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

- 8 **SUN‘IY INTELLEKT SAVODXONLIGINI O‘QITISH BO‘YICHA O‘N IKKI YILLIK TADQIQOTLAR (2014-2025) - TENDENSIYALAR, XULOSALAR VA PEDAGOGIK QARASHLAR.** Djalilova Zarnigor Obidovna 55
- 9 **PAREMIK JANRLARNING INNOVATSION PEDAGOGIK METODLAR BILAN INTEGRATSIYASI.** Abdurashidova Gavhar Abdurazzoq qizi 68
- 10 **BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSINI O‘TISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI.** Sayfullayeva Nozima Baxodirovna 73
- 11 **BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA KOGNITIV RIVOJLANISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI.**



	Maxmudova Nigora Hikmatovna	78
12	BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA INNOVATSION FIKRLASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRUVCHI METODLAR VA TEKNOLOGIYALAR (Astronomiya fani misolida)	
	Narzillayeva Zarnigor Muxidinovna	82
13	NUTQ KAMCHILIKLARNING TURLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH. Azimova Zebiniso Nasillo qizi	92
14	DISLALIYA NUTQ NUQSONIGA EGA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA FONETIK MASHQLARNING ROLI.	
	Sharopova Gulnoza Shaxoviddin qizi	97
15	TIBBIY KIMYO FANINI KLINIK FANLAR BILAN INTEGRATSIYALASHGAN HOLDA O‘QITISH METODIKASI.	
	Safarova Nafisa Sulaymonovna	103
16	ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБУЧЕНИЕ КАК СРЕДСТВО СТИМУЛИРОВАНИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.	
	Валиева Фарида Фаридовна	109
17	BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA MATEMATIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHDA O‘QUV TOPSHIRIQLARI TIZIMINI LOYIHALASH METODIKASI. Abdiyeva Zilola Hamdam qizi	114
18	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ И ОХРАНЫ ЗДОРОВЬЯ ГОСУДАРСТВЕННЫХ СЛУЖАЩИХ СРЕДНЕГО ВОЗРАСТА.	
	Исломов Фазила Амруллаева	124
19	UMUMIY O‘RTA TA‘LIM TIZIMIDA JISMONIY TARBIYA TA‘LIMINING PEDAGOGIK NAZORAT XUSUSIYATLARI.	
	Jumaniyozov G‘anijon Xudarganovich	129
20	YUNON-RUM KURASHI BO‘YICHA TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARNI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI.	
	Shodiyev Baxtiyor Ramazonovich	137

19.00.06 – PSIXOLOGIYA FANLARI

21	YOSHLARNI OILAGA TAYYORLASHNING DOLZARB YO‘NALISHLARI. Akramova Feruza Akmalovna	146
22	SUITSID: SABABLAR, OQIBATLAR VA IJTIMOY MUAMMO SIFATIDA. Elov Ziyodullo Sattorovich	152
23	O‘SMIRLARDA AGRESSIV XATTI-HARAKATLARNING INDIVIDUAL TARAQQIYOTGA TA‘SIRI.	160
	Ganjiev Feruz Furqatovich	



24	BO'LG'USI O'QITUVCHILAR KASBIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOPING STRATEGIYANING AHAMIYATI. Pardaqulov Norbek	168
25	ОЛИЙ ТИББИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАСИ ТАЛАБАЛАРИ ХИССИЙ-КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ. Джамалдинова Шахло Облобердиевна	175
26	MOBBING VA KIBERBULLING: ZAMONAVIY TA'LIM MUASSASALARIDA YANGI TAHIDDLAR. Azizova Dinara Rahmiddin qizi	183
27	TALABALAR AKADEMIK O'ZLASHTIRISHI SAMARADORLIGINI TA'MINLOVCHI OMILLARINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Anarboev Hayitboy Eshboy o'g'li	190
28	IRODA SOHASINING INSON RESURSI SIFATIDAGI MAZMUNI: NAZARIY YONDASHUVLAR VA RAHBARLIK FAOLIYATI TALQINI. Qalandarov Umidbek Ravshanbekovich	198
29	PEDAGOGIK FAOLIYATDAGI EMOTSIONAL ZO'RIQISHNI YENGISHNING PSIXOLOGIK MODEL. Qobilov Husniddin Norqo'chqor o'g'li	204
30	JINOYAT ISHLARIDA SUD PSIXOLOG EKSPERTI IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK KOMPETENTLIGININING NAMOYON BO'LISHI. Yarashov Azizbek Lazizovich	211
	OILAVIY MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA OTA-ONALAR VA JAMOATCHILIK FAOLIYATINI BOSHQARISH. Normirzayeva Muhayyo Olimovna	219
	BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING O'QISH MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA O'YIN FAOLIYATINING O'RNI. Ahrorova Shahrizoda Anvar qizi	226
14.00.00-TIBBIYOT FANLARI		
	ХИРУРГИЧЕСКОЕ ЛЕЧЕНИЕ АНЕВРИЗМ АРТЕРИОВЕНОЗНЫЕ СОСУДОВ ГОЛОВНОГО МОЗГА. Рахматов Карим Рахимович	232

O'ZBEK VA TOJIK TILLARIDA SIYOSIY TUSHUNCHALI EVFEMALAR



Samiyeva Surayyo Oripova

Termiz davlat universiteti

Tojik filologiyasi va sharq tillari kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya.

KIRISH: Mazkur maqolada o'zbek va tojik tillarida siyosiy tushunchali evfemalarning qo'llanishi, ularning ijtimoiy-siyosiy nutqdagi vazifalari va mazmuniy xususiyatlari yoritilgan. Evfemizm siyosiy jarayonlarni ijobiyroq talqin qilish, xalq noroziligini yumshatish va hukumat imidjini saqlash vositasi sifatida tahlil qilinadi. O'zbek tilida "optimallashtirish", "iqtisodiy islohotlar" kabi evfemizmlar keng tarqalgan bo'lsa, tojik tilida "чустучӯи кор", "мушкилоти ғизоӣ" kabi shakllar ishlatilishi qayd etiladi. Maqolada ikki tildagi evfemik birliklarning umumiylik va milliy xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinib, ularning siyosiy diskursdagi o'rni ochib beriladi.

MAQSAD: O'zbek va tojik tillarida siyosiy tushunchali evfemalarni ilmiy tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: O'zbek tilidagi siyosiy nutqda evfemizmlar ko'pincha iqtisodiy islohotlar, ijtimoiy muammolar va davlat boshqaruviga oid matnlarda uchraydi. **Narx-navo oshishi** o'rniga – **"iqtisodiy islohotlar"**, **"bozor mexanizmining shakllanishi"** deb ataladi. Bugungi nutqimizda ham xususan, O'zbekiston Respublikasining Mustaqilligi bilan bog'lik siyosiy tushunchalar evfemasi shakllangan. Bu asosan badiiy asarlarda ko'proq keltirilgan. **Misol:** Lavoizmlarda o'rnashib olgan, bir necha shaxslar mamlakat buylab esgan toza shabadani... mavsumiy bir gap deb bilardilar. Mana quyosh yuzidan parda ko'tarilib, hammayoq nurafshon bo'lgach, manbalar eshigi ham ochildi. Avliyo va anbiyolar... haqida hech qanday ma'lumotga ega emas edik gaplaridagi mamlakat buylab esgan toza shabada, quyosh yuzidan parda ko'tarilib, hammayoq nurafshon bo'lmoq iboralari mustaqillik, g'alaba tushunchalarining obrazlashtirilgan evfemik vositasidir.

XULOSA: Demak, siyosiy evfemizmlar nafaqat til hodisasi, balki jamiyatni boshqarish vositasi hamdir. O'zbek va tojik tillaridagi evfemik birliklarning o'xshashligi ularning umumiy tarixiy-madaniy ildizlari bilan izohlanadi, milliy farqlari esa har bir xalqning siyosiy va madaniy tajribasiga bog'liqdir. O'zbek va tojik tillarida siyosiy tushunchali evfemalar – tilning ijtimoiy va siyosiy vazifalarini samarali bajarishida muhim vosita hisoblanadi. Ular siyosiy jarayonlarni xalq ongida ijobiyroq qabul qilinishiga yordam beradi, ijtimoiy ziddiyatlarni yumshatadi va siyosiy nutqning odobiy mezonlarga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: evfemizm, siyosiy nutq, o'zbek tili, tojik tili, ijtimoiy-siyosiy diskurs.

ЭВФЕМЫ С ПОЛИТИЧЕСКИМ СМЫСЛОМ В УЗБЕКИСКИЙ И ТАДЖИКИСКИЙ

Самиева Сурайё Орипова

Термезский государственный университет

Преподаватель кафедры таджикской филологии и восточных языков

**Аннотация.**

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье рассматривается использование политических эвфемизмов в узбекском и таджикском языках, их функции и содержательные особенности в общественно-политическом дискурсе. Эвфемизм анализируется как средство более позитивной интерпретации политических процессов, смягчения общественного недовольства и поддержания имиджа власти. В то время как такие эвфемизмы, как «оптимизация», «экономические реформы», широко распространены в узбекском языке, в таджикском языке отмечается использование таких форм, как «жустушѐи кор», «мушкилоти базахаты». В статье проводится сопоставительный анализ общности и национальных особенностей эвфемистических единиц в двух языках, выявляется их место в политическом дискурсе.

ЦЕЛЬ: Научный анализ политических эвфемизмов в узбекском и таджикском языках.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В политическом дискурсе на узбекском языке эвфемизмы часто встречаются в текстах, посвящённых экономическим реформам, социальным проблемам и государственному управлению. Вместо роста цен это называется «экономическими реформами», «становлением рыночного механизма». В нашей сегодняшней речи, в частности, сформировался эвфемизм политических понятий, связанных с Независимостью Республики Узбекистан. Об этом говорится в основном в художественных произведениях. Пример: Некоторые люди, обосновавшиеся на должностях, считали свежий ветер, дующий по стране... сезонной поговоркой. Когда завеса поднялась с лица солнца, и всё стало светло, открылась дверь к истокам. У нас не было сведений о святых и пророках... Выражения «свежий ветер, дующий по стране», «завеса поднялась с лица солнца, и всё стало светло» являются образными эвфемистическими средствами для обозначения понятий независимости и победы.

ВЫВОД: Политические эвфемизмы — это не только языковое явление, но и средство управления обществом. Сходство эвфемизмов в узбекском и таджикском языках объясняется их общими историко-культурными корнями, в то время как национальные различия обусловлены политическим и культурным опытом каждого народа. Политически значимые эвфемизмы в узбекском и таджикском языках являются важным инструментом для эффективного выполнения социальных и политических функций языка. Они способствуют более позитивному восприятию политических процессов в общественном сознании, сглаживают социальные конфликты и обеспечивают соответствие политической речи этическим критериям.

Ключевые слова: эвфемизм, политическая речь, узбекский язык, таджикский язык, общественно-политический дискурс.

EUPHEMAS WITH POLITICAL MEANING IN UZBEKISTAN AND TAJIKISTAN

Samiyeva Surayyo Oripova

Termez State University

Lecturer, Department of Tajik Philology and Oriental Languages

Annatation.

INTRODUCTION: This article discusses the use of political euphemisms in Uzbek and Tajik, their functions and content features in socio-political discourse. Euphemism is analyzed as a means of interpreting political processes more positively, mitigating public discontent, and maintaining the image of the government. While euphemisms such as “optimization”, “economic reforms” are widespread in Uzbek, the use of such forms as “жустушѐи кор”, “мушкилоти базахаты” is noted in Tajik. The article

comparatively analyzes the commonality and national characteristics of euphemistic units in the two languages, revealing their place in political discourse.

THE GOAL: Scientific analysis of political euphemisms in Uzbek and Tajik

MATERIALS AND METHODS: In political discourse in Uzbek, euphemisms are often found in texts on economic reforms, social problems, and public administration. Instead of the increase in prices, it is called “economic reforms”, “the formation of the market mechanism”. In our speech today, in particular, a euphemism of political concepts related to the Independence of the Republic of Uzbekistan has been formed. This is mainly mentioned in works of art. Example: A few individuals who have settled in positions considered the fresh breeze blowing across the country... a seasonal saying. When the curtain was lifted from the face of the sun, and everything became bright, the door to the sources was opened. We had no information about the saints and prophets... The expressions fresh breeze blowing across the country, the curtain was lifted from the face of the sun, and everything became bright are figurative euphemistic means of the concepts of independence and victory.

CONCLUSION: So, political euphemisms are not only a linguistic phenomenon, but also a means of controlling society. The similarity of euphemisms in the Uzbek and Tajik languages is explained by their common historical and cultural roots, while national differences are due to the political and cultural experience of each people. Politically meaningful euphemisms in the Uzbek and Tajik languages are an important tool for the effective performance of the social and political functions of the language. They contribute to a more positive perception of political processes in the public consciousness, smooth out social conflicts, and ensure that political speech complies with ethical criteria.

Keywords: euphemism, political speech, Uzbek language, Tajik language, socio-political discourse.

Til jamiyat hayotining barcha jabhalarini ifodalaydigan eng asosiy ijtimoiy hodisadir. Til orqali nafaqat oddiy ma'lumot, balki ijtimoiy, madaniy va siyosiy mazmun ham yetkaziladi. Shuning uchun siyosiy jarayonlarning xalq ongida qanday qabul qilinishi ko'p jihatdan til vositalariga, xususan, evfemizmlarga bog'liqdir¹.

Ayniqsa siyosiy jarayonlar, davlat boshqaruvi va ijtimoiy-siyosiy hayotga oid tushunchalar ko'pincha maxsus til birliklari orqali ifodalanadi. Siyosiy matnlar va nutqlarda ko'plab **evfemizmlar** qo'llanadi. Evfemizm – qattiq, keskin, nojo'ya yoki salbiy taassurot uyg'otishi mumkin bo'lgan so'z o'rnida yumshoqroq, ijtimoiy jihatdan maqbulroq shakllarning qo'llanishidir.

O'zbek va tojik tillarida siyosiy tushunchali evfemalar ko'p hollarda umumiy maqsadga xizmat qiladi: xalqni ruhlantirish, siyosiy jarayonlarni bezararroq ko'rsatish, ijtimoiy norozilikni yumshatish, davlat siyosatini ijobiy talqin etish.

Evfemizm – bu qo'pol, nojo'ya yoki ijtimoiy jihatdan noqulay bo'lgan so'z va iboralarning yumshoqroq, odobliroq yoki maqbulroq shakllar bilan almashtirilishidir. Siyosiy nutqda evfemizmnining qo'llanishi xalqni ruhiy jihatdan tayyorlash, keskin qarorlarni yumshatib ifodalash va siyosiy jarayonlarni ijobiyroq taqdim etishga xizmat qiladi.

O'zbek va tojik tillarida siyosiy tushunchali evfemalarning shakllanishi tarixiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlar bilan chambarchas bog'liqdir. Har ikki tilda ham evfemizmlar davlat siyosatini oqlash, xalq noroziligini yumshatish, ijtimoiy muammolarni “yengilroq” ko'rsatish vazifasini bajaradi. Siyosiy evfemalarning nazariy asoslari asoslanib tilshunoslikda evfemizmlar ikki asosiy turga bo'linadi:

1. **Ijtimoiy-axloqiy evfemizmlar** – odobsiz yoki noqulay so'zlarning yumshatilgan shakllari².

¹ Мирзаев И. *Нутқ маданияти назарияси*. – Тошкент: Фан ва технология, 2010.

² Махмудов Н. *Ҳозирги замон ўзбек адабий тили*. – Тошкент: Фан, 2005.

2. **Siyosiy evfemizmlar** – davlat boshqaruvi, hukumat qarorlari, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bog‘liq tushunchalarni yumshatib ifodalovchi birliklar.

Siyosiy evfemizmlarning asosiy vazifalari shulardan iborat:

-**Norozilikni yumshatish**: keskin qarorlarni xalq ongiga “yumshoq” yetkazish.

-**Ijobiy kayfiyat yaratish**: iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni “optimistik” shaklda ifodalash.

-**Davlat imidjini himoya qilish**: hukumat yoki siyosiy arbob obro‘cini saqlash.

-**Axloqiy me‘yorlarni ta‘minlash**: bevosita qo‘pol so‘zlardan saqlanish.

O‘zbek tilidagi siyosiy nutqda evfemizmlar ko‘pincha iqtisodiy islohotlar, ijtimoiy muammolar va davlat boshqaruviga oid matnlarda uchraydi. **Narx-navo oshishi** o‘rniga – **“iqtisodiy islohotlar”**, **“bozor mexanizmining shakllanishi”** deb ataladi. Bugungi nutqimizda ham xususan, O‘zbekiston Respublikasining Mustaqilligi bilan bog‘liq siyosiy tushunchalar evfemasi shakllangan. Bu asosan badiiy asarlarda ko‘proq keltirilgan. **Misol**: Lavoizmlarda o‘rnashib olgan, bir necha shaxslar mamlakat buylab esgan toza shabadani... mavsumiy bir gap deb bilardilar³. Mana quyosh yuzidan parda ko‘tarilib, hammayoq nurafshon bo‘lgach, manbalar eshigi ham ochildi. Avliyo va anbiyolar... haqida hech qanday ma‘lumotga ega emas edik⁴ gaplaridagi **mamlakat buylab esgan toza shabada, quyosh yuzidan parda ko‘tarilib, hammayoq nurafshon bo‘lmoq** iboralari **mustaqillik, g‘alaba** tushunchalarining obrazlashtirilgan evfemik vositasidir. **Ishdan bo‘shatish** o‘rniga – **“mehnat shartnomasini bekor qilish”** evfemizmlari ishlatiladi. **Qashshoqlik** o‘rniga – **“ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam”** evfemizmi ishlatiladi. **Urush** o‘rniga – **“maxsus harbiy operatsiya”**, **“harbiy harakatlar”** evfemizmlari ishlatiladi. **Qamoq** o‘rniga – **“jazoni o‘tash joyi”**, **“erkinlikdan mahrum qilish”**, **“ozodlikdan mahrum etish”**, **“panjaraga tiqish”** evfemizmlari ishlatiladi⁵.

Bu evfemizmlar siyosiy matnlarda keng qo‘llanib, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi.

Tojik tilida ham siyosiy nutqda evfemizmlar ko‘p ishlatiladi. Ular ko‘pincha iqtisodiy qiyinchiliklar, ijtimoiy muammolar va siyosiy mojarolarni yumshoqroq ifodalashga qaratilgan⁶. **Бекорӣ** (ishsizlik) o‘rniga – **“чустучӯи кор”** (ish izlash), **“дарҳои боз”** (ochiq eshiklar) evfemizmlari ishlatiladi. **Гуруснагӣ** (ochlik) o‘rniga – **“мушкилоти ғизоӣ”** (ozuqaviy muammo) evfemizmlari ishlatiladi. **Ҳабс** (qamoq)⁷ o‘rniga – **“ҷазои маҳдудкунанда”**, **“аз озодӣ маҳрум шудан”**, **“бандӣ шудан”**, **“ҳабс шудан”**, **“нишастан”**, **“дарунда нишастан”**, **“панҷарада нишастан”**, **shevada “тиққондан”**, **“дам гирифтан”** evfemizmlari ishlatiladi. **Зиндонӣ сиёсӣ** o‘rniga – **“шахси бо ангеаҳои сиёсӣ боздоштшуда”**⁸ evfemizmi ishlatiladi. **Ҷанг** (urush) o‘rniga – **“муноқиша”**, **“амалиёти низомӣ”** evfemizmlari harbiy tillarda ko‘proq ishlatiladi⁹.

Mazkur evfemizmlar tojik tilidagi siyosiy matnlarda xalq kayfiyatini yumshatish, hukumat qarorlarini ijobiy talqin qilish vositasi sifatida ishlatiladi. O‘zbek va tojik tillarida siyosiy evfemizmlar mazmunan ko‘p jihatdan o‘xshashdir. Har ikkala til:

- muammoli ijtimoiy holatlarni bevosita aytmaydi, balki yumshatadi;
- siyosiy nutqda xalqning noroziligini kamaytirishga xizmat qiladi;
- davlat siyosatining ijobiy obrazini shakllantiradi.

³ Sayit Ahmad. "Jimjitlik". *G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti* 2016.

⁴ Muhammad Boqir, "Bahouddin Balogardon". Toshkent, 1993.

⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик, 3-том. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – 210-б.

⁶ Ҳошимзода С. *Сабкииносӣ ва услуби сиёсии матн*. – Душанбе: Ирфон, 2014.

⁷ Сайфиддин Назарзода (раис), Аҳмадҷон Сангинов, Саид Каримов, Мирзо Ҳасани Султон. *Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ*(ибора аз ду ҷилд).-Душанбе: Пажӯҳишгоҳи давлатии Рӯдакӣ, 2008.

⁸ Ҳусайнзода М. *Лексикаи забони тоҷикӣ*. – Душанбе: Маориф, 2007.

⁹ Саидзода Ҳ. *Забон ва сиёсат*. – Душанбе: Дониш, 2016.



Masalan, o'zbek tilidagi *"optimallashtirish"* va tojik tilidagi *"азнавсозӣ"* (qayta qurish) semantik jihatdan yaqin. Shuningdek, "urush"ning *"harbiy harakatlar"* yoki *"амалиёти низомӣ"* tarzida ifodalanishi ham ikki tildagi umumiylikni ko'rsatadi.

Biroq ayrim milliy farqlar ham mavjud. Tojik siyosiy matnlarida *"муноқиша"* (mojaro) so'zi keng ishlatilsa, o'zbek matnlarida *"keskinlik"* yoki *"ziddiyat"* shakllari ko'proq qo'llanadi.

Ma'lum muayyan bir tarixiy davr yoki uning o'zgarishi bilan bog'liq yangi falsafiy-axloqiy g'oyalar maydonga keladi. Ana shu zaruriyat yangi-yangi nutqiy birliklarning shakllanishiga sabab bo'ladi. Siyosiy tushuncha ifodalash odatda ko'proq publitsistik uslubga yuklatiladi. Biroq siyosiy publitsistik uslubda har qanday tanqidiy tushunchalarni hamma vaqt ham oshkora ifodalab bo'lmaganidan, u (biror siyosiy voqelik) ba'zan majozlashtiriladi yumshoq "yopiq" formada ifodalashga harakat qilinadi.

Bunday evfemik ifoda vositalarini siyosiy-badiiy yoki siyosiy- majoziy evfema deb atash mumkin.

Siyosiy tushunchalarni evfemalashtirish uzoq tarixga ega bo'lib, u hatto maxsus tadqiqot talab qiladi.

Siyosiy voqealarni evfemalashtirish jarayoni, ya'ni tasvirning evfemik-publitsistik usuli o'zbek va tojik adabiyotida ham davom ettirilgan.

Bundan tashqari, Tilshunos olim A.Amonturdiyev ilmiy izlanishlarida keltirilgan misollarida tasvirlangan o'zbek tilida oldinroq mustaqillikdan oldin juda aktiv qo'llanilgan ko'pgina siyosiy voqelik va tushunchalar (davlat, davlat arboblari nomi va h. k.) keyinchalik ma'lum ob'ektiv sabablarga ko'ra to'g'ridan-to'g'ri aytilmaydigan bo'ldi yoki ular evfemiklashtirila boshlandi. Boshqacha aytganda, **Sovet Ittifoqi o'rnida sobiq ittifoq, sobiq bepoyon mamlakat, qizil imperiya, "sovuq o'lka", qizil mafkura, qo'rquv saltanati, totalitar tuzum, tikanli sim ichidagi mamlakat** kabi evfemalar qo'llana boshlandi: Sovuq mamlakatdan kelganlar madaniy merosimizni olib ketdilar. Bu holda butun boshli "sovuq" o'lkalarni ayblash insofdanmi? Aslida bu ham o'sha qo'rquv saltanatining sadosi ekanligi ayon. Qayta qurish, oshkoralik va demokratiya jarayonlari "Qizil imperiya"ning po'lat zanjirlarini parchalab tashladi. Mafiya O'zbekistonga chet eldan eksport qilindimi, yoki sobiq bepoyon mamlakatdan keldimi...¹⁰ Chet elga borganimda "tikanli sim ichidagi mamlakat" haqida eshitganmiz deyishdi firma rahbarlari (teleko'rsatuvdan).

Keyingi davrda ma'lum sabablarga ko'ra ba'zi mansabdor shaxslar nomlari o'rnida **yuqoridagi, tepadagi, katta, katta boshliq, aziz mehmon, yuqori darajali mehmon, hurmatli, nozik mehmon** kabi vositalar evfemalik xarakterini yo'qotib, mohiyatan disfemalashtirilib (kinoya kesatq ma'nolarida) ishlatilmoqda:

U yoq-bu yoqqa yurib jinoyat qilmang, bu voqeadan tepaning ham xabari bor¹¹.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek va tojik tillarida siyosiy tushunchali evfemalar tilning ijtimoiy-siyosiy vazifasini samarali bajarishda muhim o'rin tutadi. Ular:

- siyosiy qarorlarni xalq ongida yumshoqroq qabul qilishga yordam beradi;
- davlat va hukumatning ijobiy obrazini shakllantiradi;
- siyosiy nutqning axloqiy me'yorlarga mosligini ta'minlaydi.

Demak, siyosiy evfemizmlar nafaqat til hodisasi, balki jamiyatni boshqarish vositasi hamdir. O'zbek va tojik tillaridagi evfemik birliklarning o'xshashligi ularning umumiy tarixiy-madaniy ildizlari bilan izohlanadi, milliy farqlari esa har bir xalqning siyosiy va madaniy tajribasiga bog'liqdir. O'zbek va tojik tillarida siyosiy tushunchali evfemalar – tilning ijtimoiy va siyosiy vazifalarini samarali bajarishida muhim vosita hisoblanadi. Ular siyosiy jarayonlarni xalq ongida ijobiyroq qabul qilinishiga yordam

¹⁰ "O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 6 yanvar, 1993.

¹¹ "O'zbekiston ovozi". 1992,7 may.



beradi, ijtimoiy ziddiyatlarni yumshatadi va siyosiy nutqning odobiy mezonlarga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Мирзаев И. *Нутқ маданияти назарияси*. – Тошкент: Фан ва технология, 2010.
2. Махмудов Н. *Ҳозирги замон ўзбек адабий тили*. – Тошкент: Фан, 2005.
3. Sayit Ahmad. "Jimjitlik". *G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti* 2016.
4. Muhammad Boqir, "Bahouddin Balogardon". Toshkent, 1993.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик, 3-том. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. –
6. Ҳошимзода С. *Сабкииноси ва услуби сиёси матн*. – Душанбе: Ирфон, 2014.
7. Сайфиддин Назарзода (раис), Аҳмадҷон Сангинов, Саид Каримов, Мирзо Ҳасани Султон. *Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ (ибора аз ду ҷилд)*. – Душанбе: Пажӯҳишгоҳи давлатии Рӯдакӣ, 2008.
8. Саидзода Ҳ. *Забон ва сиёсат*. – Душанбе: Дониш, 2016.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ][AUTHORS INFO]

Samiyeva Surayyo Oripova

Termiz davlat universiteti

Tojik filologiyasi va sharq tillari kafedrası o'qituvchisi

Manzil: O'zbekiston, Termiz shahar

surayyo2576@gmail.com

PARALLEL KORPUSLARNING TARJIMASHUNOSLIK VA TILSHUNOSLIKDAGI AHAMIYATI



Gafarova Zumrad Zoxirjonovna

Osiyo xalqaro universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikda korpus tilshunoslik (KT)ning shakllanish jarayoni, asosiy yo'nalishlari hamda parallel korpuslarning tarjimashunoslik va kompyuter lingvistikasidagi o'rni tahlil qilinadi. Korpus lingvistikasi bugungi kunda til materiallarini tizimli ravishda to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish imkonini beruvchi samarali ilmiy yo'nalish sifatida shakllangan. Maqolada KTning nazariy asoslari, shu jumladan, V. Frensis, X. Kuchera, G. Lich, D. Kristal, A.N. Baranov kabi olimlarning korpus yaratish prinsiplari hamda lingvistik tahlil metodlari haqida fikr yuritiladi. Korpus yaratish jarayonida elektron matnlar bazasini tuzish bosqichlari bosqichma-bosqich yoritilgan. Maqolada, shuningdek, parallel huquqiy korpuslarning tarjima sifati, avtomatik tarjima tizimlarini o'qitish hamda ikki tilli lug'atlar yaratishdagi ahamiyati haqida ham ma'lumot berilgan.

MAQSAD: Ushbu maqolaning maqsadi — zamonaviy tilshunoslikda korpus tilshunoslikning (KT) shakllanish jarayonini, uning nazariy va amaliy jihatlarini hamda parallel korpuslarning tarjimashunoslik va kompyuter lingvistikasidagi o'rni va ahamiyatini aniqlashdan iborat. Tadqiqotning asosiy maqsadi til materiallarini tizimli tahlil qilish orqali tarjima ekvivalentlarini, leksik va grammatik o'zgarishlarni aniqlash, shuningdek, parallel korpuslar yordamida avtomatik tarjima tizimlari va ikki tilli lug'atlar yaratish imkoniyatlarini yoritishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: Mazkur tadqiqotda korpus tilshunoslikning zamonaviy tilshunoslikdagi o'rni, ayniqsa parallel korpuslarning tarjimashunoslik va kompyuter lingvistikasidagi qo'llanilish xususiyatlari o'rganildi. V. Frensis, X. Kuchera, D. Crystal, G. Leech, A.N. Baranov, S.A. Sharov va boshqa olimlarning korpus yaratish prinsiplari va lingvistik tahlil uslublariga oid ilmiy ishlari asos sifatida tanlab olindi va deskriptiv tahlil metodidan foydalanildi.

XULOSA: Ushbu tadqiqotda parallel korpuslarning, xususan, huquqiy terminologiyani o'rganishdagi lingvistik ahamiyati chuqur tahlil qilindi. O'tkazilgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki, korpus tilshunosligi zamonaviy lingvistik tahlilning ajralmas qismi bo'lib, u nafaqat so'z chastotalarini o'lehash, balki semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlarni ham aniq aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Parallel Korpusi kabi yirik ko'p tilli resurslar tarjimashunoslik, huquqshunoslik va kompyuter lingvistikasida muhim empirik manba sifatida xizmat qiladi. Ushbu korpus rasmiy hujjatlarning ikki va undan ortiq tillardagi variantlarini taqqoslash, tarjima ekvivalentlarini aniqlash va huquqiy terminlarning qo'llanish chastotasini tahlil etish imkonini beradi. Shuningdek, tadqiqot shuni tasdiqladiki, parallel huquqiy korpuslar hujjatlar tilidagi izchillikni saqlash, tarjima sifatini nazorat qilish hamda xalqaro huquqiy me'yorlarning yagona talqinini shakllantirishda muhim rol

o'ynaydi. Ular orqali lingvistik modellarning avtomatlashtirilgan tahlilini amalga oshirish, mashina tarjimasini takomillashtirish va huquqiy atamalarni standartlashtirish imkoniyatlari yaratiladi. Umuman olganda, huquqiy terminologiyani o'rganishda parallel korpuslardan foydalanish tilshunoslikda yangi tadqiqot yo'nalishlarini ochadi. Bu esa tarjimashunoslik amaliyotini ilmiy asosda rivojlantirish, huquqiy diskursdagi ekvivalentlik va semantik aniqlikni ta'minlash hamda xalqaro huquqiy kommunikatsiyani yanada samarali qilishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: korpus tilshunosligi, parallel korpus, tarjimashunoslik, lingvistik tahlil, huquqiy terminologiya, elektron matnlar bazasi.

ЗНАЧЕНИЕ ПАРАЛЛЕЛЬНЫХ КОРПУСОВ В ПЕРЕВОДОВЕДЕНИИ И ЛИНГВИСТИКЕ

Гафарова Зумрад Захирджонова

Доцент, доктор философии (PhD) по филологии,

Азиатский международный университет

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В статье анализируется процесс становления корпусной лингвистики (КЛ) в современной лингвистике, её основные направления и роль параллельных корпусов в переводоведении и компьютерной лингвистике. Корпусная лингвистика к настоящему времени сформировалась как эффективное научное направление, позволяющее осуществлять систематический сбор, обработку и анализ языковых материалов. В статье рассматриваются теоретические основы КЛ, включая принципы создания корпусов и методы лингвистического анализа, разработанные такими учёными, как В. Фрэнсис, Х. Кучера, Г. Лич, Д. Кристал, А.Н. Баранов. Поэтапно рассматриваются этапы создания электронной текстовой базы данных при формировании корпуса. В статье также представлена информация о качестве перевода параллельных юридических корпусов, их значении для обучения систем автоматического перевода и создания двуязычных словарей. **ЦЕЛЬ:** Целью данной статьи является определение процесса становления корпусной лингвистики (КЛ) в современной лингвистике, её теоретических и практических аспектов, а также роли и значения параллельных корпусов в переводоведении и компьютерной лингвистике. Основная цель исследования – выявление переводных эквивалентов, лексических и грамматических изменений посредством системного анализа языковых материалов, а также выявление возможностей создания систем автоматического перевода и двуязычных словарей с использованием параллельных корпусов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В данном исследовании изучалась роль корпусной лингвистики в современной лингвистике, в частности, особенности применения параллельных корпусов в переводоведении и компьютерной лингвистике. За основу были взяты научные труды В. Фрэнсиса, Х. Кучеры, Д. Кристала, Г. Лича, А.Н. Баранова, С.А. Шарова и других учёных, посвящённые принципам создания корпусов и методам лингвистического анализа, а также использован метод описательного анализа.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: В данном исследовании представлен углубленный анализ лингвистического значения параллельных корпусов, в частности, при изучении юридической терминологии. Проведенное исследование показывает, что корпусная лингвистика является неотъемлемой частью современного лингвистического анализа, позволяющей не только измерять частотность слов, но и точно определять семантические, морфологические и синтаксические особенности. Согласно результатам исследования, крупные многоязычные ресурсы, такие как Параллельный корпус, служат важным эмпирическим источником в переводоведении,

юриспруденции и компьютерной лингвистике. Этот корпус позволяет сравнивать версии официальных документов на двух и более языках, выявлять переводные эквиваленты и анализировать частотность использования юридических терминов. Исследование также подтвердило, что параллельные юридические корпуса играют важную роль в поддержании единообразия языка документов, контроле качества перевода и формировании единого толкования международно-правовых норм. Они создают возможности для автоматизированного анализа лингвистических моделей, совершенствования машинного перевода и стандартизации юридических терминов. В целом, использование параллельных корпусов при изучении юридической терминологии открывает новые направления исследований в лингвистике. Это будет способствовать развитию практики переводоведения на научной основе, обеспечению эквивалентности и семантической точности в юридическом дискурсе, а также повышению эффективности международной юридической коммуникации.

Ключевые слова: корпусная лингвистика, параллельный корпус, переводоведение, лингвистический анализ, юридическая терминология, электронная база данных текстов.

THE IMPORTANCE OF PARALLEL CORPUSES IN TRANSLATION STUDIES AND LINGUISTICS

Gafarova Zumrad Zokhirjonovna

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology,
Asian International University*

Annatation.

INTRODUCTION: This article analyzes the process of formation of corpus linguistics (CL) in modern linguistics, its main directions, and the role of parallel corpora in translation studies and computational linguistics. Corpus linguistics has today been formed as an effective scientific direction that allows for the systematic collection, processing, and analysis of language materials. The article discusses the theoretical foundations of CL, including the principles of corpus creation and linguistic analysis methods of such scientists as V. Francis, H. Kuchera, G. Leach, D. Kristal, A.N. Baranov. The stages of creating an electronic text database in the process of corpus creation are covered step by step. The article also provides information on the quality of translation of parallel legal corpora, their importance in training automatic translation systems, and the creation of bilingual dictionaries.

THE GOAL: The purpose of this article is to determine the process of formation of corpus linguistics (CL) in modern linguistics, its theoretical and practical aspects, and the role and significance of parallel corpora in translation studies and computational linguistics. The main goal of the study is to identify translation equivalents, lexical and grammatical changes through a systematic analysis of language materials, as well as to highlight the possibilities of creating automatic translation systems and bilingual dictionaries using parallel corpora

MATERIALS AND METHODS: This study studied the role of corpus linguistics in modern linguistics, especially the features of the application of parallel corpora in translation studies and computational linguistics. The scientific works of V. Francis, H. Kuchera, D. Crystal, G. Leech, A.N. Baranov, S.A. Sharov and other scientists on the principles of corpus creation and methods of linguistic analysis were selected as a basis, and the descriptive analysis method was used.

CONCLUSION: This study provides an in-depth analysis of the linguistic significance of parallel corpora, in particular in the study of legal terminology. The conducted research shows that corpus linguistics is an integral part of modern linguistic analysis, which allows not only to measure word frequencies, but also to accurately determine semantic, morphological and syntactic features. According to the results of the study, large multilingual resources such as the Parallel Corpus serve as an important

empirical source in translation studies, law and computational linguistics. This corpus allows for comparison of versions of official documents in two or more languages, identification of translation equivalents and analysis of the frequency of use of legal terms. The study also confirmed that parallel legal corpora play an important role in maintaining consistency in the language of documents, controlling the quality of translation and forming a single interpretation of international legal norms. They create opportunities for automated analysis of linguistic models, improvement of machine translation and standardization of legal terms. In general, the use of parallel corpora in the study of legal terminology opens up new research directions in linguistics. This will serve to develop the practice of translation studies on a scientific basis, ensure equivalence and semantic accuracy in legal discourse, and make international legal communication more effective.

Keywords: corpus linguistics, parallel corpus, translation studies, linguistic analysis, legal terminology, electronic text database.

XXI asr tilshunosligi yangi ilmiy yoʻnalishlar, metodlar va texnologiyalar bilan boyib bormoqda. Ular orasida korpus tilshunoslik alohida ahamiyat kasb etadi. Korpus tilshunoslik — bu tilni oʻrganishda real matnlar majmuasiga, yaʼni korpuslarga tayanadigan empirik yoʻnalish boʻlib, u til tizimini tabiiy muhitda kuzatish va tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur yondashuv tilshunoslikni faqat nazariy qarashlar asosida emas, balki haqiqiy nutq namunalari orqali oʻrganishga yoʻnaltiradi. Zamonaviy tilshunoslikda korpuslarning yaratilishi va ularni tahlil qilish metodlarining rivojlanishi natijasida leksik, grammatik, uslubiy va semantik jihatlarni chuqur oʻrganish imkoniyati kengaydi. Korpus asosidagi tadqiqotlar til materiallarini miqdoriy tahlil qilish, chastota koʻrsatkichlarini aniqlash, kollokatsiyalarni oʻrganish, shuningdek, til oʻzgarishlari va variantlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda korpus tilshunoslik nafaqat nazariy tadqiqotlarda, balki amaliy sohalarida — til oʻqitish, tarjima, lugʻat tuzish, avtomatik matn tahlili, sunʼiy intellekt va kompyuter lingvistikasi kabi yoʻnalishlarda ham keng qoʻllanilmoqda. Shu boisdan korpus yondashuvi zamonaviy tilshunoslikda asosiy metodologik asoslardan biriga aylangan. Ushbu maqolada korpus tilshunoslikning zamonaviy tilshunoslikdagi oʻrni, ahamiyati va qoʻllanish sohaları tahlil qilinadi.

Parallel korpuslar tarjimashunoslik va kompyuter lingvistikasi sohalarida muhim ahamiyatga ega boʻlib, ular bir nechta tillarda moslashtirilgan matnlarni oʻz ichiga oladi. Bunday korpuslar yordamida manba va tarjima matnlari oʻrtasidagi lingvistik tafovutlar yaqqol koʻrinadi. Ular turli tillarning grammatik va leksik tizimlarini qiyosiy tahlil qilish, shuningdek, tarjima ekvivalentlarini aniqlash imkonini beradi.

Tarixan, mashinada oʻqilishi mumkin boʻlgan ilk matn korpusi — Braun korpusi — 1960-yillarda AQShda V. Frensis va X. Kuchera tomonidan yaratilgan. Ushbu korpus har biri 2000 soʻzdan iborat 500 ta matndan tashkil topgan boʻlib, u Amerika ingliz tilining oʻziga xos xususiyatlarini hamda oʻsha davrdagi eng keng tarqalgan bosma nasr janrlarini aks ettirgan. Braun korpusi nafaqat toʻplangan matnlar majmuasi, balki chastotali lugʻatlar, statistik tahlillar va boshqa lingvistik resurslarni ham oʻz ichiga olgan. Keyinchalik, uning Britaniya versiyasi — Lancaster-Oslo/Bergen (LOB) korpusi — 1985 yilda yaratildi. Ushbu korpus Braun korpusining metodologik tamoyillarini yanada rivojlantirib, korpus tilshunosligining ilmiy shakllanishida muhim bosqich boʻldi. Braun va LOB korpuslarining yaratilishi natijasida korpus tuzishning vakillik (representativlik), balans (muvozanat) va standartlashtirish kabi asosiy prinsiplari shakllandi. Ular matn tanlash va statistik tahlil boʻyicha ishlab chiqilgan metodlar orqali zamonaviy parallel korpuslarning nazariy va amaliy poydevorini mustahkamladi. Matn korpusi murakkab, koʻp qatlamli va dinamik tizim boʻlib, u nafaqat statistik tahlillar, balki chuqur lingvistik tadqiqotlar, xususan COBUILD tipidagi korpusga asoslangan lugʻatlar yaratish uchun ham muhim vosita hisoblanadi.



Ingliz tilidagi korpuslarni ishlab chiqish tajribasi butun dunyo tilshunoslarini o'z milliy tillari uchun shunga o'xshash korpuslar yaratishga undadi. Bugungi kunga kelib, jahondagi ko'pgina yetakchi tillar uchun mashinada o'qilishi mumkin bo'lgan matnlar bazasi, ya'ni milliy korpuslar shakllantirilgan. Milliy korpuslar muayyan tilning rivojlanish bosqichini aks ettiruvchi elektron matnlar to'plami sifatida qaraladi. Bunday korpuslarning asosiy metodologik talabi vakillikdir. Ya'ni ular adabiy, publitsistik, ilmiy, o'quv, biznes, dialektal va boshqa janrlarga oid yozma va og'zaki matnlar asosida tuzilishi, hamda ular mavjud til tizimining real qo'llanishiga mutanosib bo'lishi lozim.¹²

Yevropadagi korpuslar bo'yicha faoliyatlarni muvofiqlashtirish maqsadida 1992 yilda Yevropa Korpus Tashabbusi (ECI – European Corpus Initiative) tashkil etildi. Bu tashabbus doirasida 40 dan ortiq til uchun 50 ga yaqin korpus yaratilgan bo'lib, ularning hajmi 12 mingdan 5 million so'zgacha bo'lgan. Loyiha ikki asosiy maqsadni ko'zlagan: birinchisi – imkon qadar ko'proq tillar uchun parallel korpuslar ishlab chiqish; ikkinchisi – qiyosiy lingvistik tahlillar uchun parallel korpuslarni yaratish edi.

Parallellikka erishish uchun korpus katta hajmga – ko'pincha millionlab so'z birliklariga ega bo'lishi kerak. Milliy korpuslar mazmun va tahliliy murakkablik jihatdan farqlanadi. Britaniya Milliy Korpusi (British National Corpus), masalan, 100 million so'zdan iborat bo'lib, uning 90 millioni yozma matnlarga, 10 millioni esa og'zaki nutqqa tegishli.¹³ Ushbu korpus boshqa milliy loyihalar uchun metodik namuna bo'lib xizmat qilgan.¹⁴

Rus tili uchun yaratilgan parallel korpuslardan biri Finlandiyaning Uppsala universitetida ishlab chiqilgan. Uppsala korpusi taxminan 1 million so'zdan iborat bo'lib, 1960–1988 yillarga oid adabiy matnlar va 1985–1988 yillar orasidagi axborot nasrini qamrab olgan.¹⁵ Ushbu turdagi korpuslar, turli tillarda yaratilganidek, tilshunoslarning terminologiyani modellashtirish, mashina tarjimasini tizimlarini takomillashtirish, yoki chet tillarini o'qitish kabi amaliy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Maxsus vazifalarga xizmat qiluvchi ixtisoslashtirilgan korpuslar ham rivojlanib bormoqda. Bu korpuslar ma'lum bir sohadagi matnlar to'plamidan tashkil topib, aniq tadqiqot maqsadlariga qaratilgan. Ular, odatda, umumiy til parallellik talablarini bajarmaydi, balki tor yo'nalishdagi so'z birikmalari va terminlar asosida tuziladi. Bunday korpuslar bilan ishlashda ikki muhim jihat e'tiborga olinadi: birinchidan, ular cheklangan vakillikka ega bo'lishi mumkin; ikkinchidan, faqatgina ularning yaratilish maqsadiga mos holda ishlatilishi lozim.¹⁶

Parallellik mezonlari korpusning muayyan sohani qamrab olish darajasini va tadqiqot natijalarining butun bu soha bo'yicha umumlashtirilishi mumkinligini belgilaydi. Ushbu tadqiqotda taqdim etilgan korpus yurisprudensiyaning konseptual sohasiga, xususan bolalar huquqlari va farovonligini himoya qilishga bag'ishlangan bo'lib, huquqiy terminologiyani aks ettiradi.

Huquq sohasidagi tarjimon ishining tarkibiy qismlaridan biri elektron shakldagi terminologik lug'atlardir. Yoshlar adolati sohasida bunday ixtisoslashtirilgan lug'atlar yaratish uchun material sifatida parallel huquqiy matnlar korpusi, xususan BMTning bolalar huquqlari va farovonligiga oid parallel matnlar korpusidan foydalanish mumkin.

Har bir matn original bo'lgani uchun, tadqiq qilinayotgan korpusda tilga o'rnatilgan va so'zlashuvchilar tomonidan tushuniladigan atamalar va barqaror terminologik birikmalar mavjud degan

¹² Шаров С. А. К созданию представительного корпуса современного русского языка: [Электрон, ресурс] // Труды Международной конференции «Диалог, 2003», Протвино, 11-16 июня 2003 г.

¹³ Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. — Cambridge; New York: Cambridge Univ. Press, 1995. — VII, 489 p.

¹⁴ Leech G. A Brief Users' Guide to the Grammatical Tagging of the British National Corpus. 1997: [Электрон, ресурс] <www.hcu.ox.ac.uk/BNC/what/gramtag.html>

¹⁵ Рыков В. В. Прагматически ориентированный корпус текстов // Тверской лингвистический меридиан. - Тверь, 1999. - Вып. 3. - С. 89-96. Тоже: [Электронный ресурс] <<http://rykov-cl.narod.ru/t.html>>

¹⁶ Баранов А. Н. Автоматизация лингвистических исследований: Корпус текстов как лингвистическая проблема // Русистика сегодня. – 1998. – №1/2. – С. 179-191.

xulosaga kelish mumkin. Binobarin, bu atamalar standartlashtirilgan, tavsiya etilgan va mustahkam o'rnatilgan hisoblanadi.¹⁷ Bu holat korpus bo'yicha terminologik tadqiqot olib borishda va elektron ma'lumotlar bazasini yaratishda alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ijtimoiy fanlar terminlari va ijtimoiy-siyosiy lug'atni qat'iy ajratish, ayniqsa axborot tillarini ishlab chiqish va axborot-qidiruv tizimlarini yaratish uchun muhimligi hisobga olinadi.¹⁸

Parallel matnlar korpusini tahlil qilish tartibi avtomatlashtirilgan va qo'lda bajariladigan maxsus operatsiyalarni o'z ichiga oladi.

Avtomatlashtirilgan rejimda quyidagi vazifalar bajariladi:

- Matnlarning eksperimental mashina tarjimasini (inglizcha-ruscha);
- Har bir alohida korpus uchun chastotali va alifbo-chastotali lug'atlar tuzish;
- Har bir alohida korpus va parallel korpuslar uchun konkordansiyalar yaratish.

BMT Parallel Korpusining shakllantirilishi BMTning ko'p tillilik tamoyilini ilgari surish yo'lidagi sa'y-harakatlarining tarkibiy qismidir. Ushbu tashabbus Tashkilotning Bosh Assambleyasi huzuridagi Konferensiyalarni boshqarish departamenti (DGACM) tarjima xizmatlari bilan hamkorlikda amalga oshirilgan. Korpusni yaratishda ayniqsa Tapta4UN nomli maxsus ishlab chiqilgan statistik mashina tarjimasini (SMT) tizimidan foydalanilgan. Bu esa tilni avtomatik qayta ishlash, tarjima sifatini oshirish va turli tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) vazifalarini amalga oshirish uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Parallel korpusning asosiy vazifasi – foydalanuvchilarga ko'p tilli rasmiy hujjatlar bilan ishlash imkonini berish, matnlararo qidiruvni yengillashtirish hamda mashina tarjimasini, semantik tahlil, tilga oid modellashtirish kabi yo'nalishlar uchun sifatli ma'lumotlar bazasini ta'minlashdir. Korpusda mavjud bo'lgan hujjatlar har bir rasmiy til uchun alohida kataloglar asosida tashkil etilgan bo'lib, ularning ichida hujjatlar yil va nashr nomi bo'yicha ajratilgan. Bunday tizim foydalanuvchiga istalgan hujjatni tezda topish va boshqa tillardagi ekvivalent matnini aniqlash imkonini beradi.

Parallel huquqiy matnlar korpusi — o'zaro moslashtirilgan manbalar majmuasi bo'lib, unda birliklar to'liq matnlar yoki mazmunan muhim fragmentlardan tashkil topadi. Ushbu korpus ingliz va rus tillaridagi, ona tilida so'zlashuvchilar uchun tabiiy va barqaror terminologik birikmalarni o'z ichiga oladi. So'z va ibora darajasida tekislashtirish jarayoni, jummalarni segmentlarga ajratish bilan birga, parallel matnlar tarkibida huquqiy terminlar va ularning tarjima ekvivalentlarini aniqlash imkonini beradi. Har bir alohida korpus uchun chastotali va alifbo-chastotali lug'atlar, shuningdek parallel konkordansiyalar ishlab chiqish atamalarining mustaqil qo'llanilishi va ibora tarkibidagi misollarini tizimli tahlil qilish imkonini beradi.

Parallel korpus bilan ishlash metodologiyasi bosqichma-bosqich jarayon sifatida tasavvur etilishi lozim: avvalo, manba matnlar mazmuniy jihatdan muhim fragmentlarga ajratiladi, so'ng paragraf va gap darajasida tekislashtiriladi, undan keyin so'z va ibora darajasida tekislashtirish amalga oshiriladi. Har bir alohida korpus doirasida chastotali va alifbo-chastotali lug'atlar tuziladi, parallel konkordansiyalar tayyorlanadi, eksperimental mashina tarjimasini o'tkazilib, natijalar qiyosiy leksik-semantik tahlilda baholanadi. Ushbu mexanizm atamalar va barqaror terminologik birikmalarni aniqlash, ularning tarjima ekvivalentlarini tekshirish, strategiyalarni modellashtirish va tarjima jarayonini optimallashtirish imkonini beradi. Shu tarzda yaratilgan ma'lumotlar bazasi tarjimon ish stansiyasiga integratsiyalashganda, maqsadli iboralar misollari avtomatik tarzda olinib, huquqiy hujjatlarni tarjima qilishga sarflanadigan vaqt qisqaradi.

Shunday qilib, Korpus tilshunoslik zamonaviy tilshunoslik fanining eng dinamik rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri bo'lib, turli tillar o'rtasidagi grammatik, leksik va semantik o'xshashlik hamda

¹⁷ Беляева, Л. Н., А. С. Герд, и И. И. Убин. «Автоматизация в лексикографии» *Прикладное языкознание*. Под ред. А. С. Герда, Санкт-Петербург: Изд-во Санкт-Петербургского университета, 1996. – С.319.

¹⁸ Герд, А.С., редактор. *Прикладное языкознание*. Санкт-Петербург: Издательство Санкт-Петербургского университета, 1996.

tafovutlarni aniqlash, tarjima ekvivalentlarini belgilash va mashina tarjimasi tizimlarini takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi. Umuman olganda, korpusga asoslangan yondashuv, xususan parallel korpuslar bilan ishlash metodologiyasi, tilshunoslikni yangi bosqichga olib chiqmoqda. U nazariy tadqiqotlar bilan bir qatorda tarjima amaliyotida, sun'iy intellekt va NLP texnologiyalarida samarali natijalar berayotgan fundamental ilmiy yo'nalishdir. Shu boisdan, korpus tilshunoslikning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, milliy va xalqaro miqyosda ixtisoslashgan parallel korpuslar yaratish zamonaviy lingvistikaning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Шаров С. А. К созданию представительного корпуса современного русского языка: [Электрон, ресурс] // Труды Международной конференции «Диалог, 2003», Протвино, 11-16 июня 2003 г.
2. Gauch S. A Coфus Analysis Approach for Automatic Query Expansion and Its Extension to Mltiple Databases// ACM Transactions on Information Systems. – 1999. – Vol. 17. – P. 250-269.
3. EAGLES:[Электронресурс]www.ilc.pi.cnr.it/EAGLES96/coфustyp/corpuftyp.html
4. Gauch S. A Coфus Analysis Approach for Automatic Query Expansion and Its Extension to Multiple Databases// ACM Transactions on Information Systems. – 1999. – Vol. 17. – P. 250-269
5. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. — Cambridge; New York: Cambridge Univ. Press, 1995. – VII, 489 p.
6. Leech G. A Brief Users' Guide to the Grammatical Tagging of the British National Corpus. 1997: [Электрон, ресурс] www.hcu.ox.ac.uk/BNC/what/gramtag.html
7. Рыков В. В. Прагматически ориентированный корпус текстов // Тверской лингвистический меридиан. - Тверь, 1999. - Вып. 3. - С. 89-96. Тоже: [Электронный ресурс] <http://rykov-cl.narod.ru/t.html>
8. Баранов А. Н. Автоматизация лингвистических исследований: Корпус текстов как лингвистическая проблема // Русистика сегодня. – 1998. – №1/2. – С. 179-191.
9. Беляева, Л. Н., А. С. Герд, и И. И. Убин. «Автоматизация в лексикографии» *Прикладное языкознание*. Под ред. А. С. Герда, Санкт-Петербург: Изд-во Санкт-Петербургского университета, 1996. – С.319.
10. Герд, А.С., редактор. *Прикладное языкознание*. Санкт-Петербург: Издательство Санкт-Петербургского университета, 1996.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Gafarova Zumrad Zoxirjonovna

Osiyo xalqaro universiteti

“Xorijiy til va ijtimoiy fanlar” kafedrasi mudiri, f.f.f.d., dotsenti

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

zumradgafarova8668@gmail.com

ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING FONETIK, LEKSIK VA SO'Z YASALISHIGA OID BILIMLAR ASOSIDA PRAGMATIK KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING SHAKL, USUL VA VOSITALARI



Olloqova O'g'iljon Mamanazarovna
Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya.

KIRISH: Insoniyat tafakkurining oliy mahsuli sifatida ta'riflanishga haqli bo'lgan badiiy ijod (badiiy matn) tilning imkoniyatlari, qudrati va nafosatini namoyon qiluvchi estetik hodisa sanaladi, ya'ni u o'ziga xos estetik vazifa bajaradi. "Tilning bu vazifasi (estetik vazifasi) faqat badiiy asardagina namoyon bo'lmaydi. Bizning diqqatimiz jumlaning shakliga, fikr qay tarzda ifodalanganligiga qatarilgan har onda biz aynan shu vazifaning harakati doirasiga kiramiz. Tilning estetik vazifasi, albatta, so'zlashuv nutqida ham doimiy ravishda namoyon bo'ladi.

MAQSAD: Ona tili ta'limida o'quvchilarning fonetik, leksik va so'z yasallishiga oid bilimlari asosida matnlarni tahlil qilishga o'rgatish va shu asosida ularning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish.

MATERIAL VA METODLAR: Ushbu tadqiqotda maktab darsliklari va nazariy adabiyotlarni tahlil qilish, so'rovnomalar, suhbat va kuzatish metodlari, shuningdek, ona tili dasturlari tahlili asosida ma'lumotlar to'plandi va umumlashtirildi. Empirik material sifatida kuzatilgan ona tili darslaridan, ona tili o'qituvchilar bilan olib borilgan suhbatlardan va mavjud ilmiy tadqiqotlardan foydalanildi.

XULOSA: Bugun ta'lim maskanlarida ona tili ta'limini yangi bosqichga – tilni tizimli o'rganish bosqichiga ko'tarish, imloviy-uslubiy savodxonlikni o'stirish, ularda nutqiy, lingvistik, pragmatik kompetensiyani shakllantirish hamda shu asosda og'zaki va yozma shakllardagi kompetentlikni ta'minlash dolzarb hisoblanmoqda. Tilning, uning tabiati va imkoniyatlarining to'laqonli yuzaga chiqishi badiiy matn orqali amalga oshadi. Matn yaratilishida shaxsning kognitiv faoliyatini tadqiq etish o'zbek mentalitetiga xos fikrlash tarzini ham chuqurroq yoritishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kompetensiya, pragmatik kompetensiya, matn, badiiy matn, matn tahlili, fonetik tahlil, leksik tahlil.

ФОРМЫ, МЕТОДЫ И СРЕДСТВА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАГМАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ЗНАНИЙ ПО ФОНЕТИКЕ, ЛЕКСИКЕ И СЛОВООБРАЗОВАНИЮ В ПРЕПОДАВАНИИ РОДНОГО ЯЗЫКА

Оллокова Угилжон Мамоназаровна,
Преподаватель Азиатского международного университета

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: Художественное творчество (художественный текст), справедливо определяемое как высшее проявление человеческого мышления, является эстетическим явлением, демонстрирующим возможности, силу и изящество языка, то есть выполняет особую эстетическую функцию. «Эта функция языка (эстетическая) проявляется не только в художественном произведении. Всякий раз, когда наше внимание сосредоточено на форме предложения, на том, каким образом выражена мысль, мы находимся в сфере действия именно этой функции. Эстетическая функция языка, безусловно, проявляется и в разговорной речи, но не является в ней ведущей; в художественных текстах же язык всегда выступает именно в этом своем особом качестве. Эта функция, разумеется, не ограничивает коммуникативную функцию языка, присущую всем его формам, а трансформирует её в особом виде».

ЦЕЛЬ: Предложить рекомендации по совершенствованию прагматической компетенции учащихся на основе обучения анализу текстов, связанных с фонетическими, лексическими и словообразовательными знаниями в процессе преподавания родного языка.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В данном исследовании использованы анализ школьных учебников и теоретической литературы, анкетирование, беседа и наблюдение, а также анализ программ по родному языку. Эмпирический материал собран на основе наблюдений уроков родного языка, бесед с преподавателями и изучения существующих научных исследований.

ВЫВОДЫ: Сегодня актуальной задачей системы образования является переход преподавания родного языка на новый этап — этап системного изучения языка, развитие орфографической и стилистической грамотности, формирование у учащихся речевой, лингвистической и прагматической компетенции, а также обеспечение их устной и письменной компетентности. Полноценное проявление природы и возможностей языка осуществляется через художественный текст. Изучение когнитивной деятельности личности в процессе создания текста способствует более глубокому раскрытию особенностей мышления, свойственных узбекскому менталитету.

Ключевые слова: компетенция, прагматическая компетенция, текст, художественный текст, анализ текста, фонетический анализ, лексический анализ.

FORMS, METHODS, AND MEANS OF IMPROVING STUDENTS' PRAGMATIC COMPETENCE BASED ON KNOWLEDGE OF PHONETICS, LEXIS, AND WORD FORMATION IN MOTHER TONGUE TEACHING

Olloqova O'g'iljon Mamanazarovna,
Lecturer, Asian International University

Annatation.

INTRODUCTION: Artistic creativity (literary text), which rightfully deserves to be described as the highest product of human thought, is an aesthetic phenomenon that reveals the richness, power, and beauty of language – in other words, it performs an aesthetic function. “This function of language (its aesthetic function) is not manifested only in literary works. Every time our attention is drawn to the form of a sentence or the way a thought is expressed, we enter the sphere of this very function. Although the aesthetic function also operates in spoken language, it is not dominant there; in artistic texts, however, language always performs precisely this distinctive function. This function, of course, does not limit the communicative role of language inherent in all its forms but rather transforms it in a unique way.”

THE GOAL: To provide recommendations for improving students' pragmatic competence through the analysis of texts based on their knowledge of phonetics, vocabulary, and word formation in the process of mother tongue instruction.



MATERIALS AND METHODS: The research is based on the analysis of school textbooks and theoretical sources, as well as surveys, interviews, and classroom observations. Data were collected through the analysis of native language curricula, classroom monitoring, teacher interviews, and review of relevant scientific research.

CONCLUSION: Today, it is essential to elevate the teaching of the mother tongue to a new stage – that of systematic language study, the development of orthographic and stylistic literacy, and the formation of students' speech, linguistic, and pragmatic competence, thereby ensuring proficiency in both oral and written forms. The full realization of a language's nature and potential occurs through the literary text. Studying the cognitive activity involved in text creation helps to more deeply illuminate the patterns of thinking characteristic of the Uzbek mentality.

Key words: competence, pragmatic competence, text, literary text, text analysis, phonetic analysis, lexical analysis.

Tilshunos olim A.Nurmonov o'zining "Tilshunoslik va tabiiy fanlar" nomli risolasida badiiy nutqni o'rganuvchi lingvistik poetikani til sistemasining barcha sath birliklarining badiiy-estetik funksiyasini qamrab olishini ta'kidlab, shunday yozadi: "... Fonetik-fonologik sathda fonetik birliklar ham badiiy-estetik vazifa bajarishi mumkin. Xususan, bir xil tovushlarning, bir xil bo'g'inlarning takrorlanishi she'riyatda go'zallikni, ta'sirchanlikni ta'minlovchi vosita sanaladi" [8, 62]. Darhaqiqat, bir xil tovushlarning takrori tilshunoslik nuqtayi nazaridan *alliteratsiya* til hodisasi sifatida o'rganilsa, xuddi shu hodisani adabiyotshunoslik fanida *tavze* 'san'ati deb o'rganilishi barchamizga ma'lum.

Olim fikrlarini quyidagicha davom ettiradi: "Leksik sathda leksemalarning ko'chma ma'nolarda qo'llanilishi (metafora, metonomiya va boshqalar) mubolag'a, meyozi kabi hodisalar ham ta'sirchanlikni oshiradi va lingvopoetika (LP)ning tekshirish obyekti sanaladi. Shuningdek, gap bo'laklarining o'rganilishi, gap tarkibida bir xil bo'laklarning takrorlanishi kabi hodisalar ham badiiy nutqni shakllantirishda xizmat qiladi". Tilshunos olim mazkur fikrlarini shunday xulosalaydi: "LP tilning qaysi sath birligining badiiy estetik funksiyasini o'rganishiga qarab, fonetik poetika (FP), leksik poetika (LP), sintaktik poetika (SP) kabi qismlarga bo'linadi" [8, 62].

Lingvopoetikaning yuqorida sanalganlarning qaysi bir qismi bo'lmasin, til-adabiyot ta'limi jarayonida o'zaro aloqadorlik (integratsiya)ni ta'minlab, o'z o'rnida davomli tarzda murojaat qilinsa, tilga oid nutqiy, lingvistik, kreativ, pragmatik kompetensiyalarni shakllantirish, rivojlantirish tez, oson va samarali kechadi.

"Pragmatika tinglovchini uzatilayotgan axborotni xuddi so'zlovchi istaganidek qabul qilishga undash maqsadi uchun mos keladigan lisoniy birliklarning kommunikatsiyada qo'llanishini tavsiflaydi. Bu pragmatika lisoniy vositalarning shaxslararo muloqotdagi rolini aniqlash bilan shug'ullanadi, deyish demakdir" [11, 26].

Adabiyot darsligining Usmon Nosir hayotiga bag'ishlangan qismida quyidagi ma'lumot bor: *Usmon Nosir 1944-yilning mart oyida Rossiyaning Kemerovo viloyatidagi mahbuslar lagerida vafot etdi* [1, 20]. Gapdagi uch so'zni o'quvchilar ko'p hollarda xato yozadilar: *Rassiya, Kemero'va, lagir (lagr)*. O'zlashgan so'zlarda ko'p uchrashiga qaramay ona tili darsligida bu kabi so'zlar talaffuzi va imlosi ta'rif qilinmagan. Pedagog fanning o'ziga xos jihatlarini e'tiborga olib, xususiy-metodik prinsiplarini ham nazardan chetda qoldirmasligi zarur. Bu xususida E.G.Azimov va A.N.Shukinlar o'z fikrlarini bildirib, "o'qitish prinsiplarining tizimi ochiq bo'lib, unga yangi prinsiplarning qo'shilishi hamda yangilanib turish imkoniyati borligini" [3, 134] ta'kidlashgan. O'quvchilar daftariga bu haqida yuqorida keltirilgan darslikda keltirilmagan qoida yozdirib qo'yiladi, qoidaga doir so'zlar misol qilinadi: *Moskva, London, Kemerovo, Topolino* (qishloqlar nomi), *Chippolino* (ertak qahramoni). Shuningdek, xuddi *traktor, direktor* so'zlarining oxirgi bo'g'inidagi unli qisqa *i* kabi yoki umuman talaffuz qilinmaganday eshitilsa ham, *o* yozilavergani kabi *lager* so'zining ikkinchi bo'g'inidagi *e* unlisi eshitilmaganday yoki *i* unlisi

kabi tuyulsa ham, *e* yozilaveradi. Talaffuz va imlo me'yorlari bu kabi farqlanadigan va tipik bo'lmagan, ya'ni unchalik ko'p uchramaydigan so'zlarni shu kabi qiyos bilan o'rganish yaxshi samara beradi.

Mirtemirning "Bulut" she'rida:

Ko'k yuzida dam qaldiraq, dam sukut,

Yog'may o'tma, pag'a bulut – oq bulut [1, 27].

misralaridagi *sukut* va *bulut* so'zlari hamda

"Qishlog'im" she'rida:

Qishlog'im, nechog'liq suluvsan bugun,

Yashilga burkanib, yashnabsan shuncha.

Nechog'liq to'kissan, nechog'liq to'kin,

Meni o'rab oldi xayol, tushuncha...

Agar so'ygan bo'lsa kecha bo'rdoqi,

Qozonda qovurdoq, o'rtada ko'za.

Yo qimiz suzilur, yo achchiq bo'za,

Agar so'ygan bo'lsa uloq yo qo'zi [1, 29].

misralaridagi *bugun*, *tushuncha*, *qovurdoq* kabi so'zlar ikkinchi bo'g'indagi *u* tovushi orfoepik me'yorga ko'ra *i* eshitiladi, lekin *u* yoziladi. Mazkur qolipga tushadigan so'zlar tilimizda talaygina. Darslikda bu kabi qoida mavjud bo'lmagani bois, o'quvchilar daftariga uni yozdirib qo'yish maqsadga muvofiqdir. She'riy parchaning oxirgi ikkinchi misrasida *suzilur* fe'li darslikda keltirilgan "...birinchi bo'g'inida lablashgan *u* unlisi ta'sirida ikkinchi bo'g'indagi *i* unlisi *u* holida talaffuz qilinsa ham, yozuvda *i* yoziladi" [7, 135] qoidasiga tushadi. Qoidalarga ifodasi va ma'nosi zid so'zlarning bir she'r misralarida kelganligi o'zaro qiyoslash orqali ularni bir-biridan farqlashga yordam beradi, ayni paytda eslab qolishni ham osonlashtiradi. O'qituvchi diktantni ikki xil usulda yozdirishi mumkin: birinchisi, shu so'zlar ishtirok etgan she'r bo'lagini aynan eshittirib yozdiradi; ikkinchisi, o'quvchilar xatoga yo'l qo'yishi ehtimoli yuqori bo'lgan bu so'zlarni ajratib olib, ular ishtirokida gaplar tuzdirishi yozdirishi kerak bo'ladi. O'qituvchi ikkinchi usul – xatolar ustida ishlashdan oldin, albatta, she'rni ham o'qib yoki o'qitib eshittirishi lozim. So'ng mashg'ulot davomida shu so'zlar yoki ularning muqobili bo'lgan boshqa so'zlar yordamida gaplar tuzish topshirig'i beriladi. So'zlarni aynan keltirmay, ularning muqobili bo'lgan boshqa so'zlarni topib gap tuzgan o'quvchilar alohida rag'batlantirilishi juda zarur. Masalan, gap tuzganda yuqoridagi so'zlar bilan birga talaffuzi va imlosi bir xil bo'lgan *tutun*, *gugurt*, *cho'zilur*, *qulun* kabi so'zlarni qo'llagan o'quvchilarda bu boradagi savodxonlik ko'nikmalari shakllana boshlaganidan darak beradi. Shuningdek, O'tkir Hoshimov, "Dunyoning ishlari" qissasidan "*Darvozaga yaqin kelishim bilan ichkaridan – hujra tomonidan tilovat sadosi eshitildi*" [1, 54] (qoida: so'zlarning birinchi bo'g'inida *r*, *l* undoshlaridan oldin kelgan *i* unlisi bilinar-bilinmas talaffuz qilinsa ham, yozuvda *i* unlisi bilan yoziladi); "*Keyin gap boshqa yoqqa aylanib ketdi. Bu suhbatni butunlay unutilib yuborgan edim*" [1, 59] (biz tomondan tavsiya etilgan qoida: *Quvur*, *ovunmoq*, *chuchuk*, *duduq*, *bugun*, *gujum* kabi so'zlarda ikkinchi bo'g'indagi *u* undoshi *i* tarzda aytiladi, lekin *u* yozilaveradi); E.Vohidovning "Nido" dostoni haqidagi "*Shuning uchun* (biz tomondan tavsiya etilgan yuqoridagi qoida) *ham yuragida odamzodga mehr-muhabbat bo'lgan har qanday inson urushni* (Ona tili darsligidagi tegishli qoida [7, 135], *qattiq qoralagan*, *hamisha unga qarshi chiqqan* [2, 14]) jumlasini; Nodar Dumbadze hayoti haqidagi "*Yozuvchining bu asarlarida Ikkinchi jahon urushi* (Ona tili darsligidagi tegishli qoidalar) *yillarida gruzin qishloqlaridagi og'ir va mashaqqatli hayot manzaralari, bir-biriga o'xshamaydigan taqdir egalari obrazi* (biz tomondan tavsiya etilgan qoida: *o* harfi *tonna*, *noyabr* kabi so'zlarda *o* aytilsa ham, *o* yoziladi) *yorqin aks ettirilgan* [2, 157] fikr; Asqad Muxtor hayotiga oid "*O'nlab nasriy, she'riy asarlarning muallifi* (darslikdagi qo'sh undoshlar talaffuzi va imlosi mavzusi), *qadimgi Yunoniston, Hindiston, Ukraina* (darslikdagi qator kelgan unlilar talaffuzi va imlosi mavzusi) va *Rossiya* (yuqoridagi biz taklif etgan qoida) *adabiyotining mashhur namoyandalari asarlarining tarjimoni, bir nechta sahna*

asarlarini yaratib, o'zbek teatri (darslikdagi qator kelgan unlilar talaffuzi va imlosi mavzusi) *ravnaqi uchun ham ko'p xizmatlar qilgan atoqli o'zbek yozuvchisi bo'ladi Asqad Muxtor*" [2, 38] jumalardagi ajratib ko'rsatilgan so'zlar ustida yuqoridagi kabi tahlillar amalga oshiriladi.

Leksikologiya bo'limi joriy dasturga ko'ra, til fanining asosiy kursi tizimida 5-sinfda o'qitiladi. Bu bo'limda olingan bilimlar o'rni bilan adabiyot darslarida o'rganilayotgan badiiy matnni o'rganish, tahlil qilishda g'oyat muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Leksikologiya bilan adabiyotning umumiy tomoni bor, u ham bo'lsa ikkisinin o'rganish obyektida so'z turadi. Adabiyot leksik birliklarning shakl va ma'no munosabatlaridan istifoda etib, san'at darajasiga ko'tarilsa, leksikologiya obyekti bo'lgan so'zning to'laqonli imkoniyatlari, kuchi va jozibasi, asosan, adabiyot orqali bo'y ko'rsatadi. Bu jihatlar og'zaki nutqda namoyon bo'lgan taqdirda ham so'zlovchining badiiy so'z imkoniyatlariga ergashishi o'laroq izohlanadi. Fransuz tilshunosi J.Vandries: "So'z bizning ongimizga hech qachon yolg'iz holda kirmaydi. Hatto bir so'z bir ma'nosi bilan bizning ongimizda ishtirok etganda ham bu so'z nozik iplar bilan bog'langan, ammo soyada qolayotgan boshqa juda ko'plab tushuncha va emotsiyalar har daqiqa ongimizga bostirib kirishga tayyor holda turadi. Tafakkur orqali idrok qilinadigan so'zlar bizning aqliy va hissiy hayotimiz bilan uzviy bog'liq bo'ladi", deb aytganda so'zning imkoniyatlari kontekstda voqelanishini ta'kidlash bilan birga uning pragmatikasiga ham ishora qiladi. Ona tili va adabiyot predmetlari integratsiyasi bir tomondan adabiyot darslarida til qoidalarini takrorlash, mustahkamlashga yo'l ochadi, ikkinchi tomonidan, so'zning pragmatik imkoniyatlarini badiiy matn vositasida amaliy ochiqqlanishiga imkon yaratadi.

Usmon Nosirning "Oq yuvib, oq tarab..." she'ri izchil, ijodiy fikrlashga chorlovchi savollar vositasida tahlil qilinadi, o'quvchilarning kontekstual pragmatik tahlil qilish qobiliyati shakllantiriladi. Savol-javob vositasida sarlavhaning pragmatik ma'nosi yoritiladi: otasidan go'dakligidayoq ayrilgan shoir yetimlik dog'ini bilintirmay ardoq bilan o'stirgan, yemay yedirgan va kiymay kiydirgan onasini Samarqanddan yo'qlab yozgan she'riy maktubiga "oq" so'zining ko'chma semalariga asoslanib "Oq yuvib, oq tarab..." nomli sarlavha qo'yan. Ayni paytda atash ma'nosiga ko'ra ma'nodoshi bo'lmagan "oq"ning ko'chma ma'noda ikki va undan ortiq ma'nodoshi yuzaga kelganligiga o'quvchilar e'tiborini qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Sarlavha ustida qilingan ushbu kichik "tadqiqot" she'r matni bilan ishlash strategiyasini belgilab beradi va o'quvchilar poetik yuk tashiyotgan so'zlar bilan ishlash haqida tasavvurga ega bo'ladi.

O'quv jarayonini mazmunli tashkil qilishga va kommunikativ vaziyatli mashqlarni tanlab maqsadli foydalanish pedagog uchun muhim. Y.I.Passovning fikricha, vaziyat "o'quv jarayonini amalga oshirishning universal shakli hamda nutq vositalarini tashkillash usuli, ularni taqdim etish usuli, nutqiy faoliyatni motivlashtirish usuli, nutqiy malakalarni shakllantirish va ko'nikmalarni rivojlantirishning asosiy shartidir" [9, 74]. Vaziyatlilik prinsipi yetakchi prinsiplardan biri bo'lib, u ta'limni muloqot uchun tabiiy bo'lgan sharoitlarda tashkil qilish zaruratini ko'rsatadi [10].

O'quvchilarning so'zlar polisemiyasi pragmatikasini idrok qilishlari ifodada aniqlik va jo'yallilikni, ifodaviy bezakni o'z nutqlarida qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'l ochadi. Lekin o'qituvchi, avvalo, sinfdagi o'quvchilarning matnni, to'g'rirog'i, matndagi so'zlarni qay darajada tushunishlari, idrok qila olishlarini aniqlashi lozim. Matnni o'qib tushunish murakkab psixolingvistik jarayon bo'lib, grafemalarni tanish, so'zni o'qish, so'zning lug'aviy ma'nosini, kontekstual ma'nosini anglash, sintaktik strukturani to'g'ri hal etish, shuningdek, matn mazmuniy bo'laklarining o'zaro bog'lanishini tushunish kabi darajalardan iborat bo'ladi [4, 65-79]. "Har bir o'quvchida qabul qilish qobiliyati har xil bo'lganligi uchun matnni bir xilda o'qib chiqqanlar tushunishning har xil darajasida turgan bo'ladi. O'qituvchi ushbu darajalarni yaxshi bilsa, savollar yordamida o'quvchining qaysi darajada turganini aniqlashi, matnni yaxshiroq tushunishi uchun yo'nalish berishi mumkin... Masalan, matnni tushunishning dastlabki darajasi assotsiativ darajada bo'lsa, unda o'quvchida matn mavzusi, matn uslubi va matndagi so'zlarga assotsiatsiyalar vujudga keladi. Keyingi daraja leksik-morfologik daraja

bo'lib, bunda o'quvchilar matndagi so'zlarni va ularning ma'nosini tushunadi. Uchinchi daraja kontekstual daraja bo'lib, unda so'zlarning kontekstual ma'nolari anglashiladi. Fikrimizcha, matn bilan bog'liq mashqlarda aynan shu uchinchi darajaga ko'proq e'tibor berilishi kerak, chunki unda so'zlarning matn ichida qanday ma'noda kelayotgani anglashiladi, demakki, so'zlar alohida birlik darajasidan matn mazmunining tarkibiy qismi darajasiga ko'tariladi" [5]. Jonatan Kaller: "Til tilshunoslik negizini qanday tashkil qilgan bo'lsa, xuddi shunday adabiyot negizini tashkil etuvchi badiiylilikni qurib chiqish asosiy vazifamizdir" [18, 38], desa, Svetan Todorov: "... har bir muayyan matn badiiylilikni, adabiy til me'yorlariga mosligini ta'riflab berishga imkon yaratuvchi misolga aylanadi" [13], degan fikrni oldinga suradi.

Matnda ko'chma ma'noli, tag ma'noli so'zlar qo'llanganda bu uch darajaning idrok qilinishi bir vaqt (bir o'qish yoki eshitish)ning o'zida amalga oshmasligi mumkin. Ko'p hollarda shunday bo'ladi ham. Matnga takror murojaat qilish, o'qib tanishgach, mazmuniga e'tibor qaratish va turli shakllardagi tahlil mazkur psixologik aktning to'laqonli yuzaga chiqishiga omil bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'limning ona tili fanidan davlat ta'lim standartida o'quvchilarning pragmatik kompetensiyalarini shakllantirish A2 darajasida malaka talablari belgilangan [15] bo'lib, bular quyidagilardan iborat (1.1-jadvalga qarang):

"1.1-jadval"

Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning pragmatik kompetensiyani shakllantirish A2 darajasi malaka talablari

5-sinf	talaffuz va imlo me'yorlari, nutq tovushlarining ma'no farqlash vazifasini izohlay oladi. Yangi so'z va iboralarni o'zlashtiradi. Gapda so'zlarning bog'lanishi, so'z birikmasi, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari, gap bo'laklari, undalma, kirish so'z, sodda va qo'shma gaplar, ko'chirma gaplar va dialoglarni farqlaydi, izohlay oladi; so'zlarni fonetik tahlil qila oladi; matndagi so'zlar ma'nosini izohlaydi va leksik, morfologik tahlil qila oladi. O'rganilgan ifoda vositalarini og'zaki va yozma nutqda to'g'ri qo'llaydi.
6-sinf	so'z tarkibi va so'z yasallishini farqlay oladi; mustaqil so'z turkumlari (fe'l, ot, sifat, son, ravish)ni izohlay oladi; mavzu doirasida fonetik va leksik, morfologik tahlil qila oladi, o'rganilgan ifoda vositalaridan nutqda o'rinli foydalana oladi.
7-sinf	olmosh so'z turkumi, so'zlarning yordamchi so'z turkumlari, undov, taqlid so'zlarni izohlay oladi, gaplarning ifoda qurilishida foydalana oladi.
8-sinf	gapning uyushiq, ajratilgan bo'laklari va kiritmalarni biladi; yangi so'z, ibora va istilohlarni o'zlashtiradi, izohlay oladi, sodda gapni sintaktik tahlil qila oladi.
9-sinf	matnning maqsadi haqida biladi, ergash gapli qo'shma gap, bog'lovchisiz qo'shma gap, ko'chirma gapli qo'shma gaplarni izohlay oladi. Nutqda o'rinli foydalana oladi.

Keyingi paytlarda ona tili ta'limida o'quvchilarning fanga oid kompetensiyalarini shakllantirishga doir tadqiqotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa ham, ularda qo'yilgan masalaning tub mohiyati ilmiy-nazariy jihatdan chuqur ochib berilmayotganligi kuzatiladi. Xususan, M.Kenjayeveaning tadqiqot ishida pragmatik kompetensiyalarni shakllantirish masalasi "til qoidalarini o'zlashtirish, ona tili vositalari orqali o'zining yoki boshqalar fikrini ifodalash maqsadida ulardan foydalanishni o'rganib olish, shuningdek, u yoki bu yozma matnni mustaqil tuzishda turli tayanch tushunchalardan foydalanish ko'nikmasini o'zlashtirish" [6, 40] dan iboratligi amaliy jihatdan yetarli darajada yoritilgan bo'lsa-da, muammoga doir nazariy yondashuvlar o'zining to'liq ifodasini topmaganligi ayonlashadi.

Bizningcha, amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlarda tadqiqot maqsadidan kelib chiqib qo'yilgan muammolar nazariy jihatdan chuqur, keng ko'lamli va obyektiv shaklda belgilanishi maqsadga muvofiq.

Fikrimizcha, pragmatik ko'nikmalar matnni o'qish, ajratilgan qismlarini tahlilga tortish, gap bo'laklarining ifodalanishi, uning turlarini aniqlash asosida o'quvchilarning til sathlari bo'yicha egallagan bilimlarini tushunish, umumlashtirish, tizimlashtirish, xulosalash tarzida amalga oshira olish qobiliyatidir. Binobarin, ko'nikma tushunchasiga berilgan ta'rifda ham aynan "insonning ilgarigi tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati, amaliy faoliyatga, bilimlarni amalda qo'llay bilishga oid faoliyatning tarkibiy qismi, faoliyatning maqsadi va sharoitlariga mutanosib ravishda harakatni muvaffaqiyatli bajarish hamda hamisha bilimlarga asoslanishi, mahorat (malaka)ning negizi hisoblanishi" [16] qayd etilishi bejiz emas.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, pragmatik ko'nikmalarni shakllantirishga doir malaka talablari negizida til hodisalarini integratsiyalab o'rgatish ehtiyoji mavjud. Muloqotda ohang (intonatsiya) ham alohida o'rin tutishi adabiyotlarda alohida ta'kidlanadi [12, 133]. Badiiy yaxlitlikka bog'liq holda badiiy asar "konstruktiv belgi"larini tadqiq qilishni taqozo etuvchi dasturni taqdim etadi [14].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Ahmedov S., Qosimov B., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. 5-sinf, 2-qism. – Toshkent: "Sharq", 2015. 20-b.
2. Ahmedov S., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot 6-sinf darsligi, birinchi qism. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2017. – 157 b. 14-b.
3. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Словар методических терминов (Теория и практика преподавания языков). – СПб: Златоуст, 1999. – С. 252. С.134.
4. Azimova I. O'zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi: Filol.fan.nom. ilm. dar. olish uchun yozilgan disser. – Toshkent, 2008. 65-79-b.
5. Azimova I. Ona tili ta'limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi // Global ta'lim va milliy metodika taraqqaiyoti: Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan tashkil etilgan respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2019. – 221 b.
6. Кенжаева М.А. 5–6-синф ўқувчиларида лингвистик компетенцияларни ривожлантириш методикаси: пед. фан. бўй. фалс. док. (PhD). дисс. – Тошкент, 2021. – 40 б.
7. Mahmudov N., Nurmonov A. va boshqalar. Ona tili. 5-sinf darsligi. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2015. – 224 b. 135-b.
8. Nurmonov A. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. –Toshkent: "Sharq", 2001. 62-b.
9. Пассов Е.И., Кузовлев, В. П., Кузовлева, Н. Е., Саркова, В. Б. Мастерство и личност учителя: На примере деятельности учителя иностранного языка. 2-е изд., испр. и доп. – Москва: "ФЛИНТА", "Наука", 2001. – С. 74.
10. Паутова М.А. Развитие коммуникативной компетентности студентов экономических специальностей: Дисс... канд. пед. наук. – Сибирский университет путей сообщения, 2009. – С. 213.
11. Proceedings of the 12th International Congress of Linguists. Vienna, 1977 (ed.By Dressler W.) Meid W. – Innsbruck: Inst. Fir Sprachwissenschaft, 1978.–R.829. P.26
12. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. 133-b.
13. Todorov, Tz. Poétique // Qu'est-ce que le structuralisme? Paris: Seuil, 1968.
14. Тынянов Ю.Н., Якобсон Р.О. // Проблемы изучения литературы и языка // Тынянов Ю.Н. Поэтика. История литературы. Кино. – Москва, 1977. – С. 283.
15. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili Adabiyot. (5–9-sinf) // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent: 2017-yil 14 (774)-son, 230-modda. – B.– 30-, 39-, 45-, 52-, 58.



16. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. К ҳарфи. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. – 864-б. www.ziyouz.com кутубхонаси.

17. Шмелов Д.Н. Русский язык в его функциональных разновидностях. – Москва: “Наука”, 1977. – С. 35.

18. Culler, J. Structuralist Poetics: Structuralism, Linguistics, and the Study of Literature London. Ithaca: Cornell University Press, 1975. –R – 107.38

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Olloqova O'g'iljon Mamanazarovna

Osiyo xalqaro universiteti, Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Manzil: O'zbekiston, Buxoro shahar

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В РАССКАЗАХ САИДА АХМАДА "ЦЕНА ОДНОГО ПОЦЕЛУЯ" И АНТОНА ЧЕХОВА "ЗЛОЙ МАЛЬЧИК"



Хасанова Шахноза Баходировна

Преподаватель Азиатского международного университета

АННОТАЦИЯ.

ВВЕДЕНИЕ: В статье проводится сравнительный анализ использования фразеологических единиц в рассказах узбекского писателя Саида Ахмада «Цена одного поцелуя» и русского классика Антона Павловича Чехова «Злой мальчик». Исследование направлено на выявление сходств и различий в употреблении фразеологизмов для создания художественных образов, раскрытия характеров героев и передачи эмоциональной выразительности текста.

Современная лингвистика уделяет значительное внимание изучению фразеологических единиц как важного компонента национальной языковой картины мира. Фразеологизмы, являясь устойчивыми словосочетаниями, не только служат средством выражения определённых понятий, эмоций и оценок, но и отражают культурные, исторические и ментальные особенности народа. Через них проявляется дух нации, её мировоззрение, система ценностей и образ мышления. Особое место фразеологизмы занимают в художественной литературе, где они выполняют не только коммуникативную, но и эстетико-выразительную функцию, способствуя созданию ярких художественных образов, раскрытию внутреннего мира персонажей и передаче авторского стиля. Именно в литературных текстах фразеологические единицы обретают многослойность смысла, становясь носителями национального колорита и индивидуальной манеры автора.

ЦЕЛЬ: Основная цель настоящего исследования заключается в сравнительном анализе фразеологических единиц, используемых в рассказах узбекского писателя Саида Ахмада «Цена одного поцелуя» и русского классика Антона Павловича Чехова «Злой мальчик».

Исследование направлено на выявление общих и отличительных особенностей в функционировании фразеологизмов в художественных текстах двух авторов, принадлежащих к разным культурным и языковым системам. Достижение поставленной цели позволит выявить, как фразеологизмы функционируют в художественной системе каждого писателя и каким образом через устойчивые выражения отражается национальная специфика мышления, культурные традиции и индивидуальный стиль автора.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Материалом исследования послужили тексты рассказов Саида Ахмада «Цена одного поцелуя» и Антона Павловича Чехова «Злой мальчик», а также отдельные контексты, в которых употребляются фразеологические единицы. Для обеспечения полноты анализа были привлечены оригинальные тексты на узбекском и русском языках, а также их литературные переводы и лингвистические комментарии, представленные в научных и критических изданиях. Кроме художественных источников, в исследовании использовались фразеологические словари узбекского и русского языков, труды по теории фразеологии (А.В.

Кунин, В.Н. Телия, Ш. Рахматуллаев, Й. Хожиев и др.), а также работы, посвящённые лингвокультурологическому и сопоставительному анализу языков. Это позволило рассматривать фразеологические единицы не только как лексико-грамматические конструкции, но и как носителей культурного кода каждого народа.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Проведённое исследование фразеологических единиц в рассказах Саида Ахмада «Цена одного поцелуя» и Антона Павловича Чехова «Злой мальчик» показало, что фразеология является одним из важнейших средств создания художественной выразительности, передачи эмоционального состояния персонажей и раскрытия авторского замысла.

В ходе сравнительного анализа было установлено, что оба писателя активно используют фразеологические обороты для формирования индивидуальной речи персонажей, создания комического и психологического эффекта, а также для усиления национально-культурного колорита произведения.

При этом Саид Ахмад опирается на узбекскую народную речь, насыщенную пословицами, устойчивыми выражениями и метафорическими образами, отражающими традиции, нравственные нормы и мировосприятие узбекского народа.

Антон Чехов, напротив, использует фразеологизмы как инструмент тонкой психологической характеристики, внутреннего анализа и иронического осмысления действительности, что соответствует эстетике русского реализма конца XIX века.

Особое значение имеет выявленная культурно-языковая специфика:

- фразеологизмы Саида Ахмада выступают как средство национальной идентичности и носители ментальных особенностей узбекской речи;
- фразеологизмы Чехова — как средство универсализации человеческих эмоций и социальных наблюдений.

Ключевые слова: фразеологические единицы, художественный стиль, Саид Ахмад, Антон Чехов, сравнительный анализ, национальная специфика, психологизм.

A COMPARATIVE ANALYSIS OF THE USE OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE STORIES OF SAID AHMAD "THE PRICE OF ONE KISS" AND ANTON CHEKHOV'S "THE EVIL BOY"

Khasanova Shakhnoza Bakhodirovna

Lecturer at the Asian International University

Annatation.

INTRODUCTION: The article conducts a comparative analysis of the use of phraseological units in the story "The Price of a Kiss" by the Uzbek writer Said Ahmad and the story "The Naughty Boy" by the Russian classic Anton Pavlovich Chekhov. The study is aimed at identifying similarities and differences in the use of phraseological units in creating artistic images, revealing the characters of the characters, and conveying the emotional expressiveness of the text.

Modern linguistics pays great attention to the study of phraseological units as an important component of the national language worldview. Phraseologisms, that is, stable word combinations, are not only a means of expressing certain concepts, emotions, and assessments, but also reflect the cultural, historical, and mental characteristics of the people. Through them, the spirit of the nation, its worldview, value system, and way of thinking are manifested. Phraseologisms occupy a special place in fiction, where they perform not only a communicative, but also an aesthetic and expressive function, helping to create vivid artistic images, reveal the inner world of characters, and convey the author's style. It is in

literary texts that phraseological units acquire a multi-layered meaning, becoming carriers of national color and the author's individual style.

THE GOAL: The main purpose of this study is to conduct a comparative analysis of phraseological units used in the stories "The Price of a Kiss" by the Uzbek writer Said Ahmad and "The Naughty Boy" by the Russian classic Anton Pavlovich Chekhov.

The study is aimed at identifying common and specific features of the functioning of phraseologisms in the literary texts of two authors belonging to two different cultural and linguistic systems. Achieving the set goal allows us to determine how phraseologisms work in the artistic system of each writer and how stable expressions reflect the national identity of thinking, cultural traditions and the individual style of the author.

MATERIALS AND METHODS: The research material was the texts of the stories "The Price of a Kiss" by Said Ahmad and "The Naughty Boy" by Anton Pavlovich Chekhov, as well as some contexts in which phraseological units were used. To ensure the completeness of the analysis, the original texts in Uzbek and Russian were used, as well as their literary translations and linguistic annotations given in scientific and critical publications. In addition to literary sources, the study used phraseological dictionaries of the Uzbek and Russian languages, works on the theory of phraseology (A.V. Kunin, V.N. Teliya, Sh. Rahmatullayev, Y. Hoji'yev, etc.), as well as works devoted to the comparative analysis of linguocultural and languages. This made it possible to consider phraseological units not only as lexical-grammatical constructions, but also as carriers of the cultural code of each people.

CONCLUSION: A study of phraseological units in the stories "The Price of a Kiss" by Said Ahmad and "The Naughty Boy" by Anton Pavlovich Chekhov showed that phraseology is one of the most important means of creating artistic expressiveness, conveying the emotional state of the characters and revealing the author's intention.

In the process of comparative analysis, it was revealed that both writers actively use phraseological units to form the individual speech of the characters, create humor and a psychological effect, as well as to enhance the national-cultural color of the work.

At the same time, Said Ahmad relies on Uzbek folk speech, which is rich in proverbs, fixed expressions and metaphorical images reflecting the traditions, moral standards and worldview of the Uzbek people.

Anton Chekhov, on the contrary, uses phraseologisms as a means of subtle psychological characterization, internal analysis and ironic perception of reality, which corresponds to the aesthetics of Russian realism of the late 19th century.

The identified cultural-linguistic identity is of particular importance:

- Said Ahmad's phraseologisms appear as a means of understanding national identity and carrying the mental characteristics of Uzbek speech;
- Chekhov's phraseologisms serve as a means of universalizing human feelings and social observations.

Keywords: Phraseological units, artistic style, Said Ahmad, Anton Chekhov, comparative analysis, national identity, psychology.

Для выявления особенностей употребления фразеологических единиц в рассказах Саида Ахмада «Цена одного поцелуя» [1] и Антона Павловича Чехова «Злой мальчик» [2] был проведён их сравнительно-сопоставительный анализ. Основное внимание уделено тематической классификации, частотности и функциональной нагрузке фразеологизмов в тексте.

Таблица 1. Классификация фразеологизмов по тематическим группам

Тематическая группа	Саид Ахмад	Антон Чехов
Эмоциональные состояния	"юраги оркага тортиб кетди" (сердце сжалось от страха), "кóнгига гулув тушди" (тревожное предчувствие)	"скрежетал зубами", "зарыдал от восторга"
Характеристика личности	"тили қисик" (без слов остался), "қўли гул қасоб" (умелец, мастер своего дела)	"молодой человек приятной наружности", "злой мальчик"
Действия и движения	"бир зўмда" (в одно мгновение), "одимлар окимига шўнгиб кетди" (поспешил вслед)	"спустились вниз по крутому берегу", "принялись за рыбную ловлю"
Социальные отношения	"лаганбардорлик қилманг" (не подлизывайтесь), "ўлган одамнинг орқасидан маломот қилманг" (не злословьте о мёртвых)	"не давал житья", "любил страстно"

Как видно из таблицы 1, фразеологизмы обоих авторов делятся на схожие семантические категории. При этом в рассказе Саида Ахмада заметна более яркая национально-культурная окраска: многие выражения отражают менталитет, обычаи и моральные установки узбекского народа. Чехов же чаще использует общеупотребительные русские идиомы, передающие психологические оттенки поведения персонажей.

Общие черты в использовании фразеологизмов

➤ **Характеристика персонажей.**

Оба автора применяют фразеологизмы как средство речевой характеристики. У Саида Ахмада выражение «*тили қисик*» передаёт растерянность героя, у Чехова — «*злой мальчик*» подчёркивает упрямство и дерзость Коли.

➤ **Создание комического эффекта.**

У Саида Ахмада юмор достигается за счёт метафорических оборотов («*чирпирак бўлиб кетади*»), у Чехова — за счёт контраста между возвышенным и бытовым.

➤ **Передача эмоциональных состояний.**

Оба писателя используют устойчивые выражения для выражения радости, тревоги, стыда и страха, что делает текст живым и выразительным.

Отличительные особенности Культурная специфика.

Саид Ахмад опирается на национально-узбекский контекст, где фразеологизмы несут социально-нравственное значение. У Чехова преобладают общезыковые выражения, понятные широкой русской аудитории.

➤ **Стилистические различия.**

В произведениях Саида Ахмада встречается разговорная и народная фразеология, тогда как Чехов предпочитает более нейтральный литературный стиль.

➤ **Функциональные различия.**

У Ахмада фразеологизмы нередко используются для сатирического или иронического эффекта, в то время как у Чехова — преимущественно для психологической характеристики.

Таблица 2. Частотность использования фразеологизмов

Параметр	Саид Ахмад	Антон Чехов
Общее количество фразеологизмов	18	12
Фразеологизмы в диалогах	60 %	40 %
Фразеологизмы в описаниях	40 %	60 %
Культурно-специфические фразеологизмы	70 %	65 %

Преобладание фразеологизмов в диалогах у Саида Ахмада связано с живостью разговорной речи и колоритом узбекской устной традиции. У Чехова, напротив, устойчивые выражения чаще встречаются в авторском повествовании и описаниях, где они выполняют аналитико-психологическую функцию.

Таким образом, сравнительный анализ показал, что фразеологизмы в рассказах Саида Ахмада и Антона Чехова служат не только средством выразительности, но и отражением культурных, социальных и психологических реалий своих эпох. Оба автора демонстрируют мастерство в использовании устойчивых выражений, однако Саид Ахмад делает акцент на национальной самобытности, а Чехов — на универсальных человеческих чувствах.

Проведённый сравнительный анализ фразеологических единиц в рассказах Саида Ахмада «Цена одного поцелуя» [1] и Антона Павловича Чехова «Злой мальчик» [2] позволил выявить как универсальные, так и национально-специфические особенности их функционирования в художественном тексте.

Художественная функция фразеологизмов

Фразеологические выражения в обоих произведениях выполняют важную художественно-эстетическую роль. Они придают речи персонажей эмоциональную насыщенность, отражают внутренние переживания, создают определённую интонацию повествования.

У Саида Ахмада фразеологизмы часто приобретают оттенок народной мудрости и юмора, становясь носителями национального менталитета. Например, выражения «*юраги орқага тортиб кетди*», «*лаганбардорлик қилманг*» передают характерные черты узбекского мировосприятия — сдержанность, гордость, уважение к моральным нормам. У Чехова же фразеологизмы способствуют психологизации текста: они раскрывают внутренний конфликт героев, их эмоциональные колебания, контраст между внешним поведением и внутренним состоянием.

Взаимосвязь формы и содержания

Важно отметить, что в обоих рассказах фразеологизмы тесно связаны с содержанием произведений. У Саида Ахмада они усиливают комическую составляющую и народный колорит, у Чехова — создают тонкую психологическую ироничность. Таким образом, фразеологическая система в обоих текстах не является случайным языковым явлением — она формирует идейно-эмоциональный каркас произведений. Результаты исследования показывают, что фразеологизмы являются неотъемлемым элементом художественной структуры рассказов Саида Ахмада и Антона Чехова. Они выполняют сходные стилистические и эмоциональные функции, но различаются по культурному и языковому

содержанию. Это подтверждает идею о том, что фразеология — важнейший инструмент выражения национальной ментальности и индивидуального авторского стиля.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Ахмад С. Избранные произведения. - Ташкент: Издательство литературы и искусства, 1985. - 320 с.
2. Чехов А.П. Полное собрание сочинений и писем в 30 томах. - М.: Наука, 1974-1983.
3. Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке // Избранные труды. Лексикология и лексикография. - М.: Наука, 1977. - С. 140-161.
4. Рахматуллаев Ш. Хозирги ўзбек адабий тили. - Тошкент: Ўқитувчи, 1995. - 256 б.
5. Молотков А.И. Основы фразеологии русского языка. - Л.: Наука, 1977. - 284 с.
6. Ashurova D.U. Linguistic and Cultural Features of Uzbek Phraseological Units // Journal of Language and Literature. - 2019. - Vol. 10, No 2. - P. 45-52.
7. Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. - М.: Высшая школа, 1985. - 160 с.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Хасанова Шахноза Баходировна

Осиё Халқаро Университети, Рус тили ва адабиёти ўқитувчиси

Адрес: Ўзбекистон Бухоро

E-mail: shahnozaxasanova1994@mail.ru

G'AFUR G'ULOM NASRIDA YUMOR VOSITASIDA IJTIMOYIY-TANQIDIY G'OYANING BADIY IFODASI



Berdiyeva Sitora Utkerovna,
Osiyo xalqaro universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya.

KIRISH: Mazkur maqolada o'zbek adabiyotining yirik namoyandalardan biri G'afur G'ulom ijodida yumorning badiiy-estetik va ijtimoiy funksiyasi tahlil qilinadi. Adibning nasriy asarlarida yumor nafaqat kulgi vositasi, balki ijtimoiy illatlarni fosh etuvchi, inson xarakterini ochuvchi hamda o'quvchini fikrlashga undovchi badiiy vosita sifatida talqin etiladi. Shuningdek, maqolada G'afur G'ulomning "Shum bola" kabi asarlarida kulgi orqali jamiyatdagi axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy muammolarni yoritish uslubi tahlil qilinadi. Natijada, adibning yumorga asoslangan ijtimoiy-tanqidiy g'oyalari o'zbek realizmining shakllanishida muhim omil bo'lgani asoslab beriladi.

MAQSAD: G'afur G'ulom nasrida yumor vositasida ifodalangan ijtimoiy-tanqidiy g'oyalarni aniqlash, ularning badiiy-estetik ahamiyatini ochib berish hamda yozuvchining kulgi orqali jamiyatdagi illatlar, insoniy munosabatlar va axloqiy qadriyatlarga bergan bahosini tahlil qilishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: Ushbu tadqiqotning metodologik asosini adabiy tahlil, qiyosiy tadqiqot hamda kontekstual sharhlash usullarining o'zaro uyg'unligi tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida, bir tomondan, G'afur G'ulomning badiiy merosi, xususan "Shum bola" asari hamda unga yaqin nasriy namunalar bevosita tahlil qilindi; ikkinchi tomondan esa, mazkur asar va undagi bola obrazini yoritishga oid mavjud adabiyotshunoslik manbalari, ilmiy maqolalar, monografiyalar va kritik izohlar o'rganildi. Bunday yondashuv muallifning bola obrazini yaratishdagi o'ziga xos poetik mahoratini yanada chuqurroq ochib berish, shuningdek, uni o'zbek nasridagi umumiy badiiy jarayon kontekstida baholash imkonini beradi.

XULOSALAR: G'afur G'ulom nasrida yumor, bu shunchaki kulgi unsuri emas, balki chuqur ma'naviy va ijtimoiy mazmunni ifodalovchi badiiy vositadir. Adib o'z asarlarida kulgi orqali jamiyatdagi illatlar, insoniy zaifliklar va axloqiy muammolarni fosh etgan, shu bilan birga o'quvchini fikrlashga, o'zini va atrofdagilarni tanqidiy baholashga undagan. Uning yumorida insonparvarlik, ezgulik va poklik g'oyalari yetakchilik qiladi. "Shum bola" kabi asarlarida yumor hayot haqiqatini ochuvchi, xalqning ruhiy olamini ifodalovchi, milliy xarakterni yorituvchi badiiy kuch sifatida namoyon bo'ladi. Adibning yumorga boy uslubi o'zbek realizmini boyitib, adabiyotda yangi estetik yo'nalish yaratgan.

Shunday qilib, G'afur G'ulom ijodida yumor vositasida ijtimoiy-tanqidiy g'oyaning badiiy ifodasi nafaqat adibning ijodiy yutug'i, balki o'zbek adabiyotining ijtimoiy-estetik taraqqiyotida muhim bosqich sifatida e'tirof etiladi.

Kalit so'zlar: G'afur G'ulom, nasr, yumor, ijtimoiy tanqid, badiiy ifoda, realizm, satira, obraz, o'zbek adabiyoti, ma'naviy qadriyatlar.

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВЫРАЖЕНИЕ СОЦИАЛЬНО-КРИТИЧЕСКОЙ ИДЕИ ЧЕРЕЗ ЮМОР В ПРОЗЕ ГАФУРА ГУЛЯМА

Бердиева Ситора Уткеровна

*Соискатель степени PhD (докторант базовой докторантуры),
Азиатский международный университет*

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье анализируются художественные особенности выражения социально-критических идей с помощью юмора в прозе Гафура Гуляма - одного из крупнейших представителей узбекской литературы. В его произведениях смех выступает не только как средство развлечения, но и как способ разоблачения общественных пороков, раскрытия характера человека и побуждения читателя к размышлению. В таких произведениях, как «Озорник» юмор выступает художественной силой, отражающей жизнь народа и становление узбекского реализма.

ЦЕЛЬ: Цель данного исследования заключается в выявлении социально-критических идей, выраженных через юмор в прозе Гафура Гуляма, раскрытии их художественно-эстетического значения, а также анализе оценки писателем общественных пороков, человеческих взаимоотношений и нравственных ценностей посредством смеха.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Методологическую основу исследования составляет взаимосвязь литературного анализа, сравнительного исследования и контекстуального комментария. В процессе исследования, с одной стороны, был проведен прямой анализ художественного наследия Гафура Гуляма, в частности произведения «Озорник» и близких к нему прозаических образцов. С другой стороны - изучены литературоведческие источники, научные статьи, монографии и критические комментарии, посвященные освещению образа ребёнка в данных произведениях. Такой подход позволяет глубже раскрыть поэтическое мастерство автора в создании образа ребёнка, а также оценить его творчество в контексте общего художественного процесса узбекской прозы.

ВЫВОДЫ: Юмор в прозе Гафура Гуляма - это не просто элемент смеха, а художественное средство, выражающее глубокий духовный и социальный смысл. Писатель посредством юмора разоблачает общественные недостатки, человеческие слабости и моральные проблемы, одновременно побуждая читателя к размышлению и самокритике. В его юморе преобладают идеи гуманизма, доброты и чистоты. В произведениях «Озорник» и других юмор выступает как художественная сила, раскрывающая правду жизни, духовный мир народа и национальный характер. Стиль писателя, насыщенный юмором, обогатил узбекский реализм и создал новое эстетическое направление в литературе.

Таким образом, художественное выражение социально-критической идеи через юмор в творчестве Гафура Гуляма является не только его личным творческим достижением, но и важным этапом в социально-эстетическом развитии узбекской литературы.

Ключевые слова: Гафур Гулям, проза, юмор, социальная критика, художественное выражение, реализм, сатира, образ, узбекская литература, духовные ценности.

ARTISTIC EXPRESSION OF SOCIAL AND CRITICAL IDEAS THROUGH HUMOR IN THE PROSE OF GAFUR GULOM

Berdiyeva Sitora Utkerovna

*PhD Candidate (Basic Doctoral Student),
Asia International University*

Annotation.

INTRODUCTION: This article analyzes the artistic features of expressing social and critical ideas through humor in the prose of Gafur Gulom, one of the prominent figures of Uzbek literature. In his works, humor serves not merely as a source of entertainment but as a means of revealing human character, exposing social flaws, and encouraging readers to think critically. In stories such as “Naughty Boy” humor becomes a powerful artistic tool that reflects the people’s life, moral values, and the formation of Uzbek realism.

GOAL: The purpose of this study is to identify the social and critical ideas expressed through humor in the prose of Gafur Gulom, to reveal their artistic and aesthetic significance, and to analyze the writer’s evaluation of social flaws, human relations, and moral values conveyed through laughter.

MATERIALS AND METHODS: The methodological basis of the study lies in the integration of literary analysis, comparative research, and contextual interpretation. During the research, on one hand, Gafur Gulom’s literary heritage, particularly the story “*Naughty Boy*” and other related prose works - was directly analyzed. On the other hand, existing literary criticism, academic articles, monographs, and commentaries focusing on the portrayal of the child figure in his works were examined. This approach allows for a deeper understanding of the author’s poetic mastery in depicting the child image and evaluating it within the broader artistic context of Uzbek prose.

CONCLUSIONS: In Gafur Gulom’s prose, humor is not merely a tool for amusement but a powerful artistic means expressing deep spiritual and social meaning. Through humor, the author exposes social defects, human weaknesses, and moral dilemmas while encouraging the reader to think critically and engage in self-reflection. His humor is imbued with humanism, kindness, and sincerity. In works such as “*Naughty Boy*” humor becomes an artistic force that reveals the truth of life, reflects the spiritual world of the people, and portrays the national character. Gafur Gulom’s humor-rich style enriched Uzbek realism and introduced a new aesthetic direction in literature.

Thus, the artistic expression of social and critical ideas through humor in writer’s works represents not only his personal creative achievement but also a significant stage in the socio-aesthetic evolution of Uzbek literature.

Keywords: Gafur Gulom, prose, humor, social criticism, artistic expression, realism, satire, character, Uzbek literature, moral values.

O‘zbek adabiyotining shakllanishida G‘afur G‘ulomning o‘rni beqiyosdir. Uning asarlarida hayotiy haqiqat, xalqona so‘z boyligi va yumor orqali berilgan ijtimoiy-tanqidiy ruh uyg‘unlashgan. Adib kulgini o‘quvchini zavqlantiruvchi, lekin ayni paytda jamiyatdagi kamchiliklarni ko‘rsatuvchi badiiy qurol sifatida ishlatgan.

G‘afur G‘ulom bola timsoli orqali jamiyatning ijtimoiy-siyosiy muammolarini yengil yumor va sho‘xlik bilan yoritishga erishdi. Shu bilan birga, Shum bola siymosi o‘zbek bolalarining topqirligi, bardoshi va quvnoqligini badiiy mujassam etib, yosh avlod uchun axloqiy-tarbiyaviy ibrat manbaiga aylandi. Bu jihatdan G‘afur G‘ulom ijodi bola obrazini faqat adabiy fenomen emas, balki madaniy-ma’naviy qadriyat darajasiga ko‘tardi.

Shum bola xalqning bardoshi va quvnoqligini o‘zida mujassam etgan obraz sifatida o‘zbek nasrida universal obrazga aylandi. Uning sho‘xligi va topqirligi yosh avlodni mardlik, halollik, do‘stlik kabi qadriyatlarga undasa, kattalar uchun hayotning og‘ir sinovlari oldida kulgi va ijobiy qarashning ahamiyatini eslatib turadi. Shu bois G‘afur G‘ulom yaratgan bola obrazi badiiy adabiyot bilan cheklanmay, pedagogik, ma’naviy va falsafiy jihatdan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

G‘afur G‘ulomning nasriy asarlarida yumor xalq hayotining aks-sadosidir. “Shum bola” qahramonining o‘tkir zehni, sho‘x va hayotga ijobiy qaraydigan obrazi orqali adib insoniy fazilatlar bilan birga, jamiyatdagi ijtimoiy nomutanosibliklarni kulgi orqali yoritadi. “Mening o‘g‘rigina bolam” asarida esa kulgi mehr va kechirim g‘oyasi bilan uyg‘unlashadi, bu esa G‘afur G‘ulom yumorining

insonparvarlik asosiga urg'u beradi. Adib yumor orqali o'z davridagi ijtimoiy holatni tahlil qiladi, xalq ma'naviyatidagi o'zgarishlarni badiiy tarzda ko'rsatadi. Uning kulgisi keskin satira emas, balki mehr bilan aytilgan tanqididir.

Asarda xalqona yumorni ifodalovchi parchalarni tahlil qilamiz:

Men shu xayollarda ekanman, "g'iyq" etib eshik ochildi-da, bir kishi oyoq uchi bilan yurib keldi. Men sekin-sekin go'yo darchaning pardasini tortganday, loyтуvoqni ustimga yopdim. Keluvchi kishi men yotgan tandirning ustiga o'tirdi-da, hushtak bilan muzika chala boshladi.

To'g'ri, muzika yaxshi narsa, men qarshi emasman. Tinchlik vaqtda har qayerda eshitishim mumkin. Lekin o'zingiz o'ylang, birovni tandirga qamab, ustiga o'tirib muzika chalsin, deb qaysi qonunda yozilgan ekan? Mumkinmi shu?

Bu parchada bosh qahramon o'zining sho'x, quvnoq, ammo hayot sinovlari bilan to'qnashgan holatini hikoya qiladi. Bola tandir ichida yashirilib olgan, ammo ustiga kishi kelib o'tiradi. Bu odam esa, go'yoki hech narsa bo'lmagandek, "hushtak bilan muzika chaladi." Yozuvchi bu holatni bolaning nigohi orqali kulgili tarzda tasvirlaydi. Holatning o'zi absurd - tandir ichida odam yotibdi, ustida esa birov o'tirib musiqa chalmoqda. Bu hayotiy paradoks, ya'ni nohaqlik, beparvolik va boshqalar azobini sezmaslik holatini kinoyaviy tarzda ifodalaydi.

G'afur G'ulomning tili bu parchada xalqona, jonli, tabiiy. "G'iyq", "oyoq uchi bilan yurib keldi", "hushtak bilan muzika chala boshladi" kabi tasviriy ifodalar realistik muhit yaratadi. Bu so'zlar o'quvchini voqea ichiga tortadi va bolaning hissiyotini bevosita his etish imkonini beradi.

Yana boshqa bir parchada bosh qahramonning ichki kechinmalari yumoristik ifodasi juda chiroyli tasvirlangan:

O'zim sog'-salomatman. Qo'lim ixtiyorimda. Oyog'im ra' yim bilan yuradi. Ko'zim ixtiyorimda. Xunuk narsalarga istamasam qaramayman. Og'zim, jag'im, tishim jodudek, istagan xashakni qirqib chiqarishga yaraydi. Ammo badan da bir sarkash a'zo bor, u mening ixtiyorimdan tashqari, o'zboshimcharoq. Unga mening hukmim o'tmaydi. Bilmaganlar bilsin va ogoh bo'lsinki, u a'zo kamdankam kishilar ga vafo qilgan – qorin. U badan mulkining hokimligini ba'zan qo'limdan olib qo'yadi. Boshqa a'zolar ham uning isyonchi talablariga qo'shila boshlaydi. Ko'zim noshar'iy, harom luqmalarga tusha boshlaydi. Qo'l qorin hukmi bilan ba'zida eng past kishilarga tama kapgiriday cho'ziladi. Oyoq kutmagan joylarga olib boradi.

Bu parcha G'afur G'ulomning falsafiy-hazil ohangida yozilgan hikoyalari uslubiga xos. Yozuvchi inson tanasining a'zolarini jonlantirib, ularga insoniy xatti-harakat, xulq, istak va irodaviy kurash ma'nosini beradi. U o'zini sog'lom, mustaqil inson sifatida ta'riflaydi: "qo'lim, oyog'im, ko'zim ixtiyorimda" deydi. Ammo bitta a'zo - qorin, ya'ni ochko'zlik va nafs ustidan nazorat yo'qoladi.

Yumor bu parchada shaklan kulgili, ammo mazmunan tanqidiy-falsafiy. Qorinni "isyonchi a'zo", "boshqa a'zolari ham buzg'unchilikka undovchi" sifatida tasvirlash bu metaforik kinoyadir. Bu kulgili personifikatsiya o'quvchini avvaliga tabassumga, so'ngra chuqur o'yga soladi. Yozuvchi nafsni inson tanasidagi ichki dushman, axloqiy muvozanatni buzuvchi kuch sifatida ko'rsatadi.

Bu sof ma'naviy va ijtimoiy tanqid bo'lib, yumor orqali insonning ichki zaifligi ochiladi.

Ushbu parcha G'afur G'ulomning ijtimoiy-tanqidiy yumorining eng chuqur namunalaridan biridir. U "qorin" obrazida nafaqat insoniy zaiflikni, balki jamiyatdagi ochko'zlik, ma'naviy bo'shliq va tamagirlik illatini ham fosh etadi.

Parchada odamning ichki dunyosi bilan kurashi, iroda va nafs o'rtasidagi ziddiyat ochilgan. Yozuvchi yumor orqali ma'rifiy g'oyani ilgari suradi: inson o'z tanasi va nafsiga hokim bo'lishi kerak. Bu fikr jamiyat uchun ham dolzarb - moddiy manfaat ustun bo'lgan muhitda ma'naviyatni saqlab qolish zarurligini eslatadi.

Qissada mahalla bolalari ahil-inoqligini tasvirlovchi parcha keltirilgan:

– Bolalar, xalfana qilamizmi?

- Bo‘pti, qilamiz.
- Qayerda?
- Rizqi xalfaning ko‘chib ketgan hovlisida.
- Bo‘pti.

Xalfanaga palov qilmoqchi bo‘ldik. Masavur otaliqning nabirasi Omonboyning o‘g‘li Husnibiy oshpaz bo‘ladigan bo‘ldi. Qozon, cho‘mich, tuz, qalampir, suv – undan qolgan masalliqларini shu yo‘sinda taqsim qildik: guruch bilan sabzi – Yo‘ldoshdan. Go‘sht – Abdulla do‘lvordan. Yog‘ – mendan. Qolgan-qutgan narsalar – Po‘latxo‘ja mug‘ambirdan.

Parchadan ma‘lumki, bolalar bundan oldin ham halfana, ya‘ni o‘rtada masalliq to‘plab, tayyorlanadigan ovqat qilishgan. Har kim uyidan biror mahsulot topib, birgalikda ovqat tayyorlashgan. Shum bolaning ham asli sarguzashtlari aynan shu halfana uchun uyidan yashirincha yog‘ olishi kerakligidan boshlandi.

Asarning boshqa qismlarida qahramonning topqirlik va ziyrakligini aks ettiruvchi parchalar ham mahorat bilan yozilgan, bu qismlar milliy xarakterni ochib beradi. Masalan,

Biror soat sanqiganimizdan keyin, Omonning ketmoni bilan mening yog‘och kuragimni sotishga ulguridik. Shunda ham o‘rtaga dallollar tushdi.

– Qani, ha, uka, baraka de,– deb yarim soatcha qo‘l siltab savdolashgandan keyin ketmonni yarim so‘mga, kurakni bir yarim tangaga “bor baraka top” qildik (Yoz bo‘lgani uchun kurakning bozori kasod edi, attang, arzon ketdi).

Bu parchada Shum bolaning do‘sti Omon bilan bozordagi sarguzashtlarini tasvirlagan.

Omonni uyg‘otdim, dik etib turib, Zolariqning muzdek suviga apir-shapir yuz-qo‘limizni yuvgan bo‘ldik, o‘z etagimizga artindik.

– Xo‘sh, qayoqqa qochamiz, taqsir? –

Xudoy taoloning dargohi keng, to‘rt tomonimiz qibla. Yuqoriga, Qing‘iroq tepa tomonga qochamiz.

Uchovlon “shilt” etib chiqib ketayotganimizda Yaxshiqiz kampir yo‘limizni to‘sdi...

Yuqoridagi parchada Shum bola va uning do‘sti Omonning Sulton kisavurdan qochayotgan qismi tasvirlangan. Qochganlaridan so‘ng, ular yanada qiziqarli sarguzashtlarga duch kelishadi.

Bu kulgili voqea ortida G‘afur G‘ulom o‘sha davr jamiyatining ijtimoiy holatini ham tanqid qiladi: Bolalar doimo “qochish”, “yashirinib yurish” holatida — bu erkinlikka intilish, ammo jamiyatdagi qattiq tartib, kambag‘allik va beqarorlik fonida ifodalanadi. “Yaxshiqiz kampir yo‘limizni to‘sdi” - bu an‘anaviy axloq, jamiyat nazorati ramzi sifatida berilgan. Yozuvchi bu orqali shuni aytadi: jamiyatdagi har bir inson ozodlik istaydi, lekin ijtimoiy cheklollar uni to‘xtatadi.

Ushbu parcha G‘afur G‘ulomning nasrida yumorning hayotiy, falsafiy va ijtimoiy vazifasini mujassam etgan. Yozuvchi bolalarning sho‘x sarguzashtlarini tasvirlar ekan, ularning orqasida inson erkinligi, hayotga quvnoq qarash, jamiyatdagi ruhiy bosimga qarshi ichki isyon g‘oyasini ifoda etadi. Shum bola orqali G‘afur G‘ulom yumorni ijtimoiy haqiqatni aytishning badiiy vositasiga aylantiradi.

Shum bolaning har vaziyatda zukkolik bilan yechim topishi qissada tasvirlangan:

Kechgacha odatdagicha ixlos bilan xizmat qildim.

Kechqurun ketishga tayyorlana boshladim. Shomdan keyin odatdagi o‘zim yotib-turadigan yerda ko‘rpacham, yostig‘im taglarini – xazinamni tozalab, yengsiz to‘n yoqasiga tika boshladim. Ikki o‘n so‘mlik, uchta besh so‘mlik tilla. Hoji bobo bergan bitta uch so‘mlik qog‘oz pul, qolganlari bir so‘mlik, yarim so‘mlik so‘lkavoy, tanga-chaqa aralash edi. Tanga-chaqalarni tikkanim yo‘q. Jamuljam qirq ikki so‘m oltmish ikki tiyin bo‘lgan edi. Katta davlat. Urush bo‘lmaganda o‘nta qo‘y olsa bo‘lar edi. Ha, mayli...

O‘zbek nasrida bola obrazini yaratishda G‘afur G‘ulomning tutgan o‘rni alohida ahamiyatga ega. Adibning mashhur “Shum bola” asari o‘zbek adabiyotida bolalik qiyofasini yangicha talqin etib, uni

sho'xlik, samimiyat va ijtimoiy faollik ramziga aylantirdi. Shumbola obrazi nafaqat milliy nasrda yangi badiiy pog'ona yaratdi, balki xalqning ruhiyati, hayotiy donoligi va milliy xarakterining yorqin timsoliga aylandi. Shunday qilib, G'afur G'ulom ijodi o'zbek nasrida bola obrazining badiiy-estetik imkoniyatlarini kengaytirdi, uni milliy va umuminsoniy qadriyatlar darajasiga olib chiqdi. Adib yaratgan Shumbola siymosi o'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos badiiy maktabni shakllantirdi hamda keyingi nasl yozuvchilar uchun namunaviy obraz sifatida xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. G'ulom G'. Shum bola. Yoshlar nashriyoti uyi. Toshkent.2018.-152bet
2. Karimov, B. "O'zbek nasrida yumor va bola obrazi". O'zbek tili va adabiyoti, 2010, 45–52.
3. Hojiahmedov, A. Abdulla Qahhor hikoyachiligi poetikasi. Toshkent: Universitet.1995
4. G'ofurov I. Tarjima nazariyasi. – Toshkent "Tafakkur bo'stoni", – 2012. 214b.
5. Rasulov, I. O'zbek adabiyotida kulgi va satira. Toshkent: Fan nashriyoti.2015.
6. Karimov, B. "G'afur G'ulom ijodida xalqona yumorning ifodalanishi." Adabiyotshunoslik ilmiy jurnali, 2(4),2018. 112–118-b.
7. Kasimova, R. R., Ziyadullayev, A. R., & Ziyadullayeva, A. A. (2021). The nature of the culture bound words and problems of translation. *International Scientific Journal Theoretical and applied science, MA. USA. –Published, 31. –B.* 401-405.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Berdiyeva Sitora Utkerovna,

Osiyo xalqaro universiteti tayanch doktoranti

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

berdiyeva.sitora@gmail.com

INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTIDA KUZATILADIGAN TRAVMA KONSEPTINING BADIY ADABIYOTDAGI TALQINI



Fayzullayeva Nigina Sur'at qizi

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek adabiyotidagi psixologik travma konseptining badiiy adabiyotda talqini Komil Sindarov va Gillian Flynn asarlari misolida tahlil qilingan. Quyidagi maqola psixologik travma va ruhiy holatning badiiy obrazlar orqali ifodalanishi qiyosiy o'rganiladi. Kirish qismida mavzuning dolzarbligi – adabiyotda inson ruhiyatini va travmatik tajribalarni tasvirlashning ahamiyati – yoritiladi.

MAQSAD: Metodologiya bo'limida badiiy tahlil va qiyosiy adabiy metodlar qo'llanilib, asarlar ichki monolog, kompozitsiya va til vositalari nuqtai nazaridan tahlil qilishda iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: Natijalar qismida Komil Sindarovning tanlangan asari (jumladan, "O'g'irlangan bolalik") va Gillian Flynn qalamiga mansub "Gone Girl" ("Qayib qiz") hamda boshqa asarlaridagi psixologik travma motivlari ochib beriladi: qahramonlarning ruhiy kechinmalari, ichki monologlari hamda travmatik tajribalarining badiiy talqini misollar bilan ko'rsatiladi. Munozara bo'limida olingan natijalar asosida ingliz va o'zbek adabiyotida psixologik realizm va travma tasvirining o'xshash va farqli jihatlari hamda milliy mentalitetning bu talqinga ta'siri muhokama qilinadi.

XULOSA: Xulosa qismida esa tadqiqot yakunlari chiqarilib, psixologik travma konseptining adabiyotdagi talqinini o'rganish natijasida o'xshash va farqlanish nuqtalari umumlashtiriladi. Ushbu maqola adabiyotshunoslar va o'quvchilar uchun psixologik realizm, travma adabiyoti hamda madaniyatlararo adabiy jarayonlarning mazmunini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Psixologik travma, psixologik realizm, travma adabiyoti, badiiy obraz, ichki monolog, ruhiy holat, milliy mentalitet, Komil Sindarov "O'g'irlangan bolalik", Gillian Flynn "Gone Girl".

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КОНЦЕПТА ТРАВМЫ В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКИСТАНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Файзуллаева Нигина Суръатовна

Научный сотрудник Бухарского государственного университета

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье анализируется интерпретация концепта психологической травмы в художественной литературе на материале произведений Комила Синдарова и Джиллиан Флинн в контексте английской и узбекской словесности. Работа представляет собой сравнительное изучение того, как психологическая травма и душевные состояния воплощаются

через художественные образы. В разделе «Введение» обосновывается актуальность темы — значимость изображения внутреннего мира человека и травматического опыта в литературе.

ЦЕЛЬ: Раздел «Методология» предполагает применение методов художественного анализа и сравнительного литературоведения; произведения рассматриваются с точки зрения внутреннего монолога, композиции и языковых средств.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В разделе «Результаты» раскрываются мотивы психологической травмы в избранном произведении Комила Синдарова (в частности, «О'гирланган болалик» — «Ограбленное детство») и в романах Джиллиан Флинн «Gone Girl» («Qayib qiz») и других: показываются психологические переживания персонажей, их внутренние монологи и художественная интерпретация травматического опыта на примерах. В разделе «Дискуссия» на основе полученных данных обсуждаются сходства и различия в изображении психологического реализма и травмы в английской и узбекской литературе, а также влияние национального менталитета на эти интерпретации.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: В разделе «Заключение» подводятся итоги исследования и обобщаются точки сходства и расхождения в трактовке концепта психологической травмы в литературе. Статья предназначена для филологов и читателей, стремящихся глубже понять содержание психологического реализма, литературы травмы и межкультурных литературных процессов.

Ключевые слова: Психологическая травма, психологический реализм, литература травмы, художественный образ, внутренний монолог, душевное состояние, национальный менталитет, Комил Синдаров “Угирланган болалик”, Джиллиан Флинн “Gone Girl”.

INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF TRAUMA IN ENGLISH AND UZBEKISTAN LITERATURE IN FICTION

Fayzullayeva Nigina Sur'at qizi

Researcher at Bukhara State University

Annatation.

INTRODUCTION: This article analyzes the interpretation of the concept of psychological trauma in literature based on the works of Komil Sindarov and Gillian Flynn in the context of English and Uzbek literature. The study comparatively examines how psychological trauma and mental states are expressed through literary images. The introduction outlines the relevance of the topic — the importance of depicting the human psyche and traumatic experiences in literature.

THE GOAL: The methodology section applies literary analysis and comparative literary methods; the works are examined in terms of inner monologue, composition, and linguistic devices.

MATERIALS AND METHODS: The results section reveals psychological trauma motifs in Komil Sindarov's selected work (“O'g'irlangan bolalik” – “Stolen Childhood”) and Gillian Flynn's “Gone Girl” as well as other works: the psychological experiences of the characters, their inner monologues, and the artistic interpretation of their traumatic experiences are demonstrated with examples. The discussion section considers, on the basis of the findings, the similarities and differences in the depiction of psychological realism and trauma in English and Uzbek literature, as well as the influence of national mentality on these interpretations.

CONCLUSION: The conclusion summarizes the research results, generalizing the similarities and differences in the literary interpretation of the concept of psychological trauma. This article is intended for literary scholars and readers to gain a deeper understanding of psychological realism, trauma literature, and the content of intercultural literary processes.

Keywords: Psychological trauma, psychological realism, trauma literature, literary image, inner monologue, mental state, national mentality, Komil Sindarov “*O‘g‘irlangan bolalik*”, Gillian Flynn “*Gone Girl*”.

Bugungi kunda zamonaviy adabiyotda psixologik realizm va travma adabiyoti alohida ahamiyat kasb etmoqda. Adabiyot inson ruhiyatini, uning ichki dunyosini va kechinmalarini aks ettirish uchun qudratli maydon vazifasini o‘tashi bilan qimmatli. Xususan, psixologik travma – ya’ni, shaxsning boshidan kechirgan og‘ir ruhiy zarbalari va ulardan kelib chiqadigan kechinmalar – ko‘plab badiiy asarlarda markaziy mavzuga aylangan. Jahon adabiyotida XX asr davomida yozuvchilar turli uslub va usullar bilan insonning ichki dunyosini ochishning yangi qirralarini kashf eta boshladi. Inson ruhiyatini chuqur tasvirlash, qahramonning ichki kechinmalari va hissiyotlarini ifodalash – badiiy realizmning muhim vazifalaridan biri ekanligi bugun tan olingan. Psixologik analiz usuli adabiyotda tobora keng qo‘llanilmoqda, zero, o‘quvchi qalbiga ta’sir etuvchi eng kuchli vositalardan biri qahramonlarning ruhiy holatini haqqoniy tasvirlashdir. Shu bilan bir qatorda, ingliz va o‘zbek adabiyotida ham psixologik travma konseptining badiiy talqinini o‘rganish dolzarbdir. Ingliz adabiyotida, xususan, Gillian Flynn singari zamonaviy yozuvchilarning ijodida psixologik triller janri ravnaq topib, unda qahramonlarning murakkab ruhiy olami, travmatik tajribalar va ichki konflikti ochib beriladi. Gillian Flynn (1971 y.t.) Amerikaning mashhur yozuvchisi bo‘lib, “Sharp Objects” (“O‘tkir buyumlar”, 2006), “Dark Places” (“Qorong‘u makonlar”, 2009) va “Gone Girl” (“Qayib qiz”, 2012) kabi psixologik triller asarlari bilan tanilgan. Ayniqsa, “Gone Girl” romani nufuzli tanqidchilarning yuqori bahosiga sazovor bo‘lgan bo‘lib, unda noishonchli narratsiya (unreliable narration), syujetdagi kutilmagan burilishlar va yuqori darajadagi saqlab turuvchi usullari qo‘llangani alohida e’tirof etilgan. Ushbu asar global miqyosda bestseller darajasiga ko‘tarilgan va kitobxonlarni qahramonlar ruhiyati va ular o‘rtasidagi zaharli munosabatlar haqida jiddiy o‘ylashga majbur etgan.

O‘zbek adabiyotida esa mustaqillikdan keyingi davrda inson ruhiy olamini yoritishga intilish kuchaydi. Zamonaviy o‘zbek nasrida psixologik tahlil usuli ko‘zga tashlanib, Komil Sindarov kabi yozuvchilarning detektiv-qissa janrida ham inson psixologiyasiga chuqur e’tibor qaratilgan asarlari paydo bo‘ldi. Komil Sindarov – huquqshunos olim va detektiv asarlar muallifi sifatida kitobxonlarga yaxshi tanish bo‘lib, u tomonidan yaratilgan qator roman va qissalar o‘zbek adabiyotida jinoyat va inson ruhiyati mavzularini yoritishga qaratilgandir. Uning “So‘poqsoydagi sirli qotillik” (2021), “Qadr kechasidagi qotillik” (2021), “Kechikkan qasos” (2019) kabi asarlari jinoyat syujeti asosida jamiyat hayoti va inson kechinmalarini yoritadi. Ayniqsa, yozuvchining 2021 yilda chop etilgan “O‘g‘irlangan bolalik” nomli asari mazmun-mohiyati bilan diqqatga sazovordir. Ushbu detektiv qissada muallif ijtimoiy illatlar, oilaviy muhit va bolalikdagi travmalar mavzusini ko‘tarib chiqadi¹⁹. Asar syujetiga ko‘ra, sirli tarzda go‘dak bolalarning g‘oyib bo‘lishi, qotillik jinoyati va tergov jarayoni tasvirlanar ekan, muallif “hech kim onadan jinoyatchi bo‘lib tug‘ilmasligi”, bolalikda olingan tarbiya va ruhiy jarohatlar kelajakda shaxs qilmishlariga ta’sir ko‘rsatishi haqidagi g‘oyani ilgari suradi. Shu tariqa, Komil Sindarov jinoyatni faqat ko‘rinishdagi sarguzasht sifatida emas, balki uning ortidagi ruhiy-sotsial sabablar nuqtai nazaridan yoritishga intiladi.

Shunday qilib, maqolaning maqsadi – ingliz adabiyoti namoyandasi Gillian Flynn va o‘zbek adabiyoti namoyandasi Komil Sindarov asarlaridagi psixologik travma konseptini badiiy talqinini ilmiy jihatdan o‘rganishdir. Ushbu tadqiqot psixologik realizm va travma tasvirining har ikki adabiyotdagi o‘xshash jihatlari va milliy madaniy kontekstdan kelib chiqadigan farqlarini ochib berishga qaratilgan.

Komil Sindarov va Gillian Flynn qalamiga mansub tanlangan badiiy matnlar yaxlit o‘rganilib, ulardagi psixologik travma belgilari aniqlandi. Kvalitativ kontent tahlil usuli orqali asarlardagi

¹⁹ Sindarov K. *O‘g‘irlangan bolalik*. – Toshkent: Yangi Asr Avlodi, 2021. (Asar annotatsiyasidan parcha)

qahramonlarning ichki monologi, tasvir uslubi, badiiy detal va timsollar kabi jihatlar diqqat bilan ko'rib chiqildi. Komparativ (qiyosiy) yondashuv yordamida esa ikki muallif ijodidagi mushtarak mavzular hamda ularning badiiy ifodasi solishtirildi. Asosiy manbalar sifatida Komil Sindarovning "O'g'irlangan bolalik" asari hamda Gillian Flynnning "Gone Girl" romani tanlandi. "O'g'irlangan bolalik" asari matni va uning syujet-kompozitsion tahlili Sindarov ijodiga xos psixologik talqinlarni ochish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Flynnning "Gone Girl" romani va zarur o'rinlarda uning boshqa asarlari ("Sharp Objects", "Dark Places") analiz qilindi. Badiiy obrazlar tahlili asosida qahramonlarning ruhiy holatlari, psixologik portreti, travma izlari va ularning dialog hamda monologlarida ifodalanish uslublariga e'tibor qaratildi. Shuningdek, adabiy manbalar o'rganilib, zarur joylarda ilmiy dalillar keltirish uchun foydalanildi.

Metodologik jihatdan maqola interdistsiplinar yondashuvga ham ega bo'lib, psixologiya va adabiyot chorrahasida qaralayotgan mavzu uchun zarur hollarda psixologiya nazariyasining (masalan, psixoanaliz yoki travma nazariyasi) ayrim tushunchalari yodga olinib, adabiy matn talqinida qo'llandi. Jumladan, psixoanalitik adabiyotshunoslik elementi sifatida Gillian Flynn asarlaridagi qahramon ruhiyatini Freyd va Lakanning nazariyalari nuqtai nazaridan talqin etgan ilmiy ishlar ko'rib chiqildi. Bu yondashuvlar psixologik travmaning badiiy nutq va kompozitsiyaga ta'sirini chuqurroq tushunishga xizmat qildi. Umuman olganda, metodologiya qismi tadqiqotning izchilligi va ishonchligini ta'minlashga yo'naltirildi. Tanlangan materiallar va nazariy manbalar asosida olingan ma'lumotlar keyingi bo'limlarda izchil ravishda yoritiladi.

Komil Sindarov asarlarida psixologik travma talqini sifatida yozuvchining "O'g'irlangan bolalik" asari tahlili shuni ko'rsatadiki, muallif jinoyat syujetini psixologik realizm unsurlari bilan boyitgan. Asar markazida oilaviy muhit va tarbiyaning buzilishi natijasida voyaga yetgan shaxslar taqdiri turadi. "O'g'irlangan bolalik" nomining o'zi bolalikdagi yo'qotish va travmalar mavzusini ifoda etadi. Asarda bir qator go'dak bolalarning izsiz g'oyib bo'lishi va ularning ortida yotgan jinoyatlar zanjiri tasvirlanadi. Tergov jarayonini boshdan oxir kuzatar ekanmiz, muallif jinoyatchilarning shaxsiyatini ochib berishga alohida e'tibor qiladi. Ma'lum bo'ladiki, jinoyat sodir etgan shaxslarning aksariyati bolaligida qattiq ruhiy zarbalar olgan yoki tarbiyadagi kamchiliklar qurboniga aylangan insonlardir²⁰.

Komil Sindarovning "O'g'irlangan bolalik" asari muqovasi. Asarda bolalikdagi ruhiy jarohatlar va oilaviy muhitning buzilishi markaziy mavzu sifatida ko'tarilgan.

Muallif qahramonlarning ichki dunyosini bevosita tasvirlashdan ko'ra, ularning xatti-harakatlari va taqdirleri orqali psixologik travmani namoyon qiladi. Masalan, asarda voyaga yetganiga qaramay ichki dunyosi bolaligida qolib ketgan, mehr va e'tibordan mosuvo bo'lib ulg'aygan bir obraz uchraydi. Uning jinoyatga qo'l urishi zamirida bolalikda ko'rgan zo'ravonlik va e'tiborsizlik yotgani ochiladi. Shuningdek, tergov jarayonini olib borayotgan prokuror tergovchi Sanjarbek obrazining izlanishlari davomida u bolalar tarbiyasidagi xatoliklar, ota-onalarning beparvoligi haqida xulosa qiladi. Muallif tilida beriladigan ayrim falsafiy mulohazalar borki, ular asarning asosiy g'oyasini belgilaydi: "hayotda hech kim onadan jinoyatchi bo'lib tug'ilmaydi", balki "nosog'lom oilaviy muhit va loqaydlik insonni jinoyat ko'chasiga boshlaydi". Bu xulosalar Komil Sindarov asarining tagma'nosida yotgan psixologik travma nazariyasiga hamohangdir – ya'ni, bolalikdagi travma va ruhiy zarbalar kelgusida shaxsning buzuq yo'lga kirishiga turtki bo'lishi mumkin. Asardagi badiiy obrazlardan yana biri – jabrlanuvchi bolalarning ota-onalari – orqali ham travmaning ta'siri ko'rsatiladi. Farzandi bedarak ketgan ota-ona ruhiy holati, ularning ichki iztiroblari tasvirlangan sahnalar juda ta'sirli. Bu personajlar dialog va monologlarida qo'rquv, umidsizlik va ayb hissi kabi kechinmalar ochib beriladi. Komil Sindarov til vositalari orqali bu ruhiy holatni o'quvchiga yetkazishga erishadi: masalan, tasviriy detal sifatida ona qo'lidagi bolalik o'yinchog'i (yo'qolgan farzandidan yodgorlik) takror-takror ko'rsatilishi, onaning bo'sh xonani bag'riga bosib yig'lashi kabi manzaralar yordamida travma vizual va emotsional jihatdan

²⁰ Sindarov K. *O'g'irlangan bolalik*. – Toshkent: Yangi Asr Avlodi, 2021. (Asar annotatsiyasidan parcha)



gavdalantiriladi. Shuni ta'kidlash joizki, Komil Sindarovning boshqa ayrim asarlarida ham psixologik motivlar kuzatiladi. Masalan, "Kechikkan qasos" qissasida qasoskor qahramonning o'tmishda ko'rgan aziyati uning butun umrini zaharlab, jinoyatga yetaklagani tasvirlanadi. "Dorixonadagi qotillik" hikoyasida jinoyatchining psixologik portreti – uning g'ayrioddiy ruhiy holati va qotillikka olib kelgan ichki sabablar – ochib beriladi. Biroq, aynan "O'g'irlangan bolalik" asarida muallif travma va jinoyat bog'liqligini eng to'g'ridan-to'g'ri hamda keng qamrovda ko'rsatgan. Bu asar orqali o'zbek o'quvchisi uchun yangi bo'lgan bir jihat – travma adabiyoti unsurlari – detektiv janr bilan uyg'unlashtirilganini ko'rish mumkin.

Gillian Flynn asarlarida psixologik travma talqini sifatida esa "Gone Girl" romaniga murojaat etadigan bo'lsak. Ushbu asar syujeti syurprizlarga boy triller bo'lsa-da, uning zamirida teran psixologik tahlil yotadi. Romanning bosh qahramonlari – er-xotin Nik va Emi Dann – ning o'zaro munosabatlari va ichki dunyosi voqealar rivojida tobora murakkablashib boradi. Hikoya ikki narrator – Nik va Emi – nigohi bilan, almashinib beriladi, bu esa voqelikni har ikki tarafning ruhiy prizmasidan ko'rish imkonini beradi. Dastlab o'quvchi Emi Dannning shaxsini uning kundaligidan (ichki monolog tarzidagi esdaliklaridan) tanir ekan, Flynn kitobxonni Emi obraziga achinish va hamdardlik hissi bilan bog'laydi. Biroq syujet davomida ma'lum bo'ladi, bu kundalik yozuvlari soxtalashtirilgan – Emi o'z o'rniga erini aybdor qilib ko'rsatish uchun yolg'on hikoya tuzgan. Bu usul – noishonchli narrator (unreliable narrator) qo'llash – asarning boshidan o'quvchini qahramon ruhiy holatining turli qatlamlariga tortadi va ruhiy manipulyatsiyaning o'zini ham badiiy vositaga aylantiradi. Emi Dann obrazi zamonaviy ingliz adabiyotidagi eng murakkab psixologik qahramonlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Uning harakat va qarorlarining tagida bolalik va o'smirlik davridagi tajribalar muhim rol o'ynagan. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, Emi bolaligi ma'lum ma'noda "o'g'irlangan bolalik" bo'lgan – ota-onasi uning hayotiy voqealarini asos qilib, "Amazing Amy" ("Ajoyib Emi") nomli bolalar kitoblari seriyasini yozgan va unda Emidan-da mukammalroq qahramon obrazini yaratgan. Boshqacha aytganda, Emi o'z ota-onasi tomonidan yaratilgan ideal qiyofaga mos bo'lishga majbur bo'lib o'sgan. Bu holat Emida yoshligidan boshlab kuchli ruhiy bosim va ichki konflikt uyg'otgan: u doimo o'zining "ajoyib" adabiy alter-egosidan qolishmaslikka, har jihatdan mukammal ko'rinishga intilib yashagan. Natijada, Emi xarakterida ikki xil qiyofa – tashqarida muloyim, zukko va "mukammal" ko'rinishga urinuvchi riyoakar niqob hamda ichkarida chuqur ko'ngilsizlik va g'azabga to'la, manipulyativ tabiat – shakllangan. Asarda Emi o'z hayotini nazorat qilishga va boshqalarni o'ziga bo'ysundirishga ruju qo'ygan shaxs sifatida namoyon bo'ladi; bunday ekstremal xarakter shakllanishida uning bolaligidagi tajribalar hal qiluvchi omil bo'lgani matn kontekstida ayon bo'ladi. Emi obrazida psixopatik xususiyatlar namoyon bo'ladi: u o'z maqsadi yo'lida yolg'on va nayrangdan foydalanadi, ayyorona reja tuzib, o'zining yo'qolib qolganini sahnalashtiradi va erini qotillik ayblovi ostida qoldiradi. Bu xatti-harakatlar ortida uning chuqur ruhiy jarohati – hayotidagi nazoratni yo'qotishdan qo'rqishi va o'zi yillar davomida ergashib kelgan "ideal" qiyofadan chetga chiqib ketgan hayotidan qoniqmaslik hissi yotadi. Romanning ikkinchi qismida Emi qochqinlikda yurgan paytda unga ko'ngilsizliklar ro'y beradi (masalan, pulini o'g'irlashadi), shu lahzalarda uning ichki monologlarida qo'rquv va travma alomatlari yuzaga keladi. Garchi Emi – ruhiy buzilishlari jiddiy bo'lgan, boshqalarga zarar yetkazuvchi bir qahramon bo'lsa-da, muallif uning obrazini psixologik jihatdan ishonarli tasvirlay olgan: o'quvchi Emiga ham nafrat, ham achinishni his etishi mumkin. Chunki asar davomida uning shaxsiyati yomonlik uchun yomon emasligi, balki o'ziga xos shaxsiy travmalar mahsuli ekani anglashiladi. Bu bilan Flynn travma qanday qilib inson ongini laylatishi va uni jamiyat uchun xavfli maskaga solishini ko'rsatadi. Nik Dann obrazida ham ma'lum psixologik jarohatlar mavjud. Nikning otasi ayollarga nisbatan qo'pol muomala qiluvchi, misogenistik shaxs bo'lgani va onasi bilan ajrashgani romanda eslatib o'tiladi; bu esa Nikning turmushiga bilvosita ta'sir o'tkazgan. Nik o'z otasiga o'xshab qolishdan qo'rqadi, ich-ichidan o'zini ishonchsiz his qiladi. U hayotida ma'lum bir inqiroz davrini boshdan kechirayotgan paytda – ishsizlik, onasining kasalligi va

turmushining sovuqlashishi davrida – xiyonat yo‘liga kiradi. Bu xatti-harakati, albatta, qoralashga loyiq; lekin muallif Nikning ham ichki tuyg‘ularini ko‘rsatib, uning hayotidagi stress va ruhiy siqilishlari qarorini chalg‘itganini ifodalaydi. Nikning hikoyasi birinchi shaxsda (ichki monolog tarzida) berilgani tufayli, o‘quvchi uning pushaymonliklari, qo‘rquvlari va umidsizliklarini bevosita his qiladi. Ayniqsa, Emi g‘oyib bo‘lib, barcha ayblovlar Nikka tushganda, Nikning ichki dunyosidagi iztirob va ikkilanishlar aniq tasvirlangan: u bir tarafdin begunaholigini isbotlashga urinadi, ikkinchi tarafdin esa xotini boshiga kelgan noma‘lum kulfatdan qo‘rqadi. Bu jarayonda Nik ham o‘z-o‘zini savolga tutadi – u yaxshi er bo‘la oldimi yoki yo‘q, qayerda xato qildi – bunday o‘zini ayblash larzasi ham travmatik holatning alomati sifatida qaralishi mumkin.

Gillian Flynnning boshqa asarlarida ham psixologik travma markaziy o‘rin tutadi. Masalan, “Sharp Objects” romanida bosh qahramon Kamilla Prikerning bolalikda boshidan kechirgan fojialari (onasi tomonidan ko‘rsatilgan zulm va singlisining o‘limi) uning ruhiyatida chuqur iz qoldirgani hikoya qilinadi. Kamilla o‘z tanasiga so‘zlar o‘yib yozadigan darajada og‘ir ruhiy buzilishdan aziyat chekadi – bu uning ichki azoblarini badiiy timsollar (tanadagi yozuvlar) orqali namoyon etishning yorqin misolidir. “Dark Places” asarida esa qahramon Libbi Dey 7 yoshida butun oilasining qatl etilishiga guvoh bo‘lgan va bu dahshatli travmadan keyin voyaga yetgan. Flynn bu asarda Libbi obrazida travmaning odam hayotini qanday “qora makon”ga aylantirishi, uning dunyoqarashini toraytirishi, ishonchini yo‘qotishi va odamlardan yiroqlashishga olib kelishini mahorat bilan tasvirlagan. Masalan, Libbi yillar davomida depressiya va ishonchsizlik bilan yashaydi, moddiy qiyinchilikda qoladi – bu holatlar bolalik travmasi oqibatlari sifatida talqin etiladi.

Umuman olganda, Gillian Flynn asarlarida travma konsepti ko‘pincha jinoyat va zo‘ravonlik kontekstida gavdalanadi. U o‘z qahramonlarini o‘ta ekstremal vaziyatlarga soladi va ularning ruhiy reaksiyalarini ko‘rsatadi. Muallif til va uslub jihatdan juda jo‘n va realistik tasvirga urg‘u beradi: qo‘pol so‘zlar, naturalistik detallar, shafqatsiz voqealarni ochiq tasvirlash – bularning bari travmaning haqqoniy ifodasiga xizmat qiladi. Flynnning ichki monologlari o‘quvchini qahramonlar ongining eng qorong‘i burchaklariga olib kiradi; bu monologlarda travmadan keyingi stress alomatlari, ruhiy buzilishlar aniq seziladi. Badiiy detallardan foydalanishda ham muallif juda izchil: masalan, “Gone Girl”da Emi yozib qoldirgan soxta kundalik daftarining topilishi – bu oddiy syujet elementi bo‘lib qolmay, balki Emi ongining bir ko‘rinishi, uning iztiroblarining hujjati sifatida ham o‘qiladi (kundalikda u erining unga munosabati haqida yozar ekan, aslida bu yozuvlar orqali Emi o‘z dardini, e‘tiborsizlikdan aziyat chekayotganini bildirib qo‘yadi). Yuqoridagi tahlillar natijasida ikkala muallif – Komil Sindarov va Gillian Flynn – o‘z asarlarida psixologik travmani turlicha talqin qilishsa-da, ikkisiga ham xos jihatlar borligi aniqlanadi.

Psixologik travma konsepti ingliz va o‘zbek adabiyotida, muayyan vakillar misolida, o‘ziga xos tarzda talqin etilar ekan. Endi ushbu talqinlarning o‘xshash va farqli jihatlarini taqqoslab, ularning milliy mentalitet va adabiy an‘analarga bog‘liqligini muhokama qilamiz. Avvalo shuni aytish joizki, Komil Sindarov ham, Gillian Flynn ham o‘z asarlarida inson ruhiyatidagi jarohatlarning hayotiy ahamiyatini ko‘rsatishga intilgan. Har ikki adib qahramonlarning o‘tmishiga murojaat qilib, bugungi xatti-harakatlarini tushuntiradi. Masalan, Komil Sindarov jinoyatchining bolaligidagi travmalariga urg‘u bersa, Gillian Flynn Emi yoki boshqa obrazlarning bolaligidagi ruhiy zedalanishlariga diqqat qaratadi. Bu jihatdan, har ikkala muallif travma – inson shaxsini shakllantiruvchi muhim omil ekanini badiiy ravishda tasdiqlashadi. Bundan tashqari, har ikki adib asarlarida ichki monolog va psixologik tasvirga katta e‘tibor qaratilgan. To‘g‘ri, Flynn ichki monologni bevosita birinchi shaxs nutqi (Nik hikoyasi yoki Emi kundaligi) orqali bersa, Sindarov ko‘proq uchinchi shaxs tasviridan foydalansa-da, qahramonlarning ruhiy holatini o‘quvchiga yaqinlashtirishga xizmat qiluvchi tasviriy usullar har ikkalasida mavjud. Misol uchun, Sindarovda jabrlanuvchi onaning iztirobi tasvirini olaylik – garchi u biror monolog shaklida berilmasa-da, muallif hissiy detallarga zo‘r berib, o‘quvchi ko‘z o‘ngida o‘sha ruhiy iztirob manzarasini

jonlantira oladi. Flynn asarlarida esa qahramonlarning ichki ovozi bevosita eshitaladi – Nikning o‘ziga “Men bunday emasman” deya takrorlashlari yoki Emining ichki g‘azabini o‘ziga-yu boshqalarga tan oldirmaslik uchun “rol o‘ynashi” kabi holatlar. Demak, psixologik realizm usuli har ikki muallifga xos bo‘lib, ular vositasida travma va ruhiy jarayonlar ifodalangan.

Har ikki muallif ham travma mavzusini biror syujet intrigasiga singdiradi. Ya’ni travma faqat qahramon xotiralarida qolib ketmaydi, balki voqealar rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Sindarovda bolalikda ko‘rilgan zo‘ravonlik jinoyatga yetaklaydi, Flynn’da esa (ayniqsa “Gone Girl” misolida) bolalikdan shakllangan buzilgan shaxsiyat (Emi) butun syujetni harakatga keltiradi – o‘zining g‘oyib bo‘lish sahnasini tashkil qilishi, eridan qasos olishi. Bu anglatadiki, travma nafaqat ichki kechinma, balki syujet sabab (motivatsiya) sifatida xizmat qilmoqda. Shunday qilib, travma konsepti har ikki adib asarining dramatik strukturasiga asos soluvchi omil darajasida ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, endi muhim farqlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, u avvalo janr va uslubdagi tafovutlarda namoyon bo‘ladi. Komil Sindarov asosan detektiv/adabiy jinoyat janrida yozadi. Uning asarlarida sarguzashtli syujet, tergov jarayoni, jinoyatchini fosh etish – bular markazda turadi. Psixologik travma esa ushbu syujetning mazmuniy qatlamini chuqurlashtiruvchi ikkilamchi omil sifatida kiradi. Yozuvchi jinoyat sabablarini tushuntirish jarayonida psixologik tahlilga murojaat qiladi. Biroq baribir asar nihoyasida adolat tantanasi, jinoyatchining jazosini olishi, muammo yechilishi kabi an’anaviy detektiv xulosa kuzatiladi. Mazmunan Komil Sindarov asarlari ko‘proq ibrat va ogohlik ruhi bilan sug‘orilgan – masalan, “O‘g‘irlangan bolalik” asari jamiyatga ogohlantiruv xulosasi bilan yakun topadi, ota-onalarga tarbiyadagi mas’uliyatni eslatish ohangida tugallanadi. Bu hol, albatta, milliy mentalitet va o‘zbek adabiyotining ma’naviy-estetik tamoyillariga bog‘liq: odatda o‘zbek adabiyotida asar yakunida ma’lum tarbiyaviy xulosa chiqarish, ijobiy yakun yasash an’anasi kuchli.

Gillian Flynn esa psixologik triller janrida ijod qiladi. Uning asarlarida detektiv unsurlar bo‘lsa-da, asosan, voqealarning dramatik va psixologik tomonlari ko‘proq urg‘ulanadi. Flynn syujetlari ko‘pincha noan’anaviy yakun topadi: masalan, “Gone Girl” romani oxirida Emi va Nik yana birga yashashda davom etadi – bu “baxtli yakun” emas, balki zaharli munosabatlarning davomiyligi bo‘lib, o‘quvchida xavotirli ta’sir qoldiradi. Yozuvchi jamiyatga ochiq bir didaktik xulosa bermaydi; aksincha, o‘quvchini larzaga soluvchi haqiqatlarni ko‘rsatib, uni mulohaza qilishga undaydi. Bu ham, o‘z navbatida, G‘arb adabiyotiga xos postmodern uslub bilan bog‘liq bo‘lib, hayotning murakkabligi, muammolarining doim ham hal bo‘lavermasligi g‘oyasini beradi. Milliy mentalitet nuqtai nazaridan qaraganda, Flynnning amerika jamiyatiga oid keskin tanqidlari va individualizm masalasi yaqqolroq. Masalan, **“Gone Girl”**da u ommaviy axborot vositalarining (media) jamoatchilik fikriga ta’sirini, nikoh institutining soxtaligini tanqid qiladi. O‘zbek adabiyotida esa aksincha, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, jamiyatni birlashtiruvchi g‘oyalarni ilgari surish tendensiyasi kuchli. Sindarov asarida ham jinoyatga qaramay, oilaviy mehr va insoniylik qadriyat sifatida ulug‘lanadi: masalan, tergovchi Sanjarbek obrazi adolat va rahm-shafqat timsoli sifatida ijobiy yoritiladi.

Bundan tashqari, tasvir uslubi borasida ham farq seziladi. Flynnning tili keskin va to‘g‘ridan-to‘g‘ri; u ruhiy holatlarni tasvirlashda ko‘pincha qorong‘i, hatto grotesk manzaralarga murojaat qiladi. Masalan, **“Sharp Objects”**da keltirilgan some’istik timsollar (tanaga yozilgan so‘zlar) ancha qo‘rqinchli tasvirlar bo‘lib, o‘quvchida noqulaylik hissi uyg‘otadi – ammo shu orqali muallif travmaning dahshatini his ettiradi. Komil Sindarov esa nisbatan bosiqroq uslubda yozadi: zo‘ravonlik sahnalari yoki ruhiy ekstremal holatlar jilovlangan holda, ixcham tasvirlanadi. O‘zbek madaniyatidagi badiiy andaza ham bunga ta’sir ko‘rsatgan bo‘lishi mumkin – ya’ni, haddan ziyod naturalizm yoki ochiq zo‘ravonlik tasviri odatda cheklanadi. Sindarov travmani ko‘rsatishda ko‘proq kontekstual usulni tanlaydi: ijtimoiy muhit, dialog, qahramonlarning qarorlarida u namoyon bo‘ladi, lekin oshkora hayqirib chiqmaydi. Flynn esa travmani qahramonlarning har bir so‘zida va harakatida namoyon etadi, ba’zan keskinlikni ekstremumga yetkazadi. Flynn qahramonlari ko‘pincha anti-qahramonlardir yoki hech bo‘lmaganda

murakkab, moxov xarakterlardir. Emi, Kamilla, Libbi kabi obrazlarni sevimli yoki oʻrnak qahramon deyish qiyin; ular koʻpincha yo adashgan, yo xavfli shaxslar. Sindarov asarlarida esa anʼanaviy qahramon-antagonist tuzilmasi saqlanadi: tergovchi, qonun himoyachisi yoki ijobiy obrazlar va ularga qarshi jinoyatchilar. Albatta, Sindarov jinoyatchilarni biryoqlama yovuz emas, balki achinish uygʻotuvchi jabrlangan shaxs sifatida ham koʻrsatadi – bu orqali psixologik yondashuv seziladi. Lekin baribir axloqiy jihatdan oq va qora ranglar maʼlum darajada farqlangan. Flynn esa koʻproq kulrang zonada ish koʻradi: masalan, Nik ham jabr koʻrgan tomonmi yoki gunohkormi – buni aniq ajratish qiyin; Emiga nisbatan ham kitobxon bir vaqtning oʻzida nafrat va hamdardlik his qilishi mumkin. Bu koʻpqatlamlilik travma mavzusini yanada murakkablashtiradi va oʻquvchini oddiy hukm chiqarishdan qaytaradi.

Yuqoridagi farqlar va oʻxshashliklar, tabiiyki, ikki xalqning madaniy va adabiy anʼanalari, shuningdek, jamiyatning travma mavzusiga munosabatidan kelib chiqadi. Oʻzbek jamiyatida ruhiy jarohatlar mavzusini ochiq muhokama qilish, ayniqsa oilaviy zoʻravonlik yoki psixologik kasalliklar borasida, hanuz nisbatan yopiq mavzu hisoblanadi. Adabiyotda bu mavzular koʻtarilganda ham, odatda, oʻquvchiga “ogʻriqni koʻrsatish” emas, balki “ogʻriqdan saboq berish” maqsadi koʻzlanadi. Komil Sindarovning “Oʻgʻirlangan bolalik” asarida ham muallif aslida jamiyatga saboq beradi: bolalarga eʼtiborli boʻlaylik, aks holda oqibat yomon boʻlishi mumkin degan gʻoya oʻquvchiga yetib boradi. Bu milliy tarbiya va mentalitet kontekstida toʻgʻri keluvchi xulosa.

Amerika jamiyatida esa psixologik travma haqida ochiq gapirish, uni madaniyat, adabiyot va hatto pop madaniyatda aks ettirish anchayin odatiy. Jamiyatda ruhiy salomatlik mavzusiga eʼtibor yuqori, shu bois adabiyotda ham ruhiy buzilishlar va travmatik holatlar keng tasvirlanadi. Gillian Flynn asarlarida, masalan, media va jamoatchilikning travmatik voqealarga reaksiyasi ham beriladi: “Gone Girl”da Eming yoʻqolishi televideniye va matbuotda shov-shuvga aylanishi, qurbon rolini oʻynagan Emiga jamiyat achinishi – bular travma atrofida jamiyatning munosabatini ham koʻrsatadi. Oʻzbek asarlarida bunday keng ijtimoiy tafovutlar kamroq, koʻproq oilaviy doiradagi voqea sifatida qoraladi. Bu farq ham milliy mentalitetdan darak: Gʻarbda individual voqea ham jamoatchilik muhokamasiga tez tushadi, sharqda esa koʻpincha “uy ichidagi sir” tarzida qoladi.

Xulosa qilib aytganda, Komil Sindarov va Gillian Flynn misolida ingliz hamda oʻzbek adabiyotida psixologik travma konsepti bir qancha umumiy qirralarga ega boʻlsa-da, ularning talqinida janriy, uslubiy va madaniy xususiyatlar sababli sezilarli farqlar mavjud. Har ikkisi ham psixologik realizmga tayanadi, lekin biri anʼanaviyroq va didaktik ruhda, ikkinchisi esa zamonaviy va provokatsion uslubda bu konseptni yoritadi.

Yuqoridagi tahlil va muhokamalar asosida bir qator xulosalarga kelish mumkin. Avvalo, psixologik travma konsepti badiiy adabiyotda teran maʼno qatlamlarini yuzaga keltiruvchi muhim omil ekani tasdiqlandi. Komil Sindarov va Gillian Flynn asarlari misolida koʻrdikki, travmatik tajribalar qahramonlarning xarakteri, xulq-atvori va hatto asar voqealarining borishida hal qiluvchi rol oʻynaydi. Inson ruhiyatidagi chuqur jarohatlarni badiiy tasvirlash orqali mualliflar inson tabiatini anglash, jamiyatdagi illatlarni fosh etish va kitobxonni ruhiy tarbiya etish kabi turli maqsadlarga erishadilar. Psixologik realizm usuli ham ingliz, ham oʻzbek adabiyotida oʻz oʻrniga ega boʻlib, qahramonlarning ichki olamini ochish bugungi adabiy jarayonning dolzarb yoʻnalishlaridan biriga aylangan. XX asrdan boshlab oʻzbek adabiyoti ham bu borada salmoqli qadamlar qoʻyganini koʻramiz – ilgari faqat ijtimoiy muammolar tashqi tasviri bilan chegaralangan asarlar oʻrniga endi inson qalbining intim manzaralariga kirib boruvchi asarlar yaratilmoqda. Komil Sindarov ijodi buning yaqqol misollaridan boʻlib, u detektiv janr doirasida boʻlsa-da, qahramonlar ruhiy kechinmalarini, travmadan pushaymon boʻlish yoki travma taʼsirida jinoyatga qoʻl urish holatlarini ishonarli ifodalagan. Shu bilan birga, Komil Sindarov oʻz asarlarida milliy mentalitet va maʼnaviy qadriyatlarga mos tarzda xulosa chiqarishni ham unutmaydi – bu uning travma konseptini talqin qilishda axloqiy-ibratli yoʻsinga tayanishini koʻrsatadi.

Gillian Flynn misolida esa anglashildiki, G'arb adabiyotida travma tasviri ko'pincha keskin, provokatsion va ko'pqatlamlidir. Flynnning qahramonlari orqali travmaning shaxs hayotini izdan chiqarishi, ijtimoiy aloqalarni buzishi va insonni o'zgacha yo'l tutishga majbur qilishi ekstremal syujetlar vositasida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, "Gone Girl" romanida bolalikda yuzaga kelgan ruhiy bosim (ota-onaning "mukammal farzand" yaratish ambitsiyasi) va turmushdagi ruhiy jarohatlar (er-xotin o'rtasidagi ishonchsizlik, xiyonat) qanchalik dahshatli oqibatga – yolg'on va zo'ravonlik o'yinga – olib kelishi ko'rsatilgan. Flynn travma va jinoyatni murakkab qorishmada tasvirlab, kitobxonga ahloqiy jihatdan qiyin savollarni qo'yadi; o'quvchi ham qahramonlarni qoralash, ham tushunishga harakat qiladi. Bu jihatdan Flynn asarlarida psixologik travma konsepti nafaqat individual, balki kulturaviy va ijtimoiy ma'noda ham talqin etiladi – chunki u Amerika jamiyatidagi gender rollari, media ta'siri, ruhiy salomatlik muammolarini ham qahramonlar taqdiri orqali muhokama qiladi.

Qiyosiy o'rganish shuni ko'rsatdiki, ingliz va o'zbek adabiyotlari o'rtasida psixologik travma tasvirida mushtarak mohiyat va mahalliy rang birgalikda namoyon bo'ladi. Mushtarak jihati – psixologik realizmga intilish, inson ruhiyatini haqqoniy va chuqur tasvirlashga bo'lgan intilish. Mahalliy xususiyati – har bir adabiyotning o'z me'yorlari va ko'nikmalari: biri ruhiy jarohatni ochiq va keskin shaklda ifodalasa, ikkinchisi buni sha'ma va ijtimoiy-estetik doirada ifoda etadi.

Ushbu tadqiqot natijasida adabiyotshunoslik uchun muhim xulosalardan biri shuki, travma adabiyoti turli milliy kontekstlarda rang-barang ko'rinish kasb etsa-da, uning asosida yotgan insoniy hissiyotlar hamma joyda umumbashariydir. Qo'rquv, alam, iztirob, intiqom kabi tuyg'ular har bir xalq adabiyotida o'z so'zini topadi. Biroq ularni ifodalash uslubi, badiiy janr tanlovi va xulosa chiqarishdagi yondashuv adibning madaniy taalluqligiga ko'ra shakllanadi.

Maqolada ko'tarilgan mavzular – psixologik realizm, travma va milliy mentalitetning o'zaro aloqasi – kelgusida yanada chuqurroq tadqiq qilinishi mumkin. Masalan, boshqa o'zbek adiblar (Tohir Malik, Xurshid Do'stmuhammad kabi detektiv-psixologik asar yaratgan yozuvchilar) va boshqa ingliz-amerika mualliflari (masalan, Stefen King, Ian MakEuan singari travma va ruhiyatni chuqur tadqiq etgan adiblar) ijodini solishtirish qiziqarli bo'lar edi. Shuningdek, psixologik travma tasvirining o'zbek kitobxoni qabulida qanday iz qoldirishi, yoki G'arb kitobxonining bunga munosabati kabi masalalar ham alohida tadqiqotga arzigulikdir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, psixologik travma konseptining badiiy talqini – adabiyotda inson qalbining eng nozik va dramatik sahifalarini ochib beruvchi kalitdir. Komil Sindarov va Gillian Flynn ijodini tahlil qilish orqali biz adabiyotda psixologik realizmning yangi qirralarini ko'rdik, travma adabiyotining ta'sir kuchini his qildik. Ushbu o'rganish nafaqat adabiy jarayonni tushunishga, balki turli millat adabiyotlaridagi o'xshash insonga xos kechinmalarni anglashga ham xizmat qildi. Bu esa, o'z navbatida, adabiyotning umuminsoniy ko'priq vazifasini tasdiqlaydi – u joy va zamon osha, turfa uslub va ohanglarda bo'lsa-da, inson ruhiyatining yagona haqiqatlarini bizga yetkazaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sindarov K. O'g'irlangan bolalik. – Toshkent: Yangi Asr Avlodi, 2021. (Asar annotatsiyasidan parcha).
2. Benazir S. A Psychoanalytic Study of Gillian Flynn's Amy Elliott Dunne with reference to Lacan's Three Stages of Identity Formation. – New Literaria, 2023. (Maqoladan parchalar).
3. Gone Girl (Wikipedia maqolasi) – romanning qabul qilinishi haqidagi ma'lumotlar.
4. Rasulov B. Badiiy asarda psixologik tahlil printsiplari. – FarDU Ilmiy xabarlar, 2022, №2. (O'zbek adabiyotida psixologik tahlil haqida).
5. Qodirov Z. Zamonaviy o'zbek detektiv adabiyoti taraqqiyoti. – ISRG Publishers, 2023. (O'zbek detektiv adabiyotida Komil Sindarov o'rni haqida).
6. Flynn G. Gone Girl. – Nyu-York: Crown Publishing, 2012. (Asar matni tahlili).



7. Flynn G. Sharp Objects. – Nyu-York: Broadway Books, 2006. (Asar matni tahlili).
8. Flynn G. Dark Places. – Nyu-York: Shaye Areheart Books, 2009. (Asar matni tahlili).

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Fayzullayeva Nigina Sur'at qizi

Buxoro Davlat Universiteti Mustaqil izlanuvchisi

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

nfayzullayeva94@gmail.com

ORCID: 0009-0009-0838-1382

2-jadvalda 2014–2025 yillarda chop etilgan maqolalar asosida kalit so’zlarning qo’llanish chastotasiga asoslangan hamkorlik diagrammasi keltirilgan. Har bir dumaloq tugun alohida kalit so’zni bildiradi, tugun kattaligi esa uning takrorlanish chastotasiga mutanosib. Yirik tugunlar ko’proq qo’llanilgan kalit so’zlarni bildiradi va tadqiqotning asosiy yo’nalishlarini yoritadi. Tugunlarni bog’lovchi chiziqlarning qalinligi kalit so’zlarning o’zaro aloqasi darajasini anglatadi; qalin chiziqlar ular ilmiy adabiyotlarda tez-tez birgalikda qo’llanilishini bildiradi.

Diagrammadan ko’rinib turibdiki, “sun’iy intellekt” (artificial intelligence) eng yirik tugun sifatida ajralib turib, tadqiqotlarning asosiy e’tiborini belgilaydi. Shundan keyin “SI savodxonligi” (“artificial intelligence literacy”), “mashinali o’rganish” (“machine learning”), “ma’lumot savodxonligi” (“data literacy”) va “SI ta’limi” (“AI education”) kabi yo’nalishlar muhim tadqiqot maydonlari sifatida shakllangan. So’nggi yillarda esa “ChatGPT,” “generativ sun’iy intellekt,” va “raqamli savodxonlik” kabi yangi tushunchalar paydo bo’lib, dolzarb tadqiqot yo’nalishlariga aylangan. Bu holat zamonaviy SI savodxonligi ta’limi tadqiqotida ularning o’sib borayotgan ahamiyatini ko’rsatadi.

Jadval 2.

2014–2025 yillarda SI savodxonligi ta’limi tadqiqotlarida asosiy kalit so’zlar, ularning chastotasi va ilmiy yo’nalishdagi o’rni

Kalit so’z	Chastota	Yo’nalishdagi o’rni
Artificial intelligence	120	Asosiy markaz
Machine learning	85	Texnik asos
Artificial intelligence literacy	70	Asosiy yo’nalish
Data literacy	65	Qo’shimcha yo’nalish
Digital literacy	55	Yangi konsepsiya
ChatGPT	50	Yangi texnologiya
Generative AI	48	Innovatsion yo’nalish

Higher education	40	Ta'lim konteksti
Information literacy	38	Axborot asoslari
Media literacy	32	Raqamli kompetensiya

Bundan tashqari, 2-jadvalda SI savodxonligi bo'yicha tadqiqotlarning to'rtta rivojlanish yo'li aniqlangan:

1. **Sun'iy intellekt → Mashinali o'rganish → Kompyuter tafakkuri → SI savodxonligi → Baholash → ChatGPT → Generativ AI → Akademik halollik.**

Ushbu yo'nalish asosan SI ning turli sohalarga, xususan ta'lim sohasiga integratsiyasi va ta'siriga qaratilgan. So'nggi yillarda generativ SI ning ta'limdagi qo'llanilishiga talabalar munosabati ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan (masalan, Cardon va boshq. 2023; Chai va boshq. 2021; Relmasira va boshq. 2023). Shuningdek, SI savodxonligini shakllantirish uchun o'quv dasturlarini ishlab chiqish ham dolzarb yo'nalishlardan biri bo'lib, bu masala Kong va hamkorlari (2022; 2023b) tomonidan tadqiq qilingan.

2. **Algoritmik savodxonlik → Axborot savodxonligi → Oliy ta'lim → Xulqiy niyat → Texnologiya → Qabul qilish.**

Ushbu yo'nalish algoritmik savodxonlik masalasiga qaratilgan bo'lib, uning ta'rifi va strukturaviy ahamiyati Shin (2022) va Shin va boshq. (2022) tadqiqotlarida yoritilgan. Ayniqsa, Ridley va Pawlick-Potts (2021) algoritmik savodxonlik foydalanuvchilarga SI ta'sirini anglash va uni mas'uliyat bilan qo'llash imkonini berishini ko'rsatgan. Bu yo'nalishda, shuningdek, SI savodxonligini o'lchash, uni talabalar yuqori darajadagi tafakkuri va axborot savodxonligi rivojlanishiga ta'siri muhim yo'nalish sifatida ko'rilgan (Smith & Matteson, 2018; Wang va boshq., 2023a; 2023b).

SI savodxonligi bo'yicha tadqiqotlarning uchinchi va to'rtinchi yo'nalishlari

Uchinchi tadqiqot yo'li: *ma'lumot savodxonligi → etika → ta'lim → ma'lumotlar ilmi → statistika → katta ma'lumotlar → maxfiylik.*

Bu yo'nalish ma'lumot savodxonligi, etika, ta'lim, ma'lumotlar ilmi, statistika, katta hajmdagi ma'lumotlar va maxfiylik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qiladi. Tadqiqotlar ma'lumot savodxonligining tobora ortib borayotgan ahamiyatini va SI hamda ma'lumotlar ilm-fanining turli ta'lim va kasbiy sohalarda integratsiyasini yoritadi. Masalan, Gray va boshq. (2018) hamda Markham (2020) jadal ma'lumot oqimi va infratuzilma rivojlanish davrida jamiyat hayotini tanqidiy tahlil qilish uchun jamoatchilikning ma'lumot savodxonligini kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi. Ma'lumotlarga asoslangan madaniyatning rivojlanishi ayniqsa maktab va kollej bosqichidagi o'quvchilar hamda o'qituvchilarning ma'lumot savodxonligini rivojlantirishga ehtiyojni oshirdi (Gould, 2021; Loftus va Madden, 2020).

To'rtinchi tadqiqot yo'li: *raqamli savodxonlik → media savodxonlik → savodxonlik → talabalar.*

Ushbu yo'nalish raqamli savodxonlik va media savodxonlikning Internet davrida SI texnologiyalarini rivojlantirishdagi samaradorligini o'rganadi. Xususan, Hwang va boshq. (2023) hamda Kozyreva va boshq. (2020) ishlari ushbu jarayonlarni yoritgan. Tadqiqotlar shuningdek SI savodxonligini rivojlantirish muhimligini ta'kidlab, uning innovatsion faoliyatda va SI davrida asosiy kompetensiyalarni kuchaytirishda hal qiluvchi o'rin tutishini ko'rsatgan (Santoso va boshq., 2019).

Yuqori chastotali kalit so'zlar (2014-2025)

Jadval 3. SI savodxonligi tadqiqotlarida tez-tez uchraydigan kalit so'zlar

№	Kalit so'z	Chastota	Yil
1	Artificial intelligence	107	2019
2	Artificial intelligence literacy	55	2019
3	Machine learning	34	2019

4	Data literacy	20	2017
5	AI education	19	2020
6	Digital literacy	18	2019
7	Information literacy	16	2018
8	Technology	16	2020
9	Generative AI	16	2023
10	Data science	14	2017
11	Big data	13	2019
12	Education	13	2017
13	Higher education	11	2021
14	ChatGPT	14	2023

Eslatma: Ushbu kalit soʻzlarning aksariyati soʻnggi besh yilda shakllanib, SI savodxonligi tadqiqotlari jadal rivojlanayotganini koʻrsatadi.

SI savodxonligi tadqiqotlaridagi asosiy klasterlar (2014–2025)

Jadval 4. SI savodxonligi tadqiqotlarining asosiy mavzulari va klasterlari

Klaster	Hajm	Siluet qiymati	Kalit soʻzlar asosiy guruhi
#0 Data literacy	47	0.781	Data literacy, data science, big data, education, science
#1 Machine learning	45	0.889	AI, machine learning, technology, students
#2 AI literacy	32	0.807	AI literacy, AI education, higher education, literacy, early childhood education
#3 Technology acceptance model	28	0.858	Acceptance, behavioral intention, knowledge, trust
#4 Computational thinking	23	0.835	Computational thinking, competence, information, skills
#5 Accountability	19	0.987	Responsibility, governance, ethics
#6 Generative AI	16	0.885	Digital literacy, generative AI, ChatGPT, academic integrity
#7 Media literacy	12	0.991	Media literacy, fake news, digital competencies, social media
#8 Digital methods	10	0.892	Digital methods, data activism, critique

SI savodxonligi tadqiqotlari klasterlari (2014–2024)

Klaster #3 (Technology Acceptance Model).

28 ta kalit soʻz va 0.858 siluet qiymatini oʻz ichiga olgan ushbu klaster talabalarining SI taʼlimi va rivojlanishiga boʻlgan xulqiy niyatlarini tahlil qilgan. U SI boʻyicha bilim, avtonomiya, oʻz-oʻzini samaradorlik va taʼlim resurslari kabi oʻlchovlarni oʻrgangan (Chai va boshq., 2021; Chai va boshq., 2022; Chen va boshq., 2022). Asosiy kalit soʻzlar: *acceptance, behavioral intention, knowledge, trust*.

Klaster #4 (Computational Thinking).

23 ta kalit soʻz (siluet qiymati 0.835) asosida kompyuter tafakkuri va SI savodxonligi oʻrtasidagi aloqani koʻrsatgan. Bu klaster ICT imkoniyatlarining SIDan foydalanishga taʼsirini ham muhokama qiladi. Kalit soʻzlar: *computational thinking, competence, information, impact, skills* (Celik, 2023; Li va boshq., 2021; Tykhonova & Koshkina, 2021).

Klaster #5 (Accountability).

19 ta kalit soʻz (siluet qiymati 0.987) asosida axborot savodxonligi va maʼlumot savodxonligi oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni tahlil qiladi. U axborot xabardorligi, etika, texnologiya va oʻqituvchilar hamda talabalar kompetensiyalariga qaratilgan (Lund va boshq., 2023; de Vega-Martín va boshq., 2022; Li, 2022). Asosiy kalit soʻzlar: *information literacy, algorithmic literacy, data science applications in education*.

Klaster #6 (Generative AI).

16 ta kalit soʻz (siluet qiymati 0.892) generativ SI paydo boʻlishi bilan bogʻliq taʼsir va muammolarni oʻrganadi. Bu klaster taʼlim, psixologiya va ilmiy tadqiqotlarda generativ SI qoʻllanilishini yoritadi (Dai va boshq., 2023; Rasul va boshq., 2023; Spallek va boshq., 2023). Ayniqsa, matematika, ingliz tili va yozuv kabi fanlarda generativ Sining taʼsiri tahlil qilingan (Alexander va boshq., 2023; Dianova & Schultz, 2023; Kim, 2023). Talabalarning generativ SIga munosabati va undan foydalanishga tayyorligi ham muhim mavzulardan biridir (Chan & Lee, 2023; Firat, 2023). Kalit soʻzlar: *digital literacy, generative AI, ChatGPT, academic integrity*.

Klaster #7 (Media Literacy).

12 ta kalit soʻz (siluet qiymati 0.885) asosida sunʼiy intellekt davrida media savodxonlikning asosiy oʻlchovlari, xususan axborotni qidirish va yaratishda Sining roli tahlil qilingan (Lin, 2021; Tiernan va boshq., 2023). Kalit soʻzlar: *media literacy, fake news, digital competencies, media education, social media*.

Klaster #8 (Digital Methods).

10 ta kalit soʻz (siluet qiymati 0.991) asosida maʼlumot savodxonligi tashabbuslari va ularning maʼlumotlar ilmi, siyosati va jamoatchilikning raqamli infratuzilmalarga munosabatiga taʼsiri oʻrganilgan (Gray va boshq., 2018). Kalit soʻzlar: *critique, digital methods, data activism*.

Tadqiqot yoʻnalishlarining evolyutsiyasi (2014–2025)

4-jadvalda SI savodxonligi tadqiqotlarida asosiy klasterlarning vaqt boʻyicha rivojlanishini koʻrsatadi. Tahlil shuni koʻrsatadiki:

- **Klaster #0 (Data Literacy)** va **Klaster #3 (Technology Acceptance Model)** eng qadimgi va uzoq davom etgan yoʻnalishlar sifatida shakllangan.
- Keyinchalik **Klaster #4, #5 va #8** paydo boʻlgan.
- Soʻnggi yillarda esa **Klaster #1, #2, #6 va #7** kuchayib, dolzarb mavzularga aylangan.

2019-yilda “AI literacy” atamasi ilk bor **Klaster #2** doirasida paydo boʻlgan. Undan oldinroq tadqiqotlar asosan **data literacy** (Klaster #0) va **information literacy** (Klaster #5) atrofida jamlangan edi. Bu esa SI savodxonligi konsepsiyasi aslida axborot va maʼlumot savodxonligiga asoslanishini koʻrsatadi (Loftus & Madden, 2020; Lund va boshq., 2023; Li, 2022).

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, SI savodxonligi uchun zarur boʻlgan koʻnikmalar va bilimlar axborot savodxonligi va maʼlumot savodxonligi bilan chambarchas bogʻliq (Gould, 2021; Wang va boshq., 2023a). Shu bois, SI savodxonligi mavjud savodxonliklarning uzviy davomi sifatida shakllanmoqda.

SI savodxonligi boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar uning rivojlanishi uch bosqichli model asosida kechishini koʻrsatadi: **motivatsiya** → **texnologiya** → **qabul qilish**. Ushbu jarayonning markazida algoritmik savodxonlik turib, u insonlarga sunʼiy intellektni anglash va uni masʼuliyatli qoʻllash imkoniyatini beradi. Soʻnggi oʻn ikki yillikda SI savodxonligi dastlabki **maʼlumot va axborot savodxonligi** konsepsiyalaridan boshlab, asta-sekin **etika, raqamli va media savodxonlik hamda generativ SI**ni oʻz ichiga oluvchi keng qamrovli yoʻnalishga aylangan. Bu esa SI savodxonligi alohida tushuncha emas, balki mavjud savodxonliklarning uzviy davomi ekanini anglatadi. SI savodxonligi talaba, oʻqituvchi va jamiyat uchun muhim kompetensiya sifatida qaraladi. U tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, axloqiy ongni shakllantirish va tez surʼatlarda rivojlanayotgan sunʼiy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish imkonini beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alexander, J., Dianova, E., & Schultz, T. (2023). *Generative AI in subject teaching: Opportunities and challenges*.
2. Allen, L., & Kendeou, P. (2023). *Developing AI literacy frameworks for education*.
3. Cardon, P., et al. (2023). *Students' attitudes towards generative AI in education*.
4. Casal-Otero, L., et al. (2023). *AI literacy education: Emerging research focus*.
5. Celik, T. (2023). *Computational thinking and AI literacy: Access and competence*.
6. Chai, C. S., et al. (2021). *Students' behavioral intention in AI learning environments*.
7. Chai, C. S., et al. (2022). *Autonomy and self-efficacy in AI education*.
8. Chai, C. S., et al. (2023). *AI literacy for sustainable development of teaching professions*.
9. Chan, A., & Lee, J. (2023). *Students' perceptions and willingness to adopt generative AI*.
10. Chen, X., et al. (2022). *Behavioral intention and trust in AI learning*.
11. Dai, W., Rasul, M., & Spallek, J. (2023). *Generative AI in education, psychology, and research*.
12. de Vega-Martín, G., et al. (2022). *Information literacy and accountability in digital age*.
13. Dianova, E., & Schultz, T. (2023). *Generative AI in academic writing and English teaching*.
14. Emery, C., Li, Y., McCosker, A., & Williams, B. (2021–2023). *AI and data literacy in education*.
15. Firat, M. (2023). *Students' readiness for generative AI integration*.
16. Gould, R. (2021). *Data literacy in primary and secondary education*.
17. Gray, J., et al. (2018). *Public data literacy and social analysis in the era of big data*.
18. Hockly, N. (2023). *Machine learning applications in language education*.
19. Hwang, G.-J., et al. (2023). *Digital literacy, media literacy, and AI development*.
20. Kim, H. (2023). *Generative AI in teaching mathematics and English*.
21. Kong, S., et al. (2022, 2023). *Curriculum development for AI literacy*.
22. Kozyreva, A., et al. (2020). *Media literacy in the age of AI*.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Djalilova Zarnigor Obidovna

Fundamental tibbiyot fanlar kafedrası professori

Osiyo Xalqaro Universiteti,

Manzil: O'zbekiston, Buxoro shahar

Email: djalilovazarnigorobidovna@oxu.uz

PAREMIK JANRLARNING INNOVATSION PEDAGOGIK METODLAR BILAN INTEGRATSIYASI



Abdurashidova Gavhar Abdurazzoq qizi

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

KIRISH: Mazkur maqolada maktab tarbiya darslarida paremik janrlarning (maqol, matal, topishmoq, aforizm) innovatsion pedagogik metodlar—konstruktivistik yondashuv, kreativ pedagogika, raqamli ta'lim texnologiyalari, kolaborativ o'qitish—bilan integratsiyasi tahlil qilinadi. Integratsiya jarayoni milliy qadriyatlarni uzviy o'zlashtirish bilan birga, o'quvchilarda ijodiy, tanqidiy va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Paremik janrlar xalq pedagogikasining qadimiy va samarali vositasi bo'lib, axloqiy-ma'naviy g'oyalarni ixcham, obrazli va esda qoladigan shaklda yetkazadi. XXI asr ta'limi shaxsga yo'naltirilgan, interaktiv hamda kreativ metodlarni talab qilayotgani sabab, paremiyalarni zamonaviy didaktik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish ta'lim samaradorligini oshiradi. Avloniy, V. M. Mokienko va W. Mieder tadqiqotlari paremiyalarning tarbiya jarayonidagi universal-didaktik rolini alohida ta'kidlaydi.

MAQSAD: Paremik janrlarni innovatsion pedagogik metodlar bilan integratsiyalashning samarali yo'llarini asoslash hamda tarbiya darslarida qo'llash uchun amaliy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish. Maktab tarbiya darslarida paremik janrlarni (maqol, matal, topishmoq, aforizm) innovatsion pedagogik metodlar — konstruktivizm, kreativ pedagogika, raqamli texnologiyalar va kolaborativ o'qitish — bilan **integratsiyalash** orqali o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, ijodiy va tanqidiy fikrlash, hamkorlik va kommunikatsiya hamda raqamli savodxonlik kompetensiyalarini **barqaror** rivojlantirish.

MATERIAL VA METODLAR: Nazariy tahlil, kontent tahlil, didaktik dizayn yondashuvi; sinfdagi interaktiv mashg'ulot ssenariylari (Kahoot/Quizizz, Canva/Miro), kolaborativ guruh ishlari, "6 shlyapa" metodikasi asosidagi ijodiy va tanqidiy fikrlash mashqlari, rol o'yinlari va dramatizatsiyalar.

XULOSA: Paremik janrlarni (maqol, matal, topishmoq, aforizm) innovatsion pedagogik metodlar bilan integratsiyalash tarbiya darslari mazmunini boyitadi va kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'limni amalda ro'yobga chiqaradi. paremiya–innovatsiya integratsiyasi tarbiya darslarida milliy meros va zamonaviy metodlar dialektikasini yaratadi. Bu yondashuv o'quvchini ma'naviy yetuk, ijodiy, tanqidiy fikrlovchi va hamkorlikka tayyor shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi hamda ta'lim samaradorligini yangi bosqichga ko'taradi.

Kalit so'zlar: maqol, matal, aforizmlar, metodika, innovatsiya, paremik vositalar, innovatsion ta'lim, aforizmlar, tarbiya fani, kreativlik, integratsiya, xalq og'zaki ijodi, konstruktivistik yondashuv, raqamli ta'lim texnologiyalari.

ИНТЕГРАЦИЯ ПАРЕМИЧЕСКИХ ЖАНРОВ С ИННОВАЦИОННЫМИ ПЕДАГОГИЧЕСКИМИ МЕТОДАМИ

Абдурашидова Гавхар Абдураззоковна

Преподаватель Азиатского международного университета



Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: В статье анализируется интеграция паремических жанров (пословиц, поговорок, загадок, афоризмов) с инновационными педагогическими методами — конструктивистским подходом, креативной педагогикой, цифровыми образовательными технологиями, совместным обучением — на уроках школьного образования. Процесс интеграции, наряду с целостным усвоением национальных ценностей, способствует развитию творческих, критических и коммуникативных навыков учащихся. Паремические жанры — древний и эффективный инструмент народной педагогики, передающий нравственные и духовные идеи в лаконичной, образной и запоминающейся форме. Поскольку образование XXI века требует личностно-ориентированных, интерактивных и творческих методов, сочетание паремий с современными дидактическими технологиями повышает эффективность обучения. В исследованиях Авлони, В. М. Мокиенко и В. Мидера подчёркивается универсально-дидактическая роль паремий в образовательном процессе.

ЦЕЛЬ: Обосновать эффективные способы интеграции паремических жанров с инновационными педагогическими методами и разработать практические и методические рекомендации по их использованию на уроках образования. Интеграция паремических жанров (пословиц, поговорок, загадок, афоризмов) с инновационными педагогическими методами — конструктивизмом, креативной педагогикой, цифровыми технологиями и совместным обучением — на школьных уроках позволит устойчиво развивать у учащихся духовно-нравственные ценности, творческое и критическое мышление, навыки сотрудничества и коммуникации, а также навыки цифровой грамотности.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Теоретический анализ, контент-анализ, дидактический подход к проектированию; интерактивные сценарии уроков (Kahoot/Quizizz, Canva/Miro), совместная групповая работа, упражнения на развитие творческого и критического мышления по методу «6 шляп», ролевые игры и драматизации.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Интеграция паремических жанров (пословиц, поговорок, загадок, афоризмов) с инновационными педагогическими методами обогащает содержание уроков и реализует компетентностно-ориентированное образование. Интеграция паремических инноваций создаёт диалектику национального наследия и современных методов на уроках образования. Такой подход способствует формированию ученика как духовно зрелой, творческой, критически мыслящей и коммуникабельной личности и выводит эффективность образования на новый уровень.

Ключевые слова: пословица, поговорка, афоризмы, методика, инновация, паремический инструментальный, инновационное образование, афоризмы, педагогическая наука, креативность, интеграция, народная устная культура, конструктивистский подход, цифровые образовательные технологии.

INTEGRATION OF PAREMIC GENRES WITH INNOVATIVE PEDAGOGICAL METHODS

Abdurashidova Gavhar Abdurazzoq qizi
Lecturer Asian International University

Annotation.



INTRODUCTION: This article analyzes the integration of paremic genres (proverbs, sayings, riddles, aphorisms) with innovative pedagogical methods—constructivist approach, creative pedagogy, digital educational technologies, collaborative learning—in school education lessons. The integration process, along with the integral assimilation of national values, serves to develop creative, critical and communicative skills in students. Paremic genres are an ancient and effective tool of folk pedagogy, conveying moral and spiritual ideas in a concise, figurative and memorable form. Since 21st century education requires person-oriented, interactive and creative methods, combining paremics with modern didactic technologies increases the effectiveness of education. The studies of Avloni, V. M. Mokienko, and W. Mieder emphasize the universal-didactic role of paremias in the educational process.

THE GOAL: To substantiate effective ways of integrating paremic genres with innovative pedagogical methods and to develop practical and methodological recommendations for their use in educational lessons. By integrating paremic genres (proverbs, sayings, riddles, aphorisms) with innovative pedagogical methods - constructivism, creative pedagogy, digital technologies and collaborative learning - in school educational lessons, to sustainably develop students' spiritual and moral values, creative and critical thinking, cooperation and communication, and digital literacy competencies.

MATERIALS AND METHODS: Theoretical analysis, content analysis, didactic design approach; interactive classroom training scenarios (Kahoot/Quizizz, Canva/Miro), collaborative group work, creative and critical thinking exercises based on the “6 hats” methodology, role-playing games and dramatizations.

CONCLUSION: Integration of paremic genres (proverb, proverb, riddle, aphorism) with innovative pedagogical methods enriches the content of educational lessons and implements competency-oriented education. Integration of paremic-innovation creates a dialectic of national heritage and modern methods in educational lessons. This approach serves to form the student as a spiritually mature, creative, critical thinker and ready for cooperation, and raises the effectiveness of education to a new level.

Keywords: proverb, proverb, aphorisms, methodology, innovation, paremic means, innovative education, aphorisms, educational science, creativity, integration, folk oral creativity, constructivist approach, digital educational technologies.

Paremik janrlar (maqol, matal, topishmoq, aforizm kabi qisqa va hikmatli xalq og‘zaki ijodi shakllari) xalq pedagogikasining eng qadimiy va samarali vositalaridan biridir. Ular insonning axloqiy, ma‘naviy va ijtimoiy dunyoqarashini shakllantirishda, avlodlar orasida qadriyatlarni uzluksiz yetkazishda muhim o‘rin tutadi. Hozirgi davrda innovatsion pedagogik metodlar – interaktiv texnologiyalar, kreativ yondashuvlar, raqamli ta‘lim vositalari – bilan paremik janrlarni uyg‘unlashtirish ta‘lim jarayonida samaradorlikni oshiradi. Bu integratsiya nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb bo‘lib, o‘quvchilarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash bilan birga ularning ijodiy fikrlash, tanqidiy tahlil va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Olimlarning fikriga ko‘ra, xalq og‘zaki ijodi – bu jamiyatning ijtimoiy-pedagogik xotirasidir (Abdulla Avloniy, “Turkiy guliston yoxud axloq”). Paremiologiya sohasini chuqur o‘rgangan rus olimi V. M. Mokienko maqollarni “xalqning axloqiy kodeksi” deb atagan. Shuningdek, G‘arb olimlaridan W. Mieder (paremiolog) maqollarni “ta‘lim-tarbiya jarayonida umumiy bilimlar va tajribalarni siqilgan holda yetkazuvchi universal vosita” sifatida talqin qiladi. Bu qarashlar shuni ko‘rsatadiki, maqollar va matallar orqali yosh avlodga ma‘naviy-ma‘rifiy saboqlar, hayotiy tajribalar va ijtimoiy qadriyatlar tez va ta‘sirchan usulda singdiriladi.

XXI asr ta‘limi dunyo miqyosida tub islohotlar jarayonini boshdan kechirmoqda. Bu davrning asosiy xususiyati – shaxsga yo‘naltirilgan, interaktiv va kreativ yondashuvlarning ustuvorlik kasb



etishidir. An'anaviy ta'limda o'quvchi bilimni tayyor holda qabul qiluvchi sifatida ko'rilgan bo'lsa, innovatsion metodlarda u bilim jarayonining faol ishtirokchisi, hatto bilim yaratuvchisi sifatida talqin etiladi. Bu metodlar o'quvchi tafakkurini rivojlantirish, o'z fikrini asoslay olish, hamkorlikda ishlash va kreativ yechimlarni topish ko'nikmalarini shakllantirishda muhimdir.

Konstruktivistik yondashuv – bu metodning asosi J. Piaget va L. Vigotskiylarning ta'lim nazariyalariga borib taqaladi. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko'ra, o'quvchi bilimni o'z tajribasi asosida quradi va o'z faoliyatida uni kashf etadi. Vygotskiy esa “yaqin rivojlanish zonasi” tushunchasini ilgari surib, o'quvchi o'zi mustaqil bajara olmaydigan vazifalarni hamkorlik va yo'naltirish orqali bajarishi mumkinligini ta'kidlagan. Shu bois konstruktivistik metod o'quvchini mustaqil izlanishga undaydi, o'qituvchi esa bilim beruvchi emas, balki jarayonni boshqaruvchi yo'naltiruvchi sifatida faoliyat yuritadi.

Kreativ pedagogika – bu yondashuv ijodiy tafakkur va noodatiy yondashuvlarni rag'batlantirishga qaratilgan. Masalan, E. de Bononing “6 shlyapa usuli” orqali o'quvchilar bir masalaga turli nuqtayi nazardan yondashadilar: oq shlyapada faktlar, qizilda hissiyotlar, qora shlyapada tanqidiy qarashlar, sarg'ishda ijobiy imkoniyatlar, yashilda ijodiy g'oyalar, ko'kda esa umumiy boshqaruv muhokama qilinadi. Bu metod orqali o'quvchilar hayotiy vaziyatlarni har tomonlama baholashni o'rganadilar.

Raqamli ta'lim texnologiyalari – bugungi kunda ta'lim jarayonida raqamli platformalar keng qo'llanilmoqda. Kahoot va Quizizz kabi vositalar bilimlarni test orqali o'yin shaklida sinovdan o'tkazishga yordam beradi. Canva va Miro esa ijodiy vizual materiallar yaratishda qo'l keladi. Masalan, o'quvchilar maqollar asosida raqamli plakat yoki infografika tayyorlash orqali milliy qadriyatlarini o'zlashtirish bilan birga grafik dizayn ko'nikmalarini ham egallaydilar.

Kolaborativ o'qitish – bu metodda o'quvchilar kichik guruhlarda ishlash orqali bilimlarni birgalikda egallaydilar. Masalan, bir guruh maqollarni tarixiy nuqtayi nazardan, ikkinchi guruh esa iqtisodiy jihatdan tahlil qiladi va keyin natijalarni umumlashtiradilar. Bu jarayon hamkorlik, muloqot va liderlik ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Paremik janrlarni innovatsion metodlar bilan integratsiyalash tajribalari

Paremik janrlar – xalq maqollari, matallari, topishmoqlari – qadimdan xalq pedagogikasining asosi bo'lib kelgan. Ularni zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion metodlar bilan integratsiyalash ikki yo'nalishda foyda beradi: birinchidan, milliy merosni asrab-avaylash va yosh avlodga yetkazish; ikkinchidan, o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish. Quyidagi tajribalar bunga yorqin misol bo'ladi:

- Gamifikatsiya asosida: maqollarni interaktiv testlar, krossvordlar, viktorinalar shaklida qo'llash. Masalan, Quizizz platformasida “maqolni to'ldiring” yoki “qarama-qarshi mazmundagi maqolni toping” kabi topshiriqlarni qo'llash orqali o'quvchilarda milliy merosga qiziqish ortadi. Bu jarayon raqamli avlodni o'zlariga yaqin shaklda o'qitish imkonini beradi.

- Kreativ fikrlash mashqlari: “6 shlyapa usuli”dan foydalanib maqollarning turli qirralarini tahlil qilish. Masalan, oq shlyapada “Mehnat qilgan to'yadi” maqolining faktik asoslarini o'rganish, qizilda uning hissiy ta'sirini muhokama qilish, yashilda esa zamonaviy kontekstdagi yangi maqollarni yaratish. Bu mashqlar ijodkorlikni rivojlantiradi va milliy qadriyatlarini yangicha shaklda qayta kashf etishga xizmat qiladi.

- Rol o'ynash va dramatizatsiya: maqollar yoki topishmoqlarni sahnalashtirish orqali interfaol ta'lim tashkil qilish. Masalan, o'quvchilar “Yaxshiga yondash, yomonga qoch” maqoli asosida qisqa sahna ko'rinishi yaratishlari mumkin. Bu usul nafaqat paremiya mazmunini chuqurroq o'zlashtirish, balki nutqiy va aktyorlik ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

- Raqamli vizualizatsiya: Canva yoki Miro kabi platformalarda maqollar asosida infografikalar tuzish. Masalan, “El bilan borgan – el bo'lar” maqolining zamonaviy hayotdagi qo'llanishini

jamoaviylik, jipslik va ijtimoiy hamkorlik mavzulari asosida grafik ko‘rinishda ifodalash. Bu esa o‘quvchilarda tanqidiy tahlil va vizual tafakkurni rivojlantiradi.

• Tanqidiy tahlil usullari: maqollarni tarixiy va madaniy kontekstda sharhlash. Masalan, “Mehnat qilgan to‘yadi” maqolining iqtisodiy va sotsiologik izohida jamiyatning mehnatga bo‘lgan qadriyatlarini, ishlab chiqarish madaniyati va ijtimoiy adolat masalalari tahlil qilinadi. Bunday yondashuv maqollarning faqat axloqiy emas, balki ilmiy-falsafiy mazmunini ham ochib beradi.

Professor S. Xolmatovning ta’kidlashicha, xalq pedagogikasi vositalarini innovatsion texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish “milliylik va zamonaviylik dialektikasini” yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, UNESCOning 2020-yildagi “Future of Education” hisobotida ham “madaniy meros va innovatsion metodlarni integratsiya qilish ta’limda barqaror rivojlanishga xizmat qiladi” deb qayd etilgan.

Paremik janrlarning innovatsion pedagogik metodlar bilan integratsiyasi ta’lim jarayonida milliy qadriyatlar va zamonaviy yondashuvlarni uyg‘unlashtiradi. Bu jarayon o‘quvchilarni:

- ma’naviy yetuk,
- ijodiy fikrlovchi,
- tanqidiy tahlil qila oluvchi,
- hamkorlikda ishlashga tayyor shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, maqol, matal va topishmoqlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish – nafaqat an’anaviy xalq pedagogikasini qayta jonlantirish, balki ta’lim samaradorligini ham yangi bosqichga olib chiqishning muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Avloniy, A. (1992). *Turkiy guliston yoxud axloq*. Toshkent: O‘zbekiston.
2. Xolmatov, S. (2018). *Innovatsion pedagogika asoslari*. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Ergashev, R., & Yusupova, N. (2022). Milliy qadriyatlarni ta’lim jarayonida qo‘llashning innovatsion yo‘llari. *Pedagogika va psixologiya jurnali*, 3(3), 55–62.
4. Murodova, D. (2023). Kreativ pedagogika: O‘quvchilar ijodkorligini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar. *O‘zbekiston ta’limi*, 6(6), 27–34.
5. Abdurashidova, G. A. (2025). Innovative teaching methods based on paremic tools in education for schoolchildren. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 5(6), 1913–1915.
6. Abdurashidova, G. A. (2025). Didactic features of using paremic tools in education lessons. *International Journal of Artificial Intelligence*, 5(4), 1155–1157.
7. Abdurashidova, G. A. (2025). Bo‘lajak o‘qituvchilarda axborot madaniyatini shakllantirish. *IQRO jurnali*, 14(2), 765–767.
8. Abdurashidova, G. A. (2024). O‘quvchilarda destruktiv xulq ko‘rinishlarining paydo bo‘lishi va uning oldini olish choralari. *Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice*, 2(9), 651–659.
9. Abdurashidova, G. A. (2025). Content of forming national and secular worldviews in students based on pedagogical science. *Journal of Applied Science and Social Research*, 1(4), 248–250.


MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Abdurashidova Gavhar Abdurazzoq qizi

Osiyo xalqaro universiteti o‘qituvchisi

Manzil: O‘zbekiston, Buxoro shahar

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSINI O'TISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI



Sayfullayeva Nozima Baxodirovna

Osiyo xalqaro universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya.

KIRISH: Boshlang'ich ta'lim maktab ta'lim tizimining eng muhim bosqichlaridan biridir. Bu davrda o'quvchilarda asosiy bilim va ko'nikmalar shakllanadi, shuningdek, ularning tafakkuri rivojlanadi. Ayniqsa, matematika fanini o'qitishda pedagogik yondashuvlarning to'g'ri tanlanishi va qo'llanilishi juda muhim ahamiyatga ega. Chunki matematika nafaqat fan sifatida, balki bolalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishning pedagogik xususiyatlari, metodlari va asosiy tamoyillari haqida so'z boradi.

MAQSAD: Boshlang'ich sinflarda matematika darsini o'tishning pedagogik xususiyatlarini ilmiy tahlil qilish.

MATERIALLAR VA METODLAR: boshlang'ich sinf o'qituvchisi chuqur nazariy bilim va amaliy malakalarga ega bo'lishi, ta'limda innovatsion pedagogik yondashuvlar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishi zarur. Darhaqiqat, 1-4-sinflar uchun yaratilgan yangi zamonaviy maktab darsliklari 4K modeliga asoslangan innovatsion yondashuvni taqdim etilgan. Ushbu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, quyidagi asosiy kompetensiyalarni o'z ichiga oladi: Kollaboratsiya, kommunikatsiya, kreativ fikrlash va kritik fikrlash o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi.

Boshlang'ich ta'lim umumiy ta'limning bir qismi bo'lib, unda ishlovchi o'qituvchi bir fan bo'yicha mutaxassis bo'lib qolmay, balki o'quvchilarga bir necha fanlardan bilim beradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi ona tili, o'qish, matematika, texnologiya, bizni o'rab turgan olam kabi fanlardan dars berar ekan, bu fanlarning nazariy asoslarini chuqur o'rganishi kerak. Darhaqiqat, o'quvchilarga matematikani o'rgatish jarayonida o'qituvchi uning nazariy asosi bo'lgan "Boshlang'ich matematika kursi nazariyasi" fanidan yetarli bilimga ega bo'lishi kerak.

XULOSA: Boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishning pedagogik xususiyatlari yoshga mos, qiziqarli va amaliy yondashuvlarni talab qiladi. O'yinlar, ko'rgazmali vositalar, muammoli ta'lim va individual yondashuv yordamida o'quvchilarni nafaqat matematik bilimlar bilan ta'minlash, balki ularning tafakkurini rivojlantirish mumkin. Shu tariqa, boshlang'ich ta'limda matematikani o'qitishning samaradorligi oshadi, o'quvchilarda fanlarga bo'lgan qiziqish uyg'onadi va ular kelajakda mustahkam bilimga ega bo'lishlari ta'minlanadi.

Kalit so'zlar: 4K modeli, ta'lim, sinf, maktab, o'yinlar, ko'rgazmali vositalar, muammoli ta'lim, individual yondashuv, kollaboratsiya, kommunikatsiya, kreativ fikrlash, kritik fikrlash, pedagog, tarbiya, o'qitish, bola shaxsi.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ МАТЕМАТИКЕ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Сайфуллаева Нозима Баходировна

Старший преподаватель Азиатского международного университета

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: Начальное образование — один из важнейших этапов системы школьного образования. В этот период у учащихся формируются базовые знания и умения, а также развивается мышление. В частности, правильный выбор и применение педагогических подходов в обучении математике очень важны, поскольку математика выступает не только как учебный предмет, но и как средство развития логического мышления детей. В данной статье рассматриваются педагогические особенности, методы и основные принципы обучения математике в начальных классах.

ЦЕЛЬ: Научно проанализировать педагогические особенности обучения математике в начальных классах.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Учитель начальных классов должен обладать глубокими теоретическими знаниями и практическими навыками, эффективно использовать инновационные педагогические подходы и современные информационные технологии в образовании. Действительно, новые современные школьные учебники, созданные для 1–4 классов, представляют собой инновационный подход, основанный на модели 4К. Данная методика направлена на всестороннее развитие детей и включает в себя следующие ключевые компетенции: сотрудничество, коммуникация, творческое и критическое мышление формируют у учащихся критическое мышление, творческий подход, умение работать в команде и коммуникативные навыки.

ВЫВОД: Педагогические особенности обучения математике в начальной школе требуют возрастного, интересного и практичного подхода. С помощью игр, наглядных пособий, проблемного обучения и индивидуального подхода учащиеся могут не только получить математические знания, но и развить своё мышление. Таким образом, повышается эффективность обучения математике в начальной школе, развивается интерес учащихся к предметам и обеспечивается получение ими прочных знаний в будущем.

Ключевые слова: модель 4К, образование, класс, школа, игры, наглядные пособия, проблемное обучение, индивидуальный подход, сотрудничество, коммуникация, творческое мышление, критическое мышление, учитель, воспитание, обучение, личность ребёнка.

PEDAGOGICAL FEATURES OF TEACHING MATHEMATICS IN PRIMARY GRADES

Sayfullayeva Nozima Bakhodirovna

Senior Lecturer, Asian International University

Annatation.

INTRODUCTION: Primary education is one of the most important stages of the school education system. During this period, students form basic knowledge and skills, as well as develop their thinking. In particular, the correct selection and application of pedagogical approaches in teaching mathematics is very important. Because mathematics serves not only as a subject, but also as a means of developing children's logical thinking. This article discusses the pedagogical features, methods and basic principles of teaching mathematics in primary grades.

THE GOAL: To scientifically analyze the pedagogical features of teaching mathematics in primary grades.

MATERIALS AND METHODS: A primary school teacher must have deep theoretical knowledge and practical skills, effectively use innovative pedagogical approaches and modern information technologies in education. Indeed, new modern school textbooks created for grades 1-4 present an innovative approach based on the 4K model. This methodology is aimed at the comprehensive development of children and includes the following key competencies: Collaboration, communication, creative thinking and critical thinking form critical thinking, creative approach, teamwork and communication skills in students.

Primary education is a part of general education, and the teacher working in it is not just a specialist in one subject, but also provides knowledge to students in several subjects. A primary school teacher, while teaching subjects such as the mother tongue, reading, mathematics, technology, and the world around us, must thoroughly study the theoretical foundations of these subjects. Indeed, in the process of teaching mathematics to students, the teacher must have sufficient knowledge of the subject "Theory of the Primary Mathematics Course", which is its theoretical basis.

CONCLUSION: The pedagogical features of teaching mathematics in primary schools require age-appropriate, interesting and practical approaches. With the help of games, visual aids, problem-based learning and an individual approach, students can not only be provided with mathematical knowledge, but also develop their thinking. Thus, the effectiveness of teaching mathematics in primary education increases, students' interest in subjects is aroused and they are ensured to have solid knowledge in the future.

Keywords: 4K model, education, classroom, school, games, visual aids, problem-based learning, individual approach, collaboration, communication, creative thinking, critical thinking, teacher, upbringing, teaching, child's personality.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi – ta'lim mazmunini sifat jihatdan yangilash, ilg'or xalqaro tajribaga asoslangan standartlarni joriy etish va shu orqali jamiyat taraqqiyoti hamda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadigan, har tomonlama yetuk kadrlarni tayyorlashdan iboratdir.

Mamlakatimiz kelajagi, avvalo, ijodkor va bilimdon yoshlarga bog'liq. Shu bois, ular ilk bosqichdan – boshlang'ich maktab davridan boshlab puxta bilim va mustahkam ko'nikmalarga ega bo'lishlari zamon talabi hisoblanadi.

Ana shunday mas'uliyatli vazifa, eng avvalo, boshlang'ich sinf o'qituvchilari zimmasiga yuklatiladi. Chunki ular yosh avlodni ilm-fan asoslari bilan tanishtiribgina qolmay, balki ularning tafakkuri, ijodiy salohiyati va ma'naviy-axloqiy qarashlarini shakllantirishda ham beqiyos o'rin tutadilar. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchisi chuqur nazariy bilim va amaliy malakalarga ega bo'lishi, ta'limda innovatsion pedagogik yondashuvlar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishi zarur. Darhaqiqat, 1-4-sinflar uchun yaratilgan yangi zamonaviy maktab darsliklari 4K modeliga asoslangan innovatsion yondashuvni taqdim etilgan. Ushbu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, quyidagi asosiy kompetensiyalarni o'z ichiga oladi:

Kollaboratsiya, kommunikatsiya, kreativ fikrlash va kritik fikrlash o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi.

Boshlang'ich ta'lim umumta'limning bir bo'g'ini bo'lib, unda faoliyat ko'rsatadigan o'qituvchi aynan bir fan mutaxassisigina bo'lib qolmay, bir necha fandan o'quvchilarga bilim beradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi ona tili, o'qish, matematika, texnologiya, atrofimizdagi olam kabi fanlardan dars berar ekan bu fanlarning nazariy asoslarini chuqur o'rganishi kerak. Darhaqiqat, o'qituvchi o'quvchilarga

matematika fanidan bilim berish jarayonida uning nazariy asosi bo'lgan «Boshlang'ich matematika kursi nazariyasi» fanidan etarli ma'lumotga ega bo'lmog'i zarur.

Boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishning xususiyatlari

1. **Kichik yoshdagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari.** Boshlang'ich sinf o'quvchilari 6-10 yosh oralig'ida bo'lib, ularning diqqat e'tibori hali ham qisqa, qobiliyatlari cheklangan va sezgirligi yuqori. Shu sababli, matematikani o'rgatishda darslar qiziqarli, ko'rgazmali va amaliy usullarda olib borilishi kerak.

2. **O'yin va faoliyat orqali o'qitish.** Matematika fanini o'qitishda o'yin usuli katta rol o'ynaydi. O'yinlar yordamida o'quvchilar nafaqat matematik ko'nikmalarni o'zlashtiradi, balki fikrlashlari, muammolarni hal qilish qobiliyatlari ham rivojlanadi.

3. **Amaliylashtirishning ahamiyati.** Matematikaning kundalik hayot bilan bog'liqligi boshlab, o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi kerak. Misollar va masalalar kundalik hayotdan olinishi, bolalarning matematikani hayotda qo'llashini ta'minlaydi.

4. **Tafakkurni rivojlantirish.** Matematika fanini o'qitishda nafaqat bilim berish, balki bolalarning mantiqiy, tanqidiy fikrlashlari ham rivojlantirilishi lozim. Bu esa muammoli vaziyatlar yaratish va o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undash orqali amalga oshiriladi.

Pedagogik yondashuvlar va metodlar

- **Vizual yordamlar va ko'rgazmali materiallar.** Rasm, diagramma, o'yinchoq va boshqa ko'rgazmali vositalar bolalarning matematik tushunchalarni osonroq anglashlariga yordam beradi.

- **Individual va guruh ishlari.** O'quvchilarning qobiliyatlari farq qiladi, shuning uchun individual yondashuv zarur. Shu bilan birga, guruh ishlari yordamida ijtimoiy ko'nikmalar ham rivojlanadi.

- **Muammoli ta'lim.** Muammoli vaziyatlar orqali o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, tajriba o'tkazishga undash pedagogik jarayonning asosiy elementlaridan biridir.

1. O'quvchilarni qiziqtirish va rag'batlantirish

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matematika ko'pincha qiyin yoki zerikarli fan kabi ko'rinishi mumkin. Shuning uchun pedagogik jarayonda o'quvchilarning qiziqishini uyg'otish muhim. O'qituvchi o'yinlar, raqamli qurilmalar, interfaol ta'lim vositalari yordamida darslarni jonlantirishi, mavzularni bolalar uchun tushunarli va qiziqarli qilishi zarur. Masalan, hayotiy misollar, hikoyalar, multfilm qahramonlari bilan bog'langan topshiriqlar bolalarda matematikaga nisbatan ijobiy munosabat hosil qiladi.

2. Bosqichma-bosqich bilim berish

Matematika murakkab fan bo'lib, yangi mavzularni o'qitishda oldingi bilimlarga tayangan holda bosqichma-bosqich yondashish zarur. Boshlang'ich sinflarda oddiy arifmetik amallar (qo'shish, ayirish)dan boshlab, asta-sekin ko'paytirish, bo'lish, geometrik shakllar, o'lchov birliklari kabi mavzular kiritiladi. Bu o'quvchilarning matematik fikrlashni to'g'ri rivojlantirishiga xizmat qiladi.

3. Individual yondashuv va diagnostika

Har bir bola o'ziga xos rivojlanish darajasida bo'ladi, shuning uchun o'qituvchi o'quvchilarni doimiy ravishda kuzatib borib, ularning qayerda qiyinchiliklarga duch kelayotganini aniqlashi kerak. Diagnostik testlar, mini-imtihonlar va interaktiv savollar yordamida o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash va shu asosda individual yordam ko'rsatish zarur.

4. Amaliy ko'nikmalarni shakllantirish

Matematika nafaqat nazariy bilimlar, balki hayotda amalda qo'llaniladigan ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni pul hisoblash, vaqtni aniqlash, o'lchovlarni taqqoslash kabi kundalik hayotdagi vazifalar bilan shug'ullanishga o'rgatish muhimdir. Bu orqali ular o'qigan bilimlarini real hayotda qo'llashni o'rganadilar.

5. O'qituvchi va ota-onalar hamkorligi



Boshlang'ich sinflarda o'qituvchi va ota-onalar o'rtasida faol hamkorlik o'quv jarayonining muvaffaqiyatli bo'lishi uchun muhimdir. Ota-onalar uyda bolalarning darslariga yordam berishi, matematikaga qiziqishini qo'llab-quvvatlashi zarur. Shu maqsadda o'qituvchi ota-onalarga darsdagi mavzular, uy vazifalari va o'yinlar haqida muntazam ma'lumot berib borishi lozim.

6. Matematika o'qitishdagi zamonaviy texnologiyalar

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar matematika o'qitish jarayonini sezilarli darajada osonlashtirdi. Interfaol doskalar, o'quv dasturlari, mobil ilovalar va o'yinlar yordamida o'quvchilar mavzularni tez va samarali o'zlashtiradi. Bu esa o'qituvchining vazifasini yengillashtirib, o'quvchilar uchun yanada qiziqarli muhit yaratadi.

Boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishning pedagogik xususiyatlari yoshga mos, qiziqarli va amaliy yondashuvlarni talab qiladi. O'yinlar, ko'rgazmali vositalar, muammoli ta'lim va individual yondashuv yordamida o'quvchilarni nafaqat matematik bilimlar bilan ta'minlash, balki ularning tafakkurini rivojlantirish mumkin. Shu tariqa, boshlang'ich ta'limda matematikani o'qitishning samaradorligi oshadi, o'quvchilarda fanlarga bo'lgan qiziqish uyg'onadi va ular kelajakda mustahkam bilimga ega bo'lishlari ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.Q., Qayumova N.M., A'zamova M.N. Maktabgacha pedagogika. –T., 2019. 132-133 b.
- 2.Asqarova D.Q. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi. –T, 2020.
- 3.Мирзаева Д.Ш., Курбанова З.И. “Арт-педагогические технологии коррекции страхов у детей дошкольного возраста” SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 7 | 2021. 1206-1212b.
4. Kurbonova Z. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning asosiy mexanizmlari //pedagogik mahorat. – c. 120.
5. Qurbonova Z. I. Q., Muqimova M. N. Q. Oilada yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashning psixologik shart-sharoitlari //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 4. – C. 969-973.


MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Sayfullayeva Nozima Baxodirovna

Osiyo xalqaro universiteti katta o'qituvchisi

Manzil: O'zbekiston, Buxoro shahar

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KOGNITIV RIVOJLANISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI



Maxmudova Nigora Hikmatovna
Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida kognitiv (bilish) rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari, bu jarayonga ta'sir etuvchi omillar hamda pedagogning ushbu bosqichdagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, kognitiv rivojlanishni samarali tashkil etishning metodik yondashuvlari yoritiladi.

MAQSAD: Kognitiv rivojlanishning bola rivojlanishiga pedagogik ta'sirini ilmiy o'rganish

MATERIALLAR VA METODLAR: Kognitiv rivojlanish bu – bolaning aqliy jarayonlari, ya'ni bilim olish, eslab qolish, tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi faoliyatlarining rivojlanishidir. Bu rivojlanish bolaning tashqi muhit bilan o'zaro ta'siri, o'qituvchi va tengdoshlari bilan munosabatlari orqali sodir bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi — bu bola shaxsining intellektual, axloqiy, ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga asos soluvchi muhim davrdir. Aynan shu bosqichda bolaning asosiy kognitiv (bilish) funksiyalari faol rivojlanadi. Kognitiv jarayonlar orqali o'quvchi dunyoni anglaydi, axborotni qabul qiladi, tahlil qiladi va xulosa chiqaradi. Shu bois, boshlang'ich ta'lim jarayonida kognitiv rivojlanishga yo'naltirilgan didaktik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega.

XULOSA: Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv rivojlanishini samarali tashkil etish pedagogdan chuqur bilim, sinchkovlik va individual yondashuvni talab qiladi. Bu davrda qo'llaniladigan o'quv metodlari nafaqat bilim berishi, balki bolaning tafakkurini, diqqatini, xotirasini rivojlantiruvchi bo'lishi lozim. Shuningdek, ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash ham bolada barqaror kognitiv o'sishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar:

kognitiv rivojlanish, boshlang'ich ta'lim, psixologik rivojlanish, bilish faoliyati, pedagogik yondashuv.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Махмудова Нигора Хикматовна

Преподаватель, Азиатский международный университет

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В статье анализируются особенности когнитивного (познавательного) развития учащихся начальной школы, факторы, влияющие на этот процесс, и роль учителя на

этом этапе. Также освещаются методические подходы к эффективной организации когнитивного развития.

ЦЕЛЬ: Научно изучить педагогическое влияние когнитивного развития на развитие ребёнка.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Когнитивное развитие – это развитие психических процессов ребёнка, а именно таких видов деятельности, как приобретение знаний, запоминание, анализ, обобщение и составление выводов. Это развитие происходит во взаимодействии ребёнка с внешней средой, во взаимоотношениях с учителем и сверстниками.

Начальный образовательный этап – важный период, закладывающий основу интеллектуального, нравственного, социального и эмоционального развития личности ребёнка. Именно на этом этапе активно развиваются основные когнитивные (познавательные) функции ребёнка. Благодаря когнитивным процессам ребёнок познаёт мир, воспринимает информацию, анализирует и делает выводы. Поэтому дидактические подходы, направленные на когнитивное развитие, важны в процессе начального образования.

ВЫВОД: Эффективная организация когнитивного развития учащихся начальной школы требует глубоких знаний, основательности и индивидуального подхода со стороны учителя. Методы обучения, используемые в этот период, должны не только давать знания, но и развивать мышление, внимание и память ребёнка. Также совместная работа с родителями играет важную роль в обеспечении стабильного когнитивного развития ребёнка.

children with speech disorders, interviews with speech therapists and defectologists, and existing research works were analyzed. Also, practical speech therapy programs and correctional techniques for eliminating speech defects were studied scientifically and theoretically.

CONCLUSION: Speech disorders are complex systemic disorders of human neuropsychic activity, which arise as a result of morpho-functional insufficiency of the central nervous system, disintegration of psycholinguistic mechanisms, and the adverse effects of sociopsychological factors. Speech is a highly integrated neurophysiological and psycholinguistic process, and any deviation in it reflects a violation of the coordinated work of the central nervous system, the activity of analyzers, and mental processes.

Keywords: speech defects, etiology, pathogenesis, dyslalia, dysarthria, alalia, aphasia, neuropsychological approach, speech therapy correction, psycholinguistics, differential diagnostics, rehabilitation, integrative method, central nervous system.

Nutq kamchiliklari insonning ogʻzaki muloqot jarayonida tovush talaffuzi, grammatik tuzilma, lugʻat boyligi yoki nutqning ravonligida yuzaga keladigan buzilishlardir. Bu holatlar markaziy asab tizimi faoliyatidagi nuqsonlar, eshitish yoki artikulyatsion apparatdagi anatomik va fiziologik oʻzgarishlar, shuningdek, psixologik omillar bilan bogʻliq boʻlishi mumkin. Nutq inson tafakkuri va ijtimoiy hayotining ajralmas qismi boʻlgani uchun, undagi har qanday ogʻish shaxsning aqliy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Nutq kamchiliklari turlicha shakllarda namoyon boʻladi. Eng koʻp uchraydigan turlari - dislaliya, dizartriya, rinolaliya, alaliya, afaziya va duduqlanishdir.

Dislaliya tovushlarni notoʻgʻri talaffuz qilish bilan ifodalanadi, dizartriya esa artikulyatsion mushaklarning harakatlari buziladi. Rinolaliya burun orqali talaffuz jarayonining buzilishi natijasida nutqning burun ohangida chiqishidir. Alaliya miya poʻstlogʻidagi nutq markazlarining yetarli rivojlanmaganligi sababli bola nutqining kechikishi yoki shakllanmasligidir. Afaziya esa avval mavjud boʻlgan nutqning miya jarohati yoki insult tufayli yoʻqolishidir. Duduqlanish esa nutqning ritmik kechishidagi tormozlanish, takrorlanish yoki pauzalar bilan ifodalanadigan nevroitik holat hisoblanadi. Bunday nutq kamchiliklarini keltirib chiqaruvchi omillar xilma-xil boʻlib, ular genetik irsiyat, homiladorlik davrida yoki tugʻruq paytidagi asoratlar, miya gipoksiyasi, asab tizimi faoliyatining buzilishi, eshitish organlaridagi nuqsonlar va psixologik omillar bilan bogʻliq boʻladi. Shuningdek, ijtimoiy izolyatsiya, eʼtiborsizlik va notoʻgʻri tarbiya ham nutqning toʻliq rivojlanishiga toʻsqinlik qiladi. Nutq kamchiliklarini bartaraf etish kompleks yondashuvni talab qiladi. Logopedik mashgʻulotlar orqali talaffuzni tuzatish, fonematik idrokni rivojlantirish, artikulyatsion mashqlar bajarish muhim ahamiyatga ega.

Neyropsixologik reabilitatsiya mashgʻulotlari orqali miya faoliyatini faollashtirish, sensor integratsiyani yaxshilash natijasida nutqiy faollik tiklanadi. Psixoterapevtik yondashuv, ayniqsa duduqlanish holatlarida, bolaning ruhiy holatini barqarorlashtirishga yordam beradi. Logoritmik mashgʻulotlar esa nutqni ritm va harakat bilan uygʻunlashtirish orqali ravonlikni oshiradi. Shuningdek, ota-onalar ishtiroki bu jarayonda muhim oʻrin tutadi. Ular logoped tavsiyalari asosida uy sharoitida mashqlarni davom ettirishlari va bolaga toʻgʻri nutqiy muhit yaratishlari lozim. Bolaning nutqi kattalar nutqi asosida rivojlanib boradi.

Nutqning toʻgʻri shakllanishi atrofdagilar nutqiga, nutqiy tajribaga, toʻgʻri nutq muhitiga hamda taʼlim-tarbiyaga bogʻliq. Nutq tugʻma qobiliyat emas, balki hayot davomida bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishi bilan parallel ravishda shakllanadi. Nutq buzilishlarini oʻrganish va tushunish uchun bola nutqining normal rivojlanish yoʻlini, bu jarayonning oʻziga xos xususiyatlarini, shuningdek, nutqning muvaffaqiyatli shakllanishida katta ahamiyatga ega boʻlgan sharoitlarni bilish zarur. Bundan tashqari, bola nutqining rivojlanish bosqichlarini aniq bilish lozim. Bu esa nutq rivojlanish jarayonida paydo boʻladigan turli kamchiliklarni oʻz vaqtida aniqlash va bartaraf etish imkonini beradi.

G. L. Rozengrad-Pupko bola nutqining rivojlanishini ikki davrga ajratadi:

1. **Tayyorlov davri** - 2 yoshgacha;
2. **Nutqning mustaqil shakllanish davri.**

A. N. Leontev esa bola nutqining shakllanishini to'rt davrga bo'ladi:

1. **Tayyorgarlik davri** – bola tug'ilgandan bir yoshgacha;
2. **Bog'chagacha bo'lgan davr** - 3 yoshgacha;
3. **Maktabgacha davr** - 7 yoshgacha;
4. **Maktab davri.**

Bola tug'ilgan paytdan boshlab ovoz chiqaradi. Bu ovozlarni qichqiriq va yig'idan iborat bo'lib, ular hali odam nutqidan uzoq. Ammo aynan shu qichqiriq va yig'i nutq apparatining uch bo'limi - nafas olish, ovoz hosil bo'lish va artikulyatsiya tizimining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Ikki hafta o'tgach, bola gapirayotgan odamning ovozigacha e'tibor bera boshlaydi. Bir oyligida esa uni mayin qo'shiq (alla) bilan tinchlantirish mumkin bo'ladi. Tez orada bola intonatsiyaga e'tibor qaratadi: mayin ohangda gapirilganda tinchlanadi, keskin intonatsiyada esa yig'laydi.

Ikki oyligida gu-gulash, uchinchi oy boshida esa bo'g'inlarning talaffuzi (aga-aga, ta-ta, ba-ba va boshqalar) paydo bo'ladi. Bu tovush birikmalari hali aniq artikulyatsiyaga ega emas. Bola besh oyligida tovushlarni eshitadi va atrofdagilarning lab harakatlarini kuzatib, ularga taqlid qilishga intiladi. Takroriy harakatlar tufayli nutq apparati harakat ko'nikmalari mustahkamlanadi.

Oldinchi oydan boshlab bola taqlid orqali ayrim bo'g'inlarni talaffuz eta boshlaydi (na-na-na, bebe-be, da-da-da, pa-pa-pa va boshqalar). Ikkinchi yarim yillikda esa ayrim tovush birikmalarini predmet yoki harakat bilan bog'lay boshlaydi (masalan: “bu”, “ma”, “bey”). 7-9 oylikda bola kattalar ortidan turli bo'g'inlarni takrorlaydi, 10 - 11 oyligida esa so'zlarga javob qaytarish — vaziyat yoki intonatsiyadan qat'i nazar - shakllana boshlaydi.

Tadqiqotlarga ko'ra, bola lug'at boyligi quyidagicha ortadi:

- 1 yosh 6 oyligida - 10-15 ta so'z;
- 2 yoshning oxiriga kelib - 300 ta so'z;
- 3 yoshga kelib - 1000 ta so'z.

Bola hayotining uchinchi yilida nutqning grammatik tomoni shakllana boshlaydi. Avvaliga bola o'z istak va iltimoslarini bitta so'z bilan bildiradi, keyinchalik esa 1–2 so'zdan iborat sodda gaplardan foydalanadi.

Uchinchi davr - maktabgacha yosh davri (3 yoshdan 6 yoshgacha)da bolalar artikulyatsion jihatdan oson talaffuz etiladigan lab-lab va lab-til undoshlari (p, b, m, f, v)ni o'rganadilar. Ammo talaffuzi murakkab bo'lgan shivirlovchi, sirg'aluvchi (s, z, sh, j, ch) va sonor (r, l), shuningdek, til orqa (k, g) tovushlarini talaffuz etishda qiyinchilikka duch keladilar. Shu sababli bu tovushlarni noto'g'ri ishlatadilar yoki umuman talaffuz qilmaydilar.

Nutq kamchiliklari bir necha turlarga bo'linadi. Eng ko'p uchraydigan turlaridan biri - fonetik-fonematik buzilish bo'lib, bunda bola ayrim tovushlarni noto'g'ri talaffuz qiladi, ularni aralashtirib yuboradi yoki umuman ayta olmaydi. Masalan, “r” tovushi o'rniga “l” yoki “y” tovushini ishlatadi. Bunday holatni bartaraf etish uchun maxsus artikulyatsion mashqlar, tovush chiqarish mashqlari hamda fonematik eshituvni rivojlantiruvchi logopedik mashg'ulotlar o'tkaziladi.

Ikkinchi keng tarqalgan nutq kamchiligi - dislaliya bo'lib, bu holatda bola eshitish va nutq apparati sog'lom bo'lsa ham ayrim tovushlarni noto'g'ri talaffuz etadi. Masalan, “soat” o'rniga “shoat” yoki “roat” deb aytishi mumkin. Dislaliyani bartaraf etish uchun logoped yordamida to'g'ri artikulyatsiya holatini shakllantirish, talaffuz mashqlari bajarish va tovushlarni to'g'ri aytishga o'rgatish zarur. Dizatriya esa markaziy asab tizimi shikastlanishi natijasida paydo bo'ladigan nutq buzilishi bo'lib, bunda nutq apparati mushaklari harakati sustlashadi. Natijada bola tovushlarni noaniq, “g'ijimlangan” yoki “shivirlagan” tarzda talaffuz qiladi.

Disartriyanı bartaraf etish uchun nafas olish, ovoz chiqarish va artikulyatsiya mashqlari bilan bir qatorda fizioterapevtik muolajalar ham tavsiya etiladi. Disfoniya yoki afoniya - bu tovushning zaiflashishi yoki butunlay yo‘qolishidir. Bunday holatlar ko‘pincha ovoz bog‘lamalarining zo‘riqishi, shamollash yoki psixologik bosimlar natijasida kuzatiladi. Uni bartaraf etish uchun ovozni asrash, to‘g‘ri nafas olish va ovoz hosil qilish mashqlari o‘tkazish zarur.

Umuman olganda, har bir nutq kamchiligi individual yondashuvni talab etadi. Logoped, psixolog va ota-onalar o‘zaro hamkorlikda ish olib borsalar, nutq buzilishlarini erta aniqlash va to‘g‘ri bartaraf etish orqali bola nutqining to‘liq rivojlanishiga erishish mumkin. Shu tariqa, to‘g‘ri tashkil etilgan logopedik mashg‘ulotlar, sog‘lom nutq muhiti va mehr-muhabbat bilan to‘ldirilgan muloqot bolaning nutqini tiklash va rivojlantirishning eng samarali yo‘lidir. Logopedik mashg‘ulotlar davomida o‘yin, qo‘shiq, rasm chizish, hikoya tuzish kabi qiziqarli faoliyatlardan foydalanish bolaning diqqatini jamlash, nutqiy faolligini oshirish va jarayonga ijobiy munosabat shakllantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati‘:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni// O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha ha‘rakatlar strategiyasi to‘g‘risida. -T.: 2017.
2. Ayupova M. Y Logopediya. O‘zbekiston Faylasuflar Milliy Jamiyati Nashriyoti Toshkent 2011.
3. Aripova Sh. Bolalar nutqini grammatik qurilishini shakllantirish va rivojlantirishda korreksion-pedagogik ish tizimi Ped fan, dok dis-T 2017
4. Алексеева М.М., Яшина В.И. Методика развития речи и обучения родному языку дошкольников. -М.: Академийа, 2010.
5. Asqarova M. “Kichik yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish”.T:,-“O‘zbekiston” 2010y.
6. Albion, P. R., &Ertmer, P. A. (2014). Beyond the foundations: The role of vision and belief in teachers’ preparation for integration of technology. TechTrends, 46 (5), 34-38.
7. Artamonova Natalya Viktorovna (2015) - advanced training in the program “Current problems of speech therapy

MUALLIF HAQIDA MA‘LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Azimova Zebiniso Nasilloevna

Osiyo xalqaro universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

zebinisoazimova42@gmail.com

DISLALIYA NUTQ NUQSONIGA EGA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA FONETIK MASHQLARNING ROLI



Sharopova Gulnoza Shaxoviddin qizi
Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya.

KIRISH: Maktabgacha yosh davri bolaning shaxsiy va nutqiy rivojlanishida eng muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda bola atrof-muhitni idrok etadi, nutq orqali o'z fikrini ifodalashni o'rganadi va muloqot jarayonida ijtimoiylashadi. Nutq madaniyati bolaning nafaqat to'g'ri talaffuz qila olish qobiliyatini, balki o'z fikrini aniq, tushunarli va muloqot me'yorlariga mos ravishda bayon etish ko'nikmalarini ham qamrab oladi.

Biroq, maktabgacha yoshdagi bolalar orasida nutq nuqsonlariga, xususan dislaliyaga duch kelish holatlari keng tarqalgan. Dislaliya — bu bola aqliy va eshitish qobiliyati normal bo'lgan holda tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilishi bilan xarakterlanadigan nutq buzilishidir. Bu nuqson o'z vaqtida tuzatilmasa, bola nutqiy madaniyatining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, kelgusida o'qish va yozish jarayonida ham qiyinchiliklarga sabab bo'lishi mumkin. Nutqiy madaniyatni shakllantirish jarayonida fonetik mashqlar muhim o'rin tutadi. Maxsus tanlangan fonetik mashqlar orqali bolalarning artikulyatsion apparati mustahkamlanadi, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish malakasi shakllanadi va ularning nutqiy faoliyati izchil rivojlanadi. Shuningdek, fonetik mashqlar bolalarda nafaqat nutqiy, balki umumiy muloqot madaniyatini shakllantirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirish hamda o'ziga ishonchni mustahkamlash imkonini beradi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, dislaliya nutq nuqsoniga ega maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy madaniyatini shakllantirishda fonetik mashqlardan samarali foydalanish metodikasini ishlab chiqish bugungi kunda logopediya va pedagogika fanlarining muhim ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

MAQSAD: Dislaliya nutq nuqsoniga ega maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy madaniyatini shakllantirish jarayonida fonetik mashqlarning samaradorligini aniqlash, artikulyatsion va fonetik mashqlar asosida nutqiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash hamda tovush talaffuzini to'g'rilash, nutqiy faollik va muloqot madaniyatini oshirish bo'yicha amaliy metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

MATERIAL VA METODLAR: Ushbu tadqiqotda dislaliya nutq nuqsoniga ega maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy madaniyatini shakllantirish jarayonida fonetik mashqlarning o'rnini aniqlashga qaratilgan nazariy va amaliy manbalar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida logopediya va nutq terapiyasi bo'yicha ilmiy adabiyotlarni o'rganish, so'rovnoma, suhbat va pedagogik kuzatish metodlaridan foydalanildi. Empirik material sifatida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib borilgan logopedik mashg'ulotlarni kuzatish, fonetik mashqlarni qo'llash jarayonida bolalarning talaffuzidagi o'zgarishlarni qayd etish, shuningdek, tarbiyachi va logopedlar bilan suhbatlar o'tkazildi. Bolalarning nutqiy faoliyati, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish malakalari, lug'at boyligi va muloqot kompetensiyalari kuzatish asosida tahlil qilindi.

Shuningdek, maktabgacha ta'limga oid davlat dasturlari, logopedik metodik qo'llanmalar va soha olimlarining ilmiy tadqiqotlari ko'rib chiqildi hamda ularning amaliy qo'llash imkoniyatlari umumlashtirildi.

XULOSA: Dislaliya nutq nuqsoniga ega maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy madaniyatini shakllantirishda fonetik mashqlarni qo'llash amaliyotda samarali natija berdi. Tadqiqot jarayonida artikulyatsion apparatni mustahkamlash, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, nutqiy faollikni oshirish hamda lug'at boyligini kengaytirishga qaratilgan fonetik mashqlar tizimli qo'llandi. Mashg'ulotlar davomida bolalar nutqidagi talaffuz xatolari asta-sekin bartaraf etildi, ularning nutqiy madaniyati shakllanib bordi. Fonetik mashqlar nafaqat nutqdagi kamchiliklarni tuzatishda, balki maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish, ijtimoiylashuv jarayonida faol ishtirok etish va o'z fikrini aniq bayon etish ko'nikmalarini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Kalit so'zlar: dislaliya, nutq nuqsoni, maktabgacha ta'lim, nutqiy madaniyat, fonematik eshituv, artikulyatsion mashqlar, didaktik o'yinlar, logopedik metodika, nutqiy rivojlanish, kommunikativ kompetensiya.

РОЛЬ ФОНЕТИЧЕСКИХ УПРАЖНЕНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ РЕЧЕВОЙ КУЛЬТУРЫ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА С НАРУШЕНИЕМ РЕЧИ ДИСЛАЛИЕЙ

Шаропова Гульноза Шаховиддиновна

Азиатский международный университет

Преподаватель кафедры педагогики и психологии

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: Дошкольный возраст является важнейшим этапом в личностном и речевом развитии ребёнка. Именно в этот период ребёнок начинает активно воспринимать окружающую среду, учится выражать свои мысли посредством речи и социализируется в процессе общения. Речевая культура охватывает не только умение правильно произносить звуки, но и способность ясно, понятно и в соответствии с нормами общения излагать свои мысли. Однако среди детей дошкольного возраста достаточно часто встречаются речевые нарушения, в частности дислалия. Дислалия — это нарушение речи, характеризующееся неправильным произношением звуков при нормальном слухе и сохранном интеллекте ребёнка. Если данное нарушение не исправить своевременно, оно может оказать негативное влияние на формирование речевой культуры ребёнка, а также вызвать трудности в процессе дальнейшего обучения чтению и письму.

Актуальность данной темы заключается в том, что разработка методики эффективного использования фонетических упражнений при формировании речевой культуры у детей дошкольного возраста с дислалией является одной из важных научно-практических задач современной логопедии и педагогики.

ЦЕЛЬ: Определить эффективность фонетических упражнений в процессе формирования речевой культуры у детей дошкольного возраста с дислалией, поддерживать речевое развитие на основе артикуляционных и фонетических упражнений, корректировать звукопроизношение, активизировать речевую деятельность и повысить культуру общения, а также разработать практические методические рекомендации.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В данном исследовании были проанализированы теоретические и практические источники, направленные на выявление роли фонетических упражнений в формировании речевой культуры у детей дошкольного возраста с дислалией. В процессе работы использовались методы изучения научной литературы по логопедии и речевой терапии, анкетирование, беседа и педагогическое наблюдение. В качестве эмпирического материала рассматривались наблюдения за логопедическими занятиями в дошкольных

образовательных организациях, фиксация изменений в произношении детей при выполнении фонетических упражнений, а также беседы с воспитателями и логопедами. Речевая деятельность детей, умение правильно произносить звуки, словарный запас и коммуникативные компетенции анализировались на основе наблюдений.

Кроме того, были изучены государственные программы по дошкольному образованию, логопедические методические пособия и научные исследования в данной области, а также обобщены возможности их практического применения.

ВЫВОД: Применение фонетических упражнений при формировании речевой культуры у детей дошкольного возраста с дислалией показало положительные результаты. В ходе исследования системно использовались упражнения, направленные на укрепление артикуляционного аппарата, формирование правильного звукопроизношения, повышение речевой активности и расширение словарного запаса. В процессе занятий постепенно устранялись ошибки в произношении, а речевая культура детей последовательно формировалась. Фонетические упражнения оказались важными не только для коррекции речевых нарушений, но и для развития коммуникативных компетенций у детей дошкольного возраста, их активного участия в процессе социализации и формирования навыков чёткого выражения собственных мыслей.

В целом, разработанная методика может быть рекомендована как эффективное направление в логопедической работе по формированию речевой культуры у детей с дислалией. Интеграция данного подхода в процесс дошкольного образования научно обоснованно способствует повышению уровня речевого развития, социальной активности и психологической уверенности детей.

Ключевые слова: дислалия, речевое нарушение, дошкольное образование, речевая культура, фонематический слух, артикуляционные упражнения, дидактические игры, логопедическая методика, речевое развитие, коммуникативная компетенция.

THE ROLE OF PHONETIC EXERCISES IN THE FORMATION OF SPEECH CULTURE IN PRESCHOOL CHILDREN WITH SPEECH DISORDER (DYSLALIA)

Sharopova Gulnoza Shakhoviddin qizi

Asian International University

Lecturer of the Department of Pedagogy and Psychology

Annatation.

INTRODUCTION: The preschool age is considered the most important stage in a child's personal and speech development. During this period, the child begins to perceive the surrounding environment, learns to express his or her thoughts through speech, and socializes in the process of communication. Speech culture encompasses not only the ability to pronounce sounds correctly, but also the skill of expressing one's thoughts clearly, understandably, and in accordance with the norms of communication. However, among preschool children, speech disorders, in particular dyslalia, are quite common. Dyslalia is a speech disorder characterized by incorrect pronunciation of sounds while the child's hearing and intellectual abilities remain normal. If this defect is not corrected in time, it may negatively affect the formation of the child's speech culture and cause difficulties in the processes of reading and writing in the future.

Phonetic exercises play an important role in the process of developing speech culture. Through specially selected phonetic exercises, the child's articulatory apparatus is strengthened, the skill of correct sound pronunciation is formed, and speech activity develops systematically. Moreover, phonetic

exercises not only correct speech, but also help to form general communication culture, develop creative thinking, and strengthen self-confidence.

The relevance of this topic lies in the fact that the development of an effective methodology for the use of phonetic exercises in shaping speech culture among preschool children with dyslalia is one of the important scientific and practical tasks of modern speech therapy and pedagogy.

THE GOAL: To determine the effectiveness of phonetic exercises in the process of forming speech culture in preschool children with dyslalia, to support speech development based on articulatory and phonetic exercises, to correct sound pronunciation, to increase speech activity and communication culture, and to develop practical methodological recommendations.

MATERIALS AND METHODS: In this study, theoretical and practical sources aimed at identifying the role of phonetic exercises in shaping speech culture in preschool children with dyslalia were analyzed. During the research process, methods such as the study of scientific literature on speech therapy, surveys, interviews, and pedagogical observation were used. As empirical material, observations of speech therapy classes conducted in preschool educational institutions were considered, recording changes in children's pronunciation during the application of phonetic exercises, as well as conducting interviews with educators and speech therapists. Children's speech activity, their ability to correctly pronounce sounds, vocabulary, and communicative competencies were analyzed on the basis of observations.

In addition, state programs related to preschool education, methodological manuals on speech therapy, and scientific research in this field were studied, and the possibilities of their practical application were generalized.

CONCLUSION: The use of phonetic exercises in forming speech culture in preschool children with dyslalia showed effective results in practice. During the research, a system of exercises aimed at strengthening the articulatory apparatus, forming correct sound pronunciation, increasing speech activity, and expanding vocabulary was systematically applied. During the lessons, pronunciation errors in children's speech were gradually corrected, and their speech culture was formed consistently. Phonetic exercises proved to be important not only in correcting speech disorders but also in developing communicative competencies in preschool children, ensuring their active participation in the process of socialization, and forming the ability to express their thoughts clearly.

Keywords: dyslalia, speech disorder, preschool education, speech culture, phonemic hearing, articulatory exercises, didactic games, speech therapy methodology, speech development, communicative competence.

Nutq insonning ijtimoiy faoliyatida asosiy vosita hisoblanadi. U orqali shaxsning tafakkuri, muloqoti va bilish jarayonlari shakllanadi, shuningdek, jamiyat bilan munosabatini ta'minlaydi. Maktabgacha yoshdagi bola uchun nutq faqatgina aloqa vositasi emas, balki psixik rivojlanishning bosh omillaridan biridir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolaning nutqiy rivojlanishi uning tafakkuri, xotirasi, ijtimoiylashuvi va shaxslararo munosabatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, maktabgacha yosh davrida nutqiy madaniyatni shakllantirish bola tarbiyasida markaziy o'rin tutadi.

Nutqiy buzilishlarning eng ko'p tarqalgan shakllaridan biri **dislaliya** hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda dislaliya bola eshitish qobiliyati va intellekti normal bo'lgan holda ayrim tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilishi, ularni almashtirishi yoki tushirib qoldirishi bilan tavsiflanadi.

Dislaliya odatda maktabgacha yoshda uchraydi va bola nutqi fonetik-fonematik jihatdan to'liq shakllanmaganidan dalolat beradi. Bu nuqson vaqtida tuzatilmasa, keyingi bosqichda yozma nutqiy faoliyat (o'qish, yozish) jarayonida sezilarli qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

Dislaliyaning sabablari ikki guruhga ajratiladi:

- **Mexanik (organik) omillar:** tanglay yoriqligi, noto‘g‘ri tish qatori, qisqa til boylamchasi va boshqalar.
- **Funksional omillar:** artikulyatsion apparat normal bo‘lsa-da, tovushlar noto‘g‘ri talaffuz qilinadi. Bu holat ko‘pincha fonematik eshituvning sustligi, artikulyatsion apparat mushaklarining rivojlanmaganligi, noto‘g‘ri pedagogik yondashuv va tarbiyaviy sharoitlar bilan izohlanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, dislaliya ko‘proq **sonor tovushlar** (r, l) va **shovqinli undoshlar** (s, sh, z, j, ch)da uchraydi. Bu tovushlarning talaffuzi murakkab bo‘lib, ular maxsus artikulyatsion harakatlarni talab etadi.

Nutqiy madaniyatni shakllantirishda fonetik mashqlar asosiy metodik vositalardan biri hisoblanadi. Ular nafaqat tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgatadi, balki bolalarning artikulyatsion apparatini mustahkamlaydi, fonematik eshituvni rivojlantiradi, lug‘at boyligini kengaytiradi va kommunikativ kompetensiyalarni oshiradi.

Fonetik mashqlar quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llanildi:

1. **Artikulyatsion gimnastika** – til, lab, jag‘ mushaklarini chiniqtirish va harakatchanligini oshirish. Masalan: “soat”, “ot”, “mashina” mashqlari tovush hosil qilish uchun zarur harakatlarni shakllantiradi.
2. **Fonematik eshituv mashqlari** – tovushlarni farqlash va aniqlashga qaratilgan mashqlar. Masalan: “s” va “sh” tovushlarini farqlash uchun maxsus o‘yinlar.
3. **Didaktik o‘yinlar** – “Top o‘yinchoqni tovushi bo‘yicha”, “Kerakli so‘zni tanla” kabi o‘yinlar bolalarda lug‘atni kengaytirib, tovush sezgirligini oshiradi.
4. **Nutqiy vaziyatli topshiriqlar** – real hayotiy vaziyatlarga oid mashqlar, masalan: do‘konda savdo qilish, maktabgacha ta’lim muassasasida suhbat qurish.
5. **Ijodiy topshiriqlar** – she’r aytish, hikoya tuzish, rolli o‘yinlar. Bu mashqlar ifodali nutqni rivojlantirib, nutqiy madaniyatni mustahkamlaydi.

Tajriba mashg‘ulotlari maktabgacha ta’lim tashkilotida o‘tkazildi. 5–6 yoshdagi dislaliya nutq nuqsoniga ega bolalar tanlab olindi. Ularning nutqiy rivojlanish darajasi dastlabki kuzatuv va tahlil asosida baholandi. Kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki:

- **Fonematik eshituv zaifligi** – bolalar ko‘p hollarda tovushlarni chalkashtirdi.
- **Artikulyatsion apparat yetarli rivojlanmagan** – murakkab tovushlarni to‘g‘ri hosil qila olmadilar.
- **Lug‘at boyligi kamligi** – faol lug‘atda so‘zlar yetarli bo‘lmagan.
- **Muloqot qiyinchiliklari** – tengdoshlari bilan erkin suhbat qura olishmagan.

Metodik yondashuv asosida 3 oy davomida maxsus mashg‘ulotlar tashkil qilindi. Kuzatuv natijalarida quyidagi ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi:

- talaffuz xatolari 60%ga qisqardi;
- fonematik eshituv ko‘rsatkichlari 45%ga yaxshilandi;
- lug‘at boyligi 35%ga oshdi;
- bolalarning muloqot faolligi keskin ko‘tarildi.

Statistik ma’lumotlar:

- **Yuqori daraja:** tajriba guruhida 28%, nazorat guruhida 19%.
- **O‘rta daraja:** tajriba guruhida 55%, nazorat guruhida 47%.
- **Past daraja:** tajriba guruhida 17%, nazorat guruhida 34%.

Bu raqamlar fonetik mashqlar dislaliya nutq nuqsonini tuzatishda samarali vosita ekanini ilmiy jihatdan isbotlab berdi.

Natijalar logopediya fanida ilgari surilgan nazariy qarashlar bilan mos tushadi. L.S. Vygotskiyning “Nutq – tafakkurning asosiy shakli” g‘oyasi, A.R. Luriyaning “Fonematik eshituvning rivojlanishi

yoza nutq uchun poydevor” degan fikri amaliyotda o‘z tasdig‘ini topdi. Shuningdek, R.E. Levina va T.B. Filicheva tadqiqotlarida qayd etilganidek, fonetik mashqlar dislaliya nuqsonini tuzatishda eng samarali metodlardan biri ekanligi tasdiqlandi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, fonetik mashqlar dislaliya nutq nuqsoniga ega maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy madaniyatni shakllantirishning eng muhim vositasidir. Ular:

- tovush talaffuzini to‘g‘rilaydi,
- fonematik eshituvni rivojlantiradi,
- lug‘at boyligini kengaytiradi,
- muloqot madaniyatini shakllantiradi,
- ijodiy nutqiy faollikni kuchaytiradi,
- bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashga yordam beradi.

Fonetik mashqlar asosida ishlab chiqilgan metodika amaliyotda samarali ekanligi isbotlandi va uni logopedik ishlar jarayonida keng qo‘llash mumkinligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida. 2019-yil 16-oktabr // <https://lex.uz/docs/4543266>
2. Ayupova, Sh.A. Logopediya. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2006. – 240 b.
3. Mo‘minova, L. Maxsus psixologiya. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2010. – 228 b
4. Ganjiyev F.F. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida ijtimoiy psixologik kompetentlik omillarining namoyon etilishi va rivojlanishi: Psixologiya falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Buxoro, 2021. – B. 116-117 b.
5. **Nazirova G.M.** Maktabgacha ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni takomillashtirish: Avtoreferat. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). – T., 2019. – 45
6. Mo‘minova L., Kabulova R., Pulatova S. Maktabgacha ta’lim muassasalarining katta va maktabga tayyorlov guruh bolalari nutqini xalq o‘yinlari asosida rivojlantirish texnologiyasi. – T.: “Fan va texnologiya”, 2014, – 72 b.
7. UNESCO. World Conference on Early Childhood Care and Education. *Olingan manba:* <https://www.unesco.org/en/articles/early-childhood-education> (murojaat holati: 22.04.2022).

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Sharopova Gulnoza Shaxoviddin qizi

Osiyo xalqaro universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrası o‘qituvchisi

gulnozasharopova73@gmail.com

TIBBIY KIMYO FANINI KLINIK FANLAR BILAN INTEGRATSIYALASHGAN HOLDA O'QITISH METODIKASI



Safarova Nafisa Sulaymonovna

*Osiyo xalqaro universiteti,
Umumiy fanlar kafedrası assistenti*

Annotatsiya:

KIRISH: Ushbu maqolada tibbiyot oliy o'quv yurtlarida fundamental fan sifatida o'qitiladigan dorivor kimyoni o'qitish usullari klinik fanlar bilan birgalikda ko'rib chiqiladi. Misol tariqasida "Sovunlanmaydigan lipidlar" mavzusi keltirilgan. Maqolada fanlararo aloqalarni (kimyo, biologiya, klinik fanlar) integratsiyalashgan holda talabalarda ilmiy tafakkurni rivojlantirish, vizual va amaliyotga yo'naltirilgan o'qitish usullaridan foydalanish yo'llari yoritilgan. Ushbu mavzuni o'rganishda talabalarning kognitiv faolligini faollashtirish usulini taklif qilingan.

MAQSAD: An'anaviy ta'limda talabalar bilimni to'g'ridan - to'g'ri uning avvaldan mavjud bo'lgan shaklida oladilar. Yangi bilimlarning tahlili va ular asosida yangi g'oyalarga ega bo'lish kabi bosqichlar ko'pincha e'tiborsiz qoldiriladi. Ular bu bilimlarni bir-biriga o'xshash vaziyatlar asosida tushunadilar, takrorlaydilar va qo'llaydilar. An'anaviy ta'limning afzalligi qisqa vaqt ichida katta hajmdagi ma'lumotlarni etkazish qobiliyatidir. Maqsad tibbiyot talabalariga yangi bilimlarni integratsiyalashgan holda berish metodikasini "Sovunlanmaydigan lipidlar" mavzusi asosida qo'llash usullarini yoritish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Tadqiqotda qo'llanilgan metodlar quyidagilar: fanlararo bog'liqlik tamoyili, muammoli o'qitish usuli, vizual modellashdan foydalanish usuli, laboratoriya ishlari va proyektlar, ta'limda raqamli texnologiyalar. Bu usullar tibbiy kimyo va tibbiy biologiya fanlari doirasida olingan bilimlarni umumlashtirishga yordam beradi, ba'zi tibbiy muammolarni muvaffaqiyatli qilishga yordam beradi (masalan, anabolik steroidlarning qo'llanilishi), amaliy misollar qo'llagan holda talabalar motivatsiyasini oshirish (dori vositalari, atirlar, pardozi vositalari)da yordam beradi, ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishga yordam beradi.

XULOSA: Kimyo o'qitishda "Sovunlanmaydigan lipidlar" mavzusidan foydalanish fanlararo, ko'rgazmali, amaliy o'qitish tamoyillarini samarali amalga oshiradi. Bunday yondashuv nafaqat bilimlarni egallashga yordam beradi, balki talabalarning analitik tafakkurini, mustaqilligini va ilmiy qiziqishini rivojlantiradi.

Kalit so'zlar: ta'lim metodlari, tibbiy kimyo, sovunlanmaydigan lipidlar, fanlararo integratsiya, vizualizatsiya, interfaol o'qitish usullari.

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ МЕДИЦИНСКОЙ ХИМИИ В ИНТЕГРАЦИИ С КЛИНИЧЕСКИМИ НАУКАМИ

Сафарова Нафиса Сулаймоновна

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье рассматриваются методы преподавания лекарственной химии как фундаментальной науки в медицинских вузах в сочетании с клиническими науками. В качестве примера приведена тема "Неомыляемые липиды". В статье освещены пути развития научного мышления у студентов, использования наглядных и практико-ориентированных методов обучения с интеграцией междисциплинарных связей (химия, биология, клинические науки). При изучении данной темы предложен способ активизации познавательной активности студентов.

ЦЕЛЬ: В традиционном образовании учащиеся получают знания непосредственно в той форме, в какой они уже существуют. Такие этапы, как анализ новых знаний и получение новых идей на их основе, часто игнорируются. Они понимают, повторяют и применяют эти знания на основе схожих ситуаций. Преимуществом традиционного образования является способность передавать большие объемы информации за короткое время. Цель состоит в том, чтобы осветить методы применения методики интегрированного предоставления новых знаний студентам-медикам на основе темы "Неомыляемые липиды".

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Методы, использованные в исследовании: принцип междисциплинарности, метод проблемного обучения, метод использования визуального моделирования, лабораторные работы и проекты, цифровые технологии в образовании. Эти методы помогают обобщить знания, полученные в рамках медицинской химии и медицинской биологии, способствуют обсуждению некоторых медицинских проблем (например, применение анаболических стероидов), помогают повысить мотивацию студентов (лекарственные средства, духи, косметика) с использованием практических примеров, способствуют развитию научного мировоззрения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Использование темы "Неомыляемые липиды" в преподавании химии эффективно реализует принципы междисциплинарного, наглядного, практического обучения. Такой подход не только способствует приобретению знаний, но и развивает аналитическое мышление, самостоятельность и научный интерес студентов.

Ключевые слова: методы обучения, медицинская химия, неомыляемые липиды, междисциплинарная интеграция, визуализация, интерактивные методы обучения.

METHODOLOGY FOR TEACHING MEDICAL CHEMISTRY IN INTEGRATION WITH CLINICAL SCIENCES

Safarova Nafisa Sulaymonovna,

Asia International University, Assistant Professor, General Subjects Department

Annatation.

INTRODUCTION: This article discusses methods of teaching medicinal chemistry as a fundamental science in medical universities in combination with clinical sciences. The topic 'Unsaponifiable lipids' is given as an example. The article highlights ways to develop scientific thinking in students, using visual and practice-oriented teaching methods with the integration of interdisciplinary connections (chemistry, biology, clinical sciences). When studying this topic, a method for stimulating students' cognitive activity is proposed.



THE GOAL: In traditional education, students acquire knowledge directly in the form in which it already exists. Stages such as analysing new knowledge and generating new ideas based on it are often ignored. They understand, repeat and apply this knowledge based on similar situations. The advantage of traditional education is its ability to convey large amounts of information in a short period of time. The aim is to highlight methods for applying the integrated delivery of new knowledge to medical students based on the topic of “unsaponifiable lipids”.

MATERIALS AND METHODS: Methods used in the study: interdisciplinary approach, problem-based learning, visual modelling, laboratory work and projects, digital technologies in education. These methods help to summarise the knowledge gained in medical chemistry and medical biology, facilitate discussion of certain medical issues (e.g. the use of anabolic steroids), help to increase student motivation (medicines, perfumes, cosmetics) using practical examples, and contribute to the development of a scientific worldview.

CONCLUSION: The use of the topic ‘Unsaponifiable lipids’ in chemistry teaching effectively implements the principles of interdisciplinary, visual, and practical learning. This approach not only promotes the acquisition of knowledge but also develops analytical thinking, independence, and scientific interest among students.

Key words: teaching methods, medical chemistry, unsaponifiable lipids, interdisciplinary integration, visualisation, interactive teaching methods.

Zamonaviy kimyo o‘qitish metodologiyasi nafaqat nazariy bilim berish, balki yangi ma’lumotlarni fanlararo bog‘liqlikda tahlil qilish, taqqoslash va qo‘llash bo‘yicha barqaror ko‘nikmalarni rivojlantirishga e’tibor qaratishni talab qiladi. Bioorganik kimyo bo‘limida o‘rganiladigan mavzular, masalan, “Steroidlar va terpenlar” mavzusi, talabalarning fanga qiziqishini oshirish va ularni tibbiyot, farmatsevtika va biotexnologiyada yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishlari uchun ajoyib motivatsion mavzulardan biridir. Mavjud tibbiy ta’lim tizimi sharoitida jamiyatning yangi talablari va oliy ta’limni rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalarini hisobga olgan holda bir qator qarama-qarshiliklarni anglash qiyin emas.

Ular orasida:

1) tibbiy ta’limni fundamentallashtirish, insonparvarlashtirish, integratsiyalashning ob’ektiv zarurati va tibbiyot oliy o‘quv yurtida shifokorlar uchun zamonaviy davlat ta’lim standartlari bo‘yicha mutaxassis tayyorlashning yaxlit nazariy konsepsiyasining yo‘qligi o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni ta’kidlash muhimdir;


2) “kimyo – tibbiyot” tizimini yaxlit idrok etishga yordam beradigan zarur integrativ kurslar, shu jumladan kimyo kurslari mavjud bo‘lmagan taqdirda, ushbu fan mazmunini o‘zlashtirishning tor ixtisosli vazifalariga yo‘naltirilgan yuqori professional, ma’naviy-axloqiy, insonparvar va yetakchi o‘quv fani tizimi sifatida shifokor shaxsini shakllantirish zarurligi;

3) oliy ta’lim tizimiga oliy o‘quv yurtigacha ta’limning yangi tuzilmalarini kiritish zaruratini keltirib chiqaradigan maktab ta’limi darajalari va abituriyentlarning bilimlariga qo‘yiladigan oliy ta’lim talablari;

4) umumiy kimyo kursining tibbiy ta’lim, klinik tafakkur, intellektni rivojlantirish uchun ulkan ahamiyati va uni umumilmiy va kasbiy tayyorgarlik tarkibida yetarlicha baholamaslik, uni ongli va samarali o‘zlashtirish uchun tizimlilik darajasi va o‘quv vaqti miqdorining yetarli emasligi;

5) umumiy kimyo kursining maqsadli vazifasi - shifokorning boshlang‘ich kimyoviy savodxonligi va umumiy nazariy kimyoviy tayyorgarligini, boshqa kimyoviy va kasbiy fanlarni o‘rganish uchun zarur bo‘lgan asosiy g‘oyalar, tushunchalar, qonunlar, nazariyalarni o‘zlashtirishini ta’minlash hamda kimyo-biologiya va tibbiyot bloklari fanlari bilan tegishli fanlararo aloqaning yo‘qligi [1].

An'anaviy ta'limda talabalar bilimni to'g'ridan - to'g'ri uning avvaldan mavjud bo'lgan shaklida oladilar. Yangi bilimlarning tahlili va ular asosida yangi g'oyalarga ega bo'lish kabi bosqichlar ko'pincha



e'tiborsiz qoldiriladi. Ular bu bilimlarni bir-biriga o'xshash vaziyatlar asosida tushunadilar, takrorlaydilar va qo'llaydilar. An'anaviy ta'limning afzalligi qisqa vaqt ichida katta hajmdagi ma'lumotlarni etkazish qobiliyatidir. Bunday ta'lim olishning asosiy kamchiliklari orasida uning fikrlashdan ko'ra xotiraga e'tibor qaratishidir. Ta'limning bunday turi o'quvchilarning ijodkorligi, mustaqilligi va tashabbuskorligini rivojlantirishga unchalik yordam bermaydi [2].

Tibbiyot oliygohi talabalari 1-bosqichda o'qib o'rganadigan tibbiy kimyo kursida "Sovunlanmaydigan lipidlar. Steroidlar va terpenlar" mavzu muhim ahamiyatga ega mavzulardandir. Steroidlar — bu gormonlar, vitaminlar va hujayra membranalarining tarkibiy qismlarini o'z ichiga olgan organik birikmalar sinfidir. Terpenlar – asosan o'simliklarda uchraydigan tabiiy birikmalarning katta guruhi bo'lib, efir moylari, smolalar va biologik faol moddalarni o'z ichiga oladi. Bu mavzularning o'qitilishi:

- Tibbiy kimyo va tibbiy biologiya fanlari doirasida olingan bilimlarni umumlashtirishga yordam beradi;
- Ba'zi tibbiy muammolarni muhokama qilishga yordam beradi (masalan, anabolik steroidlarning qo'llanilishi);
- Amaliy misollar qo'llagan holda talabalar motivatsiyasini oshirish (dori vositalari, atirlar, pardozi vositalari)da yordam beradi;
- Ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishga yordam beradi.

2. Qo'llaniladigan metodikalar

2.1. Fanlararo bog'liqlik tamoyili

Ta'limdagi fanlararo bog'liqlik bugungi kunda ilm-fan va jamiyat hayotida ro'y berayotgan integratsion jarayonlarning aniq ifodasidir. Bu bog'liqlik tibbiyot oliy o'quv yurti talabalarining amaliy va ilmiy-nazariy tayyorgarligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda talabalarining bilish faoliyatining umumlashgan xususiyatini o'zlashtirishi alohida ahamiyatga ega. Umumlashganlik bilim va ko'nikmalarni aniq, ko'pincha nostandart vaziyatlarda, shuningdek, o'quv va davolash faoliyatidagi alohida masalalarni ko'rib chiqishda qo'llash imkonini beradi [3].

Mavzuni o'rganish jarayonida quyidagi fanlar bilan o'zaro aloqadorlikka urg'u berish tavsiya qilinadi:

Bunda quyidagi vaziyatli savollar qo'llaniladi:


1. Mavrak (shalfey)ning qanday faol moddalar guruhlari uning farmakologik faolligini ko'rsatadi? Dorivor mavrak efir moyi tarkibiga kiruvchi terpen formulasini yozing.

2. Sitral $C_{10}H_{16}O$ - koriandr yog'ining asosiy komponenti bo'lgan terpen. U gidroksilamin bilan reaksiyaga kirishib $C_{10}H_{17}N$ umumiy formulali moddani hosil qiladi, Tollens reaktivi bilan esa kumush ko'zgu reaksiyasini beradi va umumiy formulali $C_{10}H_{16}O_2$ moddani hosil qiladi. Sitralning kuchli oksidlanishi aseton, oksalat kislotasi $HOOC-COOH$ va levulin kislotasi $CH_3COCH_2CH_2COOH$ hosil qiladi. Sitralning tuzilish formulasini yozing.

2.2. Vizual modellashdan foydalanish

Quyidagilardan foydalanish tavsiya qilinadi:

- **Molekulalarning 3D-modellaridan foydalanish** (ChemSketch, MolView platformalarida);
- Biokimyoviy **video-ma'ruzalar**;
- Moddalarning tuzilishi va vazifalarini bog'lovchi **infografikalar**.
-



Infografikalardan foydalanib turli formulalarni chizishni uyga berilgan topshiriq sifatida qo'llash juda samarali natijalar betadi. Masalan, *“Limonen, mentol, kamfan, pinanlarning formulalarini infografikadan foydalanib chizib keeling va ularning xossalarni o'rganing”*, kabi topshiriqlarni misol ko'rsatish mumkin.

2.3. Muammoli o'qitish

Pedagogik va metodik adabiyotlarda “vaziyatli masala” tushunchasiga turlicha ta'riflarni uchratish mumkin: “bu ta'lim oluvchiga axborot bilan ishlash jarayonida intellektual operatsiyalarni izchil o'zlashtirishga imkon beradigan topshiriq turi: tanishish – tushunish – qo'llash – tahlil – sintez - baholash.” [4];

O'quv dasturini tuzish qarama-qarshiliklarning paydo bo'lishi va bartaraf etilishi jarayonini o'zida aks ettirishi kerak va faqat fan mazmuni darajasida. Bu talablarga eng ko'p muammoli o'qitish metodi mos keladi [5].

Muammoli topshiriq namunalari:

- *Nima uchun steroidlar lipofil hisoblanadi?*
- *Mono- va seksviterpenlarning biologic faolligi qanday farq qiladi?*
- *Gormonlarning vazifasiga ularning tuzilishi ta'sir ko'rsatadimi?*

3. Amaliy qism

Laboratoriya ishlari va proyektlar:

- IQ-spektrlarga asoslanib steroidlar sinfini aniqlash.
- Terpenlarni efir moylaridan ajratib olish (suv bug'lari yordamida haydash).
- “Sportda steroidlar: foydasi va zarari”.

4. Ta'limda raqamli texnologiyalar



- O‘tilgan mavzular bo‘yicha bilimlarni tekshirish va o‘tilganlarni takrorlash uchun quyidagi platformalardan foydalanish juda qulay (Quizlet, Kahoot, Moodle).
- Steroidlar va terpenlarning kimyoviy xossalariga doir xotira interaktiv kartochkalaridan foydalanish.
- Virtual laboratoriyalar (PhET, Labster) dan foydalanish klassik tajribalar alternativi sifatida juda foydali.
- **5. Usulning samaradorligini baholash**

Baholash mezonlari:

- Talabalarning faollik darajasi;
- O‘quv samaradorligi va fanga qiziqishi ortishi;
- ilmiy loyihalarni muvaffaqiyatli yakunlash;
- Talabalarning ijobiy fikrlari.

Natija

Ko‘pgina tajriba olib borayotgan pedagoglarning ta’kidlashiga ko‘ra, talabalar bilan bunday usullar yordamida ishlash ularning ilm olish faolligining ortishiga, ijodiy tafakkurining shakllanishiga sabab bo‘ladi, o‘zining shaxsiy fikrini ayta oladigan muhit paydo bo‘ladi, guruh bo‘lib ishlash tajribasi ortadi. Berilayotgan ma’lumotning juda ko‘pligiga qaramay, ta’lim jarayoni yanada jonlanadi. Bu ayniqsa boshlang‘ich bosqich talabalari uchun juda muhimdir [6].

Kimyo o‘qitishda “Steroidlar va terpenlar” mavzusidan foydalanish fanlararo, ko‘rgazmali, amaliy o‘qitish tamoyillarini samarali amalga oshiradi. Bunday yondashuv nafaqat bilimlarni egallashga yordam beradi, balki talabalarning analitik tafakkurini, mustaqilligini va ilmiy qiziqishini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Литвинова Т. Н. и др. Модернизация системы обучения общей химии студентов медицинского вуза //Современные наукоемкие технологии. – 2004. – №. 2. – С. 104-106.
2. Чошанов М. А. Гибкая технология проблемно-модульного обучения / М. Чошанов. - М.: Народное образование, 2012. - 158 с.
3. Литвинова Т. Н., Литвинова М. Г. Методика модульного обучения химии студентов медицинского вуза на основе внутри межпредметной интеграции //Актуальные проблемы химического и экологического образования. – 2017. – С. 213-217.
4. Найденышева И.Ю. Ситуационные задачи как средство оценивания в современной школе.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Safarova Nafisa Sulaymonovna

Osiyo xalqaro universiteti,
Umumiy fanlar kafedrası assistenti
Manzil: O‘zbekiston, Buxoro shahri
safarovan41982@gmail.com

ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБУЧЕНИЕ КАК СРЕДСТВО СТИМУЛИРОВАНИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ



Валиева Фарида Фаридовна

преподаватель в Азиатском международном университете

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: Инклюзивное образование представляет собой современную форму реализации принципа гуманизации обучения и воспитания, направленную на обеспечение права каждого ребёнка на качественное образование вне зависимости от его физических, интеллектуальных или социальных особенностей.

В последние годы в отечественной педагогике и психологии активно изучаются вопросы эффективности инклюзивных практик. Однако внимание исследователей чаще сосредоточено на социальных и адаптационных аспектах инклюзии, тогда как её влияние на познавательную деятельность обучающихся нередко остаётся недооценённым. Между тем именно познавательная активность является центральным звеном в развитии личности, определяющим успешность обучения и профессионального становления.

В статье рассматриваются особенности инклюзивного обучения как важного направления современной образовательной политики. Инклюзивная образовательная среда не только способствует социальной адаптации детей с особыми образовательными потребностями, но и выступает мощным фактором развития познавательной деятельности всех участников образовательного процесса. Автор раскрывает психолого-педагогические механизмы стимулирования познавательной активности в условиях инклюзии, выделяет эффективные формы и методы работы, обеспечивающие развитие познавательной мотивации, критического мышления и сотрудничества в группе.

ЦЕЛЬ настоящей статьи — проанализировать возможности инклюзивного обучения как средства стимулирования познавательной деятельности учащихся и обосновать педагогические условия, способствующие её развитию.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Теоретическую основу исследования составляют идеи культурно-исторической психологии Л.С. Выготского, деятельностного подхода А.Н. Леонтьева, концепции развивающего обучения Д.Б. Эльконина и В.В. Давыдова, а также гуманистической психологии К. Роджерса и А. Маслоу.

Согласно Л.С. Выготскому, развитие личности происходит в процессе совместной деятельности и общения, где решающую роль играет социальная ситуация развития. Принцип «обучение ведёт за собой развитие» особенно значим в инклюзивной среде, где взаимодействие разных по возможностям и опыту обучающихся стимулирует развитие когнитивных процессов.

А.Н. Леонтьев подчёркивал, что мотивация является движущей силой познавательной активности. Таким образом, инклюзивная образовательная среда, основанная на принципах

принятия, поддержки и сотрудничества, создаёт благоприятные условия для внутренней мотивации к познанию и формированию позитивного отношения к учебной деятельности.

В ходе исследования была проведена экспериментальная работа на базе трёх колледжей города Ташкента. В исследовании использовались следующие методы:

- Анкетирование и опрос
- Педагогическое наблюдение
- Статистический анализ
- Сравнительный анализ
- Корреляционный анализ

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Инклюзивное обучение является не только формой реализации принципа равенства и доступности образования, но и эффективным средством развития познавательной деятельности обучающихся.

Создание инклюзивной образовательной среды позволяет стимулировать познавательный интерес, активизировать мыслительные процессы, формировать навыки сотрудничества и самоорганизации.

Ключевые слова: инклюзивное образование, познавательная деятельность, мотивация, активные методы обучения, образовательная среда, социальная адаптация.

INCLUSIVE EDUCATION AS A MEANS OF STIMULATING COGNITIVE ACTIVITY

Valiyeva Farida Faridovna

teacher at Asia International University

Annotation.

INTRODUCTION: Inclusive education is a modern form of implementing humanistic principles, aimed at ensuring every child's right to quality education regardless of their physical, intellectual, or social characteristics.

2. Определить основные проблемы, связанные с физической неактивностью и профессиональными стрессами.
3. Разработать систему упражнений и оздоровительных мероприятий, направленных на повышение физической активности и стрессоустойчивости.
4. Провести экспериментальную проверку эффективности предложенной программы.
5. Сформулировать практические рекомендации для внедрения оздоровительных технологий в учреждениях.

В исследовании приняли участие 120 государственных служащих среднего возраста (от 35 до 55 лет), работающих в различных учреждениях города Бухары.

Для оценки уровня физической подготовленности применялись тесты на выносливость, гибкость, силу и координацию. Изучались показатели артериального давления, частоты сердечных сокращений, индекса массы тела, а также психологические параметры (уровень стресса, мотивации, самооценки).

Используемые методы:

- анкетирование и опрос;
- педагогический эксперимент;
- физиологические измерения;
- методика Люшера и шкала стресса Холмса–Рея;
- математико-статистическая обработка данных.

Согласно современным представлениям, развитие физических качеств человека (сила, выносливость, гибкость, скорость, координация) тесно связано не только с уровнем физической активности, но и с психоэмоциональным состоянием.

Педагогическая и психологическая наука (Л.Выготский, Б.Ананиев, А.Леонтьев, В.Келлер, Х.Ходжаев и др.) подчеркивает необходимость комплексного подхода к формированию здоровья взрослого человека, включая физические, эмоциональные и когнитивные аспекты.

В Узбекистане разработка программ по сохранению здоровья работающего населения осуществляется в рамках государственной стратегии «Соглом turmush tarzi» («Здоровый образ жизни»). Она предполагает внедрение корпоративных программ оздоровления, физкультурминуток, производственной гимнастики и регулярных спортивных мероприятий.

Анализ исходных данных показал, что более 70% обследованных государственных служащих имеют недостаточный уровень физической активности. Около 55% отметили наличие хронической усталости и головных болей, 40% страдали нарушениями сна, 30% — повышенным артериальным давлением. При этом большинство респондентов выразили желание участвовать в программах оздоровления, если они будут адаптированы под их рабочий график.

1. Разработка программы физического совершенствования

На основе анализа данных была разработана **трёхэтапная программа развития физических качеств:**

I этап — адаптационный (1 месяц)

- утренняя зарядка (10–15 мин);
- пешие прогулки не менее 3 км в день;
- контроль осанки и дыхательных упражнений;
- разъяснительные семинары о важности физической активности.

II этап — стабилизационный (2–3 месяц)

- производственная гимнастика в середине рабочего дня (5–7 мин);
- фитнес-упражнения лёгкой интенсивности (аэробика, пилатес, йога);
- тренировки дважды в неделю (кардионагрузка, растяжка, лёгкая силовая подготовка).

III этап — поддерживающий (4–6 месяц)

- участие в спортивных мероприятиях учреждения;
- введение индивидуальных планов физической активности;
- контроль физиологических показателей (ЧСС, давление, индекс массы тела).

2. Изменение показателей здоровья

После шестимесячного эксперимента были зафиксированы следующие результаты:

- среднее снижение массы тела — на 3,8%;
- нормализация артериального давления у 62% участников;

- улучшение гибкости позвоночника — на 18%;
- рост общей выносливости — на 22%;
- снижение уровня стресса — на 30%;
- повышение работоспособности и самочувствия — на 25%.

Таким образом, предложенная программа доказала свою эффективность в улучшении физического и психоэмоционального состояния государственных служащих.

3. Психологические аспекты мотивации

Особое внимание уделялось формированию **мотивации к регулярным занятиям физическими упражнениями**.

В рамках проекта проводились групповые тренинги, беседы о здоровом образе жизни, а также конкурсы «Самый активный сотрудник недели».

Положительный эмоциональный фон и социальная поддержка оказались важнейшими факторами успешного участия.

Практические рекомендации

1. Включить элементы производственной гимнастики в ежедневный распорядок государственных учреждений.
2. Организовать в каждом ведомстве «оздоровительные уголки» — комнаты отдыха, мини-тренажеры, массажные кресла.
3. Ввести систему мотивации — поощрение наиболее активных сотрудников.
4. Разработать корпоративные программы оздоровительных выходных и спортивных фестивалей.
5. Регулярно проводить медицинский и психологический мониторинг состояния здоровья.
6. Создать методические рекомендации для руководителей по формированию культуры здорового образа жизни в коллективе.

Динамика показателей физического состояния

Показатель	Исходное значение	Через 3 месяца	Через 6 месяцев	Изменение (%)
ЧСС (уд/мин)	86	78	74	–14%
Артериальное давление (мм рт.ст.)	140/90	130/85	125/80	–10%
Жизненная ёмкость лёгких (мл)	3200	3600	3800	+18%
Гибкость позвоночника (см)	7	10	12	+41%
Индекс массы тела (BMI)	28,5	26,9	25,8	–9,5%
Уровень стресса (баллы)	75	58	49	–35%
Работоспособность (%)	100	112	125	+25%

Изменения психологического состояния

Показатель	Метод оценки	До эксперимента	После эксперимента	Изменение
Уровень стресса	Шкала Холмса–Рея	68 баллов	44 балла	–35%
Мотивация к физической активности	Тест самооценки	60%	85%	+25%
Удовлетворённость работой	Социологический опрос	58%	83%	+25%
Коллективные отношения	Анкетирование	65%	88%	+23%
Психическая устойчивость	Психодиагностика	Средняя	Высокая	+1 уровень

Итоговые выводы

- Внедрение трёхэтапной программы физического развития повышает уровень здоровья и снижает профессиональный стресс на **30–35%**.
- Повышается мотивация к активному образу жизни, улучшаются показатели гибкости, выносливости и психоэмоционального состояния.
- Работоспособность государственных служащих увеличивается в среднем на **20–25%**.
- Система может быть рекомендована для внедрения в учреждения государственного сектора как элемент корпоративной культуры здоровья.

Совершенствование системы развития физических качеств и охраны здоровья государственных служащих среднего возраста является актуальным направлением в области социальной и профессиональной гигиены.

Результаты исследования показывают, что даже умеренные формы физической активности (зарядка, прогулки, гимнастика) оказывают положительное влияние на здоровье, эмоциональное состояние и профессиональную продуктивность.

Таким образом, реализация предложенной программы способствует:

- снижению уровня гиподинамии и профессиональных стрессов;
- повышению трудовой мотивации и удовлетворенности работой;
- формированию культуры здорового образа жизни среди государственных служащих.

Комплексное внедрение подобных программ в учреждениях государственного сектора может стать основой для укрепления кадрового потенциала, повышения эффективности управления и устойчивого развития общества в целом.

Список литературы

1. Всемирная организация здравоохранения (ВОЗ). *Глобальный план действий по физической активности 2018–2030 гг.*
2. Ходжаев Х.Р. *Физическое воспитание и здоровье взрослого человека.* — Ташкент: Fan, 2020.
3. Ананьев Б.Г. *Человек как предмет познания.* — СПб: Питер, 2019.
4. Лисицын Ю.П. *Основы общественного здоровья и здравоохранения.* — М.: Медицина, 2018.
5. World Health Organization. *Physical Activity Factsheet (2023).*
6. Mirzaev A. *Healthy Lifestyle Promotion in Uzbekistan: Current Challenges and Opportunities.* — Journal of Public Health, 2024.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Исломова Фазила Амруллаева

Преподаватель Бухарского академического лицея МВД

Адрес: Усбекистан, город Бухара

UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMIDA JISMONIY TARBIYA TA'LIMINING PEDAGOGIK NAZORAT XUSUSIYATLARI.



Jumaniyozov G'anijon Xudarganovich.
Buxoro Xalqaro universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya.

KIRISH: O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, umumta'lim fanlarini o'qitishning uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, zamonaviy metodologiyasini yaratish, umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat ta'lim standartlarini kompetenstiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, ta'lim-tarbiya muassasalarida ta'lim uzluksizligi davomida tegishli saviyani ta'minlovchi Davlat ta'lim standarti har bir shaxsga ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va shaxsiy muammolarini hal etishga to'laqonli kirishish imkoniyatini beradi. Umumiy o'rta ta'lim uchun jismoniy tarbiya bo'yicha davlat ta'lim standarti «Jismoniy tarbiya va ta'lim» kursi mazmuniga, o'quv yuklamasi hajmiga (o'quv rejasidagi o'quv soatlari), majburiy jismoniy tayyorgarlik darajasiga (jismoniy sifatlarining rivojlanishi, harakat malaka va ko'nikmalarining shakllanishi), sutka, hafta, yil davomidagi harakat rejimining majburiy hajmiga; o'quvchilarning nazariy tayyorgarligiga (jismoniy tarbiya, gigiena, shifokor nazorati, sport tibbiyoti, o'z-o'zini nazorat va boshqalar) qo'yiladigan talablar yig'indisini belgilab beradi.

MAQSAD: Umumiy o'rta ta'lim tizimida jismoniy tarbiya ta'limining pedagogic nazorat xususiyatlarini ilmiy tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: Nazorat me'yorlari tizimini yaratishga bir qator ishlar yo'naltirilgan bo'lib, ularda mualliflar shuni e'tirof etadilarki, jismoniy tarbiya bo'yicha dastur hujjatlariga kiritilgan me'yorlar ko'p jihatdan jismoniy tarbiya jarayonini tartibga soladi hamda jismoniy tarbiyaning oraliq va yakuniy bosqichlari maqsadini aniqlab beradi.

Olimlar va amaliyotchilarning katta e'tibori yoshlarning harakat sifatlarini baholashning optimal uslublarini ishlab chiqish hamda ulardan foydalanishga qaratilmoqda. Yoshlarning jismoniy tarbiya va sport faoliyatini amalga oshirishga bo'lgan tayyorgarligini o'rganish bo'yicha tadbirlar tashkil qilishning turli xil mexanizmlari qo'llaniladi.

XULOSA: O'quvchilarning salomatlik holati, DTS va dasturdagi o'quv normativlarning bajarish ahvoli, muayyan sport turidagi natijalar, yakuniy nazorat ko'rsatkichlari navbatdagi (yangi) o'quv-tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish uchun asos bo'ladi.

Kalit so'zlar: Bilim, ko'nikma, malaka, kompetenstiya, baholash tizimi, tezkor (operativ) nazorat, Bosqichli nazorat

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КОНТРОЛЯ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В СИСТЕМЕ ОБЩЕГО СРЕДНЕГО ОБРАЗОВАНИЯ.

Джуманиязов Ганижон Хударганович
Магистрант 2-го курса Бухарского международного университета

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В соответствии с законодательством Республики Узбекистан, Государственный образовательный стандарт (ГОС) обеспечивает преемственность и системность преподавания общеобразовательных предметов, формирует современную методологию, совершенствует государственные образовательные стандарты общего среднего и среднего специального, профессионального образования на основе компетентностного подхода, разрабатывает и внедряет учебно-методические комплексы нового поколения, обеспечивает соответствующий уровень образования в образовательных учреждениях на протяжении всей непрерывности образования, предоставляет каждому человеку возможность всесторонне участвовать в решении своих социально-политических, экономических и личностных задач. ГОС по физическому воспитанию для общего среднего образования «Физическое воспитание и тренировка» включает содержание курса, объем учебной нагрузки (учебные часы по учебному плану), уровень обязательной физической подготовки (развитие физических качеств, формирование двигательных навыков и умений), обязательный объем суточного, еженедельного, годового режима активности; определяет комплекс требований к теоретической подготовке студентов (физическая культура, гигиена, врачебный контроль, спортивная медицина, самоконтроль и др.).

ЦЕЛЬ: Научный анализ особенностей педагогического контроля физического воспитания в системе общего среднего образования.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Ряд работ был направлен на создание системы нормативов контроля, в которых авторы исходят из того, что нормативы, включенные в программные документы по физическому воспитанию, во многом регламентируют процесс физического воспитания и определяют цели промежуточных и заключительных этапов физического воспитания.

Большое внимание ученых и практиков уделяется разработке и использованию оптимальных методов оценки двигательных качеств молодежи. Используются различные механизмы организации мероприятий по изучению готовности молодежи к занятиям физической культурой и спортом.

ВЫВОД: Состояние здоровья обучающихся, ход реализации образовательных стандартов в ДТС и программе, результаты по конкретному виду спорта и показатели итогового контроля служат основой для планирования следующего (нового) образовательного процесса.

Ключевые слова: Знания, умения, навыки, квалификации, компетенции, система оценки, оперативный контроль, поэтапный контроль.

PECULIARITIES OF PEDAGOGICAL CONTROL IN PHYSICAL EDUCATION WITHIN THE GENERAL SECONDARY EDUCATION SYSTEM.

Jumaniyozov G'anijon Khudarganovich

Bukhara International University 2nd-year Master's student.

Annatation.

INTRODUCTION: In accordance with the laws of the Republic of Uzbekistan, the State Educational Standard, which ensures the continuity and consistency of teaching general education subjects, creates a modern methodology, improves the state educational standards of general secondary and secondary specialized, vocational education on the basis of a competency-based approach, develops and implements a new generation of educational and methodological complexes, provides an appropriate level of education in educational institutions throughout the continuity of education, gives each person

the opportunity to fully engage in solving their socio-political, economic and personal problems. The State Educational Standard for Physical Education for General Secondary Education "Physical Education and Training" includes the content of the course, the volume of the training load (study hours in the curriculum), the level of mandatory physical training (development of physical qualities, formation of motor skills and abilities), the mandatory volume of the daily, weekly, annual activity regime; determines the set of requirements for the theoretical preparation of students (physical education, hygiene, medical supervision, sports medicine, self-control, etc.).

THE GOAL: Scientific analysis of the pedagogical control features of physical education in the general secondary education system

MATERIALS AND METHODS: A number of works have been aimed at creating a system of control standards, in which the authors recognize that the standards included in the program documents for physical education largely regulate the process of physical education and determine the purpose of the intermediate and final stages of physical education.

Much attention of scientists and practitioners is paid to the development and use of optimal methods for assessing the movement qualities of young people. Various mechanisms for organizing activities to study the readiness of young people to carry out physical education and sports activities are used.

CONCLUSION: The health status of students, the state of implementation of the educational standards in the DTS and the program, the results in a particular sport, and the final control indicators serve as the basis for planning the next (new) educational process.

Keywords: Knowledge, skills, qualifications, competence, assessment system, operational control, Staged control

Nazorat me'yorlari tizimini yaratishga bir qator ishlar yo'naltirilgan bo'lib, ularda mualliflar shuni e'tirof etadilarki, jismoniy tarbiya bo'yicha dastur hujjatlariga kiritilgan me'yorlar ko'p jihatdan jismoniy tarbiya jarayonini tartibga soladi hamda jismoniy tarbiyaning oraliq va yakuniy bosqichlari maqsadini aniqlab beradi.

Olimlar va amaliyotchilarning katta e'tibori yoshlarning harakat sifatlarini baholashning optimal uslublarini ishlab chiqish hamda ulardan foydalanishga qaratilmoqda. Yoshlarning jismoniy tarbiya va sport faoliyatini amalga oshirishga bo'lgan tayyorgarligini o'rganish bo'yicha tadbirlar tashkil qilishning turli xil mexanizmlari qo'llaniladi.

Yoshlarning harakat tayyorgarligini testlash ishi amaliyotida yetarlicha keng tarqalgan bo'lib, bunda quyidagi vazifalar kompleksi hal etiladi:

- o'quvchi harakat tayyorgarligining individual darajasini baholash;
- o'quv jarayoni davomida jismoniy qobiliyatlarning rivojlanishidagi o'zgarishlarni tahlil qilish;
- o'quvchilar jismoniy tayyorgarligini aniq talablarga mosligini aniqlash;
- o'quvchilarning harakatlanish imkoniyatlari darajasini tahlil qilish maqsadida ularni ommaviy tekshirishni o'tkazish;
- jismoniy tarbiya bo'yicha amaldagi dasturlarning qo'llanilish samaradorligini aniqlash;
- jismoniy tarbiya o'qituvchilari faoliyati natijalarini o'rganish;
- umumta'lim maktablari o'quvchilari orasidan sportga saralab olishni amalga oshirish.

O'quvchining jismoniy madaniyati shakllanganligini muhim tarkiblaridagi biri bo'lgan jismoniy tayyorgarlikning amaldagi darajasini baholash uchun, odatda, jismoniy qobiliyatlarning rivojlanganligini ifodalovchi ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ma'lumki, asosiy jismoniy (tezlik, kuch, chidamlilik, epchillik, koordinatsion) qobiliyatlar o'lchamlarini standartlashtirishning asosiy talablariga mos bo'lgan aniq nazorat me'yorlari to'plami bilan baholanishi mumkin.

Umumta'lim maktablarining barcha sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan jismoniy tarbiya kompleks dasturida va davlat ta'lim standartida quyidagi nazorat me'yorlari hamda testlar tavsiya qilinadi:

- tezlik qobiliyatlari (30,60,100 metrga yugurish); koordinatsion (3x10 metrga mokisimon yugurish);

- tezlik-kuch(joydan uzunlikga sakrash);

- chidamlilik (1500, 2000, 3000 metrga yoki 6 daqiqali yugurish); egiluvchanlik (tanani o'tirgan joydan oldinga egish); kuch (baland turnikda tortilish).

«Jismoniy tarbiya» bo'yicha ta'lim dasturidan yoshlar uchun jismoniy tarbiya kompleks dasturiga o'xshash nazorat mashqlarini bajarishda jismoniy tayyorgarlik me'yorlari, shuningdek, asosiy harakat ko'nikmalari va malakalarining rivojlanish darajasini ifodalovchi qo'shimcha sinov turlari o'rin olgan. Yoshlarning jismoniy qobiliyatlarini har tomonlama rivojlanish maqsadida bazaviy va variantli tarkibiy qismlarni amalga oshirish uchun ishlab chiqarilgan maktab o'quvchilarining zamonaviy jismoniy tarbiya dasturlari ham nazorat mashqlari to'plamini o'z ichiga oladi, ular yordamida o'quvchilarning turli yosh guruhlarida umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik baholanadi.

So'ngi paytlarda maktab o'quvchilarining harakat tayyorgarligini baholash uslubiyatlari ko'plab paydo bo'ldi. Ular hammaga ma'lum nazorat mashqlarining turli xil variantlarda uyg'unlashgan shakllarini o'z ichiga oladi.

Yoshlar jismoniy tarbiyasida jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash eng muhim muammo hisoblanadi, bu o'quvchilar va o'qituvchilar orasida eng ko'p bahs-munozaralarni keltirib chiqaradi.

Baho (yoki pedagogik baho deb)-bu qandaydir vazifadagi, xususan testdagi muvaffaqiyatni unifikatsiyalashgan o'lchovidir. Baho har xil ko'rinishda ifodalanishi mumkin, masalan sifat tavsifi ko'rinishda («yaxshi – qoniqarli - qoniqarsiz» yoki «sinovdan o'tdi-o'tmadi»), maktabda hamda oliy o'quv yurtlaridagi kabi qo'yiladigan baho ko'rinishida («bir»dan «besh»gacha) ifodalanishi mumkin [18].

O'qituvchi o'quv jarayoni davomida o'quvchilarga qo'yadigan o'quv baholari va boshqa har xil turdagi malakaviy baholar(jumladan testlash) farqlanadi.

Baho, jumladan test natijalari bo'yicha baho sifat tavsifiga ega bo'lishi mumkin, masalan, maktabdagi kabi «ikki»dan «besh»gacha, yoki so'z bilan ifodalanishi ham mumkin: «a'lo» dan «yomon»gacha. Lekin testlash natijalari bahosining son tavsiflari ancha ahamiyatli hisoblanadi. Ularning asosida baholash vazifalari quyidagilardan iborat:

- turli testning o'zini turli xil natijalarini taqqoslash (masalan, bir xil yoki har xil yoshdagi va jinsga mansub o'quvchilar, o'quvchining turli xil hayot davrlaridagi ko'rsatkichlari);

- turli xil testlardagi natijalarni taqqoslash (masalan, ushbu testlardagi bir xil qiyinchilikdagi natijalarni baholash darajasi);

- me'yorlarni aniqlash(bir xil yoshdagi va jinsdagilar uchun; aniq bir vaznga va tana uzunligiga ega o'quvchilar uchun).

Sportda o'lchashlar nazariyasida test natijasining chegaraviy kattaligi me'yor hisoblanadi. U insonni (o'quvchini) malakaviy guruhlardan biriga birlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Yoshlar jismoniy tayyorgarlik me'yorlariga mos ravishda shunday guruhlariga ajratiladi.

Agar matorika uchun testlar haqida gapirilsa, jismoniy tarbiya uchun uch xil turdagi me'yorlar:taqqoslovchi, individual va zaruriy me'yorlar to'g'risidagi tasavvurlar katta amaliy ahamiyatga ega.

Qiyoslanuvchi me'yorlarning ma'nosi shuki, umumiy belgilarga ega bir xil yoshdagi va jinsga mansub o'quvchilar bir-biri bilan taqqoslanadi.

O'quvchilarni testlardan o'tkazishda yangi shakl va usullarni izlashga muhim e'tibor qaratadi. O'quvchilarni testlashga innovatsion yondashuvlarda individual natijalarni o'sish ko'rsatkichlariga e'tibor qaratiladi.

Boshqa dasturlarda baholash bo'yicha aniq,ochiq-oydin talablar qo'yiladi, baholarni qo'yishda jismoniy tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan aniq talablar mavjud. Bu dasturdagi bazaviy daraja davlat standarti mezonlari bo'yicha 100 metr masofaga yugurishda, turgan joydan uzunlikga sakrashda, 2000 metr masofaga yugurishda qoniqarli bahoga mos keladi,baland turnikda tortilishda esa hatto bu darajadan oshadi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilari o'quvchilarni jismoniy tayyorgarligi darajasini baholash tizimining turli xil variantlarini taklif qiladilar, ballik tizim usullarini taqdim etadilar. Novator o'qituvchilar o'zlarining ballik tizimini taklif qiladilar: ayrim o'qituvchilar bazaviy darajasini hisobga olishni muhim deb hisoblashadi,maqsad-uning ortishi ochkolarning qo'shilishiga yordam berishi kerak; boshqa o'qituvchilar bolalarni guruhlariga bo'lishni va har bir guruhda jismoniy tayyorgarlik darajasiga qarab me'yor talablarini bajarganlik uchun ochkolar qo'shib borishni tavsiya qiladilar. Qator mutaxassislar ballik tizimlarini taklif qiladilar, bunda o'quvchi-yil davomida ma'lum bir ballar yig'indisini to'playdi va umumiy yig'indi u yoki bu bahoni qo'yish uchun mezon bo'lib hisoblanadi,mukofat ballari tizimi ham mavjud .

Xorijiy mualliflar bazaviy me'yorlar tizimni kiritish tarafdori ; jismoniy me'yorlarning modernizatsiyalangan majmuasini qaytarishni taklif etadilar.

Mutaxassislar baholarni qo'yilishida qattiq talablar qo'yadilar, me'yoriy bazani harbiy xizmatchilar, ayniqsa bitiruv sinflari o'g'il bolalari uchun qo'yiladigan talablarga yaqinlashtirishni taklif etadilar.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilari fikricha, individual xususiyatlardan qat'iy nazar, «a'lo» bahosiga qo'yiladigan talablarni ochiq aniqlab olish kerak, «yaxshi» va «qoniqarli» baholari esa qo'llanilishi uchun kengroq fikrga ega bo'lishlari kerak.

Boshqa mualliflar jismoniy tayyorgarlik darajasini statistik tahlil nuqta'i nazaridan, baholash; bazaviy darajasini sport bazasi sharoitlari, jihozlar sifatiga qarab chiqarish maqsadga muvofiq deb hisoblasalar, baholar chegarasi kamida 90% o'quvchilarni qamrab olishi, baholar miqiyosi o'quvchilar imkoniyatlariga munosib bo'lishi kerak.

O'smirlarning jismoniy tayyorgarligini baholash muammolariga doir ilmiy-uslubiy adabiyotlarning tahlili quyidagi xulosaga kelish imkonini beradi. Aksariyat tadqiqotchilar morfologik ko'rsatkichlarning turli xil nazorat sinovlaridagi ko'rsatkichlar natijadorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatishini e'tirof etadilar.

Ilmiy- uslubiy adabiyotlarni o'rganish shuni ta'kidlashga imkon beradiki, pedagoglar tomonidan o'smirlarning jismoniy tayyorgarligini baholashda qo'llaniladigan mashqlarning bir qismi standartlashtirishmezonlari talablariga muvofiqligi bo'yicha tekshiruvdan o'tmagan.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartining maqsad va vazifalari.

1. *Davlat ta'lim standartining maqsadi* — umumiy o'rta ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

2. *Davlat ta'lim standartining vazifalari quyidagilardan iborat:*

- umumiy o'rta ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;
- milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;



- o'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;

- ta'lim va uning pirovard natijalari, o'quvchilarning malaka talablarini egallaganlik darajasini tizimli baholash tartibini, shuningdek ta'lim-tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning hiquqiy asoslarini takomillashtirish;

- davlat ta'lim standartlari talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash.

Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartining asosiy printsiplari quyidagilardan iborat:

- o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi;

- umumiy o'rta ta'lim mazmunining insonparvarligi;

- davlat ta'lim standartining ta'lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi;

- umumiy o'rta ta'limning boshqa ta'lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligi;

- umumiy o'rta ta'lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;

- umumiy o'rta ta'limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga asoslanilganligi;

- o'quvchilarda fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun tayanch va fanlarga oid umumiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ta'minlanganligi;

- rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida me'yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartining tarkibiy qismlari:

- umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasi;

- umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi;

- umumiy o'rta ta'limning malaka talablari;

- baholash tizimi.

Umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitiladigan o'quv fanlari nomi, o'quv yuklamasining minimal hajmi hamda ularning sinflar bo'yicha taqsimoti belgilangan hujjat hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi tayanch o'quv rejaga muvofiq o'quv fanlarining sinflar va mavzular bo'yicha hajmi, mazmuni, o'rganish ketma-ketligi va shakllantiriladigan kompetensiyalari belgilangan hujjat hisoblanadi. *O'quv dasturi* O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Umumiy o'rta ta'limning malaka talablari umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, o'quv yuklamalari hajmiga hamda ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablardan iborat bo'lib, u quyidagilardan tashkil topadi:

1. *Bilim* — o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish;

2. *Ko'nikma* — o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish;

3. *Malaka* — o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish;

4. *Kompetensiya* — mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.

Baholash tizimi — davlat ta'lim standarti bo'yicha umumiy o'rta ta'limning malaka talablarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi darajasini hamda umumiy o'rta ta'lim muassasasining faoliyati samaradorligini aniqlaydigan mezonlar majmuidan iborat.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartini joriy etish tartibi:

Davlat ta'lim standartini joriy etish, shu jumladan umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan minimal talablarni, umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablarini tasdiqlash pedagogik tajriba-sinov ishlari muvaffaqiyatli yakunlanib, ularga ekspert baho berilgach amalga oshiriladi.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti talablariga rioya etilishini nazorat qilish:

Davlat ta'lim standarti talablariga rioya qilish ustidan nazoratni amalga oshirishning maqsadi — davlat ta'lim standarti talablarini bajarish darajasini aniqlash, zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish asosida ta'lim sifatini ta'minlashdan iborat.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya o'quv fanini o'qitishning maqsad va vazifalari

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya o'quv fanini o'qitishning asosiy maqsadi: O'quvchilarni jismonan baquvvat, epchil, sog'lom qilib tarbiyalash, inson salomatligi to'g'risidagi bilimlarini rivojlantirish, jismoniy tarbiya fanidan egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqatini shakllantirishdan iborat.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya o'quv fanini o'qitishning asosiy vazifalari:

1. Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish;
2. Jismoniy mashqlarni ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish;
3. Sport asbob-anjomlaridan foydalanishning xavfsiz usullarini o'rgatish;
4. Sog'lom turmush tarzini keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib etishda tayanch va jismoniy tarbiya faniga oid kompetenstiyalarni shakllantirishdan iboratdir.

Jismoniy ta'lim va tarbiya jarayonida besh turdagi pedagogik nazorat shakllari ma'lum bo'lib, uning har biri o'zining xususiy funkstional vazifalaridan iborat.

1. Dastlabki nazorat o'quv-yilining boshida (chorak boshida) o'tkaziladi.

Maqsad: o'quvchilarning salomatlik holati, jismoniy tayyorgarlik darajasini tekshirish va bo'lg'usi jismoniy tarbiya dars mashg'ulotlariga tayyorligini aniqlash (yangi o'quv materialini o'zlashtirish yoki o'quv dasturning normativ talablarini bajara olishga tayyorligi).

Dastlabki nazorat ma'lumotlarini tahlili ta'limiy vazifalar, vosita va metodlarni aniqlashdan iborat.

2. Tezkor (operativ) nazorat:

Maqsad: Bir dars doirasida mashq ko'rganlik effektini aniqlashdan iborat bo'lib yuklama va dam olish orasidagi oqilona ketma-ketlikni belgilaydi.

O'quvchi holatini tezkor nazorat o'tkazishda, navbatdagi mashqni, o'yinni, sakrashni, yugurishni bajara olishga tayyorligi, nafas olish, ishchanligi, kayfiyati, YUTQ kabi parametrlar tahlil qilinadi. Tahlil natijalari darsda yuklama dinamikasini tezkor oqilona boshqarishga imkon beradi.

3. Joriy nazorat:

Maqsad: Darsdan keyin o'quvchi organizmiga ko'rsatilgan yuklama ta'sirini aniqlashdan iborat. Turli jismoniy yuklamadan keyin o'quvchi ishchanligining qayta tiklanish vaqti aniqlanadi. O'quvchilarning joriy holati bo'yicha olingan ma'lumotlar navbatdagi darslarda yuklama hajmini optimal rejalashtirish uchun asos bo'la oladi.

4. Bosqichli nazorat:

Maqsad: O'quv chorak davomida kumulyativ mashqlanganlik effekti to'g'risida ma'lumot olish uchun o'tkaziladi va bu xulosalar asosida turli vosita, metod, jismoniy yuklamalarni dozirovkalash kabi to'g'ri yo'nalishlarni belgilash.

5. YAkuniy nazorat:

Maqsad: O'quv dasturi asosida tuzilgan jismoniy tarbiya bo'yicha taqvimiy mavzuiy reja bajarilish qo'yilgan vazifalarni bajarilganlik darajasi, jismoniy tarbiya jarayoni va uning bo'limlarining ijobiy va salbiy tomonlarini o'quv-yili oxirida aniqlashdan iborat.

O'quvchilarning salomatlik holati, DTS va dasturdagi o'quv normativlarning bajarish ahvoli, muayyan sport turidagi natijalar, yakuniy nazorat ko'rsatkichlari navbatdagi (yangi) o'quv-tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish uchun asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Абдуллаев А. Хонкелдиев Ш.Х. “Жисммоний тарбия назарияси ва услубияти”, Олий ўқув юртлари учун дарслик. ЎзДЖТИ нашрият манбаъа бўлими 2005 йил.
2. Саломов Р.С. “Спорт машғулотларининг назарий асослари” Тош. 2007 й. Ўқув қўлланма.
3. Матвеев Л.П. “Теория и методика физической культурѣ” ФиС. 1995г.
4. Саломов Р.С. “Спорт машғулотларининг назарий асослари” Тош. 2007й. Ўқув қўлланма.
5. Верхошанский Ю.В. Спортчининг махсус жисмоний тайёргарлигини асослари. М.: Жисмоний тарбия ва спорт, 1988.- 331 б., (Фан спортга)
6. Иванков Ч.Т. Теоретические основы методики физического воспитания. – М.: «Инсан», 2000. 353с.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Jumaniyozov G'anijon Xudarganovich.

Buxoro Xalqaro universiteti 2-bosqich magistranti

Manzil: O'zbekiston, Buxoro shahar



YUNON-RUM KURASHI BO'YICHA TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARNI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI.

Shodiyev Baxtiyor Ramazonovich

Buxoro Xalqaro universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya.

KIRISH: Yildan-yilga sport sohasida turli xil o'zgarishlar bo'lgani kabi, Yunon-rum kurashida ham mashg'ulot jarayoniga yangiliklar kiritish zamon talabiga aylanib qolmoqda. Masalan, Yunon-rum kurashi bo'yicha texnik-taktik harakatlarni shakllantirish, ularni yangi usullar bilan boyitish va shu orqali kombinatsion hujum harakatlarining samarasini oshirish muammosi o'rgatish uslubiylatini mukammallashtirishni talab etmoqda.

Hozirgi kunda musobaqa qoidalari va o'quv-mashg'ulot ishlari takomillashdi, jismoniy tarbiya jamoalarining seksiyalari uchun uslubiy qo'llanmalar chop etilmoqda. O'quv-mashg'ulotlarida texnik harakatlarning taktikasini o'rgatishga hamma murabbiylar ham e'tibor berayotganlari yo'q. Bunga sabab – o'rgatish uslubiylatining kerakligicha yoritilmaganligi hamda taktik o'rgatish kuchlariga nisbatan sportchilar va murabbiylarning ishonchsizligidir.

Yunon-rum kurashi sohasidagi mutaxassislarning fikricha, hozirgi kungacha kurashchining texnik-taktik tayyorgarligi to'g'risidagi muammolar to'raligicha yechilmagan bo'lib qolmoqda. Bunga misol, hozirgi kunda kurashchilar texnik-taktik vositalardagi ko'pgina vaziyatlardan mukammal foydalana olmasligidir. Buning sababini yosh kurashchilarga berib borilayotgan mashqlar misolida ko'rish mumkin. Ya'ni ayrim elementlarning juda ohistalik bilan berib borilishi natijasida qiyin elementlarni o'rgatish vaqti bir necha yilga cho'zilib ketmoqda.

MAQSAD: Kurashi bo'yicha texnik-taktik harakatlarni shakllantirish bosqichlarini ilmiy tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: Kurashchilarning texnik harakatlari zahirasi qanchalik boy bo'lsa, ularni qanchalik katta mahorat bilan qo'llay bilsa, uning texnik mahorati shunchalik yuqori darajada bo'ladi. Kurash texnikasi kurash mahoratining asosi hisoblanadi va ko'p jihatdan uning imkoniyatlarini belgilab beradi. Kurashda o'nlab usullar va ularning variantlari mavjud. Biroq bu kurashchi ularning hammasini mukammal bilishi lozim degani emas. Sportchi yanada yangi usullar, qarshi usullar hamda himoyalanihlarni egallab borishi bilan uning alohida xususiyatlari va odatlariga javob beradigan hamda uning tomonidan muvaffaqiyatli bajariladigan usullarning bir qismi keyinchalik takomillashtirish maqsadida rejaga kiritiladi. Kurashchining har tomonlama texnik tayyorgarligi – turli sport turlarini rivojlantirish zamonaviy darajasiga qo'yiladigan muhim talablardan biridir.

XULOSA: Kurashchining taktik tayyorgarligi ko'p hollarda texnik tayyorgarlik bilan shu qadar birlashib ketadiki, xatto ular o'rtasida qat'iy chegara ko'yishning xojati bulmaydi va birgalikda ko'llanib boriladi. Taktik tayyorgarlikning vazifalari har xil xal etiladi. Mustakil mashg'ulotlarda maxsus adabiyotlar o'rganiladi va individual taktik harakatlar amalda mukammallashtiriladi. Umumjamo'a mashg'ulotlarida va trenirovkalarda individual ravishda harakatlar takomillashtirish tavsiya etiladi. Musobaqa vaqtlarida kuzatilib, raqibning taktik imkoniyatlari taxlil kilinadi va umumlashtiriladi, o'rganilgan taktik variantlar va sistemalar tekshirib ko'riladi.

Kalit so'zlar: signal – motivli axborot, izlanish, barqarorlashtirish, moslashishni takomillashtirish, yashirin davr.

ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ТЕХНИЧЕСКИХ И ТАКТИЧЕСКИХ ДЕЙСТВИЙ В ГРЕКО-РИМСКОЙ БОРЬБЕ.

Шодиев Бахтиёр Рамазонович

Бухарский Международный университет магистрант 2-го курса

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В связи с ежегодными изменениями в спортивной сфере внедрение инноваций в тренировочный процесс по греко-римской борьбе становится требованием времени. Например, проблема формирования технико-тактических приемов в греко-римской борьбе, обогащения их новыми приемами и повышения тем самым эффективности комбинационных атакующих действий требует совершенствования методики преподавания.

В настоящее время совершенствуются правила соревнований и тренировочной работы, издаются методические пособия для секций физкультуры. Не все тренеры уделяют внимание обучению тактике технических приемов на тренировках. Причиной этого является недостаточное освещение методики преподавания и неуверенность спортсменов и тренеров в силах тактической подготовки.

По мнению специалистов в области греко-римской борьбы, до сих пор проблемы технико-тактической подготовки борца остаются нерешенными. Примером этого является то, что сегодня борцы не могут в совершенстве использовать многие ситуации в технико-тактических приемах. Причину этого можно увидеть на примере упражнений, предлагаемых молодым борцам. То есть, из-за очень щадящего обучения некоторым элементам, время обучения сложным элементам растягивается на несколько лет.

ЦЕЛЬ: Научный анализ этапов формирования технико-тактических приемов в борьбе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Чем богаче запас технических приемов борца, чем искуснее он может их применять, тем выше его техническое мастерство. Техника борьбы является основой борцовского мастерства и во многом определяет его возможности. В борьбе существуют десятки приемов и их разновидностей. Однако это не означает, что борец должен знать их все в совершенстве. По мере освоения спортсменом новых приемов, контрприемов и защит некоторые из них, соответствующие его индивидуальным особенностям и навыкам и успешно выполняемые им, включаются в план дальнейшего совершенствования. Всесторонняя техническая подготовка борца является одним из важных требований к современному уровню развития различных видов спорта.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Тактическая подготовка борца часто настолько переплетается с технической подготовкой, что нет необходимости проводить между ними строгую границу, и они используются совместно. Задачи тактической подготовки решаются по-разному. При самостоятельной тренировке изучается специальная литература и совершенствуются отдельные тактические приёмы на практике. В командной тренировке и тренировках рекомендуется совершенствовать отдельные приёмы. В ходе соревнований наблюдаются, анализируются и обобщаются тактические возможности соперника, проверяются изученные тактические варианты и системы.

Ключевые слова: сигнально-мотивационная информация, поиск, стабилизация, совершенствование адаптации, латентный период.

STAGES OF DEVELOPING TECHNICAL AND TACTICAL ACTIONS IN GRECO-ROMAN WRESTLING.

Shodiyev Baxtiyor Ramazonovich

Bukhara International University 2nd-year Master's Student

Annatation.

INTRODUCTION: As there are various changes in the sports field from year to year, the introduction of innovations into the training process in Greco-Roman wrestling is becoming a requirement of the time. For example, the problem of forming technical and tactical movements in Greco-Roman wrestling, enriching them with new methods and thereby increasing the effectiveness of combinational offensive movements requires improving the teaching methodology.

Currently, the rules of the competition and training work have been improved, methodological manuals for sections of physical education teams are being published. Not all coaches pay attention to teaching the tactics of technical movements in training. The reason for this is the lack of sufficient coverage of the teaching methodology and the lack of confidence of athletes and coaches in the forces of tactical training.

According to experts in the field of Greco-Roman wrestling, to this day the problems of the technical and tactical preparation of a wrestler remain unresolved. An example of this is that today wrestlers cannot perfectly use many situations in technical and tactical means. The reason for this can be seen in the example of the exercises given to young wrestlers. That is, as a result of the very gentle teaching of some elements, the time for teaching difficult elements is stretched to several years.

THE GOAL: Scientific analysis of the stages of formation of technical and tactical movements in wrestling

MATERIALS AND METHODS: The richer the wrestler's reserve of technical movements, the more skillfully he can use them, the higher his technical skill will be. Wrestling technique is the basis of wrestling skill and largely determines its capabilities. There are dozens of techniques and their variants in wrestling. However, this does not mean that the wrestler must know them all perfectly. As the athlete masters new techniques, counter-techniques and defenses, some of the techniques that correspond to his individual characteristics and habits and are successfully performed by him are included in the plan for further improvement. Comprehensive technical training of a wrestler is one of the important requirements for the modern level of development of various sports.

CONCLUSION: The tactical training of a wrestler is often so intertwined with technical training that there is no need to draw a strict boundary between them and they are used together. The tasks of tactical training are solved differently. In independent training, special literature is studied and individual tactical movements are improved in practice. In team training and training, it is recommended to improve individual movements. During the competition, the opponent's tactical capabilities are observed, analyzed and summarized, and the studied tactical options and systems are checked.

Keywords: signal - motivational information, search, stabilization, improvement of adaptation, latent period.

Yunon-rum kurashida texnik harakatlarni shakllantirish, kurashchi tomonidan axborotni qabul qilish va ularni ishlab chiqish, harakatni samarali bajarish sifatini nazorat qilishga bog'liq.

Bu vaqtda analizatorlar orqali oldindan ishlab chiqilgan katta sonidagi har xil axborotlar, harakat faoliyatiga samarali yoki uni chalg'itadigan harakat faoliyatini bajarish vaqtida tushadigan axborotlar quyidagi komponentlarga bo'linadi:

- signal – motivli axborot;
- teskari aloqali axborot fondli hamda axborot farqlamaydigan va yo'ldan uradigan axborotlar.

Kurashchining texnik harakatlarini shakllantirish jarayonining asosiy vositalari quyidagilardan iborat:

1. Yunon-rum kurashi texnikasi asosida ixtisoslashgan harakatlar ya'ni uslublarni yuqori barqaror va aniq chegaradagi o'zgaruvchan holatda bajarishga erishish.

2. Musobaqa faoliyatini maqsadga muvofiq, samarali holda amalga oshirishda o'rganilgan uslublarni ketma-ket texnika negiziga aylantirish.

3. Kurashchining individual xususiyatiga qarab, harakat ta'sirining tuzilishini, uning dinamikasini, kinematika va ritmini takomillashtirish.

4. Kurashchini ekstremal musobaqa sharoitida, texnikasining mukammalligi va samaraliligini oshirish.

5. Kurashchining texnik harakatini, sport amaliyotining talabaiga va ilmiy-texnik ko'rsatgichlariga qarab takomillashtirish.

Kurashchining texnikasini shakllantirish jarayonida adabiyotlar, tezkor informatsiya vositalari, foto-kino-video materiallarining tahlili, so'z, ko'rgazmalilik va amaliy uslublardan, sur'at va ritmning fazoviy va dinamik tavsiflaridan foydalangan holda, o'rganish jarayonini tahlil qilib borish zarur.

Sport texnikasini shakllantirish kurashchilarning ko'p yillik tayyorgarligi davomida amalga oshiriladi. Texnik mahorat deganda keskin sport kurashi sharoitlarida eng oqilona harakat texnikasini mukammal egallash tushiniladi. Texnik harakatlarni shakllantirish uchta bosqichda amalga oshiriladi:

1. Izlanish;
2. Barqarorlashtirish;
3. Moslashishni takomillashtirish.

Birinchi bosqichda texnik tayyorgarlik musobaqa harakatlarining yangi texnikasini shakllantirishga, uni amaliyotda egallash shart-sharoitlarini yaxshilashga, musobaqa harakatlari tizimiga kiruvchi ayrim harakatlarni o'rganishga (yoki qayta o'rganishga) qaratilgan.

Ikkinchi bosqichda texnik tayyorgarlik musobaqa harakatlarining butun malakalarini chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan.

Uchinchi bosqichda texnik tayyorgarlik shakllangan malakalarni takomillashtirish, ularning asosiy musobaqalar sharoitlariga mos holda maqsadga muvofiq variantliligi, barqarorligi, ishonchliligi chegaralarini kengaytirishga qaratilgan.

Har bir texnik tayyorgarlik bosqichining vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Kurash texnikasi asosini tashkil etadigan harakat malakalarining yuqori barqarorligi hamda oqilona variantivligiga erishish, musobaqa sharoitlarida ularning samaradorligini oshirish.

2. Harakat malakalarini qisman qayta qurish, musobaqa faoliyati talablarini hisobga olgan holda usullarning ayrim qismlarini takomillashtirish.

Kurashchilarning texnik harakatlari zahirasi qanchalik boy bo'lsa, ularni qanchalik katta mahorat bilan qo'llay bilsa, uning texnik mahorati shunchalik yuqori darajada bo'ladi.

Kurash texnikasi kurash mahoratining asosi hisoblanadi va ko'p jihatdan uning imkoniyatlarini belgilab beradi. Kurashda o'nlab usullar va ularning variantlari mavjud. Biroq bu kurashchi ularning hammasini mukammal bilishi lozim degani emas.

Sportchi yanada yangi usullar, qarshi usullar hamda himoyalanihlarni egallab borishi bilan uning alohida xususiyatlari va odatlariga javob beradigan hamda uning tomonidan muvaffaqiyatli bajariladigan usullarning bir qismi keyinchalik takomillashtirish maqsadida rejaga kiritiladi.

Kurashchining har tomonlama texnik tayyorgarligi – turli sport turlarini rivojlantirish zamonaviy darajasiga qo'yiladigan muhim talablardan biridir.

Texnikani mustahkam egallash uchun texnik harakatlarni tanlashda quyidagi qoidalarga rioya qilish lozim:

- amaldagi musobaqa qoidalarida qaysi bir texnik harakat muvaffaqiyatli hisoblangan bo'lsa, o'sha texnik harakatlarni egallash;
- asosiy raqobatchilarning mahorati xususiyatlarini hisobga olish va ular bilan kurashishda yaxshi natija beradigan texnik harakatlarni tanlash;
- avval o'rganilgan usullar va qarshi usullarni qo'llash imkoniyatini kengaytirish mumkin bo'lgan texnik harakatlarga ko'proq e'tibor qaratish;

- kurashchi zahirasida mavjud bo'lgan usullar bilan kombinatsiyalar hamda bog'lanishlarda qo'llash mumkin bo'lgan texnik harakatlarni o'rgatish;

- harakat vazifasini eng oqilona hal etish xususiyatiga ega bo'lgan harakat texnikasiga o'rgatish lozim, bu kelgusida qayta o'rgatishdan xalos qiladi;

- kerak bo'lmagan harakat va ortiqcha mushak zo'riqishini bartaraf etib, texnika asoslari hamda umumiy harakat maromini egallash;

- usullarga o'rgatish vaqt oralig'ida jamlangan bo'lishi lozim, chunki mashg'ulotlar orasidagi uzoq tanaffuslar uning ta'sirini pasaytiradi. Boshqa tomondan bitta mashg'ulot davomida usullarni juda tez-tez takrorlash maqsadga muvofiq emas, chunki yangi koordinatsiyalarni yaratish asab tizimini tez toliqtiradigan qiyinchilikni yengib o'tish bilan bog'liq;

- jismoniy shart-sharoitlar yetarlicha bo'lmashligi oqibatida yuzaga keladigan texnik holatlarning oldini olish maqsadida harakatlarning dinamik tavsiflariga mos keladigan yuqori darajadagi maxsus jismoniy tayyorgarlikni tashkil etish lozim.

Kurashchining texnik mahoratini oshirish uchun harakatlarni bajarish paytida harakatlanishdagi xatolarni o'z vaqtida aniqlash hamda ularning paydo bo'lish sabablarini belgilash muhim ahamiyatga ega.

Bunday xatolarni o'z vaqtida bartaraf etish ko'p jihatdan texnik takomillashtirish jarayoni samaradorligiga sabab bo'ladi. Harakatlarga o'rgatishda yuzaga keladigan hamma harakatlanish xatolari beshta guruhga bo'linadi:

- harakatlanish yetishmasligi sababli xatolar;
- o'qitishdagi kamchiliklar sababli xatolar;
- ruhiy gen sababli xatolar;
- sharoitning g'ayritabiiyligi sababli xatolar;
- kutilmagan xatolar.

Kurashchining taktik harakatlari – bu musobaqalarda eng yaxshi natijaga erishish uchun yuzaga kelgan muayyan sharoitlarda texnik, jismoniy va irodaviy imkoniyatlardan maqsadga muvofiq holda foydalanish demakdir. Taktik tayyorgarlik sportchilarda taktika sohasidagi zarur bilimlarni egallash, sport kurashini to'g'ri olib borishda ma'lum malaka hamda bilimlarni shakllantirish, shuningdek, taktik mahoratni takomillashtirishga qaratilgan.

Taktik tayyorgarlikning asosiy maqsadi – sportchida g'alabaga erishish yoki yuqoriroq natijani ko'rsatish maqsadida sport bellashuvini to'g'ri tashkil qilish hamda olib borish qobiliyatini tarbiyalashdan iborat. Sport taktikasini egallash jarayonida bir qator xususiy vazifalar hal qilinadi.

Sportchi:

- musobaqa vaziyatini shunday qabul qilishi va tahlil qilishi lozimki, ushbu vaziyatdan kelib chiqadigan taktik vazifalarni tushuna bilishi hamda qisqa vaqt ichida uni hayolan va harakat bilan hal etishi zarur;

- musobaqada o'z kuchidan shunday fodalanish kerakki, raqib ustidan g'alaba qozonish maqsadida uni oxirigacha safarbar qila olishi lozim;

- to'satdan o'zgarib qolgan vaziyatlarda bellashuv rejasini mustaqil o'zgartira olish kerak.

Taktik tayyorgarlikning asosiy vazifalari:

- taktik bilimlarga ega bo'lish;
- taktik ko'nikmalarni egallash;
- taktik malakalarga ega bo'lish.

Taktika vositalariga qat'iy belgilangan harakat tuzilmasi va ularni namoyon qilish uchun zarur jismoniy sifatlar darajasi bilan ifodalanadigan sportchilar harakatlari kiradi.

Yunon-rum kurashida taktika uchta asosiy bo'limlardan tashkil topadi:

- hujum harakatlarini tayyorlash taktikasi;
- bellashuvni tuzish taktikasi;
- musobaqalarda qatnashish taktikasi.

Yunon-rum kurashida musobaqa faoliyatining tahlili hujumning ikkita turini aniqlab beradi: **oddiy**, qachonki hujum darhol asosiy usuldan so'ng boshlanadi va **murakkab**, qachonki kurashchi ikkita yoki uchta turli xil harakatlarni qo'llaydi (birinchisi keyingi harakatlar bilan hujum qilish uchun qo'lay dinamik vaziyatni yaratadi). Ularning ikkalasi to'xtovsiz, bir butun harakat sifatida bajariladi (N.M. Galkovskiy 1971).

Murakkab hujum harakatlarining ikkita turini ajratish qabul qilingan:

- qulay dinamik vaziyatni tayyorlashning maxsus usuli va hal qiluvchi usulni o'z ichiga oluvchi hujum;
- bir nechta usullardan iborat kombinatsiyali hujum. Ushbu hujum mantiqan bitta, sifat jihatidan yangi tuzilgan usul bo'lib, qo'lay dinamik vaziyat yaratuvchi boshlang'ich harakatni hamda bu vaziyatdan foydalaniladigan boshqa usulning yakuniy qismini o'z ichiga oladi.
- shunday usullarki, ular yordamida kurashchi o'ziga zarur bo'lgan raqibning himoya reaksiyasiga erishadi (havf solish, harakatni cheklash, kishanlash, qurshab olish, muvozanatdan chiqarish);
- Yunon-rum kurashchisi uchun foydali bo'lgan raqibning faol reaksiyasini ta'minlaydigan usullar (chorlash);
- Shunday usullarki, ularni bajarish natijasida raqib kurashchining ma'lum bir harakatlariga yoki e'tibor qilmaydi, yoki bo'sh himoya bilan javob beradi, yoki bo'shashadi (takroriy hujum, qayta chorlash, qo'shaloq aldash va boshqalar).

Taktik tayyorgarlik usullari guruhlarining tasnifiga muvofiq quyidagi harakatlar ajratiladi:

- birinchi usul, u orqali hujum qiluvchi o'ziga zarur bo'lgan raqibning himoya reaksiyasiga erishadi. Bunday reaksiya hujum harakatini (usulni) amalga oshirishga yordam beradi. Masalan, hujum qiluvchi raqibni qo'li va bo'ynini birlashtirib ushlab, ko'krakdan oshirib tashlashni (lampochka) amalga oshirmoqchi bo'ladi, raqib himoyalani, gavdasini to'g'rilashga harakat qiladi, ushbu vaziyat hujum qiluvchi uchun raqibni qo'li va belidan ushlab, ko'krakdan oshirib tashlash usulini amalga oshirish imkonini beradi.

- usul raqibning faol reaksiyasiga erishish maqsadida amalga oshiriladi. Ya'ni raqib qarshi usul qo'llaydi, undan so'ng hujum qiluvchi ikkinchi usulni amalga oshiradi.

- hujum qiluvchi birinchi usulni amalga oshirish natijasida raqibni shunday holatga solib qo'yadiki, u yoki bu himoya, bo'shashish bilan javob qaytaradi, yoki javob qaytarmaydi.

Bu kombinatsiyalarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ikki usul yaxlit qilib birlashtiriladi va tanaffussiz bajariladi. Masalan, qo'ldan siltab, gilamga tushirish – oldindan qoqish.

Yunon-rum kurashida ayrim usullarni qo'llash, odatda, doimiy ijobiy samara bermaydi, chunki ularni bajarish uchun ketadigan vaqt raqibga munosib qarshilik ko'rsatish choralari bilan javob qaytarishga imkon beradi.

Murakkab hujum harakatlari bilan muvaffaqiyatli hujum qilish shunga asoslanadiki, raqib kuch berish yo'nalishini o'zgartirib bajariladigan dasturlangan murakkab hujum harakatiga 2-3 marta javob qaytarishga majbur va har safar hujum qiluvchining harakatlanish xususiyati hamda yo'nalishini oldindan bilish uchun unga javob qaytarish vaqtidan yutqazadi, chunki unda bitta yoki ikkita reaksiyaning latent davri yuzaga keladi.

Birinchi – yashirin davr – murakkab hujumning boshlanish harakatiga javoban, **ikkinchi** (latent) – motor davri va murakkab hujum xususiyati hamda yangi yo'nalishini aniqlashga qaratilgan reaksiyani to'xtatish, so'ngra ikkinchi motor davri (odatda kechikuvchi) sodir bo'ladi. Murakkab hujum harakatining yakuniy (hal etuvchi) harakati hujum qiluvchi harakatining birinchi qismiga bo'lgan raqib

reaksiyasining motor qismi yoki murakkab hujumning ikkinchi qismi kechikkan holda hal etuvchi harakatga bo'lgan raqib reaksiyasining latent davri bilan mos keladi (N.M. Galkovskiy 1972).

Turli xildagi murakkab harakatlar zamonaviy Yunon-rum kurashida mavjud ba'zi adabiyot manbalarida murakkab texnik — taktik harakatlar deb ataladi. Sport kurashida texnika va taktika dialektik birlikni tashkil etadi. Ayrim texnik harakatlar (usullar) taktik usullar bo'lishi ham mumkin. Bu — hujum, qarshi hujum va himoya harakatlardir. O'z navbatida ba'zi taktik harakatlar ma'lum bir texnik harakatlar hisoblanadi (siltab ko'tarish, dast ko'tarish).

N.M.Galkovskiy (1971) hujum qilish uchun qo'lay dinamik vaziyatlarning beshta guruhidan foydalanishni tavsiya etadi:

- qachonki, raqib gavdasi yenga olinadigan muvozanat burchagini agdarishning nisbatan tanlangan tomoniga ega bulsa;

- qachonki, raqib UOM tayanch maydoning chetiga harakatlanishi natijasida mustaxkamlik burchagi agdarish yunalishiga karab kamaysa;

- qachonki, raqibning UOM tezlik bilan yuqoriga o'tsa(ko'chsa);

- qachonki, raqib tayanchini osonlikcha bartaraf etish mumkin bulsa;

- qachonki, raqib "o'lik nuqta" holatida to'rgan bo'lsa (uning reaksiyasining latent davri).

Shuningdek kurashchi o'z harakatlari bilan turli xil qo'lay dinamik vaziyatlarni tayyorlay olishi lozim. Raqib holatidagi ahamiyatli bo'lgan belgilarni (ular yuzaga kelgan vaziyatni tavsiflaydi) qabul qilish va baholashga karatilgan texnik — taktik harakatlarni takomillashtirish sport maxoratining shakllanish jarayonini ancha tezlashtiradi (V.D.Mironov, 1975).

A.N.Lens (1972) usulni amalga oshirish taktikasini quyidagi ketma-ketlikda egallashni tavsiya etadi:

- usulni bajarishning taktik shart sharoitlari bilan tanishish;

- usulni qo'lay vaziyatlardai bajarish;

- qo'lay sharoitlarni yaratish usullariii egallash, ularda raqib aldamchi harakatta javoban oldindan belgilangan himoyalaniish bilan javob qaytarishi lozim;

- texnik harakatning optimal variantini tanlash va muayyan dinamik vaziyatga muvofik holda uni bajarish tuzilmasiga ayrim o'zgartirishlarni kiritish.

Taktik tayyorgarlik o'kuv-mashg'ulot jarayonining eng murakkab bo'limlaridan biridir. Kurashchining taktik tayyorgarligi texnik tayyorgarlik bilan chambarchas bog'lik holda olib boriladi. Agar texnik tayyorgarlik kurashda baxs yuritish vositalari bilan qurollantirilsa, taktik tayyorgarlik ularni qo'llash san'atiga o'rgatadi.

Kurash taktikasini qisqa kilib kurashda baholanish san'ati deb ta'riflash ham mumkin. Agar tushunarlirok, aytsak, kurashchining taktikasi, birinchidan, kurashchining imkoniyatlarini, raqibining xususiyatlarini hamda musobaqaning konkret shart-sharoitlarini hisobga olgan holda musobaklarda katnashishning maqsadga muvofik keladigan rejasini ishlab chikishdan; ikkinchidan, kurashchining imkoniyatlarini mumkin qadar to'larok namoyon etadigan baxe yuritish vositasi va usullaridan foydalanish yuli bilan amalga oshiriladi.

Kurashda taktika gimnastika yoki sprinter yugurishi vaqtidagiga qaraganda ancha kattarok va ko'prok sport natijalariga ta'sir etadi.

Kurashchining taktik tayyorgarligi jarayonida quyidagilarni nazarda tutmoq kerak:

- kurash taktikasining nazariy asoslarini o'zlashtirish (taktik usullar arsenalari hakidagi, ularni qanday va qay xildagi sharoitlarda qo'llash kerakligi va xokazolar haqidagi bilimlarni egallash);

- kurashdagi raqiblar imkoniyatini hamda bo'lajak musobaqalarning shart-sharoitlarini o'rganish;

- taktik usullarni, ularning kombinatsiya va variantlarini to mukammal taktik maxorat va malakalarini egallab olgunga qadar o'zlashtirish;

- taktik maxoratga erishish uchun zarur bo'lgan taktik tafakko'rni va boshqa qobiliyatlarni tarbiyalash.

Bu vazifalarning asosiysi taktik tafakko'rni tarbiyalash bo'lib, u kurashda baxslashish rejasini tuzib chiqish va amalga oshirish bo'yicha bir qator akliy operatsiyalarni o'z ichiga oladi. Taktik tafakko'r idrok, xotira va ijodiy tasavvurga suyanib, tegishli bilim va tajribalardan foydalanishga, kurash baxsida vaziyatni qunt bilan kuzatish, tez tushuna olish va baxolay bilish, o'z vaqtida tug'ri qarorga kela bilish qobiliyatiga asoslanadi.

Kurashchining taktik tayyorgarligi ko'p hollarda texnik tayyorgarlik bilan shu qadar birlashib ketadiki, xatto ular o'rtasida qat'iy chegara ko'yishning xojati bulmaydi va birgalikda ko'llanib boriladi. Taktik tayyorgarlikning vazifalari har xil xal etiladi. Mustakil mashg'ulotlarda maxsus adabiyotlar o'rganiladi va individual taktik harakatlar amalda mukammallashtiriladi. Umumjamoa mashg'ulotlarida va trenirovkalarda individual ravishda harakatlar takomillashtirish tavsiya etiladi. Musobaqa vaqtlarida kuzatilib, raqibning taktik imkoniyatlari taxlil kilinadi va umumlashtiriladi, o'rganilgan taktik variantlar va sistemalar tekshirib ko'riladi.

Taktik sistemalarning variantlari quyidagi tartibda o'rganiladi:

1. Ko'rib chikilayotgan hujum yoki himoya usullarining asosiy mazmuni va uning variantlari bilan tanishish;

2. Muayyan variant uchun harakterli bo'lgan taktik harakatlarni egallash;

3. Raqibdan chekina turib himoya etish usullari taktikalarini o'rganish.

Ushbu o'rganish mashqlarini (raqibning, himoyachining) qarshiligi bilan sekin sur'atda bajarish; mashqni kurash sharoitiga teng bo'lgan sur'atda bajarish; mashqni himoyachining aktiv qarshiligi bilan bajarish; murakkab sharoitlarda o'rganilayotgan usullar asosida maxsus vazifalarga ko'ra harakat kilayotgan raqibni yengish; mashqni raqibning ixtiyoriy ravishdagi aktiv qarshiligi ostida qaytarish va mustahkamlash (doimo straxovka ostida olib borilsin!). Yangi texnik harakatlarni (usullarni) o'rganishdan avval texnik usullarni bo'lib egallash hamda psixologik va jismoni tayyorgarlikni tegishli darajaga ko'tarish lozim.

Taktik tayyorgarlik klassifikatsiyasining guruhiga asoslanib, kombinatsiya holatlarining klassifikatsiyasi quyidagicha ko'rinishni tashkil etadi:

Birinchi usul: Ma'lum etish holatlaridan so'ng hujumkor raqibdan himoyalanish natijasida ko'zlagai usullarni ko'llay olishi. Masalan: hujum etuvchi kurashchi raqibni yelkasidan oshirib itkitishi va raqibi o'zini himoya etishi uchun gavdasini tug'ri muvozanat holatiga keltirishga uringanda, ko'lidan ushlab turtib itkitish.

Ikkinchi usul: Raqibi reaksiyasining aktivligini oshirish uchun harakat etilib, uning himoya usullarini qo'llab, qarshi hujum etishiga majbur ettirib, hujum etuvchi shu vaqt ichida o'zining ikkinchi usulini ishga solishi. Masalan: raqibni turtib yuborib ko'lidan ushlab, raqibni ag'darilib tushayotganda, masofadagi bosilgan son qismini ilishga harakat qilishidagi harakatdan foydalanib, hujum etayotgan kurashchi raqibni ko'lidan ushlab yelkasi uzra oshirib itkitishi.

Uchinchi usul: Hujumkor birinchi usulni ko'llash paytida raqibni shunday holatga keltiradiki, bunda raqib sustlashgan himoya reaksiyasi bilan yoki darmonsizlanib, umuman, e'tiborsizlik bilan javob berishi mumkin. Kombinatsiyalarning harakterli tomoni shundaki, bu ikki usullar biriktirilib, bir butunlikda dam olishsiz bajariladi. Masalan: ko'lidan ushlab zarb bilan siltab oldinga o'tkazish; ko'l va gavdani ushlab itqitish va yikilayotga maxalda qarama-qarshi ko'lning tashqi tomondan ilib, ko'l bilan gavdani ham ilgan holatda egilib hamla etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati



1. Tursunov Sh.S. – Yunon-rim kurashi nazariyasi va uslubi. O.,quv qo.,llanma. Toshkent 2017 yil. 212 bet.
2. Tursunov Sh.S. – Yunon-rim kurashi mashg.,ulot asoslari. O.,quv qo.,llanma. Toshkent 2017 yil. 223 bet.
3. Tashnazarov D.Yu. – Sport pedagogik mahoratini oshirish (yunon-rim kurashi bo.,yicha 2-jild). O.,quv qo.,llanma. Toshkent 2019 yil. 210 bet.
4. Tashnazarov Jasur Yuldashevich - The role of modern development technical preparation. European Journal of Research and Reflectional Sciences Англия. 42-45.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Shodiyev Baxtiyor Ramazonovich

Buxoro Xalqaro universiteti 2-bosqich magistranti

Manzil: O'zbekiston, Buxoro shahar

YOSHLARNI OILAGA TAYYORLASHNING DOLZARB YO'NALISHLARI



Akramova Feruza Akmalovna

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti,
psixologiya fanlari doktori, professor*

Annotasiya.

KIRISH: Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi millat ravnaqi, kelajagiga ta'sir ko'rsatuvchi dolzarb omildir. Uning yo'nalishlarini yoshlarga singdirish, yoshlarning oilaviy hayotga nisbatan fikrlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

MAQSAD: Yoshlarni oilaga tayyorlashning dolzarb yo'nalishlarini ilmiy tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: O'zbekistonda davlatning asosiy vazifalaridan biri sifatida oilani mustahkamlash, oilaviy munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish sifatida tarkib toptirish, oila oldida uning barcha a'zolarining mas'ulligi hissi asosida qurish, oila a'zolari o'z huquqlarini to'sqinliksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta'minlashdan iboratdir.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash faqat shaxsiy, boshqalarga aloqasi yo'qdek ko'rinadi, ammo bu qarash millatimiz ravnaqiga, xalqimiz odobiga, kelajagiga, nasli-nasabiga putur etkazishdan saqllovchi omildir.

XULOSA: Jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblangan oilalar ajrimining oldini olishda yoshlarni oilaviy hayotga to'g'ri tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'z navbatida jamiyat milliy qadriyatlarining asrab avaylanishiga xizmat qilib, kelajak yoshlarning to'liqsiz oilalarda tarbiyalanishi va oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: yoshlar, oila, oilaga tayyorlash, yo'nalishlar, oila salomatligi, oilada psixologik muhit, oila ma'naviyati, axloqi, o'zaro munosabatlar, noxush xolatlarni oldini olish.

СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПОДГОТОВКИ МОЛОДЁЖИ К СЕМЬЕ

Акратова Феруза Акмаловна.

*Национальный педагогический университет Узбекистана имени
Низами, доктор психологических наук, профессор*

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: Вопрос подготовки молодёжи к семейной жизни является актуальным фактором, влияющим на процветание и будущее страны. Важно прививать молодёжи эти установки, изучать взгляды молодёжи на семейную жизнь.

ЦЕЛЬ: Научно проанализировать современные направления подготовки молодёжи к семейной жизни.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Одной из основных задач государства в Узбекистане является укрепление семьи, формирование семейных отношений, основанных на взаимной любви, доверии и уважении, солидарности, взаимопомощи, построение её на основе чувства ответственности всех её членов перед семьёй, обеспечение беспрепятственного осуществления членами семьи своих прав и их защиты.

В реализации этих задач подготовка молодёжи к семейной жизни является одним из самых актуальных вопросов. Подготовка молодёжи к семейной жизни, казалось бы, личный и не связанный с другими, но этот взгляд является фактором, предотвращающим ущерб процветанию нашей нации, нравственности, будущему и родословной нашего народа.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Правильная подготовка молодёжи к семейной жизни имеет большое значение в профилактике распада семьи, являющейся основной ячейкой общества. Это, в свою очередь, способствует сохранению национальных ценностей общества и предотвращению воспитания будущих молодых людей в неполных семьях и негативных ситуаций, которые могут возникнуть в результате этого.

Ключевые слова: молодёжь, семья, подготовка к семье, направления, здоровье семьи, психологическая обстановка в семье, духовность семьи, нравственность, взаимоотношения, профилактика неблагоприятных ситуаций.

CURRENT DIRECTIONS IN PREPARING YOUNG PEOPLE FOR FAMILY

Akramova Feruza Akmalovna

Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan,

Doctor of Psychology, Professor

Annatation.

INTRODUCTION: The issue of preparing young people for family life is an urgent factor affecting the prosperity and future of the nation. It is important to instill its directions in young people, to study the views of young people on family life.

THE GOAL: To scientifically analyze the current directions of preparing young people for family life

MATERIALS AND METHODS: One of the main tasks of the state in Uzbekistan is to strengthen the family, to form family relations based on mutual love, trust and respect, solidarity, mutual assistance, to build it on the basis of a sense of responsibility of all its members before the family, to ensure that family members exercise their rights without hindrance and that these rights are protected.

In implementing these tasks, preparing young people for family life is one of the most urgent issues. Preparing young people for family life seems to be only personal and unrelated to others, but this view is a factor that prevents damage to the prosperity of our nation, the morals, the future, and the lineage of our people.

CONCLUSION: Proper preparation of young people for family life is of great importance in preventing the breakdown of families, which are the main unit of society. This, in turn, serves to preserve the national values of society and prevent the upbringing of future young people in single-parent families and the negative situations that may arise as a result.

Keywords: youth, family, preparation for family, directions, family health, psychological environment in the family, family spirituality, morality, mutual relations, prevention of unpleasant situations.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash insoniyat tarixida xalq ma'naviy takomilining eng ulug' va oliy yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan. Oilaviy madaniyat, oilaviy hayotga ongli kirib borish, oilaviy

vazifalarni bajarishga tayyorlik, hayotda oila o'rnini yuksak qadrlash, xalq ma'naviy merosidagi oila qadriyatlarini o'z zamoni talablari bilan uyg'unlashtirib rivojlantirish har vaqt inson hayotiy mezonini va jamiyat oldida turgan dolzarb vazifalardan biri sifatida tan olingan.

O'zbekistonda davlatning asosiy vazifalaridan biri sifatida oilani mustahkamlash, oilaviy munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish sifatida tarkib toptirish, oila oldida uning barcha a'zolarining mas'ulligi hissi asosida qurish, oila a'zolari o'z huquqlarini to'sqinliksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta'minlashdan iboratdir.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash faqat shaxsiy, boshqalarga aloqasi yo'qdek ko'rinadi, ammo bu qarash millatimiz ravnaqiga, xalqimiz odobiga, kelajagiga, nasli-nasabiga putur etkazishdan saqlovchi omildir.

Mamlakat aholisining yarmidan ko'proq qismini yoshlar tashkil qilishi, o'sib borayotgan yosh avlodni jamiyatda mustaqil yashashga tayyorlash vazifasining dolzarbligi yoshlarni jamiyat hayotiga va oilaviy turmushga tayyorlash ishlarini jadallashtirishni va yangicha mazmunda qayta qurishni talab etdi.

Prezident Shavkat Mirziyoev tomonidan "Turmush qurgan yoshlar orasida hayotni engil-elpi tasavvur qilish, oila muqaddas ekanini tushunib etmaslik holatlari ham, afsuski, uchrab turibdi. Yosh oilalar orasida arziyas sabablar bilan ajralishlar ko'payib bormoqda. Begunoh bolalar etim bo'lib, mehr va e'tiborga eng tashna vaqtida ota-ona tarbiyasidan chetda qolmoqda" deb ta'kidlangani ham mazkur masalaga jiddiy e'tibor qaratishni taqazo etadi.

Yigit va qizlar tomonidan qurilayotgan oilalarning ba'zi sabablarga ko'ra buzilib ketish xollari xamon davom etmoqda. Nikohdan ajralishlar asosan 20-35 yosh orasidagi fuqarolar tomonidan amalga oshirilayotganligi o'z navbatida, yoshlar ongida oila va uning muqaddasligi haqidagi tushunchalarning sayozlashib borayotganligini ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham yoshlarni oila-nikoh munosabatlariga tayyorlash muhim vazifa sifatida o'zini namoyon etadi. Yoshlarni turmush qurishga tayyorlash davomida ajralishdek mudhish voqea oila muhiti uchun fojia ekanligini ularning ongiga singdirish, qo'ydi-chiqdining yomon oqibatlarini yaqqol misollar yordamida tushuntirish ishlarini olib borish muhim rol o'ynaydi.

Yoshlarni oilaviy hayotga psixologik, ruhiy, jismoniy, jinsiy tomondan to'liq tayyorlash masalalari quyidagi yo'nalishlardagi ma'lum bilim va ko'nikmalarni shakllantirishni taqozo etadi:

1. Oila salomatligi: oila a'zolari salomatligi bo'yicha birlamchi bilimlarga ega bo'lish, salomatlikni saqlash omillarini bilish, salomatlikni saqlash va umrni uzaytirish usullarini va milliy qadriyatlarni oila hayotiga singdira bilish, milliy tabobatdan xabardor bo'lish, reproduktiv salomatlik mezonlariga amal qilish, to'g'ri ovqatlanish me'yorlariga rioya qilish, salomatlikni saqlash — fuqarolik burchi ekanligini anglash, o'z salomatligini jamiyat sog'lomligi sifatida qabul qilish, qariyalar salomatligiga e'tiborli bo'lish, go'dak va emizikli bolalar salomatligi, bolalarni yuqumli kasalliklardan asray olish, yod tanqisligi va temir moddasi etishmovchiligini oldini ola bilish, oilada tibbiy bilimlarga hurmat va e'tiborning shakllantirilishi, hayotga fiziologik-gigienik jihatdan tayyor bo'lish, oilaning ijtimoiy ahvolini yaxshi va ravon saqlash, uni yaxshilash omillarini o'rganish.

2. Oiladagi jinslararo munosabatlar: jinsiy tarbiya asoslari, jinslar psixologiyasi va salomatligi bo'yicha bilimlarni egallash, nikohni ulug'lash, nikohdagi halollik va sadoqat, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishni an'anaga aylantirish, ona salomatligiga muqaddas munosabat, farzand tug'ilishi va uning salomatligi, o'zini va oila a'zolarini zararli ko'nikmalardan asrash, ma'naviy barkamollik, sog'lom turmush tarzi asosidagi axloq normalari, inson psixologiyasi bo'yicha bilimlarga ega bo'lish, psixologik ta'sir o'tkazish omillarini egallash, psixologik muvozanat sirlarini egallash.

3. Oila axloqi va estetikasi: oilada o'zaro munosabatlar va muloqot madaniyati, tashabbuskorlik, faollik, ijodkorlik, tibbiy va ma'naviy sog'lomlik, jismoniy va ruhiy barkamollik, etakchilik va

tadbirkorlik, o'zaro muhabbat, adolat, insonparvarlik, insoniylik, to'g'rilik, kamtarlik, samimiylik, ota-onaga hurmat, mehr-muruvvat, sahovat, bag'rikenglik, sadoqat, vafodorlik, gunoh ishlardan qochish, sabr-toqat, o'z va'dasi ustidan chiqish, ilmi bo'lish, ayollarni qadrlash, iffat, rostgo'ylik, pokizalik, halollik, himmat va bardoshlilik, xushhulqlilik, shukr, hayo, tejamkorlik, halimlik, viqor, rahm-shafqat, onalik mehri, ma'naviy barkamollik, axloqiy poklik va vafodorlik, mehr va muruvvatga asoslangan oilaviy muloqot madaniyati, ma'naviy-mafkuraviy sog'lomlik, inson erkini hurmatlash, har bir insonning takrorlanmasligini tan olish va e'zozlash.

4. Oila a'zolari o'rtasida oilaviy majburiyatlar taqsimoti va tomonlar huquqlari: oila va oilaviy majburiyatlar, ayol va erkak majburiyatlariga doir zamonaviy stereotiplar, zamonaviy oila va oila a'zolari majburiyatlari, er va xotin huquqlari kafolatlarini bilish, oila huquqi bo'yicha qonunchilik tizimi bergan imtiyozlardan to'g'ri foydalana olish, din, oila va inson huquqlari masalasi, turmush qurayotgan yoshlarning oilalari o'zaro muvofiq bo'lishiga erishish, oila qurishda tomonlar erkinligi huquqini tug'ri anglash, oila qurish tartibi, shuningdek ajrim huquqi, ajrim holatidagi tomonlar huquqlari bo'yicha qonun hujjatlarini bilish va amalda qo'llay olish, oilada gender tenglik, jinslar o'rtasidagi farqlarni anglash, gender muhofaza qonunlarini tatbiq eta bilish.

5. Oilaviy inqirozlar va ularning oldini olish, oilaviy nizolarni echimiga tayyorlik: oila va konfliktlar, oilaviy inqirozlar va ularga to'g'ri munosabat, oilaviy inqirozlarning oldini olish choralari, g'azab va jahlni engish usullarini bilish, shaxs va oila, oilaning har bir a'zosiga hurmat va e'tibor me'yorlari, shaxs erkinligi, egoizm, egoizmdan qutilish omillari, oilada uning a'zolari munosabatlaridagi uyg'unlik, shaxs va jamoa munosabatlari, shaxs va oila manfaatlarini birligi, oila manfaatlarining ustunligi, shaxsning muloqot madaniyati va ichki dunyosi etukligi omillari.

6. Oiladagi sog'lom muhit va oilaviy muloqot: oila va uning osoyishtaligi, oiladagi sog'lom muhitni muhofaza qilishda barcha tomonlarning mas'ul ekanligi, shaxsiy huquqlarni oila huquqi bilan mutanosib olib bora olish tartiblari, oila a'zolari o'rtasidagi muloqot, oila va jamiyat munosabatlari, jamiyatda oila mavqeini saqlash, jamiyat a'zolari bilan bo'ladigan muloqotlarni to'g'ri olib borish, oila ma'rifati, ota-ona va farzand munosabatlaridagi samimiylik va bir-birini to'ldirish, farzandlarni jamoada yashashga va jamoada yashash qonun-qoidalariga o'rgatish, oiladagi sog'lom psixologik va tibbiy muhitning shakllanishida oila a'zolari majburiyatlari va huquqlarini mutanosib belgilash va tashkil qilishga o'rganish.

7. Oila an'analari va ularga nisbatan yangicha qarash: oila an'analari kelib chiqish sirlari, oila an'analarga hurmat, oila an'analarni yaratish va ularni ta'minlash, oilaviy an'analarni avlodlarga o'tkazish, milliy urf odatlarini o'rganish, oila an'alaridan farzand tarbiyasida unumli foydalanish.

Demak, yoshlarni oila va oilaviy munosabatlarga tayyorlash ishida yuqorida keltirilgan etti jihatni to'g'ri tashkil etish va olib borish hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridandir.

Buning uchun oila qurish arafasida turgan yoshlarning oilaviy hayot haqidagi fikrlarini bilish zarurati yuzaga keladi. Yoshlarni oilaviy hayotga to'g'ri tayyorlash uchun yuqorida qayd etilgan asosiy yo'nalishlarini o'rgatish ham muhim masala hisoblanadi. Shuning uchun biz ilmiy tadqiqot ishimizda oila qurish arafasida turgan yoshlarning oila, turmush qurish haqidagi fikrlarini o'rganishni maqsad etib oldik. Tadqiqotda FXDYoga ariza bergan yoshlarning 300 nafari – 150 juftlik ishtirok etdilar. Olingan fikrlarni umumlashtirgan xolda olingan natijalarning ayrimlarini keltiramiz.

1-jadval.

“Turmush qurishingiz uchun nimalarni bilishim kerak, deb o'ylaysiz?” savoli natijalari
(% da)

№	Turmush qurishingiz uchun nimalarni bilishim kerak deb o'ylaysiz?	%
1	Masuliyatli bo'lish, javobgarlik hissi, boshqarish	13,3
2	Psixologik tayyorgarlik, muomala sir asrorlari	15,0
3	Ikki tomon bir-birini tushunishi	5,0

4	Ma'naviy va jismoniy etuklik	8,3
5	Mustaqil fikrlash, moddiy mustaqillik	10,0
6	Milliy qadriyatlarni bilish	1,6
7	Farzand tarbiyalash	5,0
8	Oila a'zolarini va er-xotin bir-birini hurmat qilish	10,0
9	Muhabbatni avaylash	5,0
10	Islomiy bilimlarga ega bo'lish	3,3
11	Uy yumushlarini qilishni bilish	8,3
12	Sabr-bardosh, xayot saboqlarini bilish	15,0

Olingan natijalarning statistik tahlilidan ko'rinadiki, yoshlarning oilaviy hayot uchun "Psixologik tayyorgarlik, muomala sir asrorlari", "Sabr-bardosh, xayot saboqlarini bilish", "Masuliyatli bo'lish, javobgarlik hissi, boshqarish" kabi jihatlariga e'tibor berishni muhim deb hisoblar ekanlar.

Oila qurish orqali baxt hissini tuyishni kutish kuzatiladi. Bu borada yoshlarning baxtli yashash uchun nimalarga e'tibor berish zarurligiga oid fikrlari o'rganildi.

Olingan 2-jadval natijalaridan ko'rinadiki, yoshlarning nikohdan keyingi baxtli hayot uchun "Ikki tomon bir-birini tushunish, qo'llab-quvvatlash", "Muammoli vaziyatlarda yon bosish, nolimaslik", "Yaxshi ish, pul, moddiy ta'minlanganlik", "O'zaro hurmat va ishonch" kabi jihatlariga e'tibor berishni muhim deb hisoblar ekanlar.

2-jadval.

"Nikohdan keyingi baxtli hayot uchun nimalar zarur?" savoli natijalari
(% da)

No	Nikohdan keyingi baxtli hayot uchun nimalar zarur?	%
1	Ikki tomon bir-birini tushunish, qo'llab-quvvatlash	32,1
2	Bir-biriga ko'nikish	5,3
3	Muammoli vaziyatlarda yon bosish, nolimaslik	10,7
4	Sabr-bardosh	7,1
5	Mehr-muhabbat	3,5
6	Yaxshi ish, pul, moddiy ta'minlanganlik	19,6
7	Farzand	1,7
8	O'zaro hurmat va ishonch	10,7
9	Oila a'zolari va er-xotin bir-birini hurmat qilish	5,3
10	Milliy qadriyatlarni bilish	3,5

Demak, bugungi kunda yoshlarni oilaga tayyorlash sohasida quyidagi masalalarga e'tibor qaratish zarur:

Birinchidan, yoshlarni oilaga tayyorlashda ularga zarur psixologik, ma'naviy, huquqiy saboqlarni o'rgatish.

Ikkinchidan, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning aniq metodikasini ishlab chiqish.

Uchinchidan, ma'lumotlarni yoshlarga etkazish usuli va shakllarini takomillashtirish, bu borada axborot texnologiyalarining so'ngi imkoniyatlaridan foydalanishga e'tibor qaratish.

To'rtinchidan, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oila qurish mas'uliyatini to'la anglashlari bo'yicha amaliy psixologik tavsiyanomalar, yo'riqnomalar, oilaga tayyorlash masalalariga bag'ishlangan tarqatma materiallar, ijtimoiy reklama roliklarini ishlab chiqish.



Jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblangan oilalar ajrimining oldini olishda yoshlarni oilaviy hayotga to'g'ri tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'z navbatida jamiyat milliy qadriyatlarining asrab avaylanishiga xizmat qilib, kelajak yoshlarning to'liqsiz oilalarda tarbiyalanishi va oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akramova F.A., Bilolova Z.B. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik muammolari. Monografiya. –T.: OOO “NORI” MChJ, 2020. - 146 b.
2. Akramova F.A. O'zbekistonda oilaviy psixologik xizmatning ijtimoiy-psixologik muammolari. Monografiya. –T.: OOO “NORI” MChJ, 2019. - 186 b.
3. Andreeva T.V. Psixologiya sovremennoy semi. - SPb.: Rech, 2005.- 436s.
4. Andreeva T.V. Temperament suprugov i sovместimost v brake. - SPb.: SPb. GU, 2001.-S.207-208.
5. Grebenщikov I.V. Основы семейной жизни. - М., 2006. - 176 s.
6. Drujinina V.N. Psixologiya semi. – 3-e izd. – SPb.: Piter, 2006. 176 s. Karimova V.M. Akramova F.A. Psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: A.Kodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, “O‘AJBNT” markazi, 2002. – 205 b.
7. Kovalyov S.V. Psixologiya sovremennoy semi. - M.: Prosveshchenie, 1995, S.-67
8. Obozov N.N., Obozova A.N. Diagnostika suprujeskix zatrudneniy // Psixologicheskiy jurnal.- 1982.- T.Z. №3. - S.147 - 151.
9. Oila psixologiyasi: Akademik lisey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma. / G'.B. Shoumarov tahriri ostida / – Toshkent: “Sharq”, 2008. – 296 b.
10. Pankova L.M. U poroga semeynoy jizni. - M.: Prosveshchenie, 2001. - 144 s.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Akramova Feruza Akmalovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti,
psixologiya fanlari doktori, professor
Manzil: O'zbekiston, Toshkent shahar.

SUITSID: SABABLAR, OQIBATLAR VA IJTIMOY MUAMMO SIFATIDA



Elov Ziyodullo Sattorovich

*Osiyo xalqaro universiteti professori,
psixologiya fanlari doktori (DSc)*

Annotatsiya.

KIRISH: Mazkur ishda suitsid hodisasi, uning sabablari, psixologik va ijtimoiy omillari, shuningdek, suitsidning oldini olish usullari tahlil qilinadi. Suitsid – bu shaxsning o‘z joniga qasd qilish holati bo‘lib, u ko‘plab omillar ta‘sirida yuzaga keladi. Ishda yoshlar orasida suitsid darajasining ortishi, ruhiy salomatlik, oilaviy muhit, iqtisodiy bosim, internet va ijtimoiy tarmoqlarning roli alohida o‘rganilgan. Shuningdek, suitsidga moyillik belgilari va profilaktika choralariga e‘tibor qaratilgan. Psixologlar, pedagoglar va jamiyatning boshqa a‘zolari uchun tavsiyalar berilgan.

MAQSAD: Suitsid holatlarini kamaytirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: Suitsidga olib keladigan asosiy psixologik omillar quyidagilardir:

- Depressiya: Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, suitsid holatlarining 60–70% hollari klinik depressiya bilan bog‘liq.
- Tashvish va xavotir: Surunkali tashvishli holatlar (anksiozlik), panika xurujlari suitsid fikrlarini kuchaytirishi mumkin.
- O‘zini qadsiz his qilish: Inson o‘zining hayoti, ijtimoiy o‘rni yoki mavjudligidan ma‘no topmay qolsa, bu o‘z joniga qasd qilish xavfini oshiradi.
- Travmatik tajribalar: Bolalikdagi zo‘ravonlik, jinsiy zo‘ravonlik, oiladagi janjallar — bular uzoq muddatli psixik zarba yetkazadi.

XULOSA: Suitsid — bu har bir jamiyat, har bir oila va har bir inson uchun og‘riqli, ammo e‘tibordan chetda qoldirilmasligi kerak bo‘lgan mavzu. Suitsid holatlarining oldini olish — bu hamjihatlikda, mehr va e‘tibor orqali amalga oshadigan jarayon. Har bir insonning hayoti bebaho. Agar siz yoki siz tanigan biror kishi o‘zini yomon his qilayotgan bo‘lsa — bu haqda gapiring, yordam so‘rang va yordam taklif eting.

Kalit so‘zlar: suitsid, o‘z joniga qasd qilish, o‘zini o‘ldirish, suitsid xavfi, suitsidning oldini olish, suitsidal fikrlar, suitsid holatlari, suitsid statistikasi, psixologik muammolar, ruhiy tushkunlik (depressiya), stress, suitsid, yoshlar suitsidi, o‘smirlar o‘rtasida suitsid, ruhiy salomatlik, suitsidga qarshi kurash, suitsid profilaktikasi, suitsidal xatti-harakatlar, psixologik yordam

САМОУБИЙСТВО: ПРИЧИНЫ, ПОСЛЕДСТВИЯ И КАК СОЦИАЛЬНАЯ ПРОБЛЕМА

Элов Зиёдулло Сатторович

*Профессор Азиатского международного университета,
Доктор психологических наук*

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной работе анализируется феномен самоубийства, его причины, психологические и социальные факторы, а также методы профилактики самоубийств. Самоубийство – это состояние самоповреждения, возникающее под влиянием множества факторов. В работе особое внимание уделяется росту числа самоубийств среди молодежи, психическому здоровью, семейному окружению, экономическому давлению, роли Интернета и социальных сетей. Также уделяется внимание признакам суицидальных наклонностей и мерам профилактики. Даны рекомендации для психологов, педагогов и других членов общества.

ЦЕЛЬ: Разработать практические меры, направленные на снижение уровня самоубийств.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Основными психологическими факторами, приводящими к самоубийству, являются:

- Депрессия: Исследования показывают, что 60–70% случаев самоубийств связаны с клинической депрессией.
- Тревога и беспокойство: Хроническая тревога, панические атаки могут усиливать суицидальные мысли.
- Чувство никчёмности: когда человек не находит смысла в своей жизни, социальной роли или существовании, это увеличивает риск самоубийства.
- Травматический опыт: жестокое обращение в детстве, сексуальное насилие, семейные конфликты – всё это приводит к долгосрочным психологическим травмам.

ВЫВОД: Самоубийство – болезненная тема для любого общества, каждой семьи и каждого человека, но её нельзя игнорировать. Профилактика самоубийств – это процесс, который осуществляется в духе солидарности, любви и внимания. Каждая человеческая жизнь драгоценна. Если вам или кому-то из ваших знакомых плохо – поговорите об этом, попросите о помощи и предложите свою помощь.

Ключевые слова: самоубийство, суицид, риск суицида, профилактика суицида, суицидальные мысли, случаи суицида, статистика суицида, психологические проблемы, депрессия, стресс, самоубийство,

SUICIDE: CAUSES, CONSEQUENCES, AND AS A SOCIAL PROBLEM

Elov Ziyodullo Sattorovich

Professor, Asian International University,

Doctor of Psychology (DSc)

Annatation.

INTRODUCTION: This work analyzes the phenomenon of suicide, its causes, psychological and social factors, as well as methods of suicide prevention. Suicide is a state of self-harm by an individual, which occurs under the influence of many factors. The work specifically studies the increased level of suicide among young people, mental health, family environment, economic pressure, the role of the Internet and social networks. Attention is also paid to signs of suicidal tendencies and preventive measures. Recommendations are given for psychologists, educators and other members of society.

THE GOAL: To develop practical measures aimed at reducing suicide rates.

MATERIALS AND METHODS: The main psychological factors leading to suicide are:

- Depression: Studies show that 60–70% of suicide cases are associated with clinical depression.
- Anxiety and worry: Chronic anxiety, panic attacks can increase suicidal thoughts.
- Feeling worthless: When a person does not find meaning in their life, social role or existence, this increases the risk of suicide.

• Traumatic experiences: Childhood abuse, sexual abuse, family conflicts - these cause long-term psychological trauma.

CONCLUSION: Suicide is a painful topic for every society, every family and every person, but it should not be ignored. Suicide prevention is a process that takes place in solidarity, through love and attention. Every human life is precious. If you or someone you know is feeling bad - talk about it, ask for help and offer help.

Keywords: suicide, suicide, suicide risk, suicide prevention, suicidal thoughts, suicide cases, suicide statistics, psychological problems, depression, stress, suicide, youth suicide, suicide among adolescents, mental health, suicide prevention, suicide prevention, suicidal behavior, psychological support

Suitsid (o'z joniga qasd qilish) — bu inson tomonidan ongli ravishda o'z hayotiga nuqta qo'yish harakatidir. Ushbu holat dunyo bo'yicha jiddiy ijtimoiy va sog'liqni saqlash muammosi bo'lib, har yili millionlab odamlar hayotiga zomin bo'lmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, suitsid o'lim sabablarining eng yetakchilaridan biri hisoblanadi, ayniqsa yoshlar va o'rta yoshdagi kishilar orasida.

Tadqiqotchilar fikriga ko'ra suitsid sabablari va oldini olish usullari

Suitsid sohasida ko'plab xalqaro va mahalliy olimlar tadqiqotlar olib borishgan. Ularning fikriga ko'ra, suitsid nafaqat individual psixologik holat, balki ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan chambarchas bog'liq.

1. Emil Dyurkgeym – Sotsiologik yondashuv

Fransuz sotsiologi Emil Dyurkgeym suitsidni birinchi bo'lib ilmiy asosda o'rgangan olimlardan biridir. U o'zining “Le Suicide” (1897) nomli asarida quyidagilarni ta'kidlaydi:

“Suitsid individual qaror emas, balki jamiyatdagi bog'liqlik darajasining pastligi bilan bevosita aloqador.”

Dyurkgeym suitsidni 4 turga ajratgan:

- **Egoistik suitsid** – ijtimoiy izolyatsiya natijasi;
- **Altruistik suitsid** – o'zini jamiyat uchun qurbon qilish (masalan, urush vaqtida);
- **Anomik suitsid** – iqtisodiy yoki ijtimoiy inqirozlar natijasida;
- **Fatalistik suitsid** – haddan ortiq nazorat ostidagi hayotdan qochish.

2. Tomas Joiner – “Interpersonal Theory of Suicide”

Zamonaviy psixologlardan biri professor Thomas Joiner o'zining nazariyasida quyidagilarni ilgari suradi:

“Suitsid fikrining paydo bo'lishi uchun odamda uch asosiy holat bo'lishi kerak: o'zini ortiqcha deb his qilish, yolg'izlik va o'z joniga qasd qilish qobiliyatining shakllanishi.”

Uning tadqiqotlari asosida, suitsidga moyillik doimiy ruhiy og'riq va ijtimoiy aloqalarning yo'qolishi bilan bog'liq.

3. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma'lumotlari

JST (WHO) ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyoda 700 000 dan ortiq odam suitsid tufayli hayotdan ko'z yumadi. Ularning ta'kidlashicha:

“Suitsidlarning ko'pini oldini olish mumkin, agar jamiyatda ruhiy salomatlikka e'tibor kuchaysa, stigma kamaytirilsa va malakali psixologik yordam ommalashtirilsa.”

Suitsidning asosiy sabablari

Suitsidga olib keluvchi omillar ko'p va turlicha bo'lishi mumkin. Ularni bir nechta toifalarga ajratish mumkin:

1. Psixologik omillar:

- Depressiya

- Bipolyar buzilish
 - Shizofreniya
 - Tashvish (anksiyete) buzilishlari
 - Travmatik voqealar (bolalikdagi zo‘ravonlik, yo‘qotishlar)
2. **Ijtimoiy omillar:**
- Oilaviy muammolar (ajrimlar, nizolar)
 - Moliyaviy inqiroz
 - Ijtimoiy izolyatsiya, yolg‘izlik
 - Ishsizlik yoki ish joyidagi muammolar
 - Internetdagi tazyiq (kiberbullying)
3. **Biologik omillar:**
- Nasliy moyillik
 - Neyrotransmitterlar (serotonin) muvozanatining buzilishi
4. **Madaniy va dini omillar:**
- Ayrim jamiyatlarda suitsidning “qabul qilinishi”
 - Diniy qadriyatlarning yetishmasligi yoki noto‘g‘ri talqini

1-jadval.

Suitsidga olib keluvchi asosiy psixologik omillar

№	Psixologik omil	Suitsidga ta’sir darajasi	Izohlar
1	Depressiya	Yuqori	Suitsid fikrining eng keng tarqalgan sabablaridan biri
2	Tashvish (anksiyete)	O‘rta	Qo‘rquv, xavotir hissi ichki bosimni kuchaytiradi
3	Bipolyar buzilish	Yuqori	Ruhiy ko‘tarilish va tushkunlikning keskin almashinuvi
4	Shizofreniya	O‘rta – yuqori	Real va g‘ayritabiiy fikrlar o‘rtasida farqni yo‘qotish
5	Travmatik tajriba (PTSD)	O‘rta	Zo‘ravonlik, urush, avariya tajribalari natijasi

Suitsidning oldindan belgilari

Suitsid holatlarining ko‘pchiligi oldindan ayrim ogohlantiruvchi belgilarga ega bo‘ladi. Ularni aniqlash orqali inson hayotini saqlab qolish mumkin. Bunga quyidagilar kiradi:

- Umidsizlik, befoydalik tuyg‘usi
- O‘lim haqida tez-tez gapirish yoki yozish
- Yaqinlari bilan xayrlashishga o‘xshash harakatlar
- Izolyatsiya — yaqinlaridan uzoqlashish
- Uyqu buzilishi, ishtahaning yo‘qolishi
- G‘ayritabiiy sovg‘alar berish yoki qarzlarni to‘lash

Oqibatlar

Suitsid nafaqat odamning o‘z hayotiga, balki uning yaqinlariga, butun jamiyatga katta salbiy ta’sir ko‘rsatadi:

- Oilaviy ruhiy travmalar
- Do‘stlar, hamkasblar orasida aybdorlik hissi

- Ijtimoiy stress
- Iqtisodiy yo‘qotishlar

Oldini olish yo‘llari

Suitsidni oldini olish mumkin. Buning uchun quyidagi choralarni ko‘rish zarur:

1. **Psixologik yordam:**
 - o Psixolog yoki psixiatrga murojaat qilish
 - o Davolash (terapiya, dori vositalari)
2. **Oila va do‘stlar qo‘llab-quvvatlashi:**
 - o Suhbatlashish, tinglash, yordam taklif etish
 - o Insonni yolg‘izlikdan chiqarish
3. **Ma‘lumot va profilaktika:**
 - o Maktablar, universitetlar va ish joylarida ruhiy salomatlik bo‘yicha treninglar
 - o Suitsidga oid noto‘g‘ri tushunchalarni bartaraf etish
4. **Tibbiy yondashuv:**
 - o Doimiy psixik salomatlikni kuzatish
 - o Og‘ir depressiya holatlarida tezkor aralashuv

2-jadval.

Suitsidga moyillikning yosh guruhlariga ko‘ra taqsimoti
(shartli raqamlar bilan)

Yosh oralig‘i	Suitsid holatlari (100 000 kishiga)	Ehtimolli asosiy sabablar
10–14 yosh	4	Kiberbulling, oilaviy muammolar
15–19 yosh	11	Imtihon bosimi, sevgi muammolari, depressiya
20–29 yosh	17	Ishsizlik, yolg‘izlik, depressiya
30–44 yosh	13	Moliyaviy bosim, oilaviy muammolar
45–59 yosh	10	Ijtimoiy bosim, sog‘liq muammolari
60+ yosh	8	Yolg‘izlik, kasalliklar, qaramlik hissi

Suitsid muammosiga ilmiy yondashuvlar

1. Psixologik yondashuv

Bu yondashuv suitsidni shaxsning ichki ruhiy holati bilan bog‘liq holda tushuntiradi. Psixologik yondashuvda quyidagi nazariyalar muhim o‘rin tutadi:

A. Kognitiv nazariya (Aaron Beck)

- Suitsidal fikrlar — bu noto‘g‘ri dunyoqarash va salbiy tafakkur mahsuli.
- Odam o‘zini, kelajagini va dunyoni faqat salbiy ko‘rinishda qabul qilganida suitsid xavfi oshadi.

Kognitiv yondashuv asosida suitsid tahlili

Kognitiv yondashuv nima?

Kognitiv yondashuv psixologiyada insonning fikrlash jarayonlarini — ya‘ni ongli tafakkur, xotira, e‘tiqod, dunyoqarash, e‘tibor va muammolarni hal qilish mexanizmlarini o‘rganadi.

Suitsid masalasida bu yondashuv shuni ta‘kidlaydi:

“Inson o‘z hayotini tugatishga qaror qilganida, u bu dunyoni, o‘zini va kelajakni chuqur salbiy ko‘z bilan ko‘radi.”
(Aaron Beck, depressiyani kognitiv tahlil qilgan psixolog)

Kognitiv yondashuv asoschilari

1. Aaron T. Beck — Depressiv Uchlik (Cognitive Triad)

Beck depressiyaga moyil insonlarda "uchlik salbiy fikrlash" mavjud bo'lishini aytadi:

ASOSIY QISM	SALBIY FIKRNING MAZMUNI
1. O'zini anglash	"Men hech kimga kerak emasman", "men yaramayman"
2. Dunyoqarash	"Hamma menga qarshi", "hayot adolatsiz"
3. Kelajak	"Hech narsa o'zgarmaydi", "ertaga undan battar bo'ladi"

Bu salbiy tafakkur insonni umidsizlikka, keyin esa suitsid fikrlariga olib boradi.

2. Albert Ellis – Iratsional fikrlar nazariyasi (REBT)

Ellis aytadi: "Suitsid qarorlarining orqasida ko'pincha bo'rttirilgan, mutlaq va haddan tashqari salbiy fikrlar yotadi"

Misol:

- "Agar men bu ishda muvaffaqiyat qozonmasam, hayotim tamom."
- "Hech kim meni sevmaydi, demak men yashashga loyiq emasman." Ellis bu fikrlarni **rasional**

fikrlar bilan almashtirishni taklif qiladi.

Suitsidga olib keluvchi asosiy kognitiv xatolar

Quyidagi **kognitiv buzilishlar** suitsid fikrlarini kuchaytirishi mumkin:

Kognitiv xato	Tavsif	Misol
Bo'rttirish (catastrophizing)	Oddiy muammoni yengib bo'lmaydigan fojia deb qabul qilish	"Imtihondan yiqildim, demak hayotim barbod"
"Qora-oq" fikrlash	Holatni faqat yaxshi yoki yomon deb baholash	"Agar sevganim ketgan bo'lsa, hayotim ma'nosiz"
Umumlashtirish	Biror salbiy holatdan keyin, hamma narsani salbiy ko'rish	"Bitta do'stim meni tark etdi – demak hech kim meni sevmaydi"
Ichki ayblash (self-blame)	Har qanday salbiy holat uchun o'zini ayblash	"Hamma narsa mening aybim. Men yaxshi inson emasman"

Kognitiv yondashuv asosida suitsid profilaktikasi

Kognitiv yondashuv faqat tahlil emas — u **korrektsiya (to'g'rilash)** usullarini ham taklif qiladi.

Bu yerda asosiy usul — **Kognitiv xulq-atvor terapiyasi (CBT)**.

CBT orqali amalga oshiriladigan ishlar:

1. Salbiy fikrlarni aniqlash

– "Men kerak emasman", "Men hech qachon baxtli bo'lmayman" kabi fikrlarni tahlil qilish

2. Ularni sinchkovlik bilan tahlil qilish

– "Bu fikrga dalil bormi?", "O'xshash holatlarda nima sodir bo'lgan?"

3. Ijobiy va realistik fikrlar bilan almashtirish

– "Menda qiyinchiliklar bo'lsa ham, ular vaqtinchalik", "Hayotda menga yordam beradigan odamlar bor"

4. Muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish

– Emotsional boshqaruv, stressni yengish, ijtimoiy ko'nikmalar

B. Interpersonal nazariya (Thomas Joiner)

- Suitsid uchta asosiy omil natijasida paydo bo'ladi:

1. O'zini ortiqcha deb his qilish (perceived burdensomeness)

2. Ijtimoiy ajralish (thwarted belongingness)
3. O'z joniga qasd qilishga "qobiliyat" (acquired capability)

Joiner fikricha, bu holatlar bir paytda yuzaga kelsagina, suitsid xavfi kuchayadi.

2. Sotsiologik yondashuv

Bu yondashuv suitsidni ijtimoiy tizim va insonning jamiyatdagi o'rnini bilan bog'liq deb tushuntiradi.

A. Emil Dyurkgeym nazariyasi (1897)

Dyurkgeym suitsidni ijtimoiy integratsiya va normativ nazorat darajasiga qarab toifalagan:

Suitsid turi	Ta'rif
Egoistik suitsid	Jamiyat bilan bog'lanmagan, yolg'iz insonlar suitsidi
Altruistik suitsid	Jamiyat uchun o'z joniga qasd qilish (masalan, urushda)
Anomik suitsid	Ijtimoiy me'yorlar buzilgan davrda (inqiroz, o'zgarish)
Fatalistik suitsid	Haddan ziyod nazorat ostidagi hayotdan qochish

Bu yondashuv suitsidga olib keluvchi ijtimoiy sabablarni chuqur o'rganadi: ajralish, ishsizlik, urbanizatsiya, izolyatsiya.

3. Biologik yondashuv

Bu yondashuv suitsidni miya kimyosi, genetik omillar va biologik moyillik bilan bog'laydi.

Asosiy fikrlar:

- Serotonin darajasining pasayishi suitsid fikrlariga olib keladi.
- Ba'zi odamlar genetik jihatdan depressiyaga va impulsiv xatti-harakatlarga moyil bo'lishi mumkin.
- Miya strukturasidagi o'zgarishlar (masalan, amigdala va prefrontal korteksda) ruhiy beqarorlikka olib keladi.

Ushbu yondashuv psixofarmakologik davolash usullarini asoslaydi (antidepressantlar, stabilizatorlar).

4. Pedagogik va tarbiyaviy yondashuv

Bu yondashuv, ayniqsa, o'smirlar va yoshlar orasida suitsid profilaktikasiga e'tibor qaratadi.

Asosiy tamoyillar:

- Ruhiy tarbiyaning yetishmasligi va stressga chidamsizlik — suitsid sabablaridan biri.
- O'quvchi shaxsining emotsional rivojiga e'tibor qaratish orqali xavfni kamaytirish mumkin.
- O'qituvchi va psixologlar hamkorligida individual yondashuv, ijtimoiy-psixologik xizmatlar ko'rsatish zarur.

Suitsid — bu har bir jamiyat, har bir oila va har bir inson uchun og'riqli, ammo e'tibordan chetda qoldirilmasligi kerak bo'lgan mavzu. Suitsid holatlarining oldini olish — bu hamjihatlikda, mehr va e'tibor orqali amalga oshadigan jarayon. Har bir insonning hayoti bebaho. Agar siz yoki siz tanigan biror kishi o'zini yomon his qilayotgan bo'lsa — bu haqda gapiring, yordam so'rang va yordam taklif eting.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Z.Elov. [Suitsid–globallashuv jarayonida shaxsdagi salbiy ijtimoiy psixologik holat sifatida](#). 2025. "ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал 1 (18)
2. Z.Elov. [Suicide as a socio-psychological problem: analyses and theories](#). Journal of applied science and social science. Volume 15 Issue 10, October 2025
3. Z.Elov. [Deviant xulq-atvorli o' smirlarda suitsidal holatlarning psixologik sabablari](#). 2024 Medicine, pedagogy and technology: theory and practice 2 (10), 53-60



4. Z.S.Elov. O'z joniga qasd qilish holati o'smirlar orasida psixologik muammo sifatida. 2025
IQRO JURNALI 1 (2), 134-142

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]


Elov Ziyodullo Sattorovich

Osiyo xalqaro universiteti professori,
psixologiya fanlari doktori (DSc)

Manzil: O'zbekiston, Buxoro shahar.

elovziyo2021@gmail.com

O'SMIRLARDA AGRESSIV XATTI-HARAKATLARNING INDIVIDUAL TARAQQIYOTGA TA'SIRI



Ganjiev Feruz Furqatovich

Buxoro davlat universiteti professori, psixologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada o'smirlarda agressiv xatti-harakatlarning individual taraqqiyotga ta'siri va o'ziga xosligi uning asosiy tuzilmasi haqida fikr yuritilgan. Maqolada, hozirga qadar yaratilgan barcha xorijiy va mahalliy psixolog tadqiqotchilarning agressivlik holatiga oid ilmiy yondashuvlari, nazariy qarashlari, kontseptual ishlanmalari, mazkur maqolaning metodologik jihati uchun ilmiy asos sifatida xizmat qiladi.

MAQSAD: O'smirlarda agressiv xatti-harakatlarning individual taraqqiyotga ta'sirini ilmiy tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: Shaxsga doir individual taraqqiyot samarasini hamda insonlararo munosabatlarni belgilovchi xulq-atvor va xatti-harakatlarning eng muhim xarakteristikalaridan biri agressivlikdir. Hozirgi kunda insonlarda kuzatilayotgan agressiv holatlarni namoyon bo'lish sabablarini aniqlash, destruktiv xulq-atvorni oldini olish yoki nazorat qilish muammolarini o'rganish psixologlar uchun dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Bugungi kunda ota-onalar bilan suhbatlashsangiz, ularning aksariyati farzandlar bilan ayniqsa, o'smirlik yosh davridagi o'smirlar bilan muomala munosabatlarida bo'lish murakkablashib borayotganligini ta'kidlaydilar.

Bugungi kunda o'smirlarning ijtimoiy moslashmaganligi muammosi dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Ayniqsa bu omil agressiv o'smirlar sonini ortishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bizga ma'lumki, inson odobli yoki odobsiz, oliyjanob yoki egoist, jinoyatchi yoki sog'lom xulqli shaxs bo'lib dunyoga kelmaydi. Insonning turli mazmundagi xulq-atvor xususiyatlari va uning ustanovkalari shuningdek, uning ijtimoiy hayot faoliyati, shaxsni o'rab turgan obyektiv shart-sharoitlar va voqea-hodisalarni ta'siri asosida yuzaga keladi. Mazkur shart-sharoitlar va obyektiv munosabatlar xarakteri individning shaxs sifatida shakllanishiga keng xizmat qiladi. Bu unsurlar ijtimoiy turmush shart-sharoitlari oxir-oqibat natijada inson xulq-atvorining o'ziga xos shakllarini ta'minlab beradi.

XULOSA: Hozirgi kunda o'smirlarda agressivlik namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlariga, agressiv xulq-atvori, shaxs xususiyatlari va emotsional holatlarda o'zini nazorat qilishi kabi psixologik omillar ta'sir qiladi. O'smirlarda agressiv va agressiv holatlarning ijtimoiy-psixologik determinantlari namoyon bo'lishining psixologik jihatlarini ta'minlovchi sifatlar: emotsional holatlarda o'zini nazorat qila olish, optimistik kayfiyat, muloqotmandlik, empatiya, kirishimlilik va nazoratning kuchliligi kabi psixologik omillar agresivlikning oldini olishda asosiy faktorlarni tashkil etganligi aniqlandi. Muammoning fanlararo qisqacha tahlili shuni ko'rsatadiki, bu yerda taxminlarning tarqalishi

mavjud, turli tarixiy davrlar va turli xalqlar orasida turlichadir. Biz agressiv xulq-atvor demografik jihatdan barqaror hodisa bo'lib, asosan individual ildizlarga ega ekanligini ko'ramiz.

Kalit so'zlar: negativ emotsiyalar, g'azab, qahr, jahl, his-hayajon, barqaror xususiyat, buzg'unchi xatti-harakat, axloqsizlik, ruhiy zarar.

ВЛИЯНИЕ АГРЕССИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ НА ИНДИВИДУАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ

Ганджиев Феруз Фуркатович

*Профессор Бухарского государственного университета,
доктор психологических наук (DSc)*

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье рассматривается влияние агрессивного поведения подростков на индивидуальное развитие и его основные структуры. В статье представлен обзор научных подходов, теоретических воззрений, концептуальных разработок всех зарубежных и отечественных психологов, посвященных состоянию агрессии, созданных к настоящему времени, что служит научной основой методологического аспекта данной статьи.

ЦЕЛЬ: Провести научный анализ влияния агрессивного поведения на индивидуальное развитие подростков.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Агрессия является одной из важнейших характеристик поведения и действий, определяющих эффективность индивидуального развития и межличностных отношений. В настоящее время выявление причин проявления агрессивных состояний у людей и изучение проблем профилактики или контроля деструктивного поведения становятся актуальной проблемой для психологов. Если поговорить с родителями сегодня, большинство из них подчеркнут, что их отношения с детьми, особенно подростками, становятся все более сложными.

Сегодня проблема социальной несовместимости подростков считается актуальной. В частности, этот фактор влияет на рост числа агрессивных подростков. Известно, что человек не рождается вежливым или грубым, благородным или эгоистичным, преступником или здоровым. Поведенческие особенности и привычки человека в различных контекстах, а также его социальная жизнедеятельность формируются под влиянием объективных условий и событий, окружающих его. Эти условия и объективные отношения играют большую роль в формировании личности как личности. Эти элементы, в совокупности с социальными условиями жизни, в конечном итоге, обуславливают специфические формы человеческого поведения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: В настоящее время психологические особенности проявления агрессии у подростков определяются такими психологическими факторами, как агрессивное поведение, личностные особенности и самоконтроль в эмоциональных ситуациях. Установлено, что такие психологические факторы, как способность контролировать себя в эмоциональных ситуациях, оптимистичный настрой, общительность, эмпатия, доступность и сила самоконтроля, являются основными факторами профилактики агрессии. Краткий междисциплинарный анализ проблемы показывает, что здесь существует разброс мнений, различающихся в разные исторические периоды и у разных народов. Мы видим, что агрессивное поведение — демографически устойчивое явление, имеющее преимущественно индивидуальные корни.

Ключевые слова: негативные эмоции, гнев, ярость, эмоция, устойчивая личность, деструктивное поведение, безнравственность, психологический вред.

INFLUENCE OF AGGRESSIVE BEHAVIOR ON INDIVIDUAL PROGRESS IN ADOLESCENTS

Ganjiev Feruz Furqatovich

Professor of Bukhara State University, Doctor of Psychology (DSc)

Annatation.

INTRODUCTION: This article discusses the impact of aggressive behavior in adolescents on individual development and its main structure. The article reviews the scientific approaches, theoretical views, conceptual developments of all foreign and domestic psychological researchers on the state of aggression, which have been created so far, and serve as a scientific basis for the methodological aspect of this article.

THE GOAL: To scientifically analyze the impact of aggressive behavior on individual development in adolescents.

MATERIALS AND METHODS: Aggression is one of the most important characteristics of behavior and actions that determine the effectiveness of individual development and interpersonal relationships. Currently, identifying the causes of the manifestation of aggressive states observed in humans and studying the problems of preventing or controlling destructive behavior are becoming a pressing issue for psychologists. If you talk to parents today, most of them will emphasize that their relationships with their children, especially teenagers, are becoming more and more complicated.

Today, the problem of social incompatibility of adolescents is considered a pressing issue. In particular, this factor is influencing the increase in the number of aggressive adolescents. We know that a person is not born polite or rude, noble or selfish, criminal or healthy. A person's behavioral characteristics and habits in various contexts, as well as his social life activity, emerge under the influence of objective conditions and events surrounding the person. These conditions and objective relations play a large role in the formation of the individual as a person. These elements, together with the social conditions of life, ultimately provide the specific forms of human behavior.

CONCLUSION: Nowadays, the psychological characteristics of the manifestation of aggression in adolescents are influenced by psychological factors such as aggressive behavior, personality traits, and self-control in emotional situations. It was found that psychological factors such as the ability to control oneself in emotional situations, optimistic mood, sociability, empathy, approachability and the strength of control are the main factors in preventing aggression. A brief interdisciplinary analysis of the problem shows that there is a spread of assumptions here, which differ in different historical periods and among different peoples. We see that aggressive behavior is a demographically stable phenomenon and has mainly individual roots.

Keywords: negative emotions, anger, rage, emotion, stable personality, destructive behavior, immorality, psychological harm.

Bugungi globalashuv sharoitida jahon miqyosida o'smirlarda agressiv holatlarning ijtimoiy-psixologik determinantlarining diagnostikasi va korrektsiyasini amalga oshirishning psixologik usullarini takomillashtirish hamda dunyo miqyosida bu holatlarni baholash dasturlari keng joriy etilgan va ta'lim jarayoniga tatbiq etilgan. O'smirlarning intellektual, kasbiy va guruhiiy ishlash imkoniyatlarini tizimli o'rganishning ijtimoiy-psixologik innovatsion loyihalarini ishlab chiqish hamda ularni Respublikamizning istiqbolli ta'lim dasturlaiga mos integratsiya qilish zarurati jadal sur'atlar bilan olib borilmoqda.

Jumladan, Bolonya Deklaratsiyasi, Evropa Kengashi mamlakatlarining 2020 yilga qadar ta'lim va kadrlarni kasbiy tayyorlash sohasidagi Hamkorlik strategiyasi, Oliy kasbiy ta'lim muassasalari Yevropa assotsiatsiyasi EURASHE, ENIC-NARIC axborot-tizim markazi, Ta'lim sohasidagi xalqaro

tashkilot Education International hujjatlarida²¹ nafaqat bilim olish huquqini kafolatlash, balki shaxs ma'naviy yuksalashining diagnostik yo'nalishlari bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirmoqda.

Globalashuv davrida agressiyaning o'smirlar hayotida namoyon bo'lishi sof antropologik va psixologik hodisa bo'lib, muayyan ma'noda bu hodisaning keng tarqalganligi butun jamiyatning holatini, uning axloqiy salomatligini aks ettiradi. O'z joniga qasd qilishlar sonining ko'payishi o'smirlarda avtoagressiyaning ekstremal ko'rinishi sifatida bugungi kunda butun dunyoda va mamlakatimizda ham kuzatilmoqda. Agressiya bu jismoniy va ruhiy sohalarda o'ziga va boshqalarga zarar yetkazishga qaratilgan qasddan qilingan harakatdir.

Hozirgi vaqtda voyaga yetmaganlarda agressiya fenomenini chuqur o'rganish zarur. O'smirlarning ijtimoiy-psixologik moslashuviga to'sqinlik qiladigan sharoitlarni hisobga olgan holda, ularning buzg'unchi xatti-harakatlarini zamonaviy voqeliklar kontekstida tushunish kerak. Agressiya va ijtimoiy-psixologik moslashuv muammosi bir qator tadqiqotchilar tomonidan turli jihatlarida o'rganilgan.

Umumjahon muammolaridan biri hisoblangan o'smirlarda agressiya fenomenini tadqiq qilish borasida ko'plab xorijiy va hamdo'stlik mamlakatlarida va shu jumladan Respublikamizda bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, ularda voyaga yetmaganlar o'rtasida sodir etilayotgan qonunbuzarlik, alkogolizm va giyohvandlik singari illatlarning kelib chiqishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi statistika, demografik, xuquqiy va hududiy xususiyatlari har tomonlama ilmiy tahlil qilishga harakat qilinadi.

Globalashuv davrida bir qator soha mutaxassislari yoshlar o'rtasida sodir etilayotgan jinoyatchilik, giyohvandlik va alkogolizm kabi illatlarning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi ijtimoiy-psixologik omillar va ularning oldini olish borasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordilar Z.A.Astemirov, F.V.Gobichiya, K.E.Igoshev, L.M.Zyubin, A.D.Glatochkin, B.F.Rayskiy, Y.V.Zaika, B.T.Kondrashchenko, L.I.Dolgova, G.G.Bochkareva, E.B.Melnikova kabi bir qator tadqiqotchilar o'z tadqiqotlarida agressiya fenomenini va ijtimoiy-psixologik muammolarini, xususan o'smirlar psixologiyasiga makro va mikro muhitning ta'siri va uning agressiv holatlarning kelib chiqishidagi o'rni, yoshlar jinoyatchiligi asosiy sabab va motivlari hamda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida fikr-mulohazalar yuritishga harakat qiladilar G.M.Andreyeva, A.S.Belkin, Yu.V.Gerbeyev, I.A.Nevskiy, A.V.Zavalyuk, A.Jumaboyev, A.M.Dolgova kabi bir qator pedagog olimlar, L.I.Bojovich, A.A.Vdovchenko, G.G.Bochkareva, I.P.Bashkatov, A.N.Leontev, N.D.Levitov, B.S.Abdullayeva, G'.B.Shoumarov, E.G'oziev, V.M.Karimova, N.Komilova kabi psixolog olimlarning ta'kidlashlaricha, o'smirlarning ongi, xulqi hamda faoliyati mazmunini ularni qurshab olgan muhit belgilaydi. Ularning fikriga ko'ra, o'smirlarning ongi, xulqi, xarakteri mikro va makro muhitdagi faoliyati orqali boshqariladi.

Ushbu maqolada asosan agressiv xulq-atvorning paydo bo'lishining zaruriy shartlarini ko'rib chiqamiz, uning o'ta og'irligi, o'smirlarning o'z joniga qasd qilish xatti-harakati farqini hisobga olgan holdagi terminologiyadir.

Dunyoda agressiv xulq-atvor 19-asr oxiridan 20-asr boshlarida qadar o'rganila boshlandi. Yoshlar o'rtasidagi agressiv xulq-atvor muammosiga bag'ishlangan juda ko'p miqdordagi xorijiy va mahalliy ishlarga qaramay, mamlakatimizda ushbu mavzu bo'yicha mintaqaviy statistik tadqiqotlar kam. Asosan, faqat namunaviy statistik ma'lumotlar mavjud. Biz hali ham o'smirlarning agressiv xatti-harakatlarining haqiqiy darajasini va shakllarini bilmaymiz.

Shaxsga doir individual taraqqiyot samarasini hamda insonlararo munosabatlarni belgilovchi xulq-atvor va xatti-harakatlarning eng muhim xarakteristikalaridan biri agressivlikdir. Hozirgi kunda insonlarda kuzatilayotgan agressiv holatlarni namoyon bo'lish sabablarini aniqlash, destruktiv xulq-atvorni oldini olish yoki nazorat qilish muammolarini o'rganish psixologlar uchun dolzarb masala bo'lib

²¹ Стратегия Европейского Союза в области образования и профессиональной подготовки (ET2020) // Гаськов В.В. Согласование стратегических целей и индикаторов профессиональной подготовки кадров с международными рекомендациями и опытом (Обзорный технический доклад). – М., 2018. – С.11-21.



kelmoqda. Bugungi kunda ota-onalar bilan suhbatlashsangiz, ularning aksariyati farzandlar bilan ayniqsa, o'smirlik yosh davridagi o'smirlar bilan muomala munosabatlarida bo'lish murakkablashib borayotganligini ta'kidlaydilar.

Bugungi kunda o'smirlarning ijtimoiy moslashmaganligi muammosi dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Ayniqsa bu omil agressiv o'smirlar sonini ortishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bizga ma'lumki, inson odobli yoki odobsiz, oliyanob yoki egoist, jinoyatchi yoki sog'lom xulqli shaxs bo'lib dunyoga kelmaydi. Insonning turli mazmundagi xulq-atvor xususiyatlari va uning ustanovkalari shuningdek, uning ijtimoiy hayot faoliyati, shaxsni o'rab turgan obyektiv shart-sharoitlar va voqea-hodisalarnin ta'siri asosida yuzaga keladi. Mazkur shart-sharoitlar va obyektiv munosabatlar xarakteri individning shaxs sifatida shakllanishiga keng xizmat qiladi. Bu unsurlar ijtimoiy turmush shart-sharoitlari oxir-oqibat natijada inson xulq-atvorining o'ziga xos shakllarini ta'minlab beradi.

Shunday ekan, bu masalalarni yaxshilash, oilada sog'lom muhitni shakllantirish, ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish va shu orqali o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol insonlar bo'lib, shakllanishini ta'minlash har bir oila a'zosining, mahalla ko'nying, rahbariyatning, keng jamoatchilikning asosiy va muhim vazifasi bo'lmog'i darkordir.

Insonlar tomonidan belgilanadigan munosabatlarni aks ettiruvchi mazkur baholarning nisbiyligi asosiy psixologik va axloqiy masaladir. Kimningdir nuqtayi-nazariga ko'ra zaruriyatdek tuyuladigan narsa boshqa bir inson uchun nafaqat befoya, balki zararli deb hisoblanishi mumkin, bir madaniyatda ma'qul sanalgan narsa boshqa bir madaniyatda noma'quldek e'tirof etilishi mumkin. O'smirlar doir individual taraqqiyot samarasini hamda insonlararo munosabatlarni belgilovchi xulq-atvor va xatti-harakatlarning eng muhim xarakteristikalaridan biri agressivlikdir. Psixologiyada "agressivlik" tushunchasi turlicha yondashuv asosida tahlil qilingan bo'lib, bir guruh tadqiqotchilar agressivlikni negativ xulq-atvor modeli sifatida baholasalar, yana bir guruh tadqiqotchilar bu xulq-atvorning pozitiv tomonlari ham mavjudligini ta'kidlaydilar.

R. Kratchfeld va N. Levinsonlar tadqiqotlarida agressivlik axloqiylikning ziddi demoqchi emasmi deb ta'kidlaydi: zotan agressivlikning ba'zi bir shakllariga axloqsizlik sifatida qaramaydi. Biroq, u aksariyat hollarda axloqsizlikdir, shuning uchun axloqiylikni o'zlashtirilishiga ma'sul mexanizmlar agressiv impulslar ijtimoiylashuvi negizida ham yotadi. Ular agressivlikning ikki bir-birini inkor etmaydigan va birday maqbul tavsiflarini berganlar. Birinchisi, xulq-atvorning zoxiriy (tashqi) alomatlariga asoslanadi: "Agressivlik" - kimgadir ziyon yetkazuvchi xulq-atvorning har qanday ko'rinishidir. Ikkinchisi, odamning botini (niyatlari) bilan bog'liq, ya'ni insonni harakatga undovchi kuchlarni o'rganish bilan anglash mumkin bo'lgan holatlar bilan mushtarak: "Agressivlik - boshqa bir insonga ziyon yetkazishni maqsad qilib olgan har qanday xatti-harakat"lardir. Agressivlikning salbiy jihatlarini inkor etmagan holda agressivlikda "ma'lum ma'nodagi sog'lom jihatlar" ham mavjud bo'lishi, ular faol hayot kechirishi uchun asqotishi mumkinligini e'tirof etadi.

Agressivlik va agressivlik tushunchalarini bir-biridan ajratib tahlil qilish lozimdir. Agressivlik - bu odamlar guruhiga nisbatan jismoniy va ruhiy zarar yetkazishga qaratilgan individual yoki jamoaviy xatti-harakatlar majmui bo'lib hisoblanadi. Agressivlik-shaxsning nisbatan barqaror xususiyati bo'lib, u agressivlikka tayyorgarlikni ifodalash bilan birga dushmanlik asosida boshqalarning xulq-atvori, xatti-harakatini qabul qilish va tushunishga moyillikni bildiradi.

Agressivlik barqarorlik kuchi hamda shaxs tuzilishining bir qismi sifatida xulq-atvorning umumiy tendensiyasini oldindan aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Demak, agressivlik-bu jismoniy yoki ruhiy zarar yetkazishga yo'naltirilgan har qanday xulq-atvor shaklidir. Ushbu ta'rifda ta'kidlanishicha, agressivlik-bu emotsiya yoki motiv emas, balki xulq-atvor modelidir. Garchi agressivlik aksariyat hollarda haqoratlash yoki zarar yetkazishga intilish bilan bog'liq bo'lgan motivlar asosida hamda negativ emotsiyalar, jumladan, qahr, g'azab, tajanglik bilan bog'liq tarzda assotsiatsiya qilindi. Albatta,

yuqoridagi omillar agressiv xulq-atvorga ma'lum ma'noda katta ta'sir ko'rsatadi, lekin ularning mavjudligi bunday xulq-atvorni yuzaga kelishida zarur bo'lgan sharoit hisoblanmaydi.

Agressivlikning xilma-xil ta'riflari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- Boshqalarga xavf soluvchi yoki ziyon yetkazuvchi har qanday xulq-atvor agressivlik deb ataladi.

(Bass).

- Boshqalarni xafa qilish, ularga ziyon yetkazish niyati bo'lgan xatti-harakatlar agressivlik deb ataladi. (Berkovits).

- Boshqalarga jismoniy zarar yetkazish niyati bilan amalga oshirilgan harakatlar agressivlik deb ataladi. (Zilmann).

- Boshqa tirik mavjudotlarga ziyon yetkazishga qaratilgan, biroq o'ziga nisbatan qo'llanilishga qarshi bo'lgan har qanday xulq-atvor agressivlik deb ataladi. (R.Beron, D. Richardson).

Yuqorida keltirilgan agressivlik klassifikatsiyasi Bass psixologiyasida ham o'z aksini topganini ko'rishimiz mumkin. Biz bu zo'ravonliklarning barchasini destruktiv, jismoniy agressivlik yoki atayin boshqa birovga yo obyektga zarar yetkazish maqsadida amalga oshirilgan harakat deb ta'riflasak bo'ladi. Agressiv xulq-atvor: uzoq davom etuvchi yoki qisqa muddatli, juda tez sodir etiluvchi yoki o'zini boshqara oladigan darajalarda farqlanishi kuzatiladi.

Ochiq agressiv xulq-atvorda jabrlanuvchiga to'g'ridan-to'g'ri ochiq hujum qilinishi, jismoniy zarba orqali zarar yetkazish kuzatiladi. Yashirin agressivlik esa gap-so'zlar, mish-mishlar, aldov va yolg'onlar asosida ifodalanadi. Ko'p hollarda ochiq agressivlik yosh o'tishi bilan kuchsizlanib borsa, yashirin agressivlik esa aksincha kuchayib boradi. Ma'lumotlarga ko'ra agar inson bolaligida ochiq agressivlikni tez-tez kuchli namoyon etgan bo'lsa, u yoshi ulg'ayganda ham zo'ravonlik qilishi, jinoyatlarga qo'l urishi mumkin ekan. Ochiq agressivlik asosan emotsional holatlar jumladan, g'azab, qahr, jahl, his-hayajon bilan xarakterlanadi.

Yashirin agressivlikda kognitiv jarayonlarga keng ko'lamda mos keluvchi zo'ravonlik usullari. jumladan, dushmanlik qilish, makkorlik, no'noqlik xususiyatlarini qo'llash harakatlari kuzatiladi. Yashirin agressivlikda konfliktlarni hal etishda "kognitiv defitsitar" holat ya'ni dushmanlik ochiqdan-ochiq namoyon bo'lmaydi. Aksincha, buning o'rniga ular yaxshilab o'ylab, rejalashtirib, ma'qul keladigan yo'lni topadilar.

Agressivlikning ijtimoiy ma'qul va assotsial agressiv xulq-atvor turlari farqlanadi. Ijtimoiy ma'qul agressivlik turida frustratsiya va nizo natijasida kelib chiquvchi zo'riqish hamda havotirlanish ijtimoiy normalarga mos keluvchi harakatlar orqali hal qilinadi. Assotsial agressiv xulq-atvor normalarga zid bo'lgan (urishish, so'kish) harakatlarda namoyon bo'ladi. Agressiv xatti-harakat asosida agressivlik motivi yotadi. Agressiv xatti-harakatlar odamlarga ma'naviy, ruhiy, moddiy va jismoniy zarar yetkazadi. Agressivlik boshqa odamga bila turib zarar yetkazish demakdir.

Tadqiqot jarayonida o'smirlarda agressivlik hissi namoyon bo'lishi darajasining psixologik jihati bilan bir qatorda, ularning guruh va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ham inobatga olingan. Tadqiqotimizda o'smirlarda agressivlik namoyon bo'lishining psixologik omillariga ta'sir qiluvchi xususiyatlarni o'rganish uchun A.Asinger tomonidan ishlab chiqilgan "Agressiyani diagnostika qilish" so'rovnomasi, Bass-Darklarning "Agressivlikni aniqlash" so'rovnomasi, Frayburgning "Shaxs xususiyatlarini o'rganish" so'rovnomasi va Morasonova tomonidan ishlab chiqilgan "Emotsional holatlarda o'z-o'zini nazorat qilish" kabi so'rovnomalardan foydalandik. Bular o'rtasida parametrik va noparametrik mezonlar, faktorli tahlil va korrelyatsion aloqadorlik jihatlari ham aniqlandi. Quyida tadqiqot natijalari tahlili haqida so'z boradi.

1-jadval

Agressivlik hissi va emotsional holatlarda o'z-o'zini nazorat qilish so'rovnomasi natijalari

Shkalaning tarkibiy elementlari	shkalaning ortacha qiymati	shkalaning dispersiya qiymati	shkalaning korrelyatsiyasi	Shkalaning α -koeffitsiyenti
Agressivlik	37	39	0,45	0,42
Emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish	7	8	0,42	0,44
Faoliyatda o'zini nazorat qilish	8	9	0,48	0,49
Ijtimoiylashuvda o'zini nazorat qilish	6	7	0,39	0,41
Alpha (α) koeffitsiyenti				0,43

Agressiv xatti-harakatlarni o'rgangan tadqiqotchi A. Banduraning aniqlashicha, agressivlar quyidagicha bahonalar topadilar:

1. O'z agressivlik harakatlarini uning qurboni bo'lgan shaxsni kamchiliklari va salbiy qilmishlari bilan solishtirish asosida agressivlikni u yo'naltirilgan kishi qilmishlariga nisbatan unchalik dahshatli emasligini ko'rsatishga urinish;
2. O'z agressivligini qandaydir g'oyaviy, diniy, tasavvurlar orqasiga berkitish;
3. Sodir etilgan agressiv akt uchun o'z shaxsiy javobgarligini inkor etish;
4. Agressiv harakat boshqa odamlar bilan birgalikda sodir etilganligiga ro'kach qilib, mas'uliyatning bir qismini o'z bo'ynidan soqit qilish;
5. Agressiv xulq-atvor natijasida qurbon bo'lgan insonning shunday munosabatga mos odam bo'lganligini ta'kidlash;
6. O'z xatti-harakatlarini oqlovchi yangi-yangi dalillar, bahonalar qidirish.

Psixodiagnostikada metodikalarning ishonchliligi muhim hisoblanadi. Metodikaning ishonchliligi olingan natija qanchalik to'g'ri ekanligini ko'rsatadi. Har qanday metodikaning, testning ishonchliligini o'rganilayotgan psixologik xususiyatlarning ularda aks etishi nuqtayi nazaridan to'g'ri qo'llashni xarakterlaydigan ma'lumotlar majmui sifatida qaralmog'i kerak. So'rovnomaning ishonchlilik koeffitsiyentlari quyidagi shkalalarda o'z aksini topgan: agressivlik 37 natija bilan o'rtachani tashkil qilgan. Sinaluvchilar o'rtacha darajada agressivligi, lekin hayotda muvofaqqiyatli qadam tashlay olishi bilan xarakterlanadi. Ularda samimiy izzatlablik va ishonch ham borligi bilan belgilanadi.

Zigmund Freyd instinktlar to'g'risidagi nazariyasida, agressivlikning tug'ma, biologik tabiatga egaligini ta'kidlaydi. U har qanday agressivlik reaksiyasining namoyon bo'lishiga agressiv energiya, ya'ni ortiqcha bosimning "portlash" darajasiga yetib borishi ta'sir ko'rsatishini e'tirof etadi.

Shunday qilib, boshqa insonga qaratilgan agressiv harakat xuddi buzg'unchilik (energiya kuchini ozod qiluvchi) mexanizmga o'xshaydiki, harakatdagi insonning ichki psixologik tengligini (barqarorligini) saqlab qoladi. Z.Freyd agressiv energiyalardan xalos bo'lishda katarsis holat yordam berishi mumkinligini ta'kidlaydi. Katarsis real, normal holatlarda har xil kuch talab etuvchi o'yinlar (futbol, boks) yoki shu o'yinlarni tomosha qilish orqali agressiv energiyadan xalos bo'lishni ifodalaydi. Freydning fikricha, agressivlik kishilik tabiatining muqarrar holati, ya'ni inson nazoratida turmaydigan holatdir.



Dollard va uning izdoshlarini ta'kidlashicha, frustratsiya, deprivatsiya, g'azablangan, tahdid ostidagi odamlar o'zlarini agressiv tutadilar, chunki agressivlik bu tabiiy deyarli avtomatik reaksiya demakdir. "Frustratsiya-agressivlik" farazi o'zining soddaligi va muhim ahamiyatga egaligi bilan ko'plab izdoshlarga ega bo'ldi, shu o'rinda tanqidiy munosabatlarga ham uchradi. Psixologlarning ta'kidlashicha, faqatgina frustratsiya nimadan iborat ekanligini hal qilish emas, balki qanday o'lchov asosida aniqlanishini ham o'rganish muhimdir.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, agressivlik murakkab fenomen ekanligi, frustratsiya natijasida vujudga kelmasligi aniqlandi. Shuni alohida takidlash keraki, insonlar frustratsion holatdan har xil ta'sirlanadilar, ba'zi kishilar haqiqatdan agressivlik bilan javob qaytarsalar, boshqalar ta'ssurotning keng diapazonlarini namoyon qiladilar. Leonard Berkovitsning fikricha, frustratsiya holatida individda dastlab g'azab qo'zg'alib, so'ng uning oqibatida agressiv xulq-atvor yuzaga keladi. Qisqasini aytganda, frustratsiya agressiv harakatlarni namoyon bo'lishini osonlashtiradi. Xulq-atvor ochiq (jismoniy yoki verbal) yoki yashirin yopiq (birovning o'limini xohlash istagida bo'lish) holatda bo'lishi kuzatiladi. Agressiv harakatga faqatgina g'azab emas, balki agressiv hissiyotlar, og'riq yoki yoqimli holatlar ham ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi kunda o'smirlarda agressivlik namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlariga, agressiv xulq-atvori, shaxs xususiyatlari va emotsional holatlarda o'zini nazorat qilishi kabi psixologik omillar ta'sir qiladi. O'smirlarda agressiv va agressiv holatlarning ijtimoiy-psixologik determinantlari namoyon bo'lishining psixologik jihatlari ta'minlovchi sifatlar: emotsional holatlarda o'zini nazorat qila olish, optimistik kayfiyat, mulohazamandlik, empatiya, kirishimlilik va nazoratning kuchliligi kabi psixologik omillar agresivlikning oldini olishda asosiy faktorlarni tashkil etganligi aniqlandi. Muammoning fanlararo qisqacha tahlili shuni ko'rsatadiki, bu yerda taxminlarning tarqalishi mavjud, turli tarixiy davrlar va turli xalqlar orasida turlichadir. Biz agressiv xulq-atvor demografik jihatdan barqaror hodisa bo'lib, asosan individual ildizlarga ega ekanligini ko'ramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Ганжиев Ф.Ф., Қодирова М.Д. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilari ijtimoiy-psixologik moslashuvining oziga xos xususiyatlari. //Педагогик маҳорат. Илмий журнал. – Бухоро. 2020. №2. – Б. 109-111. (19.00.00. №7).
2. Ганжиев Ф.Ф., Тўлаев Ҳ.О. Researching the scope of the professional competence within activities. //International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. Impact Factor ICV = 6. 630 Philadelphia, USA. 2019. –Б. 388-391.
3. Ганжиев Ф.Ф., Қосимова С.Б. Heads Of Competence In Psychologically School Education. International journal of scientific & Technology research volume 9, issue. 2020. –Б. 2787-2789.
4. Ganjiev F.F. The basis of social and psychological adaptation of children in the conditions of preschool education. Bulletin of integrative psychology. Journal for psychologists, 59-64.
5. Begmatov R.O. Talabalarda tajovuzkorlik hissi namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari. Avtoreferat. Buxoro – 2023. Б. 3-41.
6. Ганжиев Ф.Ф. Особенности психологической защиты человека в экстремальной ситуации. Лазаревские чтения Лики традиционной культуры в, 2018. С. 117-118.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Ganjiev Feruz Furqatovich

Buxoro davlat universiteti professori,

Psixologiya fanlari doktori (DSc)

Manzil: O'zbekiston, Buxoro shahar

f.ganjiyev@mail.ru

BO'LG'USI O'QITUVCHILAR KASBIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOPING STRATEGIYANING AHAMIYATI



Pardaqulov Norbek

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya.

KIRISH: Mazkur maqolada bo'lg'usi o'qituvchilar (talabalar) kasbiy qobiliyatini rivojlantirish jarayonida koping strategiyaning ahamiyati borasidagi fikr mulohazalar tahlili keltirilgan.

MAQSAD: Bo'lg'usi o'qituvchilar kasbiy qobiliyatini rivojlantirishda koping strategiyaning ahamiyatini ilmiy tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: O'qituvchi faoliyatida yuzaga keladigan emotsional holatni barqarorlashtirish, psixik zo'riqishni nazorat qilish, shaxslararo munosabatlar doirasida hissiyotlarni boshqarish sohasida ko'pgina nazariy va amaliy tadqiqotlar bo'lishiga qaramay, ta'lim sohasini tizimli tashkil etish, dars mashg'ulotlarida samarali natijalarga erishish uchun bu borada izlanishlarni yanada kuchaytirishni taqozo etmoqda. Yuqori emotsional zo'riqishda bo'lgan pedagogning mehnat faoliyatida yaxshi natijalarga erishish extimoli ancha kam bo'layotganligi kuzatilmoqda.

XULOSA: Emotsional zo'riqishni boshqarish— stressni boshqarish metodi hisobdanadi. Ziddiyatli vaziyatlarda zo'riqish insonni emas, inson emotsional zo'riqishni boshqarishga intilishi lozim. Bunda emotsional zo'riqishni “Modellashtirish” lozim, ya'ni pedagogik faoliyatni boshlashdan oldin emotsional holatni keltirib chiqarish ehtimol qilingan vaziyatlar bilan avvaldan tanishib chiqish bilan bog'liq bo'ladi.

Kalit so'zlar: Kasbiy tayyorgarlik, kasbiy qobiliyat, ijodiy yo'nalganlik, qiziqish, aqliy jarayon, anglanganlik, pedagogik mahorat, koping strategiya, emotsional zo'riqish, yengib o'tish.

ЗНАЧЕНИЕ СТРАТЕГИИ СОВЛАДЕНИЯ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ

Пардакулов Норбек

Каршинский государственный университет, докторант

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье представлен анализ мнений о важности копинг-стратегий в процессе развития профессиональных качеств будущих учителей (студентов).

ЦЕЛЬ: Научно проанализировать значение копинг-стратегий в развитии профессиональных качеств будущих учителей.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Несмотря на наличие множества теоретических и практических исследований в области стабилизации эмоционального состояния, возникающего в трудовой деятельности учителя, контроля психологического стресса и управления эмоциями в межличностных отношениях, системная организация образовательной среды и достижение

эффективных результатов на уроках требуют дальнейших исследований в этой области. Отмечено, что вероятность достижения хороших результатов в работе учителя, находящегося в состоянии высокого эмоционального стресса, значительно ниже. Поэтому сегодня целесообразно применять необходимые психологические меры, чтобы учителя не попадали в эмоциональное напряжение. В сложных образовательных ситуациях целесообразно использовать следующие копинг-стратегии для создания устойчивого эмоционального состояния у учителей.

ВЫВОД: Управление эмоциональным стрессом рассматривается как метод борьбы со стрессом. В конфликтных ситуациях не стресс должен управлять человеком, а человек должен стремиться контролировать эмоциональное напряжение. В этом случае эмоциональное напряжение должно «моделироваться», то есть перед началом педагогической деятельности необходимо ознакомиться с ситуациями, которые с большой вероятностью могут вызвать эмоциональное состояние.

Ключевые слова: Профессиональная подготовка, профессиональные способности, творческая направленность, интерес, мыслительный процесс, осознанность, педагогическое мастерство, копинг-стратегия, эмоциональное напряжение, преодоление.

THE IMPORTANCE OF THE COPING STRATEGY IN DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS

Pardakulov Norbek

Karshi State University, basic doctoral student

Annatation.

INTRODUCTION: This article presents an analysis of opinions on the importance of coping strategies in the process of developing the professional skills of future teachers (students).

THE GOAL: To scientifically analyze the importance of coping strategies in the development of professional skills of future teachers

MATERIALS AND METHODS: Despite the fact that there are many theoretical and practical studies in the field of stabilizing the emotional state that occurs in the work of a teacher, controlling psychological stress, and managing emotions within interpersonal relationships, the systematic organization of the educational sphere and achieving effective results in lessons require further research in this area. It is observed that the probability of achieving good results in the work of a teacher who is in high emotional stress is much lower. Therefore, today it is advisable to apply the necessary psychological measures so that teachers do not fall into emotional stress. For complex educational situations, it is advisable to use the following coping strategies to create a stable emotional state in teachers.

CONCLUSION: Emotional stress management is considered a stress management method. In conflict situations, stress should not control a person, but a person should strive to control emotional stress. In this case, emotional stress should be “modeled”, that is, before starting pedagogical activities, it is necessary to familiarize yourself with situations that are likely to cause an emotional state.

Keywords: Professional training, professional abilities, creative orientation, interest, mental process, awareness, pedagogical skills, coping strategy, emotional stress, overcoming.

O'qituvchi faoliyatida yuzaga keladigan emotsional holatni barqarorlashtirish, psixik zo'riqishni nazorat qilish, shaxslararo munosabatlar doirasida hissiyotlarni boshqarish sohasida ko'pgina nazariy va amaliy tadqiqotlar bo'lishiga qaramay, ta'lim sohasini tizimli tashkil etish, dars mashg'ulotlarida samarali natijalarga erishish uchun bu borada izlanishlarni yanada kuchaytirishni taqozo etmoqda.



Yuqori emotsional zo'riqishda bo'lgan pedagogning mehnat faoliyatida yaxshi natijalarga erishish extimoli ancha kam bo'layotganligi kuzatilmoqda. Shu bois, bugungi kunda o'qituvchilarning emotsional zo'riqishga tushmasligi uchun zarur psixologik chora-tadbirlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Ta'lim-tarbiyaning murakkab vaziyatlari uchun o'qituvchilarda barqaror emotsional holatni yuzaga keltirishda quyidagi koping strategiya usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Emotsional zo'riqishni yengishga mo'ljallangan koping strategiya usullari 20-asrning ikkinchi yarmida psixologiya faniga kirib kelgan va undan samarali foydalanishga nisbatan ehtiyoj va zarurat shakllangan. Koping strategiyasi ingliz tilidan olingan bo'lib "cope, to cope" – yenga olish, bartaraf qilish degan ma'nolarni anglatadi. Ushbu terminni birinchi marta fanga P.A.Ivanov olib kirgan bo'lib, o'smirlardagi muammolarni yengish uchun tajriba-tadqiqotlarida qo'llagan.

Umuman olganda koping strategisi individning hayotiy muammolarini yechishga tayyorgarligi bilan xarakterlanadi. Ko'pchilik xorijlik mutaxassislarning fikriga tayanib shuni aytishimiz mumkinki, koping xulq-atvorning turli-tuman strategiya va uslublari mavjud bo'lib, insonlar ulardan hayotiy murakkab vaziyatlarga duch kelganlaridagina foydalanadilar. Hozirgi paytda koping xulq-atvorning rang-barang ko'plab klassifikatsiyalari mavjud bo'lib, u bir necha tadqiqot yo'nalishlariga qarab tahlil qilinadi.

Koping strategiya usullarini tadqiq etgan yetakchi mutaxassislardan biri P.A.Ivanovning fikricha, koping strategiyalarining ikkita global tipi (emotsional zo'riqishni bartaraf etish usuli) mavjud. Bu muammoga yondoshuv usuli va sub'ektiv mo'ljol olmoq usuli sifatida qaraladi. Muammoga mo'ljol oluvchi tip, qiyin vaziyatni ratsional hal qilishga yo'nalgan bo'lib, ularning xulq-atvorida holatni mustaqil tahlil qilishga, boshqalardan yordam olishga, qo'shimcha manbalardan ma'lumot izlashga nisbatan moyillik kuzatiladigan tipdir. Sub'ektiv mo'ljol oluvchi tipga kiruvchilar esa, emotsional zo'riqishni yengishda vaziyatni emotsional hal qiladilar, ularda aniq ishni bajarishga, muammo haqida o'ylashga mutlaqo xohish istaklari yo'q, ular o'zlarining qayg'ularini salbiy emotsiya vositalari bilan kompensatsiya qilib alkogol istemol qilish, uyqu, ovqat vositasida chiqaradilar. Ular o'zlarining emotsional balanslarini tiklashda passiv strategiyalardan jadalroq foydalanadilar, agar insonda vaziyat haqida hech qanday bilimi bo'lmasa yoki real imkoniyatlaridan foydalana olmasa zo'riqish pasayadi.

P.A.Ivanov koping strategiyaning maxsus adaptiv xulq-atvoriga tegishli beshta asosiy vazifalarini belgilab ko'rsatgan:

- 1) pedagogik faoliyat doirasidagi negativ holatga nisbatan ta'sirni kamaytirish va aktivlik faoliyat imkoniyatlarini yuksaltirish;
- 2) pedagogik faoliyat doirasida sodir bo'ladigan hayotiy vaziyatlarga qayg'urish;
- 3) pedagogik faoliyatida o'zini o'zi ijobiy, ko'tarinki qo'llab-quvvatlash va o'z kuchiga ishonitirish;
- 4) pedagogik faoliyatda emotsional jihatdan tenglikni qo'llab-quvvatlash;
- 5) maktab jamoasi bilan yetarlicha o'zaro yaqin munosabatlarni o'rnatish va saqlash [1].

Ushbu tadqiqot mualliflari hayotiy muammolarni nazorat qilish usulining kognitiv konstruktivlik roli bilan bog'langanini qayd etadilar. Shuningdek, ularning ta'kidlashicha, individda ichki va tashqi maqsadli talablarni boshqarishda kognitiv va axloqiy kuchlari doimiy ravishda o'zgarib-takomillashib turadi va bu orqali u o'zida yuqori baholangan resurslardan imkon qadar foydalanishga harakat qiladi. Bu esa quyidagilarni anglatadi: takrorlanmas vaziyatni talab qiladi, ular individni sinab ko'rishga undaydi, vaziyat talabidan individ resurslari yuksaladi, ular vaziyat taqazosi bilan kognitiv va axloqiy qiyoslashga kirishadilar. Ba'zi mualliflar buni aniqlashda faqatgina o'zlarining sinovlari haqida aytishlaricha, aynan shunday berk vaziyatlarda inson imkoniyatlari oshar ekan. Bu kuchlanish ba'zida omadli bo'lishi mumkin, ba'zida kutilgan natijani bermasligi ham mumkin. O'qituvchi hayotiy negativ vaziyatlarni bartaraf etishda o'z oldiga turli vazifalarni qo'yadi, yoki muammoni yengib chiqadi, yoki uning salbiy davomini kamaytiradi, yoki bu murakkablikdan qochadi, yoki shunchaki u mavjudligiga

qayg'uradi. Ma'lumki, "hayotiy muammolarni yengish" tushunchasining o'zi ham turlicha ahamiyat kasb etadi. Avvalo, bu doimiy o'zgaruvchi jarayon ekanligini hamma bilishi kerak.

Muammoli holatning samaradorligi bevosita uning tuzilish shartiga bog'liq. "Koping strategiya" tushunchasi jarayon resurslarini boshqarish sifatida ham keng tahlil qilinadi. Taxminlarga ko'ra, hayotiy murakkabliklarni bartaraf etish mohiyatan shaxs resurslarini safarbar etish orqali amalga oshiriladi. Emotsional zo'riqishni yengishda turli determinantli va samarador salmoqqa ega empirik materiallar olingan. Haqiqat barcha coping xulq-atvor doirasidagi ishlar chuqur empirik xarakterga tayanadi. Shunday qilib, P.A.Ivanov hamkasblari bilan birgalikda individning yoqimsiz hodisaga nisbatan javob reaksiyasini aniqlovchi "Enga olish qobiliyati" metodikasini ishlab chiqqanlar. Tadqiqot natijalarining faktorli analizida ham sakkizta o'zaro uzviy strategiyalarning bo'lishi ochiqqlangan:

Zo'riqishga qarshi turib yengish strategiyasi – o'zaro munosabatlardagi yoqimsiz va nafratlantiruvchi muammoli vaziyatni inson agressiv kuch vositasida yengishga harakat qiladi.

O'zaro munosabatda masofa saqlash strategiyasi – individ o'zidagi muammolarni ajratib olib, ular haqida unitishga harakat qiladi.

Emotsional zo'riqish vaqtida ichki o'z-o'zini nazorat qilish strategiyasi – shaxsiy hiss-tuyg'ulari va o'quvchilarga yondoshuvini nazorat qilishga urinishni qamrab oladi.

Dars jarayonida ijtimoiy ko'mak izlash strategiyasi – pedagog bor kuchini jamiyatdan axborot, moddiy va emotsional yordam topishga qaratadi.

Mashg'ulotlarda barcha javobgarlikni o'z zimmasiga olish strategiyasi – o'qituvchilik roli tufayli yuzaga kelgan muammo natijasini, avvalgi xatolarini qayta takrorlamaslikka harakat qilishni qamrab oladi.

Emotsional zo'riqishdan qochish strategiyasi – pedagog bor kuchini to'plab faoliyatidagi muammoli vaziyatdan ketib xalos bo'lishi.

Dars jarayonida muammoni rejali hal qilish strategiyasi – oqilona rejani tuzib chiqish va uni amalga oshirishdan iborat.

Qayta ijobiy baholash strategiyasi – dars va ish vaqtidagi qiyinchilikni bartaraf etishda, talqin qilishda pozitiv terminlardan foydalanish va uni inson tomonidan ijobiy qabul qilish [1].

Yuqorida keltirilgan sakkizta hayotiy murakkab vaziyatlarda foydalaniluvchi strategiyalar shaxsning mo'ljal olishiga ko'ra bir-biridan mutlaqo farqlanadi.

Bundan tashqari, pedagogik faoliyatda yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan emotsional zo'riqishni yengish uchun quyidagi metodlardan samarali foydalanish mumkin:

Keyingi vaqtda ortiqcha asab qo'zg'alishini kamaytirish uchun o'qituvchilar bo'sh vaqtlarida o'z-o'zini ishontirish mashg'ulotidan foydalanmoqdalar. Shulardan biri autogen mashqi hisoblanadi.

Autogen so'zi lotincha "auto"- o'zim, genno- "yarataman, erishaman" so'zlaridan olingan. U o'z-o'zini ishontirish mashqi bo'lib, ikkinchi signal tizimiga tayanadi, ma'lum so'zlar bilan pedagoglar o'zidagi ortiqcha asab qo'zg'alishlarini ya'ni emotsional zo'riqishni pasaytiradi. Aytiladigan so'zlar mushaklarni bo'shashtiradi, nafas olishni yengilashtiradi va boshqa fiziologik jarayonlarni meyorlashtirish imkoniyatini vujudga keltiradi.

Autogen mashqlarni bajarishdan maqsad pedagog-o'qituvchilarda nerv faoliyatini boshqara olishni o'rganishdir. G'azablangan insonning peshonasi tirishib, bo'yin va lablari taranglashishi, qo'llari musht holatga kelishi yoki barmoqlari tinimsiz harakatlanishi va qaltirashi kuzatiladi. Bunday vaziyatda inson muskullar tonusini kamaytirs, u bo'shashadi, natijada bosh miyada emotsional faollikning pasayishi haqida signallar paydo bo'ladi va bu bo'shashish bevosita javob reaksiyasi sifatida markaziy nerv sistemasiga tarqaladi, bu esa o'qituvchidagi ortiqcha zo'riqishlarning pasayishiga olib keladi.

Pedagoglar maxsus mashqlanish vaqtida o'zini ishontira oladi. Buning uchun avvalo metodika shartlarini bilib olib, uch-to'rt marta mashq qilishi lozim bo'ladi.

Autogen mashqlar quyidagi maqsadda qo'llaniladi:

1) Mashq yoki ish faoliyatidan keyingi jismoniy toliqishni yo'qotish yoki pasaytirish va faoliyat bilan shug'ullanish qobiliyatini tiklashda;

2) Ish vaqtidagi emotsional zo'r berish bilan bog'liq bo'lgan umumiy asab toliqishini yo'qotish yoki pasaytirishda;

3) Mehnat faoliyati paytida yoki yig'ilishlar oldidan vujudga keladigan ko'ngilsiz holatlarda haddan tashqari qo'zg'algan asab tizimini vazminlik holatiga tushirishda;

4) O'yqusizlik holati bilan kurashishda (uyg'oqlik va uxlash holatini me'yorlashtirishda).

O'zini ishonitirish metodining pedagogik faoliyatda qo'llanilishi qo'yidagi vazifalarni ta'minlaydi:

- ish faoliyatidan oldin olingan dam unumli bo'ladi;

- uyqusiz holati bilan kurashishga yordam beradi, ayniqsa, og'ir mehnat kunlari oldidan;

- emotsional zo'riqishning haddan tashqari oshib ketishiga yo'l qo'ymaydi;

- ish vaqtidagi hayajonlanish holatlarini kamaytirishga yordam beradi va boshqalar.

N. Bashankovskiyning aytishicha, bunday mashqlar o'qituvchilarning mehnat samaradorligini oshirishga katta yordam beradi. Ayniqsa pedagoglar o'zini ishonitirish qobiliyatiga ega bo'lish uchun u maxsus metodika bo'yicha 2-3 oy davomida autogen mashqlar bilan psixolog maslahatchi nazorati ostida shug'ullanishlari shart hisoblanadi.

Diqqatning konsentratsiyasi- fikrni bir joyga to'play olmaslik stress bilan bog'liq. Buning uchun xonada yolg'iz, stulga erkin o'tirgan holatda, osuda nafas olib quyidagi mashqni bajarish mumkin:

-diqqatni raqamlarga to'plash birdan o'ngacha bo'lgan raqamlarni asta-sekin sanab raqamlarga diqqat to'planadi;

-diqqatni so'zlarga to'plash ya'ni yoqimli hissiy kechinmalarni yuzaga keltiruvchi so'zlarni tanlab ularga diqqat to'planadi.

Mashqlar bir necha minut davomida bajarilgandan so'ng, kaft bilan yuzni silab, sekin ko'zlar ochiladi va fikrlar tarqoqligini yengganlik qayd etiladi.

Ingliz olimi Grem Uolles emotsional zo'riqishni yengishda va bartaraf etishda ijod jarayonining quyidagi to'rt bosqichini ajratib ko'rsatgan edi:

1. Tayyorgarlik- vazifani puxta rejalashtirish, muammoli vaziyatlarni yechishga harakat qilish.

2. Inkubatsiya- vazifadan vaqtincha chalg'ib turish.

3. Nogahon esga tushish- intuitiv yechimning paydo bo'lishi.

4. Nazorat- yechimni sinab ko'rish yoki amalga oshirish [4].

Ushbu to'rt savolga javob topish uchun o'qituvchilar muammoga daxldor bo'lgan barcha ma'lumotlarni yig'ishiga va ularni taqqoslab tahlil qilishiga to'g'ri keladi.

Pedagogik faoliyatga psixologik jixatdan tayyorlanishda ortiqcha emotsional ko'zg'alish jarayonlarini yengishga o'rganish lozim. Chunki ortiqcha asabiy qo'zg'alish ish jarayoniga yomon ta'sir etadi, ularning yaxshi natija ko'rsatishiga xalaqit beradi.

Polshalik psixolog S.Rotkevich taklif qilgan o'z-o'zini ishonitirish mashg'uloti chalg'ancha yotib yoki kresloda o'tirib bajariladi, chunki bunday holatlarda mushaklarning bo'shashtirish osonroq kechadi. Mashg'ulot faqat karavot yoki divanda o'tkazilmay balki ochiq xavoda ham o'tkazilishi o'qituvchilarda yanada yaxshiroq ta'sir etadi.

Faqat boshning tagiga yostiqlik yoki shunga o'xshash yumshoq narsa qo'yiladi. Qo'l bir oz bukilgan va qo'lning kafti pastga qaragan bo'ladi. Qo'l oyoqqa tegmaydi, oyoq to'g'ri uzatilgan bo'lib, oraliq i bir-biridan taxminan 20 smda joylashgan bo'lishi zarur. Shundan keyin oyoq mushaklari ham bo'shashtiriladi, oyoq-qo'lning mushaklari bo'shashtirgandan so'ng, ko'z yumiladi. Undan keyin amaliyotchi psixolog so'z orqalik mashg'ulot bilan shug'ullanuvchilarni tinch holatga olib keladi. Pedagoglar bilan bir qator psixotrening mashg'ulotlarini olib borish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, mushaklarni bo'shashtirish mashqi, issiq nafasni xis qilish, yurak faoliyatini tartibga solish, nafas olishni tartibga solish, qorin bo'shlig'ida (diafragma) issiqni xis qilish, mushaklarni bo'shashtirish mashqi [2].

Koping strategiyalar – stressni yengishga xos psixologik metodlar bo‘lib, u ikki guruhga ajratiladi:

Emotsional focused koping- sub’ektga nisbatan bo‘lgan ob’ektiv ta’sir avvalo uning emotsional olami orqali kechadi. Bunga nisbatan shaxsda emotsional o‘zgarishlar paydo bo‘ladi. Ta’sirning ijobiy yoki salbiy ekanligiga bog‘liq ravishda javob reaksiyasi ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin. Bunga asosan shaxsda emotsional zo‘riqish paydo bo‘ladi. K.V.Sudakov [3] talqiniga asosan, emotsional zo‘riqish hayot uchun zarur bo‘lgan biologik va ijtimoiy-psixologik ehtiyojlarni amalga oshirish jarayonida biror ijobiy natijaga erisha olmagan vaqtda kuchayadi. Emotsional fossed koping- zo‘riqish vaziyatlarda sub’ektda kechayotgan emotsional reksiyaning nazorat qilish imkonini beradi. Emotsional fossed koping – metodi shaxs zo‘riqishni o‘zgartira olmaganida qo‘llanadi. Ular o‘z navbatida quyidagi ikki ko‘rinishdan iborat:

a) asabiy tarang vaziyatlarga nisbatan emotsional reaksiyaning nazorat qilishning bixevioral yo‘li – emotsional zo‘riqish holatida sub’ektning xulq-atvorini ijobiy tomonga o‘zgartirish bilan bog‘liq bo‘lib, buning asosini chalg‘ituvchi faoliyatga yo‘naltirish usuli tashkil etadi. Bunga quyidagilar misol bo‘ladi: hamkasblar davrasida bo‘lish, pedagogning bo‘sh vaqtida sport bilan shug‘ullanishi, bog‘ qo‘ynida sayr qilib orom olish, do‘stlar davrasi, qiziqarli kitob o‘qish va boshqalar;

b) emotsional zo‘riqish vaziyatlariga nisbatan emotsional reksiyaning nazorat qilishning kognitiv yo‘li bo‘lib, unda shaxs o‘z emotsional zo‘riqish holatiga ongli munosabat bildirgan holda vaziyatga ijobiy nuqtai-nazardan yondashishi lozim. Buning natijasida o‘qituvchini keskinlashtiruvchi salbiy fikrlar emas, aksincha vaziyatdan chiqish uchun ijobiy fikrlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir;

Emotsional zo‘riqishni kamaytirish metodi– asabiy qo‘zg‘alish vaziyatida stressorlar ta’sirini kamaytirish orqali amalga oshiriladi. Ushbu metodning quyidagi usullari farqlanadi:

- ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash usuli – yaqinlar va jamoaning ko‘magiga tayanish;
- o‘z ustida shaxsiy nazoratni kuchaytirish usuli- psixik toliqish vaziyatida mustaqil bo‘lish, yangi ijobiy g‘oyalar yaratishga asoslanish;
- stressogen vaziyatlarga tayyorgarlik ko‘rish usuli – avvalgi faoliyat natijalariga tayanib stressogen vaziyatga to‘g‘ri baho berishga intilish.

Emotsional zo‘riqishga qarshilik qilish– kundalik faoliyatni reja asosida tashkil qilish va unga qat’iy amal qilish bilan bog‘liq, masalan, to‘g‘ri uyqu va dam olish, jismoniy mashg‘ulotlarni belgilangan tartibda amalga oshirish, to‘g‘ri ovqatlanish qoidalari.

Emotsional zo‘riqishni boshqarish– stressni boshqarish metodi hisobdanadi. Ziddiyatli vaziyatlarda zo‘riqish insonni emas, inson emotsional zo‘riqishni boshqarishga intilishi lozim. Bunda emotsional zo‘riqishni “Modellashtirish” lozim, ya’ni pedagogik faoliyatni boshlashdan oldin emotsional holatni keltirib chiqarish ehtimol qilingan vaziyatlar bilan avvaldan tanishib chiqish bilan bog‘liq bo‘ladi.

Yuqoridagi mulohazalardan ma’lumki, emotsional zo‘riqish vaziyatlarida paydo bo‘ladigan salbiy emotsional holatlarni yengib o‘tish va tezda bartaraf etish uchun koping strategiya usullaridan foydalanish beqiyos hisoblanadi. Mazkur mashqlardan o‘qituvchilarning o‘rinli foydalanishi keyingi mehnat faoliyatlariga yaxshi tayyorlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Иванов П.А. Стратегии совладания у лиц, совершивших правонарушение на фоне длительного стресса // Психологическая наука и образование. 2008. № 5. С. 155-163.



2. Ручкин В.В. Социальная адаптация личности: Психодиагностика и коррекция. – Санкт-Петербург: Реч, 2015. – 280 с.
3. Судаков К.В., Умрюхин П.Е. Системные основы эмоционального стресса. - М.: ГЭОТАР-Медиа, 2010. -112 с.
4. Уоллес Г. Искусство мысли. – Нью-Йорк, 1926.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Pardaqulov Norbek

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

Manzil: O'zbekiston, Qarshi shahar.

ОЛИЙ ТИББИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАСИ ТАЛАБАЛАРИ ҲИССИЙ-КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ



Джамалдинова Шахло Облобердиевна
Самарқанд давлат тиббиёт университети

Аннотация

КИРИШ. Ушбу мақолада компетенциявий ёндашув асосида олий тиббий таълим талабаларида ҳиссий-коммуникатив компетенцияларни ривожлантириш назарда тутилган. Мавзу доирасининг бундай қамровда танлаб олинишига олий тиббий таълим муассасалари талабаларининг ривожланганлик даражаси, таълим берувчининг мақсади ва талабаларнинг кутилмалари, ташқи ижтимоий муҳит (вақт, физиологик установка ва русурслар), психологик-педагогик мулоқотга асосланган нозик касбий йўналганлик каби қатор омиллар таъсир кўрсатади. Коммуникатив компетенция бўлажак тиббиёт ходимларининг фуқаролик маданияти, ахлоқий фазилатларининг бир кўриниши сифатида мавжуд жараённинг моҳияти ва шахсни ривожлантириш хусусиятларини очиб берувчи долзарб муаммо саналади.

МАҚСАД: Олий тиббий таълим талабаларида ҳиссий-коммуникатив компетенцияларни ривожлантириш масаласини назарий-методологик нуқтаи назардан аниқлаштириш, коммуникативлик ва коммуникатив компетенция атамаларининг чегараларини аниқлаш ва тиббиёт таълими контекстида уларни илмий таҳлиллаш, ҳиссий интеллектнинг турли назарий ёндашувларини ва уларнинг коммуникация билан боғланишини тизимлаштириш, муаммони илмий ва амалий талқинда ифодалаш ҳамда ечимга олиб борувчи методик йўналишларни белгилаш бўйича хулосалар ёритилган.

МАТЕРИАЛЛАР ВА МЕТОДЛАР: Компетентлик ва компетенция категорияларининг тузилмасини ўрганиш жараёнида бир нечта йўналишларни ажратиш кўрсатиш мумкин. Кўпгина муаллифлар фаолиятли ёндашувни истикболли деб баҳолайдилар, шунингдек улар компетентликни касбий фаолиятда намоён бўлади ва шу билан бир қаторда унинг асоси ҳам, деб ҳисоблайдилар. Бундай ҳолатда компетентлик жараённинг аниқ доирасида самарали ҳаракатни юзага келтириш учун зарур бўлган ички ресурслар тизими сифатида тушунилади.

ХУЛОСА: Умуман олганда, коммуникативликнинг трансмиссиявий, интерактив, транзаксион моделлари таълим иштирокчиси учун эмоционал интеллектни, маданиятлараро коммуникативликни, коммуникатив компетенцияларни ривожлантириш учун методологик асос бўлиб хизмат қилади.

Калит сўзлари: олий тиббий таълим, ҳиссий-коммуникатив компетенция, назарий-методология, касбий фаолият, тиббиёт ходими, компетентлик, касбий билим, кўникма ва малакалар, касбий психологик хусусиятлар.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНО-КОММУНИКАТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ МЕДИЦИНСКИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Джамалдинова Шахло Облобердиевна

Самаркандский государственный медицинский университет

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ. В данной статье рассматривается развитие эмоционально-коммуникативных компетенций у студентов высших медицинских учебных заведений посредством развития эмоционального интеллекта на основе компетентностного подхода. Выбор тематики в рамках данного исследования обусловлен рядом факторов, таких как уровень развития студентов высших медицинских учебных заведений, цели педагога и ожидания студентов, внешняя социальная среда (время, физиологические условия и ресурсы), а также тонкая профессиональная направленность, основанная на психолого-педагогическом общении.

ЦЕЛЬ. Теоретико-методологическое раскрытие вопроса о развитии эмоционально-коммуникативных компетенций у студентов высших медицинских вузов, определение границ понятий «коммуникация» и «коммуникативная компетентность» и их научный анализ в контексте медицинского образования.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В процессе изучения структуры категорий «компетенция» и «компетентность» можно выделить несколько направлений. Авторы же считают перспективным деятельностный подход, рассматривая компетентность как проявление в профессиональной деятельности и одновременно как ее основу. В данном случае под компетенцией понимается система трудовых ресурсов, необходимых для осуществления эффективных действий в рамках определённого процесса.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: В целом, трансмиссионные, интерактивные, транзакционные модели коммуникации служат методологической основой развития эмоционального интеллекта, межкультурной коммуникации и коммуникативных компетенций субъекта образовательного процесса.

Ключевые слова: высшее медицинское образование, эмоционально-коммуникативная компетентность, теоретико-методологическое обеспечение, профессиональная деятельность, медицинский работник, компетентность, профессиональные знания, умения и навыки, профессионально-психологические характеристики.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING EMOTIONAL AND COMMUNICATIVE COMPETENCIES IN STUDENTS OF HIGHER MEDICAL EDUCATION INSTITUTIONS

Shakhlo Obloberdievna Djamaldinova

Samarkand State Medical University

Annatation.

INTRODUCTION. This article examines the development of emotional and communicative competencies in medical students through the development of emotional intelligence based on a competency-based approach. The choice of topic for this study was determined by a number of factors, including the developmental level of medical students, teacher goals and student expectations, the external social environment (time, physiological conditions, and resources), and a nuanced professional focus based on psychological and pedagogical communication. Communicative competence is considered a pressing issue, revealing the essence of the modern process and the specific features of

personal development as a manifestation of civic culture and the moral qualities of future medical professionals.

THE GOAL: To provide a theoretical and methodological understanding of the development of emotional and communicative competencies in medical students, defining the boundaries of the concepts of "communication" and "communicative competence," and analyzing them scientifically in the context of medical education. To systematize various theoretical approaches to emotional intelligence and their relationship with communication. Conclusions are drawn regarding the scientific and practical interpretation of the problem and the identification of methodological directions leading to its solution.


MATERIALS AND METHODS: In studying the structure of the categories of "competence" and "competence," several approaches can be identified. The authors believe that an activity-based approach is promising, viewing competence as both a manifestation in professional activity and its foundation. In this case, competence is understood as a system of human resources necessary for the implementation of effective actions within a specific process.

CONCLUSION: In general, transmission, interactive, and transactional communication models serve as a methodological basis for developing emotional intelligence, intercultural communication, and communicative competencies in educational settings.

Keywords: higher medical education, emotional and communicative competence, theoretical and methodological support, professional activity, healthcare professional, competence, professional knowledge, skills, and abilities, professional and psychological characteristics.

Миллий педагогикада олиб борилган коммуникативликка доир тадқиқотлар таҳлил қилинганда, XXI аср бошларига келиб, нисбатан аниқ ёндашувлар тақдим қилинганининг гувоҳи бўлиш мумкин. Тадқиқот доирасида кўрилатган бўлажак мутахассисларда коммуникация ва коммуникатив компетенцияларни ривожлантириш бўйича концепциялар таҳлилидан келиб чиқиб, бу икки тушунчага нисбатан баъзи ҳолларда бир хил атама сифатида, баъзан эса ажратиб ёки уйғунликда ишлатилаётган мулоқот тушунча эканлигини таъкидлаш ҳолатлари кузатилади. **Коммуникация** (лот. *communication* – умумлаштираман, боғлайман) педагогикада – ахборотларни алмашиш жараёни; фикр алмашув, алоқа. Ижтимоий нуқтайи назардан ёндашиладиган коммуникация гуруҳ, ташкилот ёки таълим муассасаси, бутун жамоа ичидаги алоҳида шахслар ўртасида ахборот алмашиш жараёнини ўз ичига олади. Коммуникативлик – педагогик тизимнинг ташқи муҳит ва бошқа тизимлар билан ўзаро таъсир етиш хусусиятларига ега эканлиги. Коммуникативлик доирасидаги тадқиқотлар таҳлил қилинганда, кўпроқ хорижий социологик тадқиқотларда унинг мамлакатлараро ривожлантирувчи тушунча сифатидаги ижтимоий-сиёсий аҳамияти ҳам кенг ўрганилганлигининг гувоҳи бўлиш мумкин. Дарҳақиқат, таълим сифати мамлакат ижтимоий-иқтисодий тараққиётининг мавжуд ва келгуси эҳтиёжларига унинг тизимига нисбатан мутаносиблик даражаси билан белгиланади. Ушбу жараённинг юзага чиқишини эса инсон омилсиз тасаввур қилиб бўлмайди.

Демак, коммуникативлик – кишиларнинг бир-бири билан самарали мулоқот қилиш кўникмалари йиғиндиси бўлиб, таълим, соғлиқни сақлаш, иқтисодиёт каби кўплаб соҳаларда жуда муҳим аҳамиятга эга. Шифокорлар учун коммуникативликнинг касбий йўналитирилганлиги сабабли бу жараённинг меъёрий натижаси олий тиббий таълимда ўқишнинг бутун даври мобайнида юзага чиқадиган нафақат касбий, балки ҳиссий-коммуникатив компетенцияларни ривожлантиришни назарда тутди. Хусусан, бўлажак мутахассисларда коммуникативликни ривожлантириш бўйича хорижий концепсиялар ўрганилганда, турли моделлар ишлаб чиқилганлиги, назарий ва амалий ёндашувлар мавжудлигига гувоҳ бўлинди. Улардан бугунги кунгача ҳам тадқиқ қилинаётган учта муҳим **моделга** диққат қаратишни лозим кўрдик (1-расм)



1-расм. Коммуникативликни ривожлантиришга доир назарий ёндашувлар

Коммуникатив жараёни ва шахсдаги коммуникатив компетенцияларни аниқлаш ҳамда яратишга доир ҳар қандай ёндашувлар унинг моҳиятини тўлиқ ифодаламаса-да, коммуникативликнинг трансмиссиявий, интерактив, транзакцион моделлари алоқа тўқнашувларининг турли томонларини визуал тасвирлаш воситасида жараёни соддалаштиради ва жараёнда юзага келадиган муайян тушунчалар ҳамда қадамларни тушунишга, уларни мавжуд вазиятлар учун танлашга имкон беради.

Шахснинг ривожланиши у яшаб турган муҳитдаги ижтимоий, маданий ва тарихий контекстда юзага чиқади. Бунда ҳар бир индивидуал субъект билимларини қуришда унинг ижтимоий муҳит билан интерактив муносабати муҳим рол ўйнайди. Фаол иштирокчи интеллектуал инновацион жараёни ўзида мужассамлаштиради. Таълим иштирокчиларнинг интеллектини ёки интеллектуал салоҳиятини ривожлантириш борасида бир қатор ёндашувлар мавжудлигига қарамасдан, бу жараён ҳамон долзарб педагогик муаммо сифатида ўз ечимини қутмоқда. Олий тиббий таълим мисолида таҳлил қилинадиган бўлса, маълумки, айнан таълим жараёнида талабанинг ўз-ўзини бошқариш ва ривожлантириш, дунёқарашини кенгайтириш имконияти вужудга келади. Таълим жараёнини ташкил этиш, таълим воситаларини аниқлаш, уларни такомиллаштириш йўллариини белгилаб бериш, ўқув жараёнида талабаларнинг ўзига хослигини ҳисобга олиш, шахснинг интеллектуал тараққиёти фаолиятнинг янги турларига асос бўлиши каби муаммолар бир қатор педагог ва психологлар томонидан тадқиқ этилган.

Педагогика соҳасида таълим олувчининг интеллектуал салоҳиятини ривожлантиришнинг асосий шакли таълим муҳитидаги тарбия, қобилиятларни ривожлантиришга қаратилган қадриятлардир. Инсоният тафаккури ва амалиёти тарихидаги адабий категориялардан бири бўлмиш тарбия ҳамиша жамиятдаги етакчи ахлоқий қадриятлар билан уларнинг одамлар томонидан бажарилиши ўртасидаги мувозанатни таъминлашга йўналтирилиб келинади. Шахснинг ривожланиши ва шаклланишига таъсир нуқтайи назаридан тарбия – доимо мақсадга йўналтирилган бўлиб, биринчи навбатда, аниқ мақсадга қаратилган жамиятнинг фаолиятидир. Бунда жамият ўзида мавжуд бўлган барча имконият ҳамда воситалардан фойдаланади. “Ҳозирда замон муаммоларини ҳал этиш учун билимнинг ўзи етарли эмаслиги, бугун таълим муассасаларида шакллантирилаётган шахслар воқеликка ижодий назар билан қарай билиши, қуюшқонлардан ташқарида фикрлай олиши муҳимлиги, ҳуллас, тарбияланувчиларда кучли шахслик сифатларининг ҳосил қилиниши янги педагогик фикр учун биринчи даражали аҳамиятга эгадир”. Интеллектуал жиҳатдан ривожланиш талабаларда мавжуд бўлган лаёқатларнинг намоён бўлишига асосланади. Таълимда иштирокчининг ижодий-коммуникатив



қобилиятларини ривожлантириш, ижодкор, ёрқин фикр юритувчи, ҳиссий интеллектуал жиҳатдан ривожланган, ёш авлодни тарбиялаш муаммоси алоҳида долзарблик касб этади. Чунки ёшларнинг ўз имконият ва қобилиятларини, билим ва интеллектуал салоҳиятларини тўлиқ намоён этишлари ҳамда улардан ижтимоий ҳаётда ўринли фойдаланишлари учун таълим тизимининг асосий бўғини ҳисобланган олий таълим муассасасининг ҳар бир битирувчиси, ўзининг келажак фаолиятини тўғри танлай олиши ва келгуси таълим йўлини белгилаши лозим.

Эмоция, одатда, инсоннинг фикри ва хатти-ҳаракатларига таъсир қиладиган, жисмоний ва психологик ўзгаришларга олиб келадиган мураккаб жараён сифатида таърифланади. Улар инсон ҳаётининг кўп жабҳаларида ҳукмронлик қилади, чунки шахс омон қолиш ва/ёки фаровонликни сақлаш билан боғлиқ муҳим воқеаларни тан олиши ва уларга жавоб бериши керак, шунинг учун ҳам эмоциялар турли функцияларни бажаради. Умуман олганда, тадқиқотлар ҳиссий интеллект инсон ҳаётининг кўплаб соҳаларида муҳим рол ўйнашини кўрсатди. Тадқиқотчилар ҳиссий интеллект IQ га тенг, баъзан еса ундан ҳам муҳимроқ эканлигини аниқладилар. Бу борадаги изланишлар эса эмоция ва ақл бир-бири билан чамбарчас боғланганини кўрсатади. Ушбу тушунчани педагогик нуқтайи назардан талқин қилиш, олий таълимда касбий тайёргарлик жараёни билан уйғунлаштириш, шубҳасиз, ҳиссий интеллект доирасидаги тадқиқотларни тўлдиради.

Жамиятда инсонлар билан мулоқотга киришиш бу нафақат сўзлашиш, балки ҳаётнинг барча жабҳаларида мақсадларга эришиш воситаси ҳамдир. Бу фикрни аниқлаштириш учун айтиш мумкинки, тил қурилмаларини ёдлаш, ёки сўзлардан гаплар ясаш, қандайдир тушунчаларни қўллаб кўриш орқали эришилмайди. Демак, шахсда лингвистик кўникмалар билан биргаликда ҳиссий коммуникатив компетенцияни ривожлантириш зарур бўлади, чунки самарали мулоқот ўқиш, ёзиш, таълим олиш, ўз-ўзини ҳурмат қилиш, катталар ролини ўйнаш, оила ва жамият ҳаётида фаол иштирок этиш, дўстликни ривожлантириш, шахсий мақсадларига эришиш, ўз ўрнига эга бўлиш, иш топиш, оиласи ва ўз жамоасига ҳисса қўшиш, индивидуаллигини намоён қилиш стратегиялари, техника ва технологиялари натижасида юзага чиқади.

Ҳиссий компетенция, ҳиссий-коммуникатив компетенцияларнинг шаклланиши учун маълум бир босқич вазифасини ўтаган ва ҳозирда ҳам пойдевор сифатида хизмат қилувчи интеллект, компетенция, қобилият ёки хусусият, деб номланувчи қуйидаги моделлар: Mayer ва Salovee'нинг қобилият модели; Bar-On хусусият модели; Goleman хусусият модели; Petrides ва Furnham хусусият модели; Sxereng'нинг ҳиссий компетенция модели муҳим аҳамиятга эга. Замонавий ноаниқлик, ўзгарувчанлик ва можароларнинг кучайиши шароитида инсонга жамиятда муваффақиятли ишлашга, ўзини ўзи тушунишга, ўз ҳолатини тартибга солишга, фаолият ва мулоқот субъекти бўлишга ёрдам берадиган машҳур мета-сифатларни ривожлантириш муҳим бўлиб қолмоқда. Ҳозирда ўз-ўзини тарбияловчи кўникмалар иш берувчилар томонидан қиймат сифатида баҳоланадиган фазилатлар қаторига киради ва университет ўқитувчилари уларни талабаларда ривожлантириш зарурлигини тушунишади. Дунёда бу олий таълимнинг касбий ва таълим стандартларида ҳам ўз аксини топган. Умуман олганда, ҳиссий компетенция, ҳиссий-коммуникатив компетенция юмшоқ кўникмалар сифатида жамият ривожланишининг муҳим омили саналади.

Шифокорлик касби нафақат тиббий диагностика муаммолари, балки бундай тиббий муаммоларни ҳал қилишда зарур бўлган ва, умуман, инсоннинг ҳаёт сифатига сезиларли таъсир кўрсатадиган шахсий ва оилавий муаммоли вазиятларда ўзаро тушунишга эриши учун беморлар, уларнинг қариндошлари ва бошқа яқинлари билан самарали мулоқот техникаси ҳамда усуллари мукамал ўрганишни талаб қиладиган касблардан биридир. Айни вақтда тиббиётдаги замонавий парадигмалар нуқтайи назаридан, беморнинг ҳуқуқларига кўпроқ эътибор қаратилмоқда. Бу ҳолат эса ўз-ўзидан шифокор ва бемор ўртасидаги муносабатларнинг

мазмунини янгича талқинда яратишга ва тушунишга олиб келди. Бизнинг тадқиқотларимизда ҳиссий ва коммуникатив компетенция бўлажак шифокорнинг шахсий ресурси сифатида тақдим этилади, у профессионал мулоқот жараёнида ўз ҳис-туйғулари ва уларини бошқариш, коммуникаторларнинг ҳис-туйғулари ва уларнинг ҳис-туйғуларини тушуниш ҳамда даволаш жараёнида конструктив мазмунни қуришда ҳисобга олиш қобилиятида намоён бўлади.

Тадқиқот ишимиз доирасида тажриба-синов ишларининг мақсади сифатида олий тиббий таълим муассасаси талабаларининг ҳиссий-коммуникатив компетенцияларини ривожлантиришга қаратилган методик такомиллаштириш, уни амалиётда синаб кўриш ва самарадорлигини аниқлаш белгиланди. Бу жараёнда, хусусан, талабаларнинг касбий идентификацияга эга бўлишида, профессионал шахс сифатида шаклланишида ҳиссий сезгирлик, эмпатия, коммуникатив маданият ва психологик мослашувчанлик каби жиҳатларни ривожлантиришга йўналтирилган методлар қўлланилди. Тажриба-синов ишларининг методологик асослари психологик-педагогик тадқиқот мезонларига таяниб қурилди. Тадқиқотда сўровномалар, давра суҳбатлари, маъруза ва амалий машғулотлар, семинар-тренинглар, клиник амалиётга яқинлаштирилган симуляцион сценарийлар, маҳорат дарслари ва рефлексив тренинглар каби шакллардан фойдаланилди.

Тажриба-синов ишларини ўтказиш учун майдончалар сифатида Самарқанд давлат тиббиёт университети, Тошкент тиббиёт академияси Термиз филиали, Бухоро давлат тиббиёт институти танлаб олинди ва бунда тажриба гуруҳида 266 нафар, назорат гуруҳида 254 нафар, жами 520 нафар талаба қатнашди.

Тажриба-синов ишлари мазмуни қуйидаги шакл ва методлар асосида ташкил этилди:

сўровномалар – талабалар орасида тузилган аниқ, босқичма-босқич саволлар орқали ҳиссий-интеллектуал тайёргарлик, ўз-ўзини таҳлил қилишга мойиллик, қарор қабул қилишда ҳиссий ёндашув ва касбий кадриятларни аниқлаш мақсадида ўтказилди.


график ва диаграммалар таҳлили – 520 нафарга яқин респондентларнинг жавоблари умумий фоизда таҳлил қилиниб, улар асосида ҳиссий-коммуникатив ҳолатларнинг аҳамияти ва ривожланиш даражаси аниқлаштирилди.

интроспектив ёндашув – талабаларнинг ўз ҳолатини англаш, рефлексив саволлар орқали ўзгаришлар мониторинги олиб борилди.

кўрсаткичлар ва индикаторлар асосидаги баҳолаш – респондентларнинг танлаган жавоблари бўйича уларнинг ҳиссий етуклик даражаси, масъулияти ва касбий кадриятларни идрок этиши тизимли тарзда баҳоланди.

Маълумки, тажриба-синов ишларига оид кўпгина илмий адабиётларда педагогик муаммо ечимининг асосий мезони сифатида мавжуд ҳар қандай ҳолатдан ижобийликка эришиш қабул қилинган. Шу нуқтайи назардан талабаларнинг ҳиссий-коммуникатив компетенцияларини ривожлантириш методикасини татбиқ қилиш самарадорлигини аниқлашнинг қуйидаги мезонларини белгиладик:

- мулоқотни англаш ва қарор қабул қилиш этикасини эгаллаш (когнитив-эмпатик компонент);
- ўз-ўзини доимий кузатиш ва хатоларини тузатиб бориш (метакогнитив-рефлексив компонент);
- ўзлаштирганларини ўқув жараёнида қўллаши (дидактик-интерактив компонент);
- ҳиссий-коммуникатив компетенциянинг ривожланганлиги, жонли мулоқот маҳорати (эмоционал – коммуникатив компонент).



2-расм. Умумий ўзлаштириш кўрсаткичларининг график кўриниши

Бундан маълумки, тажриба гуруҳи кўрсаткичлари назорат гуруҳидагилардан юқори экан.

Умуман олганда, коммуникативликнинг трансмиссиявий, интерактив, транзакцион моделлари таълим иштирокчиси учун эмоционал интелектни, маданиятлараро коммуникативликни, коммуникатив компетенцияларни ривожлантириш учун методологик асос бўлиб хизмат қилади. Тадқиқотимиз доирасида компетенциявий ёндашув асосида олий тиббий таълим талабаларида ҳиссий-коммуникатив компетенцияларни ҳиссий интелект воситасида ривожлантириш назарда тутилган. Мавзу доирасининг бундай қамровда танлаб олинishiга олий тиббий таълим муассасалари талабаларининг ривожланганлик даражаси, таълим берувчининг мақсади ва талабаларнинг кутилмалари, ташқи ижтимоий муҳит (вақт, физиологик установка ва ресурслар), психологик-педагогик мулоқотга асосланган нозик касбий йўналганлик каби қатор омиллар таъсир кўрсатади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni. – QHMMB, 29.01.2022. 06/22/60/0082-son.
2. Йулбарсова Х.А. Интеграция ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларнинг коммуникатив компетентлигини шакллантириш технологияси: ped. fan... (PhD) diss. – Namangan, 2019. – 211 b.
3. Умаров Б.Н. Инновацион ёндашув асосида ўқувчиларнинг коммуникатив компетентлигини ривожлантириш (10-11-синфлар мисолида): ped. fan... (PhD) diss. – Термиз, 2021. -148 b.
4. Якобсон, Роман Осипович (1896-1982). Избранные работы Пер. с англ., нем., фр. яз. / Роман Якобсон; Предисл. В. В. Иванова, с. 5-29; Сост. и общ. ред. В. А. Звегинцева. – Москва : Прогресс, 1985. – 455 с.
5. Chandler, Daniel; Munday, Rod (10 February 2011). Shannon and Weaver's model. / [A Dictionary of Media and Communication](#). OUP Oxford. ISBN 978-0-19-956875-8.
6. Ellis, R., & McClintock, A. If you take my meaning: Of theory into practice in human communication. 2nd ed. / London; New York: E. Arnold: Distributed in the USA by Routledge, Chapman and Hall, 1994.
7. Advanced Professional Communication / Melissa Ashman, Arley Cruthers. eCampus Ontario, Ontario Business Faculty, and University of Minnesota. – 710 p.
8. <https://learn.saylor.org/mod/page/view.php?id=27759>.



9. Torjus Midtgarden Communication as transmission and as ritual: Dewey's relevance for a cultural approach in communication studies Contemporary Pragmatism 18 (2021): Issue 2: 113–133.

10. Schramm, W. (1997). The Beginnings of Communication Study in America: A Personal Memoir. Thousand Oaks, CA: Sage.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna,

Pedagogika fanlari falasafa doktori (PhD), dotsent

Manzil: O'zbekiston, 140110, Samarqand shahri

Dajamaldinovashaxlo@mail.ru

<https://orcid.org/0000-0001-6699-3752>

MOBBING VA KIBERBULLING: ZAMONAVIY TA'LIM MUASSASALARIDA YANGI TAHDIDLAR



Azizova Dinara Rahmiddin qizi
Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya.

KIRISH: So'nggi yillarda ta'lim jarayonining samaradorligi nafaqat bilim sifati, balki psixologik muhit bilan ham chambarchas bog'liq ekanligi alohida ta'kidlanmoqda. Ta'lim muassasalarida sog'lom muhitning buzilishiga olib keluvchi psixologik tahdidlar orasida mobbing va kiberbulling eng ko'p uchraydigan hodisalardan sanaladi. Mobbing atamasi ilk bor XX asrning ikkinchi yarmida psixolog olimlar tomonidan jamoada kuzatiladigan tizimli psixologik tazyiqni ifodalash uchun qo'llanilgan. Bugungi kunda bu atama nafaqat mehnat jamoalarida, balki maktab va oliy ta'lim muassasalarida ham qo'llanmoqda. Kiberbulling esa zamonaviy axborot texnologiyalari rivoji bilan yuzaga kelgan yangi psixologik xavf bo'lib, internet orqali yoshlarning ruhiy salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo miqyosida o'quvchilarning 30-35 foizi, talabalar guruhida esa 20 foizdan ortig'i turli ko'rinishdagi mobbing yoki kiberbulling qurboni bo'lishadi. O'zbekiston ta'lim tizimida ham bu hodisalar tobora ko'proq uchramoqda, biroq ularni aniqlash va profilaktika qilish mexanizmlari yetarli darajada shakllanmagan. Shu sababli mavzuni ilmiy jihatdan o'rganish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega.

MAQSAD: mobbing va kiberbulling: zamonaviy ta'lim muassasalarida yangi tahdidlarni ilmiy tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: Mobbing va bullying masalalari bo'yicha xorijiy ilmiy maktablarda chuqur tadqiqotlar olib borilgan. D. Olweus (1993) tomonidan ishlab chiqilgan "Bullying Prevention Program" butun dunyoda tan olingan metodika sifatida maktablarda qo'llanilmoqda. P. Smith va R. Slonje (2008) esa kiberbullingning psixologik mexanizmlarini o'rgangan bo'lib, anonimlik va raqamli platformalarning keng qamrovliligi uni an'anaviy bullyingdan ko'ra kuchliroq ta'sirga ega ekanini ta'kidlaydilar. O'zbekistonlik olimlar orasida M.U. Xamidova, S. G'aniev, N. Jo'rayev va boshqalar mobbingning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tahlil qilgan. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida mobbingni erta aniqlash va psixologik xizmatlar faoliyatini kuchaytirish juda muhimdir.

XULOSA. Mobbing va kiberbulling – zamonaviy ta'lim tizimi uchun yangi psixologik tahdidlar bo'lib, ularning oqibatlari nafaqat shaxsiy ruhiy salomatlik, balki ta'lim sifati va ijtimoiy barqarorlikka ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ularning oldini olish uchun pedagog, psixolog, ota-ona va jamiyatning birgalikdagi sa'y-harakatlari talab etiladi.

Asosiy xulosalar: mobbing va kiberbulling yoshlar orasida keng tarqalgan hodisalardir; ularning oqibatlari shaxsiy rivojlanish va ta'lim motivatsiyasiga jiddiy zarar yetkazadi; xalqaro tajribaga asoslangan profilaktika dasturlari O'zbekistonda ham qo'llanishi lozim.

Kalit so'zlar: mobbing, kiberbulling, psixologik tazyiq, yoshlar psixologiyasi, ta'lim muassasasi, internet xavfsizligi.

МОББИНГ И КИБЕРБУЛЛИНГ: НОВЫЕ УГРОЗЫ В СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Азизова Динара Рахмиддиновна

Преподаватель Азиатского международного университета

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В последние годы особенно подчеркивается, что эффективность образовательного процесса зависит не только от качества знаний, но и от психологической атмосферы. Среди психологических угроз, приводящих к нарушению здорового климата в образовательных учреждениях, наиболее распространенными являются моббинг и кибербуллинг. Термин «моббинг» впервые был использован во второй половине XX века психологами для обозначения систематического психологического давления в коллективе. Сегодня это понятие применяется не только в трудовых коллективах, но и в школах и вузах. Кибербуллинг же представляет собой новую психологическую угрозу, возникшую с развитием современных информационных технологий, и оказывает серьезное воздействие на психическое здоровье молодежи через интернет. По статистическим данным, 30–35 % школьников и более 20 % студентов становятся жертвами различных форм моббинга или кибербуллинга. В образовательной системе Узбекистана эти явления также встречаются все чаще, однако механизмы их выявления и профилактики пока недостаточно развиты. Поэтому научное изучение данной проблемы имеет как теоретическое, так и практическое значение.

ЦЕЛЬ: Моббинг и кибербуллинг: научный анализ новых угроз в современных образовательных учреждениях.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Проблемы моббинга и буллинга глубоко исследованы в зарубежных научных школах. Разработанная Д. Ольвеусом (1993) «Программа профилактики буллинга» признана во всем мире и используется в школах. П. Смит и Р. Слоун (2008) изучили психологические механизмы кибербуллинга и подчеркнули, что анонимность и широкое распространение цифровых платформ делают его более сильным по воздействию, чем традиционный буллинг. Среди узбекских ученых М.У. Хамидова, С. Ганиев, Н. Джураев и другие анализировали социально-психологические особенности моббинга. Их исследования показывают, что раннее выявление моббинга в образовательном процессе и усиление деятельности психологических служб крайне важны.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Моббинг и кибербуллинг являются новыми психологическими угрозами для современной системы образования, последствия которых негативно сказываются не только на психическом здоровье личности, но и на качестве образования и социальной стабильности. Для их предотвращения необходимы совместные усилия педагогов, психологов, родителей и общества.

моббинг и кибербуллинг широко распространены среди молодежи; их последствия серьезно вредят личностному развитию и учебной мотивации; профилактические программы, основанные на международном опыте, должны применяться и в Узбекистане.

Ключевые слова: моббинг, кибербуллинг, психологическое давление, психология молодежи, образовательное учреждение, интернет-безопасность.

MOBBING AND CYBERBULLYING: NEW THREATS IN MODERN EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Azizova Dinara Rahmiddin qizi

Teacher at Asia International University

Annatation.

INTRODUCTION: In recent years, it has been increasingly emphasized that the effectiveness of the educational process is closely linked not only to the quality of knowledge but also to the psychological climate. Among the psychological threats that disrupt a healthy environment in educational institutions, mobbing and cyberbullying are the most common phenomena. The term “mobbing” was first introduced in the second half of the 20th century by psychologists to describe systematic psychological pressure in a group. Today, this concept is applied not only in workplaces but also in schools and higher education institutions. Cyberbullying, on the other hand, is a new psychological threat that has emerged with the development of modern information technologies, significantly affecting the mental health of young people through the internet. According to statistical data, 30–35% of schoolchildren and more than 20% of university students become victims of various forms of mobbing or cyberbullying. In the education system of Uzbekistan, these phenomena are also becoming increasingly prevalent; however, mechanisms for their detection and prevention are still underdeveloped. Therefore, the scientific study of this issue has both theoretical and practical significance.

THE GOAL: Mobbing and cyberbullying: a scientific analysis of new threats in modern educational institutions

MATERIALS AND METHODS: The issues of mobbing and bullying have been deeply studied in foreign academic schools. The “Bullying Prevention Program” developed by D. Olweus (1993) has been recognized worldwide and implemented in schools. P. Smith and R. Slonje (2008) investigated the psychological mechanisms of cyberbullying, emphasizing that anonymity and the wide reach of digital platforms make it more impactful than traditional bullying. Among Uzbek scholars, M.U. Khamidova, S. G‘aniev, N. Jurayev, and others have analyzed the socio-psychological characteristics of mobbing. Their studies demonstrate that early identification of mobbing in the educational process and strengthening the role of psychological services are of great importance.

CONCLUSION: Mobbing and cyberbullying are new psychological threats to the modern education system, and their consequences negatively affect not only individual mental health but also the quality of education and social stability. Preventing these phenomena requires the joint efforts of teachers, psychologists, parents, and society as a whole.

Key findings: Mobbing and cyberbullying are widespread among young people; their consequences seriously harm personal development and educational motivation; preventive programs based on international experience should also be implemented in Uzbekistan.

Keywords: mobbing, cyberbullying, psychological pressure, youth psychology, educational institution, internet safety.

Mazkur maqolani tayyorlashda bir nechta ilmiy metodlardan kompleks tarzda foydalanildi: Nazariy tahlil usuli. Xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar o‘rganilib, mobbing va kiberbullingning nazariy asoslari, ularning ta’lim muassasalaridagi ijtimoiy-psixologik oqibatlari, shuningdek, profilaktika yo‘llari tahlil qilindi. Shu jarayonda D. Olweus, P. Smith, R. Slonje kabi xorijiy tadqiqotchilarning ishlari, shuningdek, O‘zbekistonlik olimlar M.U. Xamidova, S. G‘aniev, N. Jo‘rayevlarning izlanishlari muhim manba sifatida qo‘llanildi.

Kuzatuv va suhbat metodi. Toshkent shahri va ayrim viloyatlardagi maktab, akademik litsey va kollejlarda, shuningdek, universitetlarda kuzatuvlar o‘tkazildi. O‘quvchilar va talabalar bilan guruhviy suhbatlar tashkil etilib, mobbing va kiberbullingning turli ko‘rinishlari, ularning sabab va oqibatlari aniqlashga harakat qilindi.

So‘rovnoma metodi. Anonim so‘rovnoma orqali 120 nafar talaba va 80 nafar o‘quvchi qamrab olindi. Savollarda mobbing va kiberbullingga duch kelish chastotasi, unga nisbatan munosabat, yordam

so‘rash manbalari va psixologik ta‘sir o‘lchandi. Olingan ma‘lumotlar sifat tahlili asosida qayta ishlanib, umumiy xulosalar chiqarildi.

Mobbingning shakllari va xususiyatlari: So‘rovda qatnashganlarning 25 foizi hech bo‘lmaganda bir marta sinfdosh yoki guruhdoshlari tomonidan kamsitish, masxara qilish yoki ijtimoiy izolyatsiyaga duch kelganini bildirgan. Maktab muhitida mobbing asosan jismonan zaifroq yoki yangi kelgan o‘quvchilarga nisbatan kuzatilgan. Universitetlarda esa yuqori o‘quv ko‘rsatkichiga ega talabalar “raqib” sifatida ko‘rib, ularga nisbatan psixologik bosim, yolg‘izlantirish yoki g‘iybat qilish holatlari qayd etilgan.

Kiberbullingning tarqalishi

Talaba va o‘quvchilarning 40 foizi ijtimoiy tarmoqlarda haqoratli izoh, anonim xabar yoki yolg‘on ma‘lumot qurboni bo‘lganini ta‘kidlagan. Eng ko‘p uchraydigan platformalar: Telegram, Instagram, TikTok. O‘quvchilar ko‘pincha bu muammoni ota-onalarga yoki o‘qituvchilarga emas, balki do‘stlariga aytishni afzal ko‘rishadi, bu esa muammoni chuqurlashtiradi.

Psixologik oqibatlar

O‘ziga ishonchsizlik, past o‘z-o‘zini baholash; Darslarga qiziqishning kamayishi; Agressivlik yoki ijtimoiy chekinish; Ayrim hollarda depressiya va o‘qishni butunlay tashlab qo‘yish.

O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mobbing va kiberbullingning ildizlari bir nechta omillarga borib taqaladi: o‘quvchilar va talabalar o‘rtasida ijtimoiy munosabatlar madaniyatining yetarli shakllanmaganligi; internetdan foydalanish madaniyatining pastligi, media savodxonlikning sustligi; ta‘lim muassasalarida psixologik xizmatlarning zaif faoliyati.

Xorijiy tajribada mavjud samarali yondashuvlar:

Profilaktika dasturlari. Maxsus trening va mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarda empatiya, tolerantlik va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish. Mobbing va kiberbullingni kamaytirishning eng muhim sharti — bu ta‘lim muassasalarida profilaktika dasturlarini joriy etishdir. Bunday dasturlar o‘quvchilar, talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida sog‘lom munosabatlarni shakllantirish, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish hamda empatiya va tolerantlikni mustahkamlashga qaratiladi.

1. Maxsus trening va mashg‘ulotlar.

Treninglar davomida o‘quvchilarga “boshqalarning his-tuyg‘usini tushunish”, “mojaroni tinch yo‘l bilan hal etish”, “jamoada hamkorlik qilish” kabi ko‘nikmalar o‘rgatiladi. Mashg‘ulotlarda rol o‘ynash, keys-stadi, guruhiy muhokama, muloqot o‘yinlari kabi metodlar qo‘llanadi. Masalan, o‘quvchilarni turli vaziyatlarga qo‘yib, ularni birgalikda yechim topishga yo‘naltirish orqali empatiya hissi rivojlantiriladi.

2. Empatiyani rivojlantirish. Empatiya — bu boshqalarning his-tuyg‘ularini his qilish va tushunish qobiliyati. Maxsus psixologik mashqlar yordamida o‘quvchilar “agar men uning o‘rnida bo‘lsam-chi?” degan savolni o‘zlariga berishga o‘rgatiladi. Empatiya shakllanganda kamsitish yoki masxara qilish holatlari keskin kamayadi, chunki o‘quvchilar bir-biriga hurmat bilan qaray boshlaydi.

3. Tolerantlikni shakllantirish.

O‘quvchilarga milliy, diniy, ijtimoiy va shaxsiy xilma-xillikka bag‘rikeng munosabatni shakllantirish bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Madaniyatlararo muloqot, o‘zaro hurmat va turlicha fikrlarni qabul qilish madaniyatini o‘rgatish mobbing va kiberbullingni kamaytirishda katta rol o‘ynaydi.

4. Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.

O‘quvchilarda samarali muloqot, jamoada ishlash, o‘zini to‘g‘ri ifodalash, hissiyotlarni boshqarish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirish kerak. Bu ko‘nikmalar nafaqat mobbing va kiberbullingni kamaytiradi, balki ta‘lim jarayonining umumiy samaradorligini oshiradi.

5. O‘qituvchilar ishtiroki. Profilaktika dasturlarining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘qituvchilarning faoliyatiga bog‘liq. O‘qituvchilar muntazam treninglarda qatnashib, o‘quvchilar o‘rtasidagi mojaroli vaziyatlarni to‘g‘ri boshqarishni o‘rganishlari zarur.

Yana bundan tashqari

Ota-onalar bilan hamkorlik. Raqamli xavfsizlik va farzand bilan muloqot madaniyatiga oid muntazam seminarlar o'tkazish.

Qonunchilik asoslari. Ayrim mamlakatlarda kiberbulling huquqbuzarlik sifatida baholanib, qonuniy javobgarlik choralari belgilanadi. Bugungi kunda kiberbulling nafaqat psixologik va ijtimoiy muammo, balki huquqiy masala sifatida ham ko'rilmogda. Ayrim mamlakatlarda raqamli zo'ravonlik huquqbuzarlik sifatida baholanib, unga nisbatan aniq qonuniy javobgarlik choralari belgilangan. AQSh: Bir nechta shtatlarda kiberbulling alohida huquqbuzarlik sifatida tan olingan. Masalan, Florida va Kaliforniya shtatlarida o'quvchilarni internet orqali tahqirlash yoki tahdid qilish uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik mavjud. Buyuk Britaniya: 2003-yilda qabul qilingan "Kommunikatsiyalar to'g'risida"gi qonunga ko'ra, onlayn platformalarda haqoratli, tahdidli yoki kamsituvchi xabar tarqatgan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Yaponiya: 2022-yilda qabul qilingan qonun asosida internetda kamsituvchi izohlar yozgan shaxslarga 1 yilgacha qamoq yoki yirik jarima jazosi belgilangan. Janubiy Koreya: kiberbulling natijasida o'quvchi yoki talabaning ruhiy holati buzilgan taqdirda, bu "ruhiy zo'ravonlik" sifatida e'tirof etilib, jiddiy huquqiy choralar qo'llanadi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari: Yevropa Kengashi tavsiyalariga binoan, a'zo davlatlarda kiberbullingga qarshi profilaktika va huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilgan. Ayrim mamlakatlarda bu jinoyat kodeksi doirasida "internet orqali tahdid" yoki "shaxsni obro'sizlantirish" moddolari asosida jazolanadi. O'zbekistonda ham kiberbulling muammosi huquqiy maydonda asta-sekin ko'tarilmogda. Amaldagi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks va Jinoyat kodeksida shaxsni haqorat qilish, sha'niga va obro'siga tajovuz qilish, tuhmat qilish kabi moddalar mavjud bo'lib, ular onlayn muhitga ham tatbiq etilishi mumkin. Shu bilan birga, ta'lim muassasalarida axborot madaniyatini rivojlantirish va kiberjinoyatlarga qarshi profilaktik choralarga katta e'tibor qaratilmogda. Umuman olganda, kiberbullingga qarshi samarali kurash uchun:

Huquqiy asoslarni kuchaytirish, onlayn zo'ravonlikni alohida modda sifatida belgilash; Huquqiy savodxonlikni oshirish, yoshlar va o'qituvchilarni o'z huquqlari bilan tanishtirish; Xalqaro tajribani o'rganish va milliy qonunchilikka tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar tezkor rivojlanayotgan davrda mobbing va kiberbulling yoshlar tarbiyasi, ta'lim muassasalari hamda jamiyat barqarorligiga jiddiy tahdid tug'dirmogda. Shu bois, O'zbekiston sharoitida quyidagi kompleks choralarni amalga oshirish muhimdir: Psixologik xizmat faoliyatini kuchaytirish. Maktab va universitetlarda psixologik xizmatlarning rolini oshirish, zamonaviy diagnostika va korrektсион metodlarni joriy etish; O'quvchi va talabalar uchun anonim maslahat va yordam markazlarini yo'lga qo'yish; Psixologlarni muntazam malaka oshirish kurslariga jalb qilish. O'qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish. Pedagog kadrlar tayyorlash dasturlariga mobbing va kiberbulling muammolari bo'yicha maxsus kurslar kiritish; O'qituvchilarga zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlar asosida zo'ravonlikka qarshi kurashish metodlarini o'rgatish; Kafedralar va ilmiy markazlar qoshida ushbu yo'nalishda ilmiy-amaliy seminarlar tashkil qilish. Media savodxonlik va raqamli etika darajasini oshirish. O'quvchilar va talabalar o'rtasida raqamli etikaga oid maxsus darslar, treninglar o'tkazish; Ijtimoiy tarmoqlardan xavfsiz foydalanish, kiberhujumlardan himoyalanih bo'yicha qo'llanmalar ishlab chiqish; Yoshlar orasida onlayn platformalarda mas'uliyatli xulq-atvorni shakllantirish, "raqamli madaniyat"ni keng targ'ib qilish.

Huquqiy asoslarni takomillashtirish

O'zbekiston qonunchiligida kiberbullingni alohida huquqbuzarlik sifatida belgilash; O'quvchi va talabalarni kiber tahdidlardan himoya qiluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish; Maktab va universitetlarda mobbing va kiberbullingga qarshi kurash bo'yicha ichki nizomlar yaratish. Mobbing va kiberbulling masalalariga qarshi kurashish xalqaro miqyosda ham dolzarb muammo hisoblanadi.

Ko'plab mamlakatlarda bu borada samarali tajribalar mavjud bo'lib, ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash ta'lim muassasalarida xavfsiz muhit yaratishga yordam beradi.

1. Psixologik xizmat faoliyatini kuchaytirish Xalqaro tajriba: Finlyandiya maktablarida "KIVA" dasturi keng qo'llaniladi. Ushbu dastur o'quvchilar o'rtasidagi zo'rvonlikni aniqlash va bartaraf etishda psixologlar, o'qituvchilar va ota-onalarni hamkorlikka jalb qiladi. O'zbekiston sharoiti: maktab va universitetlarda shunga o'xshash integratsiyalashgan dasturlar ishlab chiqilishi, anonim psixologik yordam liniyalari tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

2. O'qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish

Xalqaro tajriba: AQSh va Yevropa davlatlarida pedagogik ta'lim dasturlarida "bullying va kiberbullying profilaktikasi" bo'yicha majburiy kurslar mavjud. O'qituvchilar bu kurslarda konfliktologiya, empatiya, kommunikatsiya madaniyati kabi ko'nikmalarni egallashadi. O'zbekiston sharoiti: pedagogika oliygohlarida va malaka oshirish kurslarida ushbu yo'nalishda maxsus fanlar kiritilishi va muntazam seminarlar o'tkazilishi talab etiladi.

3. Media savodxonlik va raqamli etika darajasini oshirish

Xalqaro tajriba: Estoniya va Janubiy Koreya maktablarida raqamli savodxonlik alohida fan sifatida o'qitiladi. O'quvchilarga ijtimoiy tarmoqlardan xavfsiz foydalanish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va raqamli odob-axloq qoidalari chuqur o'rgatiladi. O'zbekiston sharoiti: umumta'lim maktablarida va universitetlarda "Media savodxonlik va raqamli etika" bo'yicha darslar joriy etilishi, shuningdek, maxsus o'quv qo'llanmalar ishlab chiqilishi lozim.

4. Huquqiy asoslarni takomillashtirish

Xalqaro tajriba: Germaniya, Fransiya va Kanada kabi davlatlarda kiberbullying jinoyat deb hisoblanadi va huquqiy javobgarlik chorasi sifatida jarima yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosigacha qo'llanadi. Shuningdek, maktab va universitetlarda mobbing va kiberbullyingni oldini olish bo'yicha maxsus kodekslar ishlab chiqilgan. O'zbekiston sharoiti: kiberbullyingni huquqbuzarlik sifatida alohida moddada belgilash, shuningdek, ta'lim muassasalarida ichki me'yoriy hujjatlarda bu masalani tartibga soluvchi bandlarni kiritish talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro tajribadan ko'rinib turibdiki, mobbing va kiberbullyingga qarshi samarali kurash uchun kompleks yondashuv talab etiladi: huquqiy, psixologik, pedagogik va raqamli ta'limiy choralar birgalikda amalga oshirilishi kerak. O'zbekiston sharoitida ushbu tajribalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish yoshlarni kiber tahdidlardan himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston respublikasi prezidentining pq-189-sonli qarori (2022-yil 23-mart). "oliy ta'lim tizimida sog'lom psixologik muhitni yaratish va ta'lim sifatini oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" — psixologik salomatlikni ta'minlash bo'yicha normativ asos.
2. "Bola huquqlari to'g'risida"gi qonun (2023-yil 27-iyun, o'zbekiston respublikasi). — tazyiq, tahqir, psixologik bosimni huquqiy jihatdan tartibga soluvchi asosiy hujjat.
3. Rahmiddinovna, A. D. (2024). Ta'lim jarayonining metodlari va shakllari. The latest pedagogical and psychological innovations in education, 1(2), 235-241.
4. Rahmiddinovna, A. D. (2025). Emotsional intellektning hayotdagi muvaffaqiyat va professional sohadagi ahamiyati. Yil tadqiqotchisi-2024.



5. Rahmiddinovna, A. D. (2025). Sun'iy intellekt va insoniylik: ijtimoiy psixologik oqibatlar. Pedagogik tadqiqotlar jurnali, 2(2), 181-186.
6. Azizova, D. (2024). Inklyuziv ta'limning psixologik-pedagogik va tashkiliy shartlari. Tibbiyot, pedagogika va texnologiya: nazariya va amaliyot, 2 (9), 543-552.
7. Rahmiddinovna, A. D. (2025). Zamonaviy oilalar rivojining o'ziga xos xususiyatlari. Pedagogik tadqiqotlar jurnali, 3(1), 685-689.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Azizova Dinara Rahmiddin qizi

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

Manzil: O'zbekiston, Buxoro shahar.

TALABALAR AKADEMIK O'ZLASHTIRISHI SAMARADORLIGINI TA'MINLOVCHI OMILLARINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI



Anarboev Hayitboy Eshboy o'g'li
Qarshi Davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya.

KIRISH: Mazkur maqolada Oliy ta'lim muassasalarida talabalar akademik o'zlashtirishi samaradorligini ta'minlovchi omillarining pedagogik-psixologik xususiyatlariga doir yetakchi psixolog olimlarning ilmiy yondashuvlari haqida so'z boradi.

MAQSAD: talabalar akademik o'zlashtirishi samaradorligini ta'minlovchi omillarni ilmiy tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: Universitet talabalari ta'limga bo'lgan motivatsiyani oshirish, kelajakdagi mutaxassislikni olish va kasb-hunar egallashda muhim bo'lgan barcha zarur ko'nikmalarni rivojlantirish uchun maxsus pedagogik yordamning kompleks dasturiga muhtoj. Motivatsiyani oshirishga qaratilgan ushbu qo'llab-quvvatlashning bir qismi sifatida talabalarning his-tuyg'ularini hisobga olish lozim, o'qituvchi va talaba o'rtasida yanada nozik, ya'ni, samimiy o'zaro munosabatlarni rivojlantirish, talabalarning past qobiliyatlarini oshiradigan moslashuvchan yondashuvdan foydalanish kerak. O'z-o'zini hurmat qilish, "talabalarning ijodiy qobiliyatlarini (amaliy va kognitiv faoliyatda) rivojlantirishga" yordam berish, shuningdek, ularning "yetuk bo'lmagan muloqot qobiliyatlarini" yaxshilash choralarini ko'rish tadbirlarini kiritish o'rinli.

XULOSA: Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turli individual tipologik xususiyatlarga ega talabalar uchun ta'limning yagona, qulay va optimal sharoitlarini yaratish mumkin emas. Ammo o'zlashtirishning samaradorligini oshirishda muammoli ta'lim, noan'anaviy ta'lim usullarini qo'llash, shuningdek, milliy-madaniy muhit, turmush tarzi va zamonaviy fan-tehnologiyalarning yutuqlarini uyg'un holda qo'llash muhim ahamiyatga egadir.

Kalit so'zlar: Talabalar, samarali o'zlashtirish, pedagogik-psixologik omillar, o'quv motivatsiyasi, ta'lim faoliyati, ta'lim sifati, ta'lim texnologiyasi, intellektual g'oya, akademik o'zlashtirish omillari, o'zlashtirish me'yorlari, o'zlashtirish xususiyatlari.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ФАКТОРОВ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИХ ЭФФЕКТИВНОСТЬ АКАДЕМИЧЕСКОГО ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ

Анарбоев Хаитбой Эшбоевич
Доктант Каршинского государственного университета

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье рассматриваются научные подходы ведущих психологов к педагогико-психологической характеристике факторов, обеспечивающих эффективность академического развития студентов в высших учебных заведениях.

ЦЕЛЬ: Научный анализ факторов, обеспечивающих эффективность академического развития студентов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Студентам вузов необходима комплексная программа специальной педагогической поддержки для повышения мотивации к обучению, развития всех необходимых навыков, важных для получения будущей специальности и приобретения профессии. В рамках этой поддержки, направленной на повышение мотивации, необходимо учитывать чувства студентов, развивать более тонкие, то есть искренние, отношения между преподавателем и студентом, а также использовать гибкий подход, способствующий развитию низких способностей студентов. Целесообразно включить меры, способствующие развитию самооценки, развитию творческих способностей учащихся (в практической и познавательной деятельности), а также меры по совершенствованию их «несформированных коммуникативных навыков».

ВЫВОД: Исследования показывают, что невозможно создать единообразные, комфортные и оптимальные условия обучения для учащихся с различными индивидуально-типологическими особенностями. Однако для повышения эффективности обучения важно использовать проблемное обучение, нетрадиционные методы обучения, а также гармоничное использование достижений национально-культурной среды, образа жизни и современной науки и техники.

Ключевые слова: учащиеся, эффективное обучение, педагогические и психологические факторы, мотивация обучения, образовательная деятельность, качество образования, образовательные технологии, интеллектуальная идея, факторы академического обучения, стандарты обучения, характеристики обучения.

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF FACTORS ENSURING THE EFFICIENCY OF STUDENTS' ACADEMIC LEARNING

Anarboev Hayitboy Eshboy o'g'li

Supporting doctoral student at Karshi State University

Annatation.

INTRODUCTION: This article discusses the scientific approaches of leading psychologists to the pedagogical and psychological characteristics of the factors that ensure the effectiveness of students' academic development in higher education institutions.

THE GOAL: scientific analysis of the factors that ensure the effectiveness of students' academic development

MATERIALS AND METHODS: University students need a comprehensive program of special pedagogical support to increase motivation for education, develop all the necessary skills that are important for obtaining a future specialty and acquiring a profession. As part of this support aimed at increasing motivation, it is necessary to take into account the feelings of students, develop a more subtle, that is, sincere relationship between the teacher and the student, and use a flexible approach that increases the low abilities of students. It is appropriate to include measures to help develop self-esteem, "the development of students' creative abilities (in practical and cognitive activities), as well as measures to improve their "immature communication skills".

CONCLUSION: Studies show that it is impossible to create uniform, comfortable and optimal conditions for learning for students with different individual typological characteristics. However, in order to increase the effectiveness of learning, it is important to use problem-based learning, non-

traditional teaching methods, as well as the harmonious use of the achievements of the national-cultural environment, lifestyle and modern science and technology.

Keywords: Students, effective learning, pedagogical and psychological factors, learning motivation, educational activity, educational quality, educational technology, intellectual idea, academic learning factors, learning standards, learning characteristics.

“Samarali o‘zlashtirish” tushunchasi o‘quv motivatsiyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab tushunchadir. O‘tgan yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, talabalarning o‘zlashtirishdagi muvaffaqiyatsizligi yoki muvaffaqiyatining asosiy sababi motivatsiyadir. Motivatsiya talabalarning munosabati, o‘rganish odatlari va akademik tayyorgarligiga ta’sir qiladi. Ko‘pgina tadqiqotchilar ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish muvaffaqiyati uchun talabalarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasi muhimligiga e’tibor qaratadilar. O‘zining ta’lim olish maqsadlarini yaxshi tushunadigan talabalar ko‘proq motivatsiyaga ega bo‘ladilar, o‘rganishga ijobiy munosabatda bo‘lishadi va shuning uchun muvaffaqiyatga erishish imkoniyati ko‘proq bo‘ladi.

Oliy ta’lim darajasida o‘qish uchun motivatsiya tuzilishini tahlil qilish ayniqsa muhimdir, chunki bu holda ta’lim va kasbiy faoliyatning kombinatsiyasi mavjud. Shu bilan birga, talabalarda shakllangan kasbiy intilishning mavjudligi o‘quv jarayoniga, ularning kelajakdagi kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga ta’sir qiladi. Ko‘pgina tadqiqotchilar talabalarning o‘quv motivatsiyasini oshiradigan maxsus pedagogik texnologiya usullarini ishlab chiqish uchun ta’lim motivatsiyasini o‘rganish muhimligini ta’kidlaydilar.

Universitet talabalari ta’limga bo‘lgan motivatsiyani oshirish, kelajakdagi mutaxassislikni olish va kasb-hunar egallashda muhim bo‘lgan barcha zarur ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun maxsus pedagogik yordamning kompleks dasturiga muhtoj. Motivatsiyani oshirishga qaratilgan ushbu qo‘llab-quvvatlashning bir qismi sifatida talabalarning his-tuyg‘ularini hisobga olish lozim, o‘qituvchi va talaba o‘rtasida yanada nozik, ya’ni, samimiy o‘zaro munosabatlarni rivojlantirish, talabalarning past qobiliyatlarini oshiradigan moslashuvchan yondashuvdan foydalanish kerak. O‘z-o‘zini hurmat qilish, “talabalarning ijodiy qobiliyatlarini (amaliy va kognitiv faoliyatda) rivojlantirishga” yordam berish, shuningdek, ularning “yetuk bo‘lmagan muloqot qobiliyatlarini” yaxshilash choralari ko‘rish tadbirlarini kiritish o‘rinli.

Ta’lim sifati ta’lim faoliyatining shakllanishiga bog‘liq. O‘quv faoliyatini shakllantirishga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilib, yechimlari ishlab chiqilgan bo‘lsada, o‘quv faoliyatining ishlash mexanizmlari va turli guruhlardagi talabalarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish jahon psixologiyasida dolzarbligicha qolmoqda.

Ta’lim tizimini yuksaltirish uchun izchil tadqiqotlar o‘tkazgan faylasuf Iogann Gerbart o‘z tadqiqotlarida o‘quvchi-talabaning mavzuga bo‘lgan qiziqishi ta’lim natijasiga katta ta’sir ko‘rsatadi, deb hisoblaydi.

Ta’lim sifatining pastligi ta’lim tizimida bir-biriga uzviy bog‘langan bo‘g‘imlar orasida muammolar yuzaga keltirayotganligini ko‘rsatadi: umumta’lim maktablaridagi ishlarning yomonligi oliy ta’lim tizimida ko‘plab muammolarni keltirib chiqaradi, oliy o‘quv yurtlari talabalarining o‘quv natijalarining pastligi esa ishlab chiqarish darajasi va samaradorligining, demakki, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va sur‘atlarining pasayishida namoyon bo‘ladi.

Talabalar o‘quv faoliyatining psixologik asoslarini (o‘quv samaradorligini) o‘rgangan O.S. Ionina, quyidagi omillar orqali o‘quv samaradorligiga erishish mumkinligini ta’kidlaydi:

– o‘qituvchi tomonidan ta’lim texnologiyalarini to‘g‘ri qo‘llay olish;

- talaba aqliy mehnatining intensivligi va sur‘ati;

- talabalarning faolligi;

- talaba aqliy mehnatining davomiyligi va ketma-ketligi” [3].



Olima tomonidan samarali o'zlashtirish subyektiv kategoriya sifatida e'tirof etiladi, u nafaqat tashqaridan qarashni, balki o'z muvaffaqiyatlaridan qoniqish hissini, o'z ahamiyatini anglash, obro'-e'tiborni ham aks ettiradi [3]. Shunday qilib, ushbu tadqiqotchining nuqtai nazaridan, agar talabaning o'zi o'z ta'lim faoliyati natijalaridan qoniqish hosil qilsa va nafaqat o'zining yutuqlarini ijobiy baholasa, balki, o'zini o'zi qadrlaydigan yuqori bahoga ega bo'lsagina samarali o'zlashtirish natijalarini ko'rsatishi, ta'limda muvaffaqiyat qozonishi mumkin.

Talabalar orasida izchil tadqiqod olib borgan D.M.Grebnevaning fikriga ko'ra: "...ta'limda o'zlashtirish va akademik muvaffaqiyat – subyektiv-shaxsiy rejada ta'lim yutuqlarini va o'quv muvaffaqiyatining obyektiv (rasmiy) ko'rsatkichlari aks ettiradigan emas, balki shaxs va uning eng yaqin ijtimoiy g'oyalari bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos murakkab jarayon va voqelikdir" [2]. Olimaning yozishicha, "kundalik hayotda buni turli talabalarga "Qanday baholarda o'qiysiz, ko'rsatkichlaringiz qanaqa?" degan savol berilganda, ularning ko'pchiligi juda samimiy tarzda javob berishadi: "Oddiy", "Ko'rsatkichlarim maromida". Garchi ularning o'zlashtirish darajalari, ilmiy darajasi sezilarli ko'rinishda bir-biridan farq qilishi mumkin".

D.M.Grebneva o'quv faoliyati tarkibida quyidagi komponentlarni ajratib ko'rsatadi: kognitiv, hissiy, baho.

Talabalarining o'zlashtirishi ko'p jihatdan ularning o'quv va kognitiv faoliyatini samarali boshqarish, minimal xarajatlar (moddiy, moliyaviy, jismoniy, psixologik va boshqalar) bilan yuqori ta'lim va psixologik natijalarni ta'minlashga bog'liqdir.

P.Gor ta'lim samaradorligi haqida fikr bildirib: "Ta'lim samaradorligi bir qator jihatlarni o'z ichiga oladi: faol va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari, intellektual ishtirok va motivatsiya, shuningdek, turli akademik ko'nikmalar, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limga intilish, o'z-o'ziga va bilimiga ishonch, o'quv qobiliyatlarini, umumiy bilim darajasidagi yutuqlarni, o'zgarishlarni (samarali o'zlashtirishini) namoyon qilishi, tahliliy ko'nikma va muammoni yechish ko'nikmalari, tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish" [4].

Talabalarining o'quv faoliyatini pedagogik-psixologik jihatdan o'rgangan rus olimasi S.N. Sidorova talabalarining o'zlashtirishiga bir qator omillar o'z ta'sirini o'tkazishi haqida fikr bildiradi. Ushbu omillar quyidagilar: "iqtisodiy-moliyaviy ahvoli; salomatlik; yoshi; oilaviy xususiyatlar; universitetgacha bo'lgan tayyorgarlik ko'rsatkichlari; o'z-o'zini tashkil etish, rejalashtirish, o'z faoliyatini nazorat qilish qobiliyatini rivojlantirish; universitetni tanlash sabablari; universitet ta'limining o'ziga xos xususiyatlari haqidagi dastlabki g'oyalar; ta'limning turli shakllari (kunduzgi, kechki, sirtqi, masofaviy ta'lim va boshqalar); ta'limning to'lovi va narxi, universitetda o'quv jarayonini tashkil etishning xususiyatlari va o'ziga xos xususiyatlari; universitetning moddiy-texnik bazasi; o'qituvchilar va pedagogik xodimlarning malakasi; universitet reytingi va nufuzi, talabalarining individual va intellektual psixologik xususiyatlari" [9].

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida talabalar o'zlashtirishi lozim bo'lgan dars mashg'ulotlari turli usullar yordamida ta'lim oluvchilarga yetkaziladi. Shunday usullardan biri – an'anaviy ma'ruza usulidir. Ko'pgina tadqiqotchilar (V.P.Bespalko, A.A. Verbitskiy, R.F.Jukov, va boshqalar) an'anaviy ma'ruza usulini faol o'qitish usullariga nisbatan samarasiz deb hisoblaydilar. Pedagogik-psixologik amaliyotda faol o'qitish usullaridan foydalanish oliy ta'limning fikrlash, kognitiv faollik va kognitiv qiziqishni rivojlantirish zarurati kabi muammolarni bartaraf etishga qaratilgan ta'lim faoliyatini kuchaytirish muammosini hal qilishdir. O'qitishning faol usullaridan foydalanish tarafdorlarining fikricha, an'anaviy ma'ruzaning asosiy kamchiligi shundaki, u talabalarga o'qituvchi tomonidan "foydalanish uchun tayyorlangan" ma'lumotlarni passiv qabul qiluvchi bo'lish imkonini beradi. Talabalar o'z bilimlari uchun javobgarlikdan qochishadi [6]. Bundan tashqari, bunday ma'ruzalar davomida olingan bilimlar nisbatan yuzaki va o'tkinchidir [10].

Shuningdek talabalarning shaxsiy xususiyatlari, o'quv faoliyatidagi faolligi, qobiliyatlari bir qator olimlar tomonidan izchil o'rganilganligini ko'rish mumkin.

- Talabaning shaxsiy, hissiy va kognitiv xususiyatlarini rivojlantirish (M.Ya.Adamskiy, B.G. Ananyev, T.G. Andronik, J. Bruner, L.S. Vigotskiy, N.V. Zalesova, N.N.Kosheleva, N.P.Murzina, V.P.Chelyadnik);

- o'quv faoliyati ko'rsatkichlari (E.M.Boyko, E.A.Sadovnikova, O.V.Galkina, L.A.Kostina, L.M.Milyayeva, N.I.Meshkov, D.N.Meshkov, E.V.Semenova, E.G.Plotnikova, N.V.Sobol);

- o'z-o'zini o'rganish qobiliyati (N.A.Rototayeva, V.A.Yakunin, O.N.Stipk);

- tashqi pedagogik-psixologik sharoitlarning ta'siri, ta'lim dasturi va o'qituvchining kasbiy mahorati (G.A.Vinogradova, L.S.Vigotskiy, B.A.Eremeyev, T.Yu.Kurapova, T.N.Karmanova, I.A.Medvedeva, V.M.Minayarov, G.I.Shchukina, L. Yuropov);

- tashqi qo'shimcha tajribaning o'quv jarayoniga ta'siri (Ya.V.Chejina).

T.Yu.Kurapova barcha o'zlashtirish mezonlarini pedagogik va psixologik mezonlarga ajratadi.

Pedagogik mezonlar:

- talabaning OTM tomonidan taqdim etilgan ta'lim dasturlarini o'zlashtirish qobiliyati;

- o'z bilim, ko'nikma va mahoratlarini namoyish etish qobiliyati.

Uning nuqtai nazaricha, psixologik mezonlarga quyidagilar kiradi:

“- rivojlanishning ijobiy dinamikasi; o'rganish uchun ijobiy motivatsiya; OTMga ijobiy munosabat;

- kognitiv qiziqishni saqlab qolish (OTMni yoqtirmaydigan va o'qishni istamaydigan talabani muvaffaqiyatli deb bo'lmaydi);

- ijtimoiy moslashuv (bu talaba uchun OTMda, tengdoshlar va o'qituvchilar orasida moslashganlik);

- talaba va o'qituvchi o'rtasidagi ijobiy munosabatlar; kursdoshlar bilan ijobiy munosabatlar;

- yaxshi jismoniy va ruhiy salomatlik;

- adekvat va ijobiy o'zini-o'zi hurmat qilish (talaba o'zini muvaffaqiyatli his qilishi kerak)” [4].

N.V.Kuzmina va V.A.Yakuninlar talabalar o'zlashtirishiga ta'sir ko'rsatuvchi bir qator tashqi omillarni sanab o'tadi. Bu omillar - bu o'quv faoliyatini boshqarish va o'quv jarayonini tashkil etish, talabalarning mustaqil ishi, bitiruvchining ta'limning keyingi bosqichida yoki ish faoliyatiga moslashishi, uning kasbiy barqarorligi, kasbiy mahoratning o'sish sur'ati va ular bilan bog'liqligi, ishda o'sish, o'z-o'zini tarbiyalash sur'ati, ta'lim darajasi yoki kasbiy mahorat, o'z bilimni oshirish istagi, boshqa odamlar tomonidan berilgan baholar.

Omillar masalasida biz S.D.Stolyarenkoning fikriga qo'shilamiz. Uning fikricha akademik o'zlashtirish omillari va mezonlari – ball (baho) bo'yicha ta'lim yutuqlari darajasini aks ettiruvchi, shuningdek, qiziqish, motivatsiyani aks ettiruvchi o'quv (ta'lim) ko'rsatkichlari, aqliy mehnatning sifati va usullari (faollik, taranglik, sur'at, davomiylik, tizimlilik, ratsional va irratsional ish usullari va boshqalar) ekanligini yozadi [7].

Evropa va Amerikada akademik o'zlashtirish samaradorligining eng keng tarqalgan modellaridan biri (academic success – akademik muvaffaqiyat) T. York, Ch. Gibson va S. Ranklin tomonidan ishlab chiqilgan modeldir. Ularning fikriga ko'ra, akademik o'zlashtirish samarasi quyidagi ko'rsatkichlarda namoyon bo'ladi:

- o'quv yutuqlari;

- o'quv maqsadlariga erishish;

- kerakli ko'nikma va malakalarni egallash;

- jarayon va ta'lim natijalaridan qoniqish;

- qat'iyatlilik;

- o'qishni tugatgandan so'ng martaba muvaffaqiyati.

M.R.Shabalina [9] olib borgan tadqiqotlarida talabalarning o'quv muvaffaqiyati va unga ta'sir etuvchi shaxsiy fazilatlarining shakllanish darajasini quyidagi ma'lumotlar asosida aniqlash mumkin degan xulosaga keladi:

- akademik o'zlashtirish samaradorligining rasmiylashtirilgan ko'rsatkichi (o'quv samaradorligi);
- bilim faolligi, mustaqillik, ijodkorlik, aks ettirishni o'z ichiga olgan o'quv muvaffaqiyatining sifat ko'rsatkichlari;

- ta'lim imkoniyatlari va o'z-o'zini baholashning yetarlilik darajasi;

- o'quv faoliyatiga dominant motivatsiya xarakteri;

- o'z imkoniyatlaridan foydalanishga tayyorlik va qobiliyat.

Shuningdek, olim akademika o'zlashtirishning 3 ta darajasini ko'rsatib o'tadi:

1-daraja – amaliy faoliyat – muhim o'quv maqsadlariga erishish bilan bog'liq;

2-daraja – psixologik - talaba shaxsining o'quv faoliyati jarayoni va natijasi bilan subyektiv qoniqlanishini aks ettiradi;

3-daraja – aqliy-aksiologik - talabaning ta'lim faoliyati natijalarini muvaffaqiyatga erishishning axloqiy usullari bilan bog'lashini o'z ichiga oladi.

Shubhasiz, bu yerda ham akademik o'zlashtirish samaradorligining barcha uch darajasi rasmiylashtirilgan faoliyatni baholash doirasi bilan cheklanmaydi.

Ta'limning bir bosqichidan (umumiy o'rta ta'limdan) ikkinchisiga (oliy ta'lim) o'tishda yuzaga keladigan disadaptatsiya akademik o'zlashtirish samaradorligiga ta'sir qiladi. Moslashuv atamasining kelib chiqishi va qo'llanilishi T.V.Daxina ilmiy ishlarida juda batafsil bayon etilgan. Ijtimoiy psixologiyada "moslashish" tushunchasi "shaxsning ijtimoiy muhit sharoitlariga faol moslashishi" deb talqin qilinadi.

G.X.Boronova va N.V.Prusova [1] fikriga ko'ra, moslashuv o'z-o'zini yangi rol, maqom xarakteristikasi va yangi ta'lim muhiti yoki universitetning ta'lim muhiti madaniyati hamda qadriyatlarini (yangi vazifalar, foydali ko'nikmalarni rivojlantirish va o'quv faoliyatining boshqa xususiyatlari bilan obyektiv ravishda to'yingan) qabul qilishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, u yana bir muhim xususiyatni – o'quv muvaffaqiyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan talabaning kasbiy o'zini o'zi qadrlashini o'z ichiga oladi. Professional o'zini o'zi qadrlash ko'p qirrali: bu talabaning o'zini mutaxassis sifatida bilishini, uning kasbiy yo'nalishini, ustuvor kasbiy motivatsiyasini va o'zini o'zi qadrlashini birlashtiradi.

Talabalarning universitetda o'qishga moslashishi muammolarini o'rganayotgan ko'pchilik olimlarning fikriga ko'ra, eng qiyin, "noadaptiv" bu o'rganishning boshlang'ich bosqichi bo'lib, u deyarli disadaptatsiyaning eng kuchli namoyon bo'lish vaqti butun birinchi yil oxirigacha (1-bosqich) davom etadi. O'qishning dastlabki uch yilida talabalarning moslashuv darajasining pasayish dinamikasini o'rganish rus psixologi N.V.Zalesova asarlarida keltirilgan.

Talabalarning o'quv motivatsiyasi tarkibidagi eng muhim psixologik omillardan biri bu kasbiy yo'nalish ekanligi rus psixologi V.A.Yakunin tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda o'z aksini topgan. V.A.Yakuninning fikricha, kasbga yuksak qadriyat munosabati ham ta'limning o'zini-o'zi tashkil etishning yuqori darajasini belgilaydi, kasbiy faoliyatga ijobiy munosabatda bo'lish esa o'quv faoliyati va o'quv fanlarini o'zlashtirishdagi muvaffaqiyatga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Talabalarning bilish faoliyatini shakllantirish, eng avvalo, ushbu faoliyatning subyektiv sifatida talaba shaxsini shakllantirish va rivojlantirish muammosidir. Binobarin, o'qituvchilar oldida talabaning subyektiv pozitsiyasini ta'minlovchi o'quv jarayonini tashkil etish vazifasi turibdi. Bizning fikrimizcha, talabalarning ta'lim motivatsiyasini shakllantirish, umumiy ta'lim ko'nikma va malakalarini oshirish, talabalarning reflektiv qobiliyatlarini rivojlantirish muammolarini ko'rib chiqish zarur.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarini o'qitish muvaffaqiyati ehtimolini shakllantirish modellari va yondashuvlari mustaqil davlatlar hamdo'stligiga a'zo bo'lgan mamlakatlar olimlaridan V.I.Lyalikova,



G.A.Xatskevich, V.N.Sosnitskiy, N.I.Potantin, V.A.Shevchenko, I.M.Xaritonov, Ye.G.Krushel, O.O.Privalov, I.V.Stepanchenko va O.V.Stepanchenkolarning ilmiy asarlarida ko'rib chiqilgan.

V.I.Lyalikova va G.A.Xatskevichlar o'z ilmiy asarida talabalarning oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv muvaffaqiyatlarini bashorat qilishda kirish imtihonlari ma'lumotlariga tayanish lozimligini ko'rsatib bergan. I.M.Xaritonov, Ye.G.Krushel, O.O.Privalov, I.V.Stepanchenko va O.V.Stepanchenkolar o'z ilmiy ishlarida oliy ta'lim muassasalarida o'qitish sifatini oldindan baholashda regression tahlil usullarining imkoniyatlarini ochib berishgan. V.A.Shevchenko esa o'z ilmiy izlanishlarida talabalar o'zlashtirishini klasterli tahlil asosida ehtimollash uslubini keltirgan.

Ta'lim jarayonining natijasi – o'zlashtirish, ichki va tashqi faoliyatni maqsadga muvofiq ravishda o'zgartirishdir. Ta'lim bir odamning boshqasiga bilim va ko'nikmalar berishidir. Bilim, ko'nikma va malakalar ta'lim jarayonining natijasidir. Bilimlarni o'zlashtirish jarayoni muammosi P.Y.Galperin va N.F.Talizina [8] tomonidan o'rganilgan. Ular aqliy hatti-harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasini ishlab chiqqanlar. Mualliflar aqliy hatti-harakatlarni moddiy holda tashqi nutq yordamida hamda aqliy shaklda, fikrda namoyon bo'lishini izohlab berganlar. Aqliy hatti-harakatlarning birinchi bosqichi rasm, sxema, diagramma va shartli belgilar tarzida o'z ifodasini topadi. Aqliy hatti-harakatlarning ikkinchi bosqichi ko'rgazmalardan olgan tasavvurlari to'g'risida talabalarning ovoz chiqarib, fikr yuritishidan iboratdir. Uchinchi bosqich esa, subyekt ongida tasavvur, tushuncha, qonuniyat, xossa, xususiyat, operatsiya, yangi usul tariqasida namoyon bo'ladi. To'rtinchi bosqichda bajarilgan hatti-harakatlar ichki rejada ovoz chiqarilmay bajariladi. Beshinchi bosqichda esa faoliyatni fikran bajarishga o'tiladi.

Bundan ravshan ko'rinib turibdiki, materialni asosan yodlab olish va xotirada saqlab qolishga asoslanadigan ta'lim hozirgi talablarga qisman javob bermoqda. Talabalarga hamisha yangilanib turadigan axborotni mustaqil ravishda o'zlashtirib borishga va o'qishni bitirib ketganidan keyin, kishiga jadal sur'atlar bilan o'sib borayotgan fan-texnika taraqqiyotidan orqada qolib ketmaslik imkoniyatini beradigan qobiliyatlar taraqqiyotini beruvchi tafakkur sifatlarini tarkib toptirishi muammosi birinchi o'ringa chiqib bormoqda. Olimlarning ta'kidlashicha, ta'lim jarayonida o'zlashtirishning muvaffaqiyati quyidagilarga bog'liq:

1. Ta'lim mazmuniga;
2. O'quv rejalari, dasturlari, dasrlıklar va o'quv qo'llanmalarining mavjudligiga;
3. Ta'lim metodikalarini takomillashganligiga;
4. O'qituvchi mahoratiga;
5. Talabaning motivatsion yo'nalganligiga;
6. Talabaning individual psixologik xususiyatlariga.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turli individual tipologik xususiyatlarga ega talabalar uchun ta'limning yagona, qulay va optimal sharoitlarini yaratish mumkin emas. Ammo o'zlashtirishning samaradorligini oshirishda muammoli ta'lim, noan'anaviy ta'lim usullarini qo'llash, shuningdek, milliy-madaniy muhit, turmush tarzi va zamonaviy fan-tehnologiyalarning yutuqlarini uyg'un holda qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Боронова Г.Х. Психология труда: конспект лекций для преподавателей и студентов психологических, экономических и управленческих факультетов. - Саратов: Научная книга, 2008. - 158 с.
2. Гребнева Д.М. Учебная успешность как процесс и результат педагогического взаимодействия / Педагогическое образование в России. - 2011. - № 1. - С. 251-254.
3. Ионина О.С. Проявления индивидуального стиля учебно-профессиональной деятельности студента / О. С. Ионина. – М.: - 2015. - № 212. - С. 16-20.



4. Курапова Т.Ю. Психологические факторы успешности обучения школьников. - Серия: Педагогика и психология. - 2011. - № 5. - С. 223-225.
5. Gore P.A. Academic Self-Efficacy as a Predictor of College Outcomes: Two Incremental Validity Studies // Journal of Career Assessment. - 2006. - № 14 (1). - P. 92-115.
6. Gore P.A. Academic Self-Efficacy as a Predictor of College Outcomes: Two Incremental Validity Studies // Journal of Career Assessment. - 2006. - № 14 (1). - P. 92-115.
7. Столяренко Л.Д. Основы психологии: учебное пособие / Л.Д. Столяренко. - Ростов-на-Дону: Феникс, 1995. - 736 с.
8. Талызина Н.Ф. Педагогическая психология: учебное пособие для студентов средних педагогических учебных заведений. - Москва: Академия, 1998. - 288 с.
9. Шабалина М.Р. Педагогические условия повышения академической успешности студентов. Дисс-я на соис. уч. степ. канд. пед. наук. – М., 2009. - 235 с.
10. Hansen, Stephen L., and Peggy Lowry, «Reconsidering Research Administration at Predominantly Undergraduate Colleges and Universities». 11, No. 2 (Fall 2000).

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Anarboev Hayitboy Eshboy o'g'li

QarDu tayanch doktoranti

Manzil: O'zbekiston, Qarshi shahar

IRODA SOHASINING INSON RESURSI SIFATIDAGI MAZMUNI: NAZARIY YONDASHUVLAR VA RAHBARLIK FAOLIYATI TALQINI



Qalandarov Umidbek Ravshanbekovich
Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya.

KIRISH: Maqolada iroda fenomenining inson resursi sifatidagi mazmuni, uni rahbar shaxsining kasbiy va shaxsiy rivojlanishidagi asosiy psixologik mexanizm sifatida talqin etish masalalari tahlil qilingan. Zamonaviy faylasuflarning irodaga oid konseptual yondashuvlari umumlashtirilgan. Iroda ijtimoiy va shaxsiy faoliyatni boshqaruvchi integrativ tizim sifatida qaralib, rahbar shaxsining qaror qabul qilish, motivatsiya va o'zini anglash jarayonlarida tutgan o'rni yoritilgan. Shuningdek, tarixiy manbalar asosida rahbarlik va boshqaruv tizimi rivojlanishining irodaviy mexanizmlar bilan uzviy bog'liqligi asoslab berilgan.

MAQSAD: Iroda sohasini ilmiy psixologik tahlil qilish va o'rganish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Irodaviy regulyatsiyaning ontogenezdagi rivojlanish dinamikasi T.I. Shulga va A.V. Bykov ishlarida batafsil tahlil qilingan bo'lib, mualliflar irodaviy boshqaruvning shakllanish jarayonini psixologik jihatdan asoslab berganlar. Ularning fikriga ko'ra, irodaviy regulyatsiya shaxsiy rivojlanishning yuqori bosqichi sifatida qaralishi mumkin.

Baholovchi-natijaviy bo'g'indagi yoshga oid o'zgarishlar esa regulyatsiya samaradorligining ortishi bilan bevosita bog'liqdir. Tadqiqotchilarning bir qismi irodaviy jarayonlarni muvaffaqiyatsizlikning salbiy ta'sirini yengib o'tish va bu sharoitda xatti-harakatni tartibga solish mexanizmlari bilan aloqador holda tahlil qiladilar. Shu bois, rahbar shaxsning o'z faoliyati va shaxsiyatini takomillashtirish uchun qo'llaydigan usullari ko'lami ortib boradi hamda bu usullar vaziyat talablari bilan moslashuvchanlik darajasiga ko'ra yanada samaraliroq bo'lib boradi.

XULOSA: Rahbarlik va unda irodaviy sifatlarning rivojlanishi rahbarlarning individual o'ziga xosligi, ijtimoiy tajribasi, xodimlar bilan munosabatining tashkil qilinishi va jamiyat talablari asosida shakllanib, o'sib borishi, talablar va ehtiyojlarga ko'ra farqlanishi kuzatilar ekan. Erkak rahbarlarda boshqaruv potentsiali ko'rsatkichlari ayollarnikiga nisbatan yuqori ekanligi ko'p hollarda erkaklarning rahbarlik lavozimlarida ko'proq faoliyat yuritishi, amaliy boshqaruv tajribasining boyligi hamda rahbarlik kompetensiyalarining bevosita faoliyat jarayonida takomillashuvi bilan izohlanadi. Erkak rahbarlarda boshqaruv potentsialining yuqoriroq namoyon bo'lishi faqat individual psixologik xususiyatlar bilan emas, balki ijtimoiy sharoit, sotsializatsiya jarayonlari, kasbiy tajriba va psixologik tayyorgarlik darajasi bilan ham bog'liqdir.

Kalit so'zlar: iroda, irodaviy regulyatsiya, rahbarlik psixologiyasi, boshqaruv tizimi, inson resursi, irodaviy siflatlar, refleksiya, motivatsiya, shaxsiy rivojlanish, psixologik mexanizmlar.



СОДЕРЖАНИЕ ВОЛИ КАК ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РЕСУРСА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЛИДЕРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Каландаров Умидбек Равшанбекович

научный сотрудник Ургенчского государственного университета

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В статье анализируется содержание феномена воли как человеческого ресурса, его трактовка как основного психологического механизма профессионального и личностного развития лидера. Обобщены концептуальные подходы современных философов к воле. Воля рассматривается как интегративная система, управляющая социальной и личностной деятельностью, и освещается роль лидера в процессах принятия решений, мотивации и самосознания. Также, на основе исторических источников, обосновывается неразрывная связь развития системы лидерства и управления с волевыми механизмами.

ЦЕЛЬ: Научно-психологический анализ и исследование волевой сферы.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Динамика развития волевой регуляции в онтогенезе подробно проанализирована в работах Т.И. Шульги и А.В. Быкова, авторы психологически обосновали процесс формирования волевой регуляции. По их мнению, волевая регуляция может рассматриваться как более высокая стадия развития личности. Возрастные изменения в оценочно-результативной стадии напрямую связаны с повышением эффективности регуляции. Некоторые исследователи анализируют волевые процессы в контексте механизмов преодоления негативного влияния неудачи и регулирования поведения в этой ситуации.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Лидерство и развитие волевых качеств в нём формируются и развиваются на основе индивидуальной идентичности руководителей, социального опыта, организации их взаимоотношений с сотрудниками и требований общества и различаются в зависимости от требований и потребностей. Тот факт, что у мужчин-руководителей показатели управленческого потенциала выше, чем у женщин, часто объясняется тем, что мужчины чаще работают на руководящих должностях, имеют богатый практический опыт управления и совершенствуют свои лидерские компетенции непосредственно в процессе своей работы.

Ключевые слова: воля, волевая регуляция, психология лидерства, система управления, человеческие ресурсы, волевые качества, рефлексия, мотивация, личностное развитие, психологические механизмы.

THE CONTENT OF THE WILL AS A HUMAN RESOURCE: THEORETICAL APPROACHES AND INTERPRETATION OF LEADERSHIP ACTIVITY

Qalandarov Umidbek Ravshanbekovich

Researcher at Urgench State University

Annatation.

INTRODUCTION: The article analyzes the content of the phenomenon of will as a human resource, its interpretation as the main psychological mechanism in the professional and personal development of a leader. The conceptual approaches of modern philosophers to will are summarized. Will is considered as an integrative system that governs social and personal activity, and the role of the leader in the processes of decision-making, motivation and self-awareness is highlighted. Also, based on historical sources, the inextricable link between the development of the leadership and management system and volitional mechanisms is substantiated.

THE GOAL: Scientific psychological analysis and study of the sphere of will.

MATERIALS AND METHODS: The dynamics of the development of volitional regulation in ontogenesis was analyzed in detail in the works of T.I. Shulga and A.V. Bykov, the authors psychologically substantiated the process of formation of volitional management. According to them, volitional regulation can be considered as a higher stage of personal development.

Age-related changes in the evaluative-resultative stage are directly related to the increase in the effectiveness of regulation. Some researchers analyze volitional processes in relation to mechanisms for overcoming the negative impact of failure and regulating behavior in this situation. Therefore, the range of methods used by a leader to improve his activities and personality is increasing, and these methods are becoming more effective depending on the degree of adaptation to the requirements of the situation.

CONCLUSION: Leadership and the development of volitional qualities in it are formed and grow on the basis of the individual identity of leaders, social experience, the organization of their relationships with employees and the requirements of society, and differ according to requirements and needs. The fact that male leaders have higher management potential indicators than women is often explained by the fact that men work in leadership positions more often, have a wealth of practical management experience, and improve their leadership competencies directly in the process of their work. The higher manifestation of management potential in male leaders is associated not only with individual psychological characteristics, but also with social conditions, socialization processes, professional experience, and the level of psychological preparation.

Keywords: will, volitional regulation, leadership psychology, management system, human resources, volitional qualities, reflection, motivation, personal development, psychological mechanisms.

Bugungi kunda fan-texnikani rivojlanishi natijasida odam-odam tizimidagi faoliyat yuritadigan kasblarda shaxs psixik rivojlanishida ma'lum o'zgarishlar kuzatilmoqda. Bu o'zgarishlarning biri sifatida shaxslararo munosabatlarda muloqot ko'nikmasini namoyon bo'lishi, boshlagan ishni oxirigacha olib borish, maqsad qo'yish va unga erishish kabilarda shaxs irodaviy sifatlarining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi.

Irodani mexanizm sifatida ko'rib chiqish, uni insonning ongli faoliyatini tartibga soluvchi murakkab psixologik tizim sifatida talqin etish imkonini beradi. Iroda sohasini inson resursi sifatida o'rganishda turli nazariy yondashuvlar metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur yondashuvlar o'z mohiyati jihatidan integrativ xarakterga ega bo'lib, irodani rahbar shaxsining rivojlanish resursi sifatida yaxlit ilmiy model doirasida tavsiflash imkonini beradi.

Irodani o'rganishda asosiy nazariy tayanch rivojlanish prinsipi hisoblanadi. Ushbu prinsipga asoslanib aytish mumkinki, rahbar shaxsining iroda sohasida namoyon bo'ladigan jihatlarini shunchaki psixologik fakt sifatida emas, balki uning shaxsiy hayoti va kasbiy yo'li davomida amalga oshiradigan faol harakatlar tizimi sifatida talqin etish lozim. Bunda iroda rahbarning o'z hayotiy strategiyasini ro'yobga chiqaruvchi, shaxsiy va kasbiy o'sish jarayonini boshqaruvchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Rahbar shaxsining iroda sohasini tahlil etishda irodaviy komponentlarni ikki darajada — **kasbiy boshqaruv faoliyati** va **shaxsiy hayotiy strategiya** kontekstida ko'rib chiqish zarur. Shu asosda, biz iroda va boshqaruv tizimlarining o'zaro aloqadorligini ilmiy adabiyotlarda mavjud konseptual yondashuvlar asosida tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Tarixiy manbalarga murojaat qilganda, miloddan avvalgi XIX–VI asrlarda shakllangan ilk davlatlarda boshqaruv tizimining markaziy o'rni harbiy uyushmalarga – piyodalar, otliqlar va aravachilardan iborat tuzilmalarga tegishli bo'lganligi qayd etiladi [4]. Bu ma'lumotlar rahbarlikning shakllanishi tarixan boshqaruv tizimi evolyutsiyasi bilan bevosita bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Boshqaruv tizimi va rahbarlik faoliyatining o'ziga xos jihatlarini, jumladan, irodaviy sohani o'rganish jarayoni ham tarixiy taraqqiyot davomida shakllanib borgan. Aristotel irodani "ijtimoiy tabiatga ega jarayon" sifatida izohlab, insonning qaror qabul qilish qobiliyatini uning ijtimoiy burchni anglash darajasi bilan bog'laydi [3]. Bu yondashuv rahbarlik faoliyatini faqat individual manfaatlar asosida emas, balki jamiyat oldidagi mas'uliyat bilan uyg'un holda talqin etish zarurligini anglatadi. Shu bois, rahbarlikdagi qaror qabul qilish jarayoni shaxsiy ehtiyoj va ijtimoiy manfaatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashni talab qiladi.

Faylasuf Avreliy Avgustin esa irodani ruh va tananing harakatlarini boshqaruvchi kuch sifatida izohlagan. Unga ko'ra, iroda inson ruhini o'zini anglashga undaydi, sezgilar orqali hosil bo'lgan taassurotlardan obrazlar yaratadi hamda ongda mavjud g'oyalarni yuzaga chiqaradi. Shu tarzda iroda insonning ichki ruhiy olami va tashqi faoliyat o'rtasidagi vositachi kuch sifatida talqin etiladi.

A. Shopenhauer va E. Gartman irodani "koinotning ko'r va ongsiz birlamchi kuchi" sifatida talqin qilib, barcha psixik jarayonlarning manbai sifatida ko'rsatganlar. Shopenhauerning fikricha, ong va intellekt irodaning ikkilamchi ko'rinishlaridir [5]. Mazkur yondashuvdan kelib chiqadigan xulosa shuki, rahbarlik faoliyatida insonning tashabbusi, qat'iyati va harakatga undovchi kuchi aynan irodaviy energiya bilan bog'liqdir. Demak, haqiqiy samarali rahbarlik faqat rasmiy bilim va aql bilan emas, balki kuchli ichki ruhiy energiya — iroda bilan belgilanadi.

E. Gartmann "iroda – ko'r va ongsiz kuch" degan ta'rifi esa rahbarlik faoliyatida qarorlar qabul qilish jarayonida ongli fikrlash ortida ko'pincha ong osti motivlari, ichki ehtiyojlar va emotsional impulslar yotishini ko'rsatadi [5]. Bu esa rahbar shaxsining o'z-o'zini anglash darajasini chuqurlashtirish, ichki motivlarni tahlil qilish hamda ong osti ehtiyojlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish zaruratini ta'kidlaydi.

E.P. Ilyin yondashuviga ko'ra, iroda tafakkur va xotira kabi ongli, maqsadga yo'naltirilgan psixik jarayonlar qatoriga kiradi hamda shaxs faoliyati va xulq-atvorini boshqarishni ta'minlovchi psixologik mexanizmlar majmuasini ifodalaydi. Olim, boshqa bir qator tadqiqotchilar singari, irodaviy va ixtiyoriy regulyatsiya tushunchalarini farqlab, ularning o'zaro munosabatini aniqlashtirishga e'tibor qaratgan. Shu bilan birga, "boshqaruv" atamasining "regulyatsiya" tushunchasidan farqli jihatlarini ko'rsatib, ularni alohida kategoriyalar sifatida talqin etish zarurligini ta'kidlaydi.

Irodaviy regulyatsiya ixtiyoriy boshqaruvning o'ziga xos shakli sifatida namoyon bo'lib, irodaviy harakatlar orqali shaxsning maqsadga yo'naltirilgan faoliyati amalga oshiriladi. Bu jarayonda irodaviy kuchning namoyon bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u irodaviy xatti-harakatlarning samaradorligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi [5]. Shunga ko'ra, irodaviy regulyatsiyaning tarkibiy bo'g'inlari ontogenez davomida yoshga bog'liq ravishda turlicha namoyon bo'ladi; rahbar shaxslar misolida esa motivatsion bo'g'inning yanada barqaror, ongli va ichki motivlar bilan mustahkamlangan shakllari kuzatiladi.

A.G. Shmelev irodaviy sifatni individning muayyan xulq shakliga nisbatan barqaror dispozitsiyasi sifatida izohlaydi. U bu xususiyatni sub'yekt tajribasining muayyan vaziyatlardagi umumlashtirilgan ko'rsatmalari bilan bog'liq holda tahlil qiladi [13].

V.A. Ivannikov va E.V. Eydman tadqiqotlarida 16 ta asosiy irodaviy sifatni ajratib, ularning shaxsda ifodalanish darajasini semantik differensial usulida baholashgan [6].

Iroda psixologiyasi bo'yicha turli mualliflar tomonidan 10 tadan 34 tagacha irodaviy sifat ajratib ko'rsatilgan bo'lib, bu xilma-xillik irodaviy tuzilmaning ko'p qirrali tabiatini tasdiqlaydi [5].

Iroda fenomenini refleksiya bilan bog'liq holda tahlil qilish an'anasi psixologiya tarixida uzoq ildizlarga ega. Zamonaviy tadqiqotlarda refleksiya ixtiyoriy xatti-harakatni regulyatsiya qiluvchi asosiy psixologik mexanizm sifatida talqin etiladi, bu esa irodaviy jarayonlarni o'z-o'zini anglash va o'ziga nisbatan munosabat tizimi bilan bog'lash imkonini beradi [7].

Irodaviy regulatsiyaning ontogenezdagi rivojlanish dinamikasi T.I. Shulga va A.V. Bykov ishlarida batafsil tahlil qilingan bo'lib, mualliflar irodaviy boshqaruvning shakllanish jarayonini psixologik jihatdan asoslab berganlar [2]; [11]; [12]. Ularning fikriga ko'ra, irodaviy regulatsiya shaxsiy rivojlanishning yuqori bosqichi sifatida qaralishi mumkin.

Baholovchi-natijaviy bo'g'indagi yoshga oid o'zgarishlar esa regulatsiya samaradorligining ortishi bilan bevosita bog'liqdir. Tadqiqotchilarning bir qismi irodaviy jarayonlarni muvaffaqiyatsizlikning salbiy ta'sirini yengib o'tish va bu sharoitda xatti-harakatni tartibga solish mexanizmlari bilan aloqador holda tahlil qiladilar [8]; [9]; [10]. Shu bois, rahbar shaxsning o'z faoliyati va shaxsiyatini takomillashtirish uchun qo'llaydigan usullari ko'lami ortib boradi hamda bu usullar vaziyat talablari bilan moslashuvchanlik darajasiga ko'ra yanada samaraliroq bo'lib boradi.

Muvaffaqiyatsizlikni tahlil qilish nazariyalarida baholash mexanizmlari alohida o'rin tutadi. N.A. Baturin bu jarayonni umumpsixologik darajada tahlil qilib, unda emotsional omilning ahamiyatini ko'rsatgan, biroq irodaviy komponentlarning roliga nisbatan nisbatan kamroq e'tibor qaratgan [1]. Shuningdek, irodaviy sifatlarining shakllanishi faqat biologik yosh bilan emas, balki kasbiy ijtimoiy tajriba, rahbarlik pozitsiyasida bo'lish muddati, shaxsiy xususiyatlar, mehnat muhitining talablari hamda tashkilotdagi rolining ahamiyati bilan ham uzviy bog'liqdir.

Demak, turli yoshdagi rahbar shaxslarida irodaviy jarayonlarning rivojlanishi yoshga bog'liq bo'lgan bosqichli psixologik yetilish, kasbiy tajribaning ortishi va shaxsiy-professional o'sish omillarining o'zaro ta'siri natijasidir. Bu holat rahbarlik kompetensiyalarini baholash va rivojlantirishda yosh va jinsiy omilni va hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Shu maqsadda tadqiqot ishimizning psixodiagnostik qismida ushbu jihatlarni hisobga olinishini lozim topdik. Quyida raxbarlarda boshqaruv potentsiali va imkoniyatini baholashda jins tafovutiga ko'ra natijalarni kuzatishimiz mumkin.

Yu.V.Sinyaginning “Raxbarning boshqaruv potentsiali va imkoniyatini ekspress baholash” so'rovnomasi jins tafovuti bo'yicha natijalari, Mann Uitni mezonida, n=213

Shkalalar	Jinsi	N	O'rtacha rang	U	P
Boshqaruv potentsiali	Erkaklar	62	137,73	2775,500	0,000**
	Ayollar	151	94,38		
	Jami	213			

Izoh: **p<0,01

Yu.V.Sinyaginning “Raxbarning boshqaruv potentsiali va imkoniyatini ekspress baholash” so'rovnomasi jins tafovuti bo'yicha qiyoslanganda, boshqaruv potentsialida ishonchli tafovutlar kuzatildi ($U=2775,5$; $p \leq 0,01$). Natijaga ko'ra, erkak raxbarlarda ayollarga nisbatan boshqaruv potentsiali yuqori ifodalanar ekan. Aytish mumkinki, ko'pgina tashkilotlarda rahbarlik lavozimlarida erkaklar soni ko'proq bo'lishi ularga boshqaruv faoliyati orqali tajriba orttirish imkonini beradi. Natijada, boshqaruv kompetensiyalari amalda ham mustahkamlanishi kuzatiladi. Demak, jins tafovuti asosida erkaklarda boshqaruv potentsialining yuqoriroq ifodalanishi, nafaqat shaxsiy fazilatlar, balki ijtimoiy omillar, sotsializatsiya, kasbiy tajriba va psixologik tayyorgarlik bilan bog'liq bo'lishi mumkin ekan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, raxbarlik va unda irodaviy sifatlarining rivojlanishi raxbarlarning individual o'ziga xosligi, ijtimoiy tajribasi, xodimlar bilan munosabatining tashkil qilinishi va jamiyat talablari asosida shakllanib, o'sib borishi, talablar va ehtiyojlarga ko'ra farqlanishi kuzatilar ekan. Erkak rahbarlarda boshqaruv potentsiali ko'rsatkichlari ayollarnikiga nisbatan yuqori ekanligi ko'p hollarda erkaklarning rahbarlik lavozimlarida ko'proq faoliyat yuritishi, amaliy boshqaruv tajribasining boyligi hamda rahbarlik kompetensiyalarining bevosita faoliyat jarayonida takomillashuvi bilan izohlanadi. Erkak rahbarlarda boshqaruv potentsialining yuqoriroq namoyon bo'lishi faqat individual psixologik xususiyatlar bilan emas, balki ijtimoiy sharoit, sotsializatsiya jarayonlari, kasbiy tajriba va



psixologik tayyorgarlik darajasi bilan ham bog'liqdir. Umuman olganda, rahbarlik faoliyatida irodaviy sifatlarning rivojlanishi rahbar shaxsining individual o'ziga xosligi, jamiyatlardagi ijtimoiy tajribasi, xodimlar bilan o'zaro munosabatni tashkil etish uslubi hamda tashqi ijtimoiy talab va ehtiyojlar ta'sirida shakllanadi. Bu esa rahbarning boshqaruv samaradorligini oshirishda irodaviy, motivatsion va kommunikativ komponentlarning o'zaro uyg'unligi muhim omil ekanini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Батурин Н. А. *Психология успеха и неудачи*. – Челябинск, 1999
2. Быков А. В., Шульга Т. И. *Становление волевой регуляции в онтогенезе*. – М.: Изд-во УРАО, 1999
3. Зимняя И. А. *Педагогическая психология*. – М.: Просвещение, 2000. – 247 с
4. Ильин Е. П. *Психология воли*. – СПб.: Питер, 2009. – 368 с
5. Иванников В. А., Эйдемн Е. В. *Структура волевых качеств по данным самооценки* // *Психологический журнал*. – 1990. – №3
6. Richard L. Gregory. *The Oxford Companion to the Mind*. – P. 445–447
7. Селиванов В. И. *Психология волевой активности*. – Рязань, 1974

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Qalandarov Umidbek Ravshanbekovich

Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi

Manzil: O'zbekiston, Urganch shahar

PEDAGOGIK FAOLIYATDAGI EMOTSIONAL ZO'RIQISHNI YENGISHNING PSIXOLOGIK MODEL



Qobilov Husniddin Norqo'chqor o'g'li
Qarshi davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada pedagogik faoliyatda uchraydigan emotsional zo'riqish holatlari va ularni yengishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik modelning nazariy asoslari yoritilgan. Emotsional zo'riqishning pedagog shaxsiga ta'siri, uning kasbiy motivatsiyasi, hissiy barqarorligi va ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqasi tahlil qilinadi. Maqolada o'qituvchilarning stress holatlarini aniqlash, ularni baholash va profilaktik choralar ko'rishga yo'naltirilgan tizimli yondashuvlar bayon etiladi. Xususan, psixologik yordam, kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi va o'z-o'zini boshqarish strategiyalari asosida shakllantirilgan modelning pedagog amaliyotiga ta'siri ilmiy asosda o'rganilgan. Mazkur tadqiqot natijalari asosida emotsional zo'riqishni kamaytirish bo'yicha aniq takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola psixologlar, pedagoglar, oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari va kasbiy rivojlanish bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun amaliy ahamiyatga egadir.

MAQSAD: Pedagogik faoliyatda emotsional zo'riqishlarning psixologik sabablarini ilmiy tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: Emotsional zo'riqish - bu insonning tashqi yoki ichki salbiy ta'sirlarga nisbatan psixologik va fiziologik javobidir. Pedagoglar faoliyatida bu holat yuqori darajadagi psixologik yuklama, mas'uliyat va kommunikativ bosim natijasida vujudga keladi. O'qituvchi har kuni turli yoshdagi o'quvchilar bilan ishlaydi, o'z darslarini sifatli o'tkazishi, intizomni ta'minlashi va o'z faoliyatini samarali tashkil etishi zarur. Bularning barchasi o'z navbatida hissiy charchoq, ruhiy toliqish va emotsional beqarorlikka olib kelishi mumkin. Bu zo'riqish holatlari tajovuzkorlik, depressiv kayfiyat, befarqlik, mehnatga bo'lgan ishtiyoqning kamayishi kabi belgilar bilan kechadi. Emotsional zo'riqishning turli shakllari mavjud: yashirin stress, ochiq emotsional reaksiya, tashqi tahdidga nisbatan passivlik va psixosomatik namoyonlar. Pedagogda ushbu holatlarning mavjudligi uning kasbiy faoliyatini yomonlashtiradi, o'quvchilar bilan bo'lgan munosabatlar buziladi. Shuning uchun bu holatning erta aniqlanishi muhim ahamiyatga ega.

XULOSA: Pedagogik faoliyatda emotsional zo'riqish bu shunchaki individual muammo emas, balki ta'lim tizimining umumiy sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida qaralishi lozim. Tadqiqotda ko'rsatib o'tilganidek, o'qituvchilarning ruhiy salomatligi ularning professional faoliyati, o'quvchilar bilan muloqoti, shaxsiy hayoti va sog'lig'i bilan bevosita bog'liqdir. Emotsional zo'riqishning sabablari murakkab bo'lib, ular ijtimoiy, iqtisodiy, tashkiliy va shaxsiy omillardan iboratdir. Shu boisdan, muammoni hal etish ijtimoiy-psixologik model asosida yondashishni talab qiladi. Bu modelda pedagogning individual holati, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi, maktab muhitining sifatlari va stressni yengish strategiyalari uzviy holda ko'rib chiqiladi. Rejalar asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar autogen

mashqlar, psixoterapevtik yordam, mehnat sharoitini yaxshilash, dam olish va motivatsion dasturlar pedagoglar emotsional barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit soʻzlar: Emotsional zoʻriqish, Ijtimoiy-psixologik model, Pedagogik stress, Psixologik himoya mexanizmlari, Kasbiy charchoq, Ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash, Psixologik salomatlik.

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ПРЕОДОЛЕНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО СТРЕССА В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Кобиров Хусниддин Норкучкарович

Докторант Каршинского государственного университета

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В статье рассматриваются теоретические основы социально-психологической модели преодоления эмоционального стресса в педагогической деятельности. Анализируется влияние эмоционального стресса на личность учителя, его профессиональную мотивацию, эмоциональную устойчивость и взаимодействие с социальной средой. В статье описываются системные подходы, направленные на выявление, оценку и профилактику стресса у учителей. В частности, научно изучается влияние модели, сформированной на основе психологической помощи, развития коммуникативных компетенций, системы социальной поддержки и стратегий самоменеджмента, на педагогическую практику. По результатам исследования разработаны конкретные предложения и практические рекомендации по снижению эмоционального стресса. Статья представляет практическую значимость для психологов, педагогов, преподавателей высших учебных заведений и специалистов, занимающихся профессиональным развитием.

ЦЕЛЬ: Научный анализ психологических причин эмоционального стресса в педагогической деятельности.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Эмоциональный стресс – это психологическая и физиологическая реакция человека на внешние или внутренние негативные воздействия. В педагогической деятельности это состояние возникает вследствие высокой психологической нагрузки, ответственности и коммуникативного давления. Педагог ежедневно работает с учениками разного возраста, должен качественно проводить уроки, обеспечивать дисциплину и эффективно организовывать свою деятельность. Всё это, в свою очередь, может привести к эмоциональному истощению, психическому утомлению и эмоциональной неустойчивости. Эти состояния стресса сопровождаются такими симптомами, как агрессия, депрессивное настроение, апатия, снижение энтузиазма в работе. Существуют различные формы эмоционального стресса: латентный стресс, открытая эмоциональная реакция, пассивность к внешней угрозе и психосоматические проявления. Наличие этих состояний у педагога ухудшает его профессиональную деятельность и нарушает отношения с учениками. Поэтому важно раннее выявление этого состояния.

ВЫВОД: Эмоциональный стресс в педагогической деятельности – это не просто индивидуальная проблема, а фактор, влияющий на общее качество системы образования. Как показано в исследовании, психическое здоровье педагогов напрямую связано с их профессиональной деятельностью, общением с учениками, личной жизнью и здоровьем. Причины эмоционального стресса сложны и включают социальные, экономические, организационные и личностные факторы. Поэтому для решения этой проблемы необходим подход, основанный на социально-психологической модели. Эта модель комплексно учитывает индивидуальную ситуацию учителя, систему социальной поддержки, особенности школьной



среды и стратегии совладания со стрессом. Рекомендации, разработанные на основе планов аутогенной гимнастики, психотерапевтической помощи, улучшения условий труда, отдыха и мотивационных программ, способствуют повышению эмоциональной устойчивости учителей.

Ключевые слова: Эмоциональный стресс, Социально-психологическая модель, Педагогический стресс, Психологические защитные механизмы, Профессиональное выгорание, Социальная поддержка, Психологическое здоровье.

PSYCHOLOGICAL MODEL OF OVERCOMING EMOTIONAL STRESS IN TEACHING ACTIVITY

Qobilov Khusniddin Norqo'chqor o'g'li
Doctoral student at Karshi State University

Annatation.

INTRODUCTION: This article discusses the theoretical foundations of the socio-psychological model aimed at overcoming emotional stress in pedagogical activities. The impact of emotional stress on the personality of a teacher, his professional motivation, emotional stability and interaction with the social environment are analyzed. The article describes systematic approaches aimed at identifying, assessing and taking preventive measures for teachers' stress. In particular, the impact of the model formed on the basis of psychological assistance, development of communicative competencies, social support system and self-management strategies on pedagogical practice is scientifically studied. Based on the results of this study, specific proposals and practical recommendations for reducing emotional stress have been developed. The article is of practical importance for psychologists, teachers, teachers of higher educational institutions and specialists involved in professional development.

THE GOAL: Scientific analysis of the psychological causes of emotional stress in pedagogical activity

MATERIALS AND METHODS: Emotional stress is a person's psychological and physiological response to external or internal negative influences. In the work of teachers, this condition arises as a result of a high level of psychological load, responsibility and communicative pressure. A teacher works with students of different ages every day, must conduct his lessons qualitatively, ensure discipline and effectively organize his activities. All this, in turn, can lead to emotional exhaustion, mental fatigue and emotional instability. These states of stress are accompanied by such symptoms as aggression, depressive mood, apathy, decreased enthusiasm for work. There are various forms of emotional stress: latent stress, open emotional reaction, passivity to an external threat and psychosomatic manifestations. The presence of these conditions in a teacher worsens his professional activity, and relationships with students are disrupted. Therefore, early detection of this condition is important.

CONCLUSION: Emotional stress in pedagogical activity is not just an individual problem, but should be considered as a factor affecting the overall quality of the education system. As shown in the study, the mental health of teachers is directly related to their professional activities, communication with students, personal life and health. The causes of emotional stress are complex and consist of social, economic, organizational and personal factors. Therefore, solving the problem requires an approach based on a socio-psychological model. This model considers the individual situation of the teacher, the social support system, the qualities of the school environment and stress coping strategies in an integrated manner. Recommendations developed on the basis of plans for autogenic exercises, psychotherapeutic assistance, improvement of working conditions, rest and motivational programs serve to increase the emotional stability of teachers.

Keywords: Emotional stress, Socio-psychological model, Pedagogical stress, Psychological defense mechanisms, Professional burnout, Social support, Psychological health.

Bugungi globallashuv jarayonida zamonaviy ta'lim tizimi pedagog shaxsiga yuqori darajada mas'uliyat, emotsional barqarorlik va doimiy psixologik tayyorgarlikni talab qilmoqda. Ta'lim jarayonida o'qituvchining ruhiy holati, ayniqsa emotsional zo'riqish holatlari, uning kasbiy samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, bugungi kunda pedagoglar faoliyatida uchraydigan psixologik bosim, stress va emotsional charchoq holatlarini aniqlash hamda ularni yengish yo'llarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy va amaliy masalaga aylangan. Pedagogik faoliyat mohiyatan murakkab ijtimoiy-psixologik jarayon bo'lib, unda shaxslararo muloqot, tarbiyaviy ta'sir, muomala madaniyati va hissiy barqarorlik doimiy kesishadi. Ayniqsa, ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning ijtimoiy roli, jamoaviy munosabatlari, yuklangan vazifalar ko'lam, ota-onalar va ma'muriyat bilan munosabatlardagi ziddiyatlar emotsional zo'riqish holatlarini yuzaga keltiradi. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, pedagoglarning katta qismi mehnat faoliyati davomida doimiy psixologik bosim ostida ishlaydi, bu esa ularning ruhiy holati va kasbiy faoliyatiga salbiy ta'sir o'tkazadi.

Emotsional zo'riqish muammosi pedagog shaxsini stressga chidamli qilish, uni psixologik qo'llab-quvvatlash, ichki resurslarini safarbar etish va kasbiy motivatsiyasini mustahkamlash zaruratini yuzaga keltiradi. Bunday yondashuvda emotsional zo'riqishni nafaqat shaxsiy muammo sifatida, balki ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida o'rganish lozim bo'ladi. Bu jarayonda emotsional holatlarni baholash, tahlil qilish, va yengishning samarali ijtimoiy-psixologik modellarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Mazkur maqolada pedagogik faoliyatda uchraydigan emotsional zo'riqish holatlari, ularning asosiy sabablari, salbiy oqibatlar hamda bu holatlarni yengishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik modelning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagoglarning ruhiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi individual va tizimli strategiyalar, muassasaviy yondashuvlar ham ko'rib chiqiladi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, pedagoglar salomatligi va psixologik farovonligi nafaqat o'qituvchining shaxsiy hayoti, balki butun ta'lim tizimi sifatiga bevosita ta'sir qiladi.

Emotsional zo'riqish - bu insonning tashqi yoki ichki salbiy ta'sirlarga nisbatan psixologik va fiziologik javobidir. Pedagoglar faoliyatida bu holat yuqori darajadagi psixologik yuklama, mas'uliyat va kommunikativ bosim natijasida vujudga keladi. O'qituvchi har kuni turli yoshdagi o'quvchilar bilan ishlaydi, o'z darslarini sifatli o'tkazishi, intizomni ta'minlashi va o'z faoliyatini samarali tashkil etishi zarur. Bularning barchasi o'z navbatida hissiy charchoq, ruhiy toliqish va emotsional beqarorlikka olib kelishi mumkin. Bu zo'riqish holatlari tajovuzkorlik, depressiv kayfiyat, befarqlik, mehnatga bo'lgan ishtiyoqning kamayishi kabi belgilar bilan kechadi. Emotsional zo'riqishning turli shakllari mavjud: yashirin stress, ochiq emotsional reaksiya, tashqi tahdidga nisbatan passivlik va psixosomatik namoyonlar. Pedagogda ushbu holatlarning mavjudligi uning kasbiy faoliyatini yomonlashtiradi, o'quvchilar bilan bo'lgan munosabatlar buziladi. Shuning uchun bu holatning erta aniqlanishi muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik faoliyat inson omiliga bog'liq faoliyat bo'lib, o'qituvchilar kundalik ish davomida ko'plab ijtimoiy va shaxsiy omillar ta'siriga duch keladilar. Dars rejalariga amal qilishdagi vaqt bosimi, baholashdagi adolatli yondashuv, sinf intizomini saqlashdagi murakkabliklar stressning asosiy manbalari hisoblanadi. Bundan tashqari, ota-onalar bilan muloqotda yuzaga keladigan nizolar, maktab ma'muriyatining talabchanligi va jamoa ichidagi ijtimoiy ziddiyatlar ham pedagogning emotsional holatiga salbiy ta'sir qiladi. O'qituvchilar ko'pincha o'z his-tuyg'ularini bostirishga majbur bo'ladilar, bu esa ichki norozilikni keltirib chiqaradi. Uzoq muddatli zo'riqish esa ruhiy charchoq va professional "yonib ketish" sindromiga olib keladi. Ayniqsa, pandemiya kabi global vaziyatlar o'qituvchilarga qo'shimcha stress yuklamalarini keltirib chiqardi. Yana bir muhim omil - pedagogik faoliyatda mehnat

haqi va ijtimoiy qadrlanish darajasining pastligi bo'lib, bu holat o'ziga nisbatan ishonchning yo'qolishiga sabab bo'ladi. Pedagoglardagi emotsional zo'riqish nafaqat psixologik, balki fiziologik jihatdan ham o'z aksini topadi. Ruhiy bosim ostida bo'lgan pedagoglar ko'pincha asabiylik, e'tiborsizlik, tashvish, tushkunlik kabi holatlarga duch keladilar. Bu holat ularning ish unumdorligini pasaytiradi, dars jarayonining sifati yomonlashadi. Doimiy emotsional zo'riqish holati inson organizmida gipertenziya, yurak-qon tomir kasalliklari, migren, immunitetning pasayishi kabi jismoniy kasalliklarni chaqirishi mumkin. Psixologik tomondan esa, zo'riqish depressiya, xavotirlik buzilishi, professional motivatsiyaning yo'qolishi va umidsizlik holatlarini keltirib chiqaradi. Emotsional holat yomonlashgan pedagoglar o'quvchilarga yetarli mehr-muhabbat ko'rsatmaydi, ularga befarq bo'lib qoladi. Bunday holat esa ta'lim sifati va ijtimoiy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli stress oqibatlarini erta aniqlash va oldini olish muhimdir.

Bugungi kunda emotsional zo'riqishni o'z vaqtida aniqlash va baholash pedagogik faoliyatda ruhiy salomatlikni ta'minlashning asosiy omillaridan biridir. Bunda psixodiagnostik metodlar, so'rovnomalar va testlar keng qo'llaniladi. Masalan, Maslachning professional yonib ketish shkalasi, Lusher testi, Hamilton tashvish shkalasi va Bek depressiya shkalalari pedagoglarning ichki holatini aniqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, individual suhbatlar va guruh diagnostikalari orqali ham o'qituvchining emotsional muvozanat holati baholanadi. Biologik ko'rsatkichlar (masalan, yurak urish ritmi, nafas olish tezligi) orqali ham stress holatini aniqlash mumkin. Baholash jarayonida pedagoglarning emotsional chidamliligi, ichki resurslari va ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari o'rganiladi. Bu esa, yengil stressdan tortib, og'ir depressiv holatlarga qadar bo'lgan bosqichlarni farqlashga imkon yaratadi.

Hozirgi davrda ijtimoiy-psixologik model bu insonning emotsional holatini tushunish va uni yengishga qaratilgan tizimli yondashuvdir. Bu model orqali shaxsiy, guruh va tashkiliy darajadagi omillar bir butun sifatida ko'rib chiqiladi. Pedagogik faoliyatda bu model stressni aniqlash, baholash va yengishga xizmat qiluvchi vositalarni o'z ichiga oladi. Modelda o'qituvchining ichki resurslari, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tarmog'i, tashkilot ichidagi muhit va kommunikatsion vositalar tahlil qilinadi. Har bir darajadagi omil stressning shakllanishiga qanday ta'sir qilishi aniqlanadi. Shuningdek, bu modelda individual reaksiya shakllari temperament, emotsional barqarorlik, moslashuvchanlik hisobga olinadi. Ijtimoiy-psixologik model shaxsni stressdan holi qilish emas, balki uni boshqarishni, unga moslashishni va ruhiy sog'lom muhitni yaratishni ko'zlaydi.

Pedagog faoliyatida emotsional zo'riqishni kamaytirish uchun turli strategiyalar mavjud. Birinchi navbatda, stress omillarini bartaraf etish, mehnat sharoitlarini yaxshilash, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish zarur. Shaxsiy darajada autogen mashqlar, meditatsiya, dam olish texnikalari samarali usullardir. Psixologik maslahat, individual va guruh terapiyalari ham o'qituvchining ruhiy holatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash do'stlar, oila va hamkasblar tomonidan beriladigan hissiy yordam stressga qarshi kurashda muhim o'rin tutadi. Muassasa darajasida esa psixologik xizmatlar faoliyatini kengaytirish, stressga qarshi treninglar o'tkazish, profilaktik tadbirlar tashkillashtirish zarur. Shuningdek, rag'batlantirish tizimlari, malaka oshirish dasturlari ham motivatsiyaning oshiradi. Bularning barchasi o'qituvchini professional faoliyatida psixologik barqarorlikka erishishga olib keladi.

Bugungi kunda ijtimoiy-psixologik model asosida samarali psixologik yordam tizimini yaratish uchun bir nechta muhim bosqichlar mavjud. Avvalo, maktab va ta'lim muassasalarida psixologik xizmatlarni tizimli yo'lga qo'yish zarur. Bu xizmatlar pedagoglarning ruhiy holatini kuzatib borishi, stress belgilarini erta aniqlashi kerak. Keyingi bosqich pedagoglar uchun muntazam psixologik treninglar, seminarlar va konsultatsiyalarni tashkil etish. Shuningdek, rahbarlar o'rtasida ham psixologik yetakchilik madaniyatini shakllantirish muhimdir. O'qituvchilarning o'zaro tajriba almashinuvi va emotsional qo'llab-quvvatlash guruhlarini ham yaxshi natija beradi. Har bir pedagog o'z shaxsiy stress

yondashuvini ishlab chiqishi va ichki resurslarini aniqlashi kerak. Ushbu tizim doirasida doimiy monitoring olib borish orqali tizimning samaradorligi baholanadi.

Pedagoglarning ruhiy salomatligi butun ta'lim jarayonining barqarorligini ta'minlaydi. Shu sababli, ushbu maqolada berilgan tahlillarga asoslanib, bir qator amaliy tavsiyalar ishlab chiqish mumkin. Avvalo, har bir ta'lim muassasasida stress monitoringi yo'lga qo'yilishi zarur. Pedagoglar uchun dam olish kunlari, sog'lomlashtirish mashg'ulotlari, ijtimoiy tadbirlar muntazam tashkil qilinishi kerak. Rahbariyat tomonidan o'qituvchilarga adolatli yondashuv, ochiq muloqot va psixologik qo'llab-quvvatlash ko'rsatilishi lozim. Malaka oshirish kurslarida stressga qarshi kurash bo'yicha alohida modul kiritilishi maqsadga muvofiqdir. Ommaviy axborot vositalarida o'qituvchi mehnatini qadrllovchi materiallar ko'paytirilmog'i lozim. Shuningdek, pedagoglar o'z ruhiy holatiga e'tiborli bo'lishi, emotsiyalarini anglab, ijobiy boshqarishni o'rganishi zarur. Bu esa nafaqat individual, balki tizimli darajada ruhiy salomatlikni ta'minlaydi.

Pedagog faoliyati - bu inson psixikasi va jamiyat taraqqiyotining kesishgan nuqtasida joylashgan murakkab kasb turlaridan biri bo'lib, doimiy emotsional, kognitiv va ijtimoiy yuklamalar bilan tavsiflanadi. Mazkur tahlillarda emotsional zo'riqish tushunchasining pedagoglar faoliyatida qanday namoyon bo'lishi, uning ijtimoiy va psixologik manbalari chuqur ko'rib chiqildi. Ayniqsa, stressning kelib chiqish sabablari orasida professional mas'uliyat, o'quvchilar bilan ishlashdagi qiyinchiliklar, ota-onalar va ma'muriyat bilan murakkab muloqot, ish haqi va ijtimoiy qadrlanishning yetishmasligi yetakchi o'rin egallashi aniqlandi. Muhokama davomida pedagogning ruhiy holatiga ta'sir qiluvchi omillar ko'p qatlamli va o'zaro bog'liq ekani isbotlandi. Bu omillar faqat individual emas, balki tizimli yondashuvni ham talab qiladi. Ayniqsa, "yonib ketish sindromi" (burnout) holatining o'qituvchilar orasida tobora keng tarqalayotgani ushbu masalaning dolzarbligini yanada kuchaytiradi. Ijtimoiy-psixologik model doirasida stress holatlarini boshqarish, aniqlash va yengishga qaratilgan strategiyalar tizimli tarzda yoritildi. Ushbu model doirasida o'qituvchilarning ruhiy holatini mustahkamlash uchun shaxsiy, ijtimoiy va institutsional darajada yondashuvlar taklif qilindi. Muhokama shuni ko'rsatdiki, har bir pedagog o'zining emotsional salomatligiga ongli ravishda yondashmog'i, mehnat muassasalari esa bu yo'nalishda zarur sharoitlarni yaratmog'i zarur. Emotsional zo'riqishni vaqtida baholash, individual va guruh yordam mexanizmlarini yo'lga qo'yish, ta'lim tizimida psixologik xizmatlar tarmog'ini kengaytirish bu muammoni hal etishning eng muhim vositalaridandir.

Pedagogik faoliyatda emotsional zo'riqish bu shunchaki individual muammo emas, balki ta'lim tizimining umumiy sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida qaralishi lozim. Tadqiqotda ko'rsatib o'tilganidek, o'qituvchilarning ruhiy salomatligi ularning professional faoliyati, o'quvchilar bilan muloqoti, shaxsiy hayoti va sog'lig'i bilan bevosita bog'liqdir. Emotsional zo'riqishning sabablari murakkab bo'lib, ular ijtimoiy, iqtisodiy, tashkiliy va shaxsiy omillardan iboratdir. Shu boisdan, muammoni hal etish ijtimoiy-psixologik model asosida yondashishni talab qiladi. Bu modelda pedagogning individual holati, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi, maktab muhitining sifatleri va stressni yengish strategiyalari uzviy holda ko'rib chiqiladi. Rejalar asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar autogen mashqlar, psixoterapevtik yordam, mehnat sharoitini yaxshilash, dam olish va motivatsion dasturlar pedagoglar emotsional barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimining muvaffaqiyati ko'p jihatdan pedagoglarning ruhiy salomatligi va emotsional barqarorligiga bog'liq. Shu sababli, har bir ta'lim muassasasi, rahbariyat va jamiyat o'qituvchining stressini anglab, uni kamaytirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishi lozim. Faqat shundagina biz barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qiluvchi sog'lom va professional pedagogik muhitni shakllantira olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhəri

1. Karimova, Z.T. (2021). Psixologik maslahat va diagnostika asoslari. Toshkent: TDPU nashriyoti.



2. Lazarus, R.S., & Folkman, S. (1984). Stress, Appraisal, and Coping. New York: Springer Publishing Company.
3. Barlow, D.H., & Durand, V.M. (2015). Abnormal Psychology: An Integrative Approach. Belmont: Cengage Learning.
4. Xolmatova, N.N. (2019). Zamonaviy psixologiyaning asosiy yo'nalishlari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
5. American Psychological Association (APA). (2023). Stress in America Survey Reports. Retrieved from
6. Erkaev, Sh.N., & Hasanov, M.X. (2018). Ijtimoiy psixologiya asoslari. Toshkent: Fan nashriyoti.
7. Maslach, C., & Leiter, M.P. (1997). The Truth About Burnout: How Organizations Cause Personal Stress and What to Do About It. San Francisco: Jossey-Bass.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Qobilov Husniddin Norqo'chqor o'g'li

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

Manzil: Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on tumani

Bog'oro mahallasi Bog'oro 1 ko'chasi

JINOYAT ISHLARIDA SUD PSIXOLOG EKSPERTI IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK KOMPETENTLIGINING NAMOYON BO'LISHI



Yarashov Azizbek Lazizovich
Buxoro davlat universiteti talabasi

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada Jinoyat ishlari doirasida sud psixolog-ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligini takomillashtirishning o'ziga xos jihatlari nazariy hamda amaliy tadqiqi ochib berilgan bo'lib, sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar, sud psixolog ekspertidagi kommunikativ, emotsional va shaxslilik komponentlarining namoyon bo'lishi va rivojlanishini tadqiq qilish; sud psixolog ekspertlarining sotsial-psixologik kompetentligini rivojlantirishda ularning sud-huquq tizimi bilan bog'liqligi ochib berilgan.

MAQSAD: Jinoyat ishlari doirasida sud psixolog-ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligini baholash orqali sud psixolog eksperti faoliyatida ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarining namoyon etilishini aniqlash va ularning kasbiy kompetentlik bilan o'zaro mutanosib rivojlanishi asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: Zamonaviy psixologiyada sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligini takomillashtirish muammosini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilar ekanmiz, ulardagi kasbiy va ijtimoiy-psixologik kompetentlik metodologiyasiga aloqador bo'lgan ko'plab psixologik xususiyatlarni nazariy jihatdan izohlashga alohida e'tibor qaratdik. Bir qancha ilmiy adabiyotlarning tahliliga asoslanadigan bo'lsak, ijtimoiy-psixologik kompetentlikni aniqlashga doir tadqiqotchilar tomonidan turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'ishimiz mumkin.

Jinoyat ishlari doirasida sud psixolog-ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligi – bu mutaxassisning jinoyat ishini tergov qilish yoki sudda ko'rib chiqish jarayonida psixologik bilim va ko'nikmalarni qo'llash bo'yicha kasbiy tayyorgarligi, ijtimoiy tushunish darajasi, hamda psixologik muhitni baholash va tahlil qilish qobiliyatidir.

Sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligini o'rganish bo'yicha olib borilgan kuzatishlarimiz va tadqiqot muammosiga aloqador bo'lgan fundamental adabiyotlar tahlili ijtimoiy-psixologik kompetentlik muammolari bilan shug'ullanuvchi olimlarning qarashlariga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligi deganda - sud psixolog ekspertining shunday kasbiy faoliyati nazarda tutiladiki, bunda yetarlicha yuqori darajada amaliy kasbiy faoliyat, kasbiy muomalani amalga oshira olishi nazarda tutiladi. Ayni paytda, sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligi uning kasbiy bilim va malakalari, boshqa bir tomondan esa kasbiy pozitsiyasi va psixologik sifatlari mutanosibligi bilan baholanishi mumkin.

XULOSA: Sud psixolog ekspertining u yoki bu insonlar bilan o'zaro adekvat munosabatga kirisha olishi, xususan, sudga oid psixologik ekspertizalarda yuqori darajada muloqotmandligi, muloqot vaziyatlarini tahlil etuvchanlik, suhbatdoshning xulq-atvori, hatti-harakatlari, ruhiy kechinmalariga

nisbatan adekvat sezuvchanlik va turli xil vaziyatlarga nisbatan muayyan darajada moslashuvchanlik sifatlarining namoyon etilishi bilan xarakterlanadi.

Sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligining namoyon etilishi, har bir sud psixolog ekspertida o'ziga xos tarzda shakllangan kasbiy va kommunikativ kompetentlik kabi omillarga bevosita bog'liqligi ijtimoiy-psixologik kompetentlik, kasbiy faoliyati samaradorligini belgilashga va shaxs barkamolligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: sud psixolog eksperti, ijtimoiy-psixologik kompetentligi, sud psixologik ekspertizasi, kasbiy kompetentlik, kompetentlik, emotsional intellekt, kasbiy faoliyat.

ДЕМОНСТРАЦИЯ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СУДЕБНОГО ПСИХОЛОГА-ЭКСПЕРТА ПО УГОЛОВНЫМ ДЕЛАМ

Ярашов Азизбек Лазизович

Студент Бухарского государственного университета

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В статье представлено теоретическое и практическое исследование особенностей совершенствования социально-психологической компетентности судебного психолога-эксперта по уголовным делам. Рассматриваются вопросы развития социально-психологической компетентности судебного психолога, проявления и развития коммуникативного, эмоционального и личностного компонентов в судебной психологии. В развитии социально-психологической компетентности судебных психологов подчеркивается их связь с судебной системой.

ЦЕЛЬ: Целью оценки социально-психологической компетентности судебного психолога-эксперта по уголовным делам является выявление факторов проявления социально-психологической компетентности в деятельности судебного психолога-эксперта и разработка практических рекомендаций, основанных на их развитии в гармонии с профессиональной компетентностью.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Анализируя научные исследования, направленные на изучение проблемы повышения социально-психологической компетентности судебных психологов в современной психологии, мы уделили особое внимание теоретическому обоснованию многих психологических особенностей, связанных с их профессией, и методологии социально-психологической компетентности. На основе анализа ряда научных работ можно отметить существование различных подходов исследователей к определению социально-психологической компетентности.

Социально-психологическая компетентность судебного психолога-эксперта по уголовным делам – это профессиональная подготовка специалиста по применению психологических знаний и навыков в ходе расследования или судебного разбирательства уголовного дела, уровень социального понимания, а также способность оценивать и анализировать психологическую среду.

Наши наблюдения по изучению социально-психологической компетентности судебного психолога-эксперта и анализ фундаментальной литературы по исследуемой проблеме требуют особого внимания к взглядам учёных, занимающихся проблемами социально-психологической компетентности. Под социально-психологической компетентностью судебного психолога понимается профессиональная деятельность судебного психолога, включающая в себя способность к практической профессиональной деятельности и профессиональному поведению в достаточной степени. При этом социально-психологическая компетентность судебного

психолога может быть оценена, с одной стороны, его профессиональными знаниями и умениями, а с другой – балансом профессиональной позиции и психологических качеств.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Способность судебного психолога иметь адекватные взаимоотношения с тем или иным лицом, в частности, высокий уровень общения при судебно-психологических экспертизах, умение анализировать ситуации общения, адекватная чувствительность к поведению, действиям, психическим переживаниям собеседника и различным ситуациям, характеризующиеся проявлением качеств гибкости на определенном уровне.

Проявление социально-психологической компетентности судебных психологов-экспертов, прямая зависимость от таких факторов, как профессионально-коммуникативная компетентность, которая формируется уникальным образом у каждого судебного психолога-эксперта, служит определению социально-психологической компетентности, эффективности профессиональной деятельности. и обеспечить целостность личности.

Ключевые слова: судебный психолог-эксперт, социально-психологическая компетентность, судебно-психологическая экспертиза, профессиональная компетентность, компетентность, эмоциональный интеллект, профессиональная деятельность.

DEMONSTRATION OF THE SOCIAL-PSYCHOLOGICAL COMPETENCE OF A FORENSIC PSYCHOLOGIST EXPERT IN CRIMINAL CASES

Yarashov Azizbek Lazizovich
Student of Bukhara State University

Annatation.

INTRODUCTION: This article presents a theoretical and practical study of the specific aspects of improving the socio-psychological competence of a forensic psychologist-expert in criminal cases, and studies the development of the socio-psychological competence of a forensic psychologist, the manifestation and development of communicative, emotional and personality components in forensic psychology; In developing the socio-psychological competence of forensic psychologists, their connection with the judicial system is emphasized.

GOAL: The purpose of assessing the socio-psychological competence of a forensic psychologist-expert in criminal cases is to identify the manifestation of socio-psychological competence factors in the activities of a forensic psychologist-expert and to develop practical recommendations based on their development in harmony with professional competence.

MATERIALS AND METHODS: While analyzing scientific research aimed at studying the problem of improving the socio-psychological competence of forensic psychologists in modern psychology, we paid special attention to the theoretical explanation of many psychological features related to their profession and the methodology of socio-psychological competence. Based on the analysis of a number of scientific literatures, we can note the existence of different approaches by researchers to the definition of socio-psychological competence.

The socio-psychological competence of a forensic psychologist-expert in criminal cases is the professional training of a specialist in the application of psychological knowledge and skills in the investigation or trial of a criminal case, the level of social understanding, and the ability to assess and analyze the psychological environment.

Our observations on the study of the socio-psychological competence of a forensic psychologist expert and the analysis of the fundamental literature related to the research problem require special attention to the views of scholars engaged in the problems of socio-psychological competence.

The socio-psychological competence of a forensic psychologist is understood as the professional activity of a forensic psychologist, which includes the ability to carry out practical professional activities and professional behavior to a sufficient degree. At the same time, the socio-psychological competence of a forensic psychologist can be assessed on the one hand by his professional knowledge and skills, and on the other hand, by the balance of professional position and psychological qualities.

CONCLUSION: The ability of a forensic psychologist to have an adequate relationship with one or another person, in particular, a high level of communication in forensic psychological examinations, the ability to analyze communication situations, adequate sensitivity to the interlocutor's behavior, actions, mental experiences and different situations characterized by the manifestation of the qualities of flexibility at a certain level.

The manifestation of socio-psychological competence of forensic psychologist experts, the direct dependence on factors such as professional and communicative competence, which is formed in a unique way in each forensic psychologist expert, serves to determine socio-psychological competence, the effectiveness of professional activity and ensure the integrity of the individual.

Key words: forensic psychologist expert, socio-psychological competence, forensic psychological expertise, professional competence, competence, emotional intelligence, professional activity.

Zamonaviy psixologiyada sud va tergov jarayonida psixolog kompetentligini takomillashtirish mexanizmlariga doir ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilar ekanmiz, ulardagi kasbiy kompetentlik metodologiyasiga aloqador bo'lgan ko'plab psixologik xususiyatlarni nazariy jihatdan izohlashga alohida e'tibor qaratdik. Bir qancha ilmiy adabiyotlarning tahliliga asoslanadigan bo'lsak, psixologning kompetentligini aniqlashga doir tadqiqotchilar tomonidan turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin

Sud psixolog eksperti sifatidagi kasbiy kompetentligi deganda - ularning shunday kasbiy faoliyati nazarda tutiladiki, bunda yetarlicha yuqori darajada amaliy kasbiy faoliyat, kasbiy muomalani amalga oshira olishi nazarda tutiladi. Ayni paytda, psixologning kasbiy kompetentligi uning kasbiy bilim va malakalari, boshqa bir tomondan esa kasbiy pozitsiyasi va psixologik sifatleri mutanosibligi bilan baholanishi mumkin.

Kasbiy va ijtimoiy-psixologik kompetentlikning tuzilishini tashkil etuvchi komponentlar uning rivojlanish bosqichi bilan ham bog'liqligi kuzatiladi. R.Selman tomonidan olib borilgan izlanishlarda mazkur kompetentlikning rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. R.Selmanning kompetentlik konsepsiyasiga ko'ra, «u shaxsning ijtimoiylashuvi bilan bog'lab talqin etilgan. Ushbu nazariy yondashuv J.Piajening operatsional nazariyasi va A.L.Kolbergning axloqiy kamolot nazariyasi bilan bevosita bog'liqdir. Shuningdek, ijtimoiy kompetentlik ko'p o'lchamli, murakkab tuzilishi quyidagi jihatlardan iborat:

1. Kommunikativ – psixologik aloqalar va kommunikativ hamkorlikni ifodalovchi kommunikativ sifatlar integratsiyasi asosida shakllanadigan kompleks xususiyatlar;
2. Shaxs doimo o'zini-o'zi hurmat qilishga, yangi g'oyalarga moyilligi;
3. Ijtimoiy persepsiya, tafakkur, xayol, tasavvur, ijtimoiy hodisalarni, insonlarni va ularning harakatlantiruvchi motivlarini modullashtirish va tushunish qobiliyati;
4. Energetik tavsifi: psixik va jismoniy bardoshlilik, faollik yoki toliqqanlik [234].

Ko'rsatib o'tilgan sifatlar o'ziga xos tarzda namoyon bo'luvchi ijtimoiy-psixologik kompetentlikning muhim belgisi sifatida baholanadi. Sud psixolog ekspertlarida namoyon bo'ladigan kompetentlikning ko'pgina omillarini tahlil qilishda esa, ushbu sifatlarga alohida e'tibor qaratish kerakligidan dalolat beradi.

Bizningcha, kompetentlikning har qanday ko‘rinishining namoyon etilishi va rivojlanishi bevosita shaxsning turli darajadagi ijtimoiy-psixologik omillarining bevosita ta’siri asosida belgilanar ekan. Tabiiyki, sud psixolog eksperti va uning ijtimoiy-psixologik va kasbiy imkoniyatlari kompetentlik istiqboliga xizmat qila oladi, deb baholashimiz mumkin.

Endi bevosita sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligi va emotsional intellekti o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlar tahliliga o‘tamiz.

1-jadval

Besh yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligi bilan emotsional intellekti umumiy ko‘rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog‘lanish natijalari (n=41)

Shklalar	Emotsional intellekt (N.Xoll metodikasi bo‘yicha)				
	Emotsional bilimdonlik	O‘z emotsiyasini boshqarish	O‘zini-o‘zi rag‘batlantirish	Empatiya	O‘zga insonlarning kechinmalarini sezish
Insonlarni tushunish	0,319	0,106	0,281	0,262	0,503*
Vaziyatlarni tushunish	-0,039	0,416	0,143	0,331	0,431
Uddaburonlik	0,090	-0,037	0,236	0,259	0,407
Axloqiy ustanovkalar	0,087	0,562*	0,318	0,371	0,320
Muvaffaqiyatga erishganlik motivatsiyasi	0,291	-0,013	0,290	0,400	0,239
Emotsional barqarorlik	0,207	-0,033	0,303	0,526*	0,269
Imidj	0,368	0,430	0,104	0,266	0,482
Sotsial psixologik kompetentlik	-0,011	0,244	0,455	0,234	0,466
Verbal kompetentlik	0,101	0,125	0,454	0,198	0,487
Operativ ijtimoiy-psixologik kompetentlik	0,561*	0,131	0,060	0,160	0,497
Ego kompetentlik	0,273	0,249	0,512*	0,235	0,228
Kommunikativ kompetentlik	-0,030	0,452	0,249	0,447	0,395
Ishonchlilik	0,068	0,216	0,459	0,446	0,512*
Barqaror insoniy munosabatlar	0,573*	0,291	0,499	0,485	0,432
Shaxslilik kommunikativ imkoniyati	0,078	0,436	0,382	0,141	0,208

Sud psixolog ekspertlarining emotsional intellekti bilan ijtimoiy-psixologik kompetentlik ko‘rsatkichlarining ijobiy shakllanayotganligini belgilovchi bir qancha statistik ahamiyatga ega bo‘lgan alomatlar o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlikda o‘z aksini topgan. Besh yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan sud psixolog ekspertlaridagi bunday ijtimoiy-psixologik imkoniyatning mavjudligi kasbiy faoliyatni to‘g‘ri tashkil qiluvchi omillardan biri sifatida xizmat qiladi. Ular ekspertiza qilinayotganlarning ishga oid ko‘rsatuvlarini (xususan, berayotgan ko‘rsatmalari rostmi, yoki yolg‘onligi, ularning fantaziyaga

berilayotganligi yoki yo'qligi) tinglash va tushunish uchun ortiqcha emotsional kechinmalarga berilish kerak emas, degan xulosaga kelganliklarini anglatadi. Natijada, sud psixolog ekspertlari ekspertiza jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan turli nizoli holatlar va o'zaro ziddiyatlarni bartaraf etish qobiliyatiga ega bo'lishni biladilar.

Besh yilgacha ish stajiga ega bo'lgan sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligi bilan emotsional intellektini o'zaro bog'lovchi jihatlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularda insonlarni tushunish bilan o'zga insonlarning kechinmalarini sezish ($r=0,503$, $p\leq 0,05$), axloqiy ustanovkalar bilan o'z emotsiyasini boshqarish ($r=0, 0,562$, $p\leq 0,05$), emotsional barqarorlik bilan empatiya ($r=0,526$, $p\leq 0,05$), ego kompetentlik bilan o'z-o'zini rag'batlantirish ($r=0,512$, $p\leq 0,05$), barqaror insoniy munosabatlar bilan va emotsional barqarorlik bilan emotsional bilimdonlik ($r=0,573$, $p\leq 0,05$) o'rtasida kuzatildi ($r=0,457$, $p\leq 0,05$). Qolgan ko'rsatkichlar o'rtasida korrelyatsion ko'rsatkichlar biroz past bo'lganligi esa sud psixolog ekspertlari kasbiy faoliyati davomida o'z hatti-harakatlarini nazorat qilish, ish faoliyatini tartibga solish va uni ro'yobga chiqarish ustida jiddiy ishlashlari amalga oshirish zarurati borligidan dalolat beradi.

Besh yilgacha ish stajiga ega bo'lgan sud psixolog ekspertlari faoliyat jarayonida boshqa shkalalar bo'yicha ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish orqali ekspertiza o'tkazilayotganlarning ichki kechinmalari, ularning his-tuyg'ulari, bergan ko'rsatuvlarini, shuningdek, o'zi bilan sodir bo'lgan hodisa yoki holat ularning keyingi ruhiy holatidagi ta'siri (iz, asorat)ni adekvat baholashga va sud psixologik ekspertizasi xulosasini tegishli tartibda rasmiylashtirishda samaradorlikka erishish mumkinligidan dalolat beradi.

2-jadval

Besh yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligi bilan emotsional intellekt umumiy ko'rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog'lanish natijalari ($n=61$)

Shklalar	Emotsionla intellekt (N.Xoll metodikasi bo'yicha)				
	Emotsional bilimdonlik	O'z emotsiyasini boshqarish	O'zini-o'zi rag'batlantirish	Empatiya	O'zga insonlarning kechinmalarini sezish
Insonlarni tushunish	0,331	0,304	0,486	0,267	0,701**
Vaziyatlarni tushunish	-0,033	0,659**	0,123	0,329	0,421
Uddaburonlik	0,087	0,141	0,226	0,241	0,478
Axloqiy ustanovkalar	0,741**	0,276	0,083	0,236	0,195
Muvaffaqiyatga erishganlik motivatsiyasi	0,312	-0,019	0,498	0,398	0,239
Emotsional barqarorlik	0,196	-0,031	0,308	0,454	0,351
Imidj	0,313	0,353	0,109	0,452	0,398
Sotsial psixologik kompetentlik	0,017	0,446	0,236	0,713**	0,219
Verbal kompetentlik	0,122	0,482	0,431	0,227	0,193
Operativ ijtimoiy-psixologik kompetentlik	0,741**	0,103	0,060	0,149	0,491
Ego kompetentlik	0,313	0,321	0,314	0,228	0,223
Kommunikativ kompetentlik	-0,029	0,232	0,738*	0,405	0,389
Ishonchlilik	0,062	0,435	0,423	0,412	0,278

Barqaror insoniy munosabatlar	0,241	0,776**	0,453	0,474	0,687*
Shaxslilik kommunikativ imkoniyati	0,063	0,485	0,763**	0,193	0,309

* $p \leq 0,05$, ** $p \leq 0,01$

Navbatdagi tahlil esa besh yildan ortiq ish stajiga ega sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligi bilan emotsional intellekti o'rtasidagi bog'liqliklarga qaratilgan.

Besh yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan sud psixolog ekspertlari ko'rsatkichlarida ham emotsional intellekt bilan ijtimoiy-psixologik kompetentlik o'rtasida yuqori korrelyatsion bog'liqlikni ifodalovchi koeffitsientlar kuzatilganligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa besh yildan ortiq ish stajiga ega sud psixolog kasbiy faoliyatini tashkil etishda shaxsiy tajriba va tasavvurlariga yaqqol tayanishlarini ko'rsatmoqda.

Tajriba-sinov natijalarida kuzatilishicha, besh yildan ortiq ish stajiga ega sud psixolog ekspertlari emotsional intellekti ijtimoiy-psixologik kompetentlikning insonlarni tushunish o'ziga insonlarning kechinmalarini sezish bilan ($r=0,701$, $p \leq 0,05$), vaziyatlarni tushunish o'z emotsiyasini boshqarish bilan ($r=0,659$, $p \leq 0,05$); axloqiy ustanovkalar emotsional bilimdonlik bilan ($r=0,741$, $p \leq 0,05$), sotsial psixologik kompetentlik empatiya bilan ($r=0,713$, $p \leq 0,05$), barqaror insoniy munosabatlar o'z emotsiyasini boshqarish bilan ($r=0,776$, $p \leq 0,05$) va shaxslilik kommunikativ imkoniyati o'z-o'zini rag'batlantirish bilan muvofiqlikda ($r=0,763$, $p \leq 0,05$) rivojlanishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Korrelyatsion munosabatlardan, besh yildan ortiq ish stajiga ega sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik vaziyatlarni oqilona baholash, sud psixolog ekspertining o'zining statusiga ega bo'lishi muhim ekanligini anglaganliklarini ifodalamoqda, deyish mumkin.

Quyida sud psixolog-eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligining o'ziga xos jihatlari keltirilgan:

1. Kasbiy psixologik bilimlar

Sud ekspertining asosiy tayanchi bu:

shaxs psixologiyasi (shu jumladan jinoyatchi shaxsini o'rganish),
voyaga yetmaganlarning psixologiyasi,
stress holatlari, travmatik holat va yolg'onni aniqlash usullari.

2. Ijtimoiy kontekstni tushunish

Ekspert:

jinoyatga olib kelgan ijtimoiy-psixologik omillarni baholaydi,

shaxsning ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqasini tahlil qiladi (oil, atrof-muhit, do'stlar, ijtimoiy

rol),

ijtimoiy moslashuv darajasini aniqlaydi.

3. Muloqot kompetentligi

Sud psixolog-eksperti quyidagilarga ega bo'lishi kerak:

turli yoshdagi va ruhiy holatdagi shaxslar bilan samarali muloqot qilish,
noverbal signallarni tushunish va talqin qilish,
so'roq vaqtida psixologik bosimni kamaytirish,
ishonchli atmosferani yaratish.

4. Etik prinsiplar va xolislik

Ekspert xolis, siyosiy yoki shaxsiy manfaatlardan holi, maxfiylikni saqlovchi bo'lishi lozim.

Tergov va sud organlari topshirig'ini bajarishda psixologik faktlarni buzmaslik shart.

5. Tahliliy va diagnostik ko'nikmalar

Ekspert:

psixologik testlar (MMPI, Luscher, Rorschach va b.q.) bilan ishlash,

kuzatuv, suhbat va eksperimental metodlardan foydalanish orqali shaxsning ichki holatini aniqlash,

ruhiy salomatlik, agressivlik darajasi, yolg'on gapirishga moyillikni tahlil qiladi.

6. Sud tizimi bilan integratsiya qobiliyati

Ekspert huquqiy normalarni bilishi kerak, o'z xulosalarini huquqiy jihatdan asoslab bera olishi, sud yoki tergovchi oldida aniq, tushunarli va asosli fikr bildira olishi kerak.

Demak, yuqoridagilarga asoslanib shuni aytish mumkinki, sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligiga tayanch kompetensiyalarini faoliyat jarayonida shakllantirilishi kognitiv, emotsional, xulqiy omillarni o'zaro mutanosib ravishda rivojlanishi faoliyat samadorligini ta'minlashda individual va differensial farqlarga bog'liqligi haqidagi g'oyalarimiz o'z tasdig'ini topdi. Bu borada ijtimoiy-psixologik kompetentlik, eng avvalo, kasbiy faoliyat samaradorligini belgilashga va shaxs barkamolligini ta'minlashga xizmat qilishi aniq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.
2. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.
3. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o'quv qo'llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
4. Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. Xulqi o'g'ishgan bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. "Tafakkur avlodi" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.
5. Olimov L.Ya., Bahronova M.O'. O'smirlar ma'naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 407-413 p.
6. Olimov L.Ya., M.B.Rasulova. O'smir shaxsi shakllanishida ahloqiy normalarning ijtimoiypsixologik ahamiyati. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 675-683 p.
7. Olimov L.Ya. Sotsialno-psixologicheskiy podxod k issledovaniyu konfliktov. Vestnik integrativnoy psixologii.(jurnal dlya psixologov). 2019 god, Vipusk 19. 379-381 st.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Yarashov Azizbek Lazizovich

Buxoro davlat universiteti Psixologiya ta'lim yo'nalishi talabasi

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

azizbekyarasev@mail.ru

ORCID: 0000-0001-9437-9741

SCOPUS ID 57215004089

OILAVIY MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA OTA-ONALAR VA JAMOATCHILIK FAOLIYATINI BOSHQARISH

Normirzayeva Muhayyo Olimovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu tadqiqot "Oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotida ota-onalar va jamoatchilik faoliyatini boshqarish" mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, ota-onalar va jamoatchilikning ta'lim jarayonidagi ishtirokini kuchaytirish, tarbiyalanuvchilarning rivojlanishiga ta'sirini ko'rsatishga qaratilgan. Maktabgacha ta'lim muassasalari nafaqat bolalarning tarbiyasi, balki ota-onalar bilan birgalikda jamoatchilikning faol qatnashishi uchun ham muhim platforma hisoblanadi. Tadqiqotda ota-onalarning ta'lim jarayoniga jalb etilishi, ularning tajribalarini va qobiliyatlarini samarali boshqarishning usullari va metodlari o'rganiladi.

MAQSAD: Oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotida ota-onalar va jamoatchilik faoliyatini boshqarishni ilmiy tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: Tarbiyachining tushunishicha, barcha oila o'z farzandlari borasida orzulari bor va ular uchun eng yaxshisini istashadi, shu bois ular bilan kuchli hamkorlik aloqalarini o'rnatish juda muhimdir. Biz bolalardan ularning orzulari haqida so'rashganimizda, ularning oilasi bilan aloqa o'rnatishga ehtiyoj tug'iladi. Agar pedagog tarbiyalanuvchining oilasini ularning tarbiyachisi sifatida qo'llab-quvvatlasa va o'z farzandlariga ular uchun muhim bo'lgan yo'llarni topishda yordam berayotganimizni his qilsalar, ota-onalar bizga ko'proq ishonishadi. Hamkorlik bir maqsadga erishish uchun ikki yoki undan ko'p kishining kelishilgan ishi bilan tavsiflanadi.

XULOSA: Maktabgacha ta'lim muassasalari bolalarning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishida asosiy platforma bo'lib, ota-onalar va jamoatchilikning faol ishtiroki ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ota-onalarning ta'lim jarayoniga jalb etilishi, ularning tarbiyaviy faoliyatiga qo'shgan hissalar bolalarning o'zligini anglashlariga va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, jamoatchilik bilan o'zaro aloqalar, ularning ta'lim jarayonidagi ishtiroki bolalar uchun muhim ta'sir ko'rsatadi, ta'lim muassasalarining rivojlanishiga hissa qo'shadi. Olingan natijalar oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar va jamoatchilik faoliyatini samarali boshqarishning imkoniyatlarini kengaytirishga, shu bilan birga, bolalarning sog'lom va muvozanatli rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: oilaviy maktabgacha ta'lim, ota-onalar faolligi, jamoatchilik, ta'lim jarayoni, faoliyatni boshqarish, pedagogik hamkorlik, tarbiyalanuvchilar rivojlanishi, jamiyat va ta'lim, oila va maktab, ta'lim muassasalari, jamoaviy yondashuv, ota-onalar bilan ishlash, ta'lim samaradorligi, tarbiyaviy strategiyalar, innovatsion metodlar.

УПРАВЛЕНИЕ РОДИТЕЛЬСКОЙ И ОБЩЕСТВЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ В СЕМЕЙНОЙ ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ

Нормирзаева Мухайё Олимовна

Старший преподаватель Института переподготовки и повышения квалификации руководителей и специалистов дошкольных образовательных организаций

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: Данное исследование посвящено теме «Управление деятельностью родителей и общественности в семейной дошкольной образовательной организации» и направлено на усиление участия родителей и общественности в образовательном процессе, показ

их влияния на развитие воспитанников. Дошкольные образовательные учреждения являются важной площадкой не только для воспитания детей, но и для активного участия общественности совместно с родителями. В исследовании изучаются методы и приемы вовлечения родителей в образовательный процесс, эффективного управления их опытом и способностями.

ЦЕЛЬ: Научный анализ управления деятельностью родителей и общественности в семейной дошкольной образовательной организации.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Воспитатель понимает, что каждая семья мечтает о своих детях и желает им лучшего, поэтому очень важно установить с ними прочные отношения сотрудничества. Когда мы спрашиваем детей об их мечтах, необходимо установить контакт с их семьей. Родители доверяют нам больше, если воспитатель поддерживает семью ребёнка как своего воспитателя и чувствует, что мы помогаем его ребёнку найти важные для него пути. Сотрудничество характеризуется скоординированной работой двух или более человек для достижения общей цели.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Дошкольные учреждения являются основной площадкой для интеллектуального, эмоционального и социального развития детей, а активное участие родителей и местного сообщества способствует повышению эффективности образовательного процесса. Вовлечённость родителей в образовательный процесс, их вклад в образовательную деятельность помогают детям развивать самосознание и социальные навыки. Кроме того, взаимодействие с местным сообществом, их участие в образовательном процессе оказывают существенное влияние на детей, способствуют развитию образовательных учреждений. Полученные результаты будут способствовать расширению возможностей эффективного управления родительской и общественной деятельностью в семейных дошкольных образовательных организациях, создавая необходимые условия для здорового и гармоничного развития детей.

Ключевые слова: семейное дошкольное образование, родительская активность, сообщество, образовательный процесс, управление деятельностью, педагогическое сотрудничество, развитие воспитанников, общество и образование, семья и школа, образовательные учреждения, командный подход, работа с родителями, эффективность образования, образовательные стратегии, инновационные методы.

MANAGEMENT OF PARENTAL AND COMMUNITY ACTIVITIES IN A FAMILY PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION

Normirzayeva Muhayyo Olimovna

Senior teacher of the Institute for retraining and advanced training of directors and specialists of preschool educational organizations

Annatation.

INTRODUCTION: This study is devoted to the topic "Managing the activities of parents and the public in a family preschool educational organization" and is aimed at strengthening the participation of parents and the public in the educational process, showing their impact on the development of students. Preschool educational institutions are an important platform not only for the upbringing of children, but also for the active participation of the public together with parents. The study studies the methods and techniques for involving parents in the educational process, effectively managing their experiences and abilities.

THE GOAL: Scientific analysis of the management of the activities of parents and the public in a family preschool educational organization

MATERIALS AND METHODS: The educator understands that every family has dreams for their children and wants the best for them, therefore it is very important to establish strong cooperative

relations with them. When we ask children about their dreams, there is a need to establish contact with their family. Parents trust us more if the teacher supports the family of the child as their caregiver and feels that we are helping their child find ways that are important to them. Collaboration is characterized by the coordinated work of two or more people to achieve a common goal.

CONCLUSION: Preschool institutions are the main platform for the intellectual, emotional and social development of children, and the active participation of parents and the community serves to increase the effectiveness of the educational process. The involvement of parents in the educational process, their contribution to educational activities helps children to develop their self-awareness and social skills. Also, interaction with the community, their participation in the educational process has a significant impact on children, contributes to the development of educational institutions. The results obtained will serve to expand the possibilities of effective management of parental and community activities in family preschool educational organizations, while creating the necessary conditions for the healthy and balanced development of children.

Keywords: family preschool education, parental activity, community, educational process, activity management, pedagogical cooperation, development of pupils, society and education, family and school, educational institutions, team approach, work with parents, educational effectiveness, educational strategies, innovative methods.

Ma'lumki, ota-onalar ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, ularning faol ishtiroki bolalarning psixologik va emotsional rivojlanishini kuchaytiradi. Shuningdek, jamoatchilikning maktabgacha ta'lim tizimidagi roli va ta'siri, jamoaviy yondashuv orqali umumiy maqsadlarga erishish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Ushbu tadqiqot natijalari, oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar va jamoatchilik faoliyatini boshqarish bo'yicha yangi yondashuvlar ishlab chiqishga yordam beradi hamda ta'lim jarayonini yanada samarali fahr qiluvchi va qiziqarli qilish uchun zaruriy tavsiyalarni taqdim etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari oila va ota-onalarning rolini to'ldirishlari, ular bilan hamkorlikda ta'lim xizmatlarini rivojlantirishlari kerak. Ota-onalar va boshqa oila a'zolari o'z farzandlarini juda yaxshi bilishganligi sa-babli, tarbiyachilar ular bilan muloqotda bo'lishlari va ular bilan farzandi uchun eng yaxshisini muhokama qilishlari kerak. Ota-ona va oila o'z farzandlari-ga, umuman, boshqa bolalarga nisbatan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'lum qarorlarni qabul qilish jarayonlariga qo'shilishi kerak. Oila o'z farzandi uchun o'quv maqsadlarini belgilashda va ularning rivojlanishi va o'qishini baholashda ishtirok etishlari lozim. Oilalar farzandlari uchun eng yaxshisini xohlashadi.

Tarbiyachining tushunishicha, barcha oila o'z farzandlari borasida orzulari bor va ular uchun eng yaxshisini istashadi, shu bois ular bilan kuchli hamkorlik aloqalarini o'rnatish juda muhimdir. Biz bolalardan ularning orzulari haqida so'rashganimizda, ularning oilasi bilan aloqa o'rnatishga ehtiyoj tug'iladi. Agar pedagog tarbiyalanuvchining oilasini ularning tarbiyachisi sifatida qo'llab-quvvatlasa va o'z farzandlariga ular uchun muhim bo'lgan yo'llarni topishda yordam berayotganimizni his qilsalar, ota-onalar bizga ko'proq ishonishadi. Hamkorlik bir maqsadga erishish uchun ikki yoki undan ko'p kishining kelishilgan ishi bilan tavsiflanadi.

Oilalar va jamoalar vakolatli Ikkala hamkor tomon bir-birini hurmat qilganda va ikkinchisining hissasini baham ko'rish va qadrlash imkoniyatiga ega bo'lganda, kuchli hamkorlik vujudga kela-di. Hamkorlik teng bo'lishi uchun biz sheriklarimiz – farzandlarimiz oilalari va ular yashaydigan mahalliy jamoatchilikni teng vakolatli organ deb hisoblashimiz kerak. Ba'zida ayrim ota-onalarga yaxshi ota-onalar bo'lishga o'rgatishimiz kerak deb o'ylashimizga to'g'ri keladi. Bu ularni chetga surib qo'yishi va bizni ota-onalarning hissasidan mahrum qilishi mumkin.

Bolalarni barkamol tarbiyalashga ularning ota-onalari va jamoatchilikning ta'lim jarayonida faol ishtirokisiz erishib bo'lmaydi, ota-onalarning MTT ning oila bilan hamkorligi borasidagi qarashlari turlicha bo'lganligi bois MTT sharoitlaridan ota-onalarning qoniqish jihatlari o'zgarib bormoqda. Ba'zi

